

A. SOLIYEV, R. QURBONNIYOZOV

O'ZBEKISTON IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi 8- sinf
o'quvchilari uchun darslik sifatida tavsiya etgan*



TOSHKENT „O'QITUVCHI“ 2004

65.04 (54) 9721

Mas'ul muharrir

geografiya fanlari doktori.

professor **Z. M. Akramov.**

Taqrizchilar:

iqtisod fanlari doktori,

professor **E. A. Ahmedov.**

Maxsus muharrir

geografiya fanlari nomzodlari:

dotsent **I. Safarov,**

dotsent **Sh. Azimov.**

Maxsus muharrir

geografiya fanlari nomzodi,

dotsent **A. Egamberdiyev.**

Xaritalar geografiya fanlari nomzodi,
dotsent **A. Egamberdiyev** tahriri ostida berildi.


Ushbu nashrga doir barcha huquqlar muhofaza qilinadi va nashriyotga tegishlidir.
Undagi matn, rasm va statistik ma'lumotlarni nashriyot roziligidisiz to'liq yoki qisman
ko'chirib bosish taqiqlanadi.

TO 30366
491

S **4306021000—68**
353(04)—2004 Qat'ly buyurtma

ISBN 5—645—0400—7

© „O'qituvchi“ nashriyoti, 2004-y.





SO'ZBOSHI

Aziz o'quvchilar! Siz oldingi sinflarda Yer yuzi va jonajon O'zbekiston tabiatining geografik xususiyatlari bilan tanishdingiz. Endi esa ana shu tabiiy sharoit va boyliklardan qanday foydalanish, turli hududlarda inson tomonidan yaratilgan ishlab chiqarish hamda ijtimoiy korxonalarining joylanishini o'rganasiz. Bu bilan iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani shug'ullanadi.

Mazkur fan mohiyatini anglash uncha qiyin emas. Zero, kundalik hayotimizda uchrab turadigan tushunchalar, masalan, Toshkent traktor zavodi, Marg'ilon ipak kombinati, Ko'kdumaloq neft koni, Buxoro qorako'lchiligi, Xorazm „Lazgi“ ansamblı, O'zbekiston Milliy universiteti kabi iboralarda iqtisodiy yoki ijtimoiy obyektning ayni vaqtida qayerda joylashganligi o'z ifodasini topgan. Biroq, ijtimoiy va iqtisodiy geografiya fani faqatgina u yoki bu obyektning **qayerda joylashganligini** emas, balki **nima uchun aynan shu yerda joylashganligi**, uning omil, xususiyat va qonuniyatlarini o'rgatadi. Binobarin, ushbu fanda doimo hududiy fikrlash, turli-tuman xo'jalik korxonalarining o'zaro joylashuvi, ularning hududiy-iqtisodiy aloqadorligi va munosabatlarini o'rganish talab etiladi. Buning uchun esa unga kompleks va tizimli yondashuv katta ahamiyatga egadir.

Qo'lingizdag'i darslikning shu yo'nalishdagi boshqa darsliklardan farqi shundaki, birinchidan, unda, Siz bevosita O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'rganishga kirishishdan avval mazkur fanning obyekti va predmeti, uning umumiy tushuncha va qonuniyatlarini bilan tanishib olasiz. Bu esa keyinchalik kitobdagi mavzularni o'rganishni osonlashtiradi.

Ikkinchidan, mazkur darslikda O'zbekiston Respublikasi avvalgidek, sobiq Ittifoq davridagi 8 ta iqtisodiy rayon o'miga 6 ta asosiy iqtisodiy rayonlarga ajratilgan. Mamlakatimiz iqtisodiyotining hududiy tarkibiga aynan ana shunday qarash geografik mehnat taqsimoti va yo'l (transport) mustaqilligi hamda davlatning maxsus mintaqaviy siyosatni amalga oshirishi bilan belgilanadi. Alovida viloyatlar esa ko'p bosqichli iqtisodiy rayonlashtirish tizimida ma'muriy-iqtisodiy rayonlar hisoblanadi. Ularni o'rganishga darslikda katta e'tibor beriladi.

Shuningdek, darslikda ijtimoiy masalalarga ham mumkin qadar o'rinni berilgan, barcha mavzular O'zbekiston Respublikasining siyosiy mustaqilligi, uning milliy iqtisodiyoti bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishidan kelib chiqqan holda bayon etilgan.

Hozirgi iqtisodiy geografiya aholining turmush tarzi, ish faoliyati, dam olishi, ijtimoiy hayoti (maishiy xizmatdan foydalanishi)ni ham o'rganishga muhim ahamiyat beradi.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi faqatgina ishlab chiqarish sohasidagina emas, balki ijtimoiy hayotda, fan va boshqa sohalarda ham chuqur o'zgarishlarga olib keldi.

Yangi sharoitdagi bunday o'zgarishlar, o'z navbatida iqtisodiy geografiyaning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi.

Bozor munosabatlari davrida bu fan o'zining tom ma'nodagi mohiyatiga erishadi. Chunki bunday sharoit barchadan iqtisodiy fikrlashni, samaradorlikni taqozo etadi.

Darslik uch qismdan iborat. Uning birinchi qismida iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining predmeti, vazifasi va tushunchalari, O'zbekiston Respublikasining geografik o'rni, tabiiy sharoiti va boyliklari, aholisi to'g'risida ma'lumot beriladi. Bu ma'lumotlar darslikning keyingi qismlarini o'zlashtirishga zamin yasaydi.

Ikkinci qism O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotining tarmoqlari ta'rifiga bag'ishlangan bo'lib, unda Siz mamlakatimiz sanoati, qishloq xo'jaligi, transporti, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari kabi tarmoqlar geografiyasini o'rganasiz.

Yakunlovchi, uchinchi qismda bevosita iqtisodiy rayonlarni o'rganishga o'tiladi. 6 ta iqtisodiy rayon doirasida berilgan matn asosan viloyatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga qaratilgan.

Darslikni yaratishdan asosiy maqsad o'quvchilarga dunyo maydonida mustaqil davlat sifatida shakllanayotgan mamlakatimiz iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga doir chuqur bilim berish, o'quvchilarni mustaqil bilim olishga va uni amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llashga o'r-gatishdan iboratdir.

Darslik bilan unga mo'ljallab ishlangan xaritalardan foydalangan holda ishlash o'quv mashg'uloti samaradorligini yana ham oshiradi.

Darslikdagi mavzularni o'zlashtirishingizda unda keltirilgan chizma, jadval va boshqa qo'shimcha ma'lumotlar yordam beradi.

Birinchi qism

IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYANING ASOSLARI.O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING GEOGRAFIK O'RNI, TABIIY RESURSLARI VA AHOLISI



Mavzu. IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYA FANINING PREDMETI VA TUSHUNCHALARI

1- §. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning predmeti

Iqtisodiy geografiya quyidagi masalalarini o'rGANADI:

- ishlab chiqarishni joylashtirishning nazariy va amaliy yo'nalishlarini;
- ishlab chiqarishni joylashtirishda bozor iqtisodiyoti munosabatlariiga amal qilishni;
- xo'jalikni ijtimoiy tashkil etish va joylashtirishning shakllarini (ixtisoslashish, mujassamlashuv, kooperatsiya, kombinatlashuv), hududiy ishlab chiqarish majmualari va iqtisodiy rayonlashtirish masalalarini;
- turli hududlarda mehnat unumdarligi, mahsulot tannarxining xilmillik sabablarini;
- ishlab chiqarishning xomashyoga, yoqilg'i-energetika resurslari va iste'molchiga nisbatan joylashuvini;

- turli mamlakatlar, regionlar bilan iqtisodiy hamkorlik qilish masalalarini;
- qo'shma korxonalar faoliyati, firmalar, investitsiyalar, erkin iqtisodiy mintaqalarni;
- har xil mulkchilik shakllari va ularning joylashuvini;
- ishlab chiqarish bilan atrof-muhit, inson va tabiat, tabiat bilan jamiyat o'rtafiga munosabatlar, geoekologik muammolarni;
- aholi va maishiy xizmat masalalari, ijtimoiy hayotning hududiy tashkil qilinganligi;
- jahonning siyosiy xaritasi, turli mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishining hududiy jihatlari va hokazolarni.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya turli mamlakat va rayonlarda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish va joylanish xususiyatlarini hamda inson hayot faoliyati va yashash tarzini hududiy, iqtisodiy, ijtimoiy tizimlar doirasida o'rGANADI.

Mazkur fanning asosiy vazifalari mamlakatimizning siyosiy mustaqilligi va uning iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi bilan belgilanadi. Shuningdek, bu fan o'z yurtimizni bilih olishga, uning ichki xususiyatlarini chuqur o'rGANISHGA xizmat qilishi kerak.



Savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani nimalarni o'rgatadi?
2. Ijtimoiy geografiyaga oid sohalar haqida so'zlab bering.
3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

2- §. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tamoyil va tushunchalari

Har bir fan o'z tadqiqot predmeti, metodologiyasi, uslubi va tamoyillariga ega bo'ladi. Aks holda u mustaqil fan bo'la olmaydi. Xo'sh, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya tamoyillari nimalardan iborat bo'lishi mumkin?

Bular quyidagilar:

1. Hududiylik tamoyili. Geografiyani hududiy munosabatlarsiz, makon tushunchasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har qanday ishlab chiqarish xoh sanoat, xoh qishloq xo'jaligi tarmoqlaridan tortib, aholi joylashishigacha bo'lgan barcha jarayonlar bevosita hudud bilan bog'liq.

2. Komplekslik tamoyili o'rGANILAYOTGAN obyektga keng qamrovli yondashuvni, uni aloqadorlikda qurishni taqozo etadi.

3. Tarixiylik tamoyili. Har qanday hodisa ma'lum bir vaqtida va muayyan bir joyda sodir bo'ladi. O'tmishni o'rGANISH ORQALIGINA hozirgi ahvolni baholash mumkin. Bu esa kelajakni ilmiy bashorat etishga yo'l ochadi.

4. Ekologik yondashuv tamoyili. Barcha voqeja va hodisalar o'zarobog'liq holda, tashqi muhit bilan hududiy munosabatda qarab chiqiladi. Ekologiya o'zining tub mohiyatiga ko'ra organizmlarning ichki va tashqi muhit bilan aloqadorligini anglatadi.

5. Demotsentrizm tamoyili. Inson barcha moddiy va ma'naviy boyliklarning yaratuvchisi va iste'molchisi hisoblanadi. Binobarin, barcha hodisa va voqealar eng avvalo inson („demog“ — aholi, odam) nuqtayi nazaridan o'tkazilishi kerak. Buyuk rus geografi N.N. Baranskiy insonsiz geografiyanini inkor qilib kelgan. Zero, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining markazida inson turadi.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda, ITT va boshqalarda inson omili, uning talab va ehtiyoji, dunyoqarashi muhim o'rinni tutadi.

Yuqorida tilga olingan hududiylik, komplekslik, tarixiylik, ekologik, demotsentrizm tamoyillari alohida-alohida emas, balki birgalikda kuchli va ta'sirchan bo'ladi. **Bu tamoyillar ushbu fanni ijtimoiylashtirish, iqtisodiy-lashtirish kabi yo'nalishlarda amaliyatga tatbiq etilishiga yordam beradi.**

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning 4 ta asosiy tushunchasi bor. Ular:

Hududiy mehnat taqsimoti — ma'lum bir joyning (mamlakat, mintaqasi va h.k.) mavjud tabiiy sharoiti va boyliklari, aholi va mehnat resurslari, geografik o'rni hamda bozor ehtiyojlardan kelib chiqqan holda muayyan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi.

Iqtisodiy rayonlashtirish hududiy mehnat taqsimotining natijasi bo'lib, ular mamlakat xo'jaligining ichki tarkibini anglatadi.

Hududiy ishlab chiqarish majmuvalari — ishlab chiqarish korxonalarining bir joyda o'zaro aloqadorlikda rivojlanib borishi (masalan, paxtachilik, paxta tozalash va yog' zavodi, chorva fermasining ma'lum hududda joylashuvi).

Iqtisodiy-geografik o'rnni — mamlakat, shahar, viloyat yoki boshqa hududning o'zidan tashqarida yotgan geografik obyektlarga nisbatan joylashuvi. Bular tabiiy geografiya, iqtisodiyot, tarix, biologiya, geologiya, sotsiologiya, demografiya, shaharsozlik, tibbiyot va boshqalardir.



Savol va topshiriqlar

1. Hududiy va komplekslik deganda nimani tushunasiz?
2. Ushbu fanning qanday tamoyillarini bilishingiz haqida so'zlab bering.
3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tushunchalarini misollar yordamida tushuntirib bering.




Mavzu. GEOGRAFIK JOYLANISH HAQIDA TUSHUNCHA


3- §. O'zbekiston dunyo xaritasida

Tabiiy geografiya kurslaridan geografik joylanish (o'rinni) tushunchasi bilan tanishsiz. Xo'sh, tabiiy-geografik o'rinni deganda nimani tushunasiz? Har qanday geografik adabiyotlarda u yoki bu mamlakat, rayon va shaharlarning geografik o'rni haqida dastlabki ma'lumot beriladi. **Iqtisodiy geografiyada o'rinni deganda nafaqat tabiiy-geografik obyektlarga nishbatan**

O'ZBEKISTON DINYO XARITASIDA



SIYOSIY-MA'MURIY XARITA





O'zbekiston chegaralari qudratli qo'llarda.

(tog'lar, daryolar, dengizlar va hokazolar), balki iqtisodiy ahamiyat kasb etgan, inson qo'li bilan bunyod etilgan obyektlarga nisbatan bo'lgan holat ham e'tiborga olinadi.

Iqtisodiy-geografik o'rinni siyosiy-geografik mavqeyi jihatdan tabiiy-geografik o'ringa nisbatan tarixan o'zgaruvchan bo'ladi. Bir vaqtlar qulay bo'lgan holat keyinchalik noqulay yoki aksincha bo'lishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan yondashganda o'lkamizning qadimgi iqtisodiy va siyosiy-geografik o'rni o'ziga xos bo'lgan. O'sha davrlardagi xalqaro savdo yo'li hisoblangan Buyuk ipak yo'li bizning o'lkamiz hududidan o'tgan.

Hozirgi davrda u yoki bu davlatning iqtisodiy rivojlanishi bevosita suv transporti bilan bog'liq, chunki dengiz yoki okeanlarda yuk tashish boshqa transport vositalariga nisbatan ancha arzon va qulay.

Shu jihatdan olganda, O'zbekistonning geografik o'rni ancha noqulay. O'zbekiston rahbariyati jahon bozoriga chiqish uchun yangi yo'llar va „darvozalar“ ochish asoslarini qidirmoqda. Jumladan, yaqin kelajakda Afg'oniston orqali Hind okeaniga, Eron orqali Fors qo'llitig'iga, Qirg'iziston orqali Xitoyga chiqish imkoniyatlari ham vujudga kelmoqda.

O'zbekistonning iqtisodiy-geografik o'rni mustaqillik yillarda birmuncha o'zgardi. Mamlakatimizda avtomobil va temiryo'llarining qurilishi davlatlararo iqtisodiy aloqalarni tubdan o'zgarishiga olib keldi. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakat iqtisodiy-geografik o'mida uning chegara chiziqlari ham muhim omillardan biridir. Bunda chegara chiziqlarining sodda va murakkabligi alohida o'rinni tutadi.

Misol. Respublikamizning ba'zi bir qismlari qo'shni mamlakat hududiga kirib borgan yoki uning batamom ichkarisida joylashgan (Farg'ona viloyatining So'x va Farg'ona tumani, xaritaga qarang). Bunday holat mazkur hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, davlatning iqtisodiy va siyosiy-geografik o'rni, uning maydoni, chegaralari, ma'muriy-hududiy tuzilishi uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston jahondagi 220 dan ortiq katta-kichik mamlakatlar qatori teng huquqli, mustaqil davlat. Serquyosh mamlakatimiz Turkiston o'lkasining bir qismi bo'lib, chor Rossiyasi tomonidan bosib olingunga qadar, 3 ta Buxoro amirligi, Xeva va Qo'qon xonliklaridan iborat bo'lgan hududlarni tashkil qilar edi.

O'zbekiston qadimdan fan va madaniyat yuksak darajada rivojlangan, uzoq tarixga ega bo'lgan mamlakatdir. Biroq mustamlakalik yillarda milliy urf-odatlar, milliy madaniyat toptaldi. Xalq xo'jaligi bir yoqlama rivojlandi. Yer osti va usti boyliklari ko'plab qazib olindi. Qishloq xo'jaligida paxta yakka hokimligi qaror topdi. Geografik muhitga iflos moddalarini ko'p chiqaradigan korxonalar buniyod etildi. Daryolarimiz suvidan nooqilona foydalanish, yerlarga haddan tashqari ko'p o'g'itlar va zaharli kimyoiy moddalar solinib, ko'pgina hududlarda ekologik tang ahvol paydo bo'ldi, o'n minglab kishilar turli xil kasallikkarga mutbalo bo'ldi.

O'zbekistonning yer maydoni 448,9 ming kv.km, u g'arbdan sharqqa 1400 km, shimoldan janubga 925 km ga cho'zilgan.

Respublika davlat chegaralarining umumiy uzunligi 6221 km bo'lib, shundan Qozog'iston bilan 2203 km, Turkmaniston bilan 1721 km, Qirg'iziston bilan 1099 km, Tojikiston bilan 1161 km va Afg'oniston bilan 137 km masofada chegaradosh. (Respublika chegaralarini xaritadan toping va ularning qanday hududlardan o'tganligini aytib bering.)

O'zbekistonning bunday qiyofasi, geografik xususiyatlari uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotini hududiy tashkil etishda ma'lum ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil (suveren) davlat sifatida 1991- yil 1- sentabrda tashkil topgan. Poytaxti— Toshkent shahri. Ma'muriy-hududiy jihatdan u Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat (Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarcand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Xorazm, Qashqadaryo) hamda Toshkent shahridan iborat.

O'zbekiston siyosiy tuzumiga ko'ra prezidentlik respublikasi hisoblanadi (viloyatlarni xaritadan toping va daftaringizga yozib oling).



Savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy-geografik o'rinni nima?
2. O'zbekiston Respublikasining jahon siyosiy xaritasidagi o'rnini ta'riflab bering.
3. Mamlakatimizning jahon okeanlariga chiqishidagi asosiy yo'llarni xaritadan toping va bu yo'llarning qaysi mamlakatlar orqali o'tishini aytинг.
4. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning vazifalari nimalardan iborat? Gapirib bering.
5. Nima sababdan bozor munosabatlarga o'tishda bu fanning mavqeyi oshib boradi?



4- §. Tabiiy boyliklarining umumiy tavsifi

Tabiiy geografiya predmetini o'rganganingizda „tabiiy sharoit“ tushunchasi bilan tanishgansiz. Tabiat va tabiiy sharoit haqidagi bilimlarga ega bo'lmasdan turib uning tabiiy boyliklaridan foydalanish mumkin emas. Aks holda unga katta talafotlar yetkazamiz, noto'g'ri, qo'pol harakatimiz uchun tabiat bizdan o'ch olishi mumkin. Sobiq Ittifoq davrida tabiatga o'yamasdan qilingan ta'sir hozirgi kunda „o'z mevasini“ bermoqda. (Bularni eslang, misollar keltiring.)

Inson atrofini o'rab olgan tabiiy resurslar 2 guruhg'a ajratiladi:

I guruh. Tugaydigan resurslar:

1. Yoqilg'i resurslari.
2. Metall resurslari.
3. Kimyo va qurilish materiallari resurslari.
4. O'rmon (yog'ochsozlik sanoati) resurslari.

II guruh. Tugamaydigan resurslar:

1. Kosmik resurslar (quyosh energiyasi).
2. Suv qalqishi energiya resurslari.
3. Geotermik resurslar (yerning ichki energiyasi).
4. Iqlim va agroiqlimiylar resurslari (havo, shamol energiyasi, tuproq).
5. Suv resurslari (daryo, oqar ko'l, okean, yer osti suvlari).
6. Boshqa resurslar (chuchuk suv, rekreatsiya va h. k.)

Inson barcha narsalarni tabiiy resurslardan tayyorlaydi. Tirik mavjudotlarning yashash sharoiti bo'lgan havo, suv, o'simlik, tuproq, hayvonlar ham tabiiy resurslardir.

Tabiiy resurslar inson hayoti uchun zarur bo'lgan, lekin inson tomonidan yaratilmagan resurslardir.

Tabiiy resurslar **real** va **potensial** turlarga bo'llinadi. Hozirgi kunda bevosita jamiyat ishlab chiqarishida foydalanib kelinayotgan resurslar **real tabiiy resurslar** deyiladi. Masalan, daryo, ko'l, yer osti chuchuk suvlari va boshqa resurslar.

Ayrim sabablarga ko'ra, hozirgi vaqtida foydalanish imkonи bo'lmagan tabiiy resurslar potensial tabiiy resurslar deyiladi. Masalan, okean suvlari, quyosh energiyasi, termoyadro energiyalari va h.k.

Vaqt o'tishi va FTI rivojlanishi bilan potensial resurslar real resurslarga aylanishi mumkin.

Mineral resurslar. O'zbekiston mineral resurslarga juda boy bo'lib, uning umumiy bahosi 3,3 trillion AQSH dollariga teng deb baholanmoqda. Xalq xo'jaligida ishlataladigan foydali qazilmalarining 70 foizi mineral xomashyolarga to'g'ri keladi. Energiya va issiqlikning 95 foizi mineral resurslardan olinadi. Og'ir sanoat tarmoqlarining 90 foiz mahsulotlari ham foydali qazilmalarga asoslanadi.

Mineral resurslarning turlari	Ularning asosiy konlari
Neft	Ko'kdumaloq, Andijon, Polvontosh, Janubiy Olamushuk, Mingbuloq va b.
Tabiiy gaz	Sho'rtan, Zevarda, Muborak, Uchqir, Jarqoq, Shoxpaxta, Quvanish, O'rtabuloq, Pachkamar, Qizilbayroq, Omonota va b.
Ko'mir	Angren, Sharg'un, Boysun.

Mamlakatimizning yer bag'ridan yiliga 5,5—6 mlrd AQSH dollari miqdorida mineral resurslar olinmoqda. O'zbekiston jahonda *oltin*, *uran*, *mis*, *tabiiy gaz*, *volfram*, *har xil tuzlar* va *kaolinning*, *zaxiralari* bo'yicha yetakchi o'rirlarda turadi.

Yoqilg'i-energetika resurslari Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo, Surxondaryo, Farg'ona viloyatlarida, Ustyurt platosida joylashgan. Aksariyat joylarda neft va gaz birgalikda uchraydi. Yuqoridagi jadvalda berilgan yoqilg'i xomashyosi konlarining geografik joylashishini xaritadan toping.

O'zbekistonda 20 dan ortiq ko'mir konlari aniqlangan. Hozir ulardan yiliga 3,5 mln. t (kelajakda u 3 — 4 martaga ko'payadi) ko'mir qazib olinmoqda. Mamlakatimizda qazib olinayotgan ko'mirning 97 foizi qo'ng'ir ko'mir hisoblanadi. Toshko'mir Sharg'un va Boysun konlaridan qazib olinadi. Sharg'un ko'miri yuqori kaloriyalı, biroq yupqa qatlamlı — 2,5 m bo'lib, faqat ayrim joylarda uning qaliligi 10 — 12 metrga boradi.

Qo'ng'ir ko'mir yer yuziga yaqin, uncha chuqur bo'limgan joylarda vujudga kelgan. Garchi uning qazib olinishi (ochiq usulda) arzon bo'lsa-da, ko'mir sifati past: maydalaniq ketadi, kuli, otingugurti ko'p, issiqlik chiqarish xususiyati kam.

O'zbekistonda gidroenergetika resurslari biroz cheklangan. Bunga daryolarning kamsuvligi sababdir. Ishlab chiqariladigan barcha elektr quvvatining faqat 14 — 15 foizi gidroresurslarga to'g'ri keladi.


Rudali resurslar. O'zbekiston noyob va nodir metallar: *oltin*, *kumush*, *uran* va boshqalarning zaxiralari bo'yicha MDH davlatlari orasida oldingi o'rirlarda turadi (masalan, oltin qazib olish bo'yicha dunyoda 8 — 9- o'rinda, zaxirasi bo'yicha 4- o'rinda). Mamlakatimizda oltin va kumushning 30 dan ortiq konlari bor.

O'zbekiston tog'-kimyo sanoati xomashyosi bo'lgan *fosforitlar* (Qizilqum), *osh tuzi*, *soda* va boshqa tuzlarning katta zaxiralariga ega. Borsakelmas botig'i, Xo'jayikalon, Boybichakonda 400 — 500 yilga yetadigan zaxiralar joylashgan. Shuningdek, qurilish materiallarining 370 dan ortiq konlari mavjud. *Oq*, *qora*, *qizil*, *marmar* konlari jahon ahamiyatiga ega (ularni xaritadan toping).



O'zbekiston oltinlari jahonga mashhur.

FOYDALI QAZILMALAR XARITASI



Suv resurslari. O'zbekiston hududi Orol dengizining oqimsiz havzasiga kiradi. Suv resurslari yerusti va yerosti suvlarni hamda qaytarma suvlarni o'z ichiga oladi.

Orol dengizi havzasining yerusti suvlari O'rta Osiyo davlatlari bilan birgalikda ishlataliladi.

Yerosti suvlari zaxiralari ham mamlakatimiz hududida keng tarqalgan. Suvning asosiy iste'molchisi qishloq xo'jaligi hisoblanadi.

Misol: 1 kg bug'doy yetishtirish uchun 750 l suv, 1 t paxta yetishtirish uchun 10 ming t suv, 1 ga sholi uchun 500 t, 1 t sintetik tola olish uchun 3500 t suv, 1 t rezina ishlab chiqarish uchun 3500 t, 1 t shakar ishlab chiqarish uchun 100 t, 3 l chuchuk suv olish uchun 1 kvt/s elektr energiya sarflanadi.

Demak, yildan yilga suvgaga bo'lgan ehtiyoj oshib boradi. Shuning uchun suvdan samarali foydalanishda jahondagi ilg'or tajribalarni o'rganishimiz kerak. Masalan, Avstriya chuchuk suvlarning 100 foizini, Gollandiya 70 — 80 foizini, Germaniya 40 foizini yerosti suvlardan oladi.

Mamlakatimiz hududining 2/3 qismida suv manbalari juda oz yoki umuman yetishmaydi. Bunday sharoitda qanday chora-tadbirlarni olib borish kerak deb o'ylaysiz?

Yer resurslari. O'zbekistonning yer resurslari 45 mln. ga atrofida. Uning atigi 1/10 qismidan foydalaniladi, xolos. Hozir 4,2 mln. ga yerlarda sug'orib dehqonchilik qilinadi. Sug'orib dehqonchilik qilinadigan hududlar anchagina, ammo suv yetishmasligi sababli ulardan foydalanib bo'lmaydi.

Bularni esda saqlang:

1. Yer hajmi jihatidan cheklangan, ya'ni uni inson xohishiga ko'ra kattalashtirib yoki kichiklashtirib bo'lmaydi.
2. Yemi hech qanday ishlab chiqarish vositasi bilan almashtirib bo'lmaydi. U qishloq xo'jaligining asosi hisoblanadi.
3. Yer tabiat mahsuli, u inson mehnati mahsuli emas.
4. Yer abadiy ishlab chiqarish vositasi bo'lib, undan to'g'ri foydalanish kerak va h.k.

O'zbekiston dehqonchiligidagi foydalaniladigan yerlar maydoni 5—6 mln. ga bo'lib; ular **sug'oriladigan va lalmi yerlardir**. Bu yerlarning 1,6 mln. gektari cho'l zonasida joylashgan. Sug'oriladigan yerlar Farg'ona, Zarafshon vodiylarida va Quyi Amudaryo rayonida ancha maydonlarni egallaydi.

Agroiqlim resurslari. O'zbekiston bu turdag'i resurslarga juda boy, ammo suv resurslari agroiqlim resurslaridan unumli foydalanishni chegaralaydi.

O'zbekiston agroiqlim sharoitlari mo'tadil mintaqaga va tropik ekinlar, ayniqsa paxta yetishtirish uchun qulay. Biroq kechki, bahorgi va ertagi, kuzgi sovuqlar, yuqori haroratlari, qurg'oqchiliklar, atrof-muhitning ifloslanishi kabi boshqa sharoitlar agroiqlim resurslarini cheklaydigan omillardir.

O'simlik resurslari. Mamlakatimiz o'simliklar dunyosi g'oyat xilma-xil. Ularning 4800 dan ortiq turlari uchraydi. O'zbekistondagi o'simliklar cho'l, adir, tog' yaylovlarida tarqalgan. Mavjud o'simlik turlarining 90 foizi chorvachilikda ozuqabop hisoblanadi.



O'zbekiston rekreatsiya resurslariga boy.



O'zbekistonda barcha millatlar teng huquqli.

Cho'llar qo'yalar boqiladigan muhim mintaqaga bo'lib, dengiz sathidan 400—500 m gacha baland bo'lgan hududlarni o'z ichiga oladi. Cho'lning har gektaridan 3—5 sentnergacha xashak yig'ib olish imkoniyati bor.

Adirlar dengiz sathidan 500—700 m dan 1200—1600 m. gacha baland bo'lgan hududlarni qamrab oladi. Bu yerlarda qo'y, qoramol, parrandalar ko'p boqiladi. Uning har hektar maydonidan 8—10 sr xashak yig'ib olish mumkin.

Tog'lar dengiz sathidan 1200—1600 m dan 2700—2800 m gacha baland bo'lgan joylarni o'z ichiga oladi. Bu zonada o'simlik va daraxtlar, shifobaxsh dori-darmonlar, o't-o'lanlar nihoyatda serob. Yaylovning har gektaridan 15—17 sr gacha xashak yig'ib olish mumkin. Ammo bu mintaqada baland bo'yli daraxtlar o'smaydi.

Tuproq resurslari. Tuproq qatlamisiz yerimizda hayotni tasavvur qilib bo'lmaydi. Tuproqda nafaqat o'simlik o'sadi, balki u tabiatda katta vazifalarni bajaradi. Tuproq tabiatdagi iflos moddalarni biologik yo'l bilan o'ziga singdiruvchi, tozalovchi, minerallashtiruvchi muhim manbadir. Har bir tuproq o'ziga xos unumdarlikka ega. Masalan, Toshkent viloyati bilan Xorazm viloyati tuproqlari o'z xususiyatlari bilan farq qiladi. Tuproqning unumdarligini aniqlash uchun, avvalo, yerni iqtisodiy jihatdan baholash kerak. Shu maqsadda yer kadastridan foydalaniladi.

Yer kadastro yarning tabiiy, xo'jalik va huquqiy holati to'g'risidagi zarur va ishonchli ma'lumotlar yig'indisidir.

Tuproq unumdarligi bonitirovka ma'lumotlari asosida o'rganiladi. **Tuproq bonitirovkasi deyilganda yarning sifati va uning tabiiy xususiyatlarini hisobga olish tushuniladi.**

Tuproq unumdarligiga ko'ra a'lo tuproq (81—100 ball), yaxshi tuproq (61—80 ball), o'rtacha tuproq (41—60 ball), o'rtadan pastroq tuproq (21—40 ball), yomon tuproq (20 balldan kichik) larga bo'linadi. Tuproq unumdarligi masalalari bilan yer kadastro shug'ullanadi.

Hayvonot resurslari. Mamlakatimiz hududida 570 ga yaqin umurtqali hayvon turlari uchraydi, shulardan 91 tasi sute Mizuychi, 57 tasi sudralib yuruvchi hayvonlardir. Suv havzalarida 60 dan ortiq baliq turlari, qushlarning 410 turi bor.

Rekreatsiya resurslari. Insonning rekreatsion faoliyati dam olish, hordiq chiqarish, sog'liqni tiklash, tabiat go'zalliklaridan va madaniy obidalardan zavqlanib ruhni ko'tarishga qaratilgan faoliyat majmuasini o'z ichiga oladi. „Rekratio“ lotincha so'z bo'lib, *sog'liqni tiklash, dam olish* demakdir. Mamlakatimiz hududi sobiq Ittifoq davrida rekreatsiya maqsadlari jihatidan qisman o'rGANildi. Faqat mustaqillik yillardagina bu masala atroficha o'rGANila boshlandi. Turizm (sayr, sayohat) rekreatsiya bilan chambarchas bog'liq.



Savol va topshiriqlar

1. Tabiiy resurslar qanday guruhlarga bo'linadi?
2. Respublikamizdagi yirik neft va gaz konlarini aytin va ularni kartaga tushiring.
3. Yer resurslari haqida nimalarni bilasiz?
4. O'zbekistonda rekreatsiya resurslaridan qay darajada foydalanimoqda?
5. O'zingiz yashaydigan viloyatning tabiiy boyliklari bo'yicha kichik referat yozing.

5- §. O'zbekiston tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanish. Tabiatdan foydalanishning ekologik muammolari

Tabiiy resurslar kelajak avlodlar taqdirini o'ylamay ko'plab qazib olinmoqda. Insoniyat XVII asrgacha faqat 18 turdag'i elementdan foydalangan bo'lsa, XVIII asrda 28 ta, XIX asrda 62 ta va o'tgan asr boshida 70 turdag'i elementdan foydalanish imkoniga ega bo'ldi.

Foydali qazilmalarni qazib olishda ko'p miqdorda xomashyolar isrof bo'ladi. Ayniqsa tiklanmaydigan resurslarni qazib olishda isrofgarchiliklar ko'p bo'ladi. Bu foydali mashg'ulotlardan to'liq va kompleks foydalana olmaslikdan kelib chiqadi. Buning asosiy sababi zamonaviy texnologiyaning yo'qligidir.

Qurilish materiallarini qazib olishda 30 foizdan 70 foizgacha qurilish toshlari keraksiz darajagacha maydalaniб ketadi va chiqarib tashlanadi. Bu ko'rsatkich kaliy tuzini qazib olishda 70 — 80 foizgacha yetishi mumkin. Demak, aksariyat foydali qazilmalarni qazib olish jarayonida albatta nobudgarchiliklar sodir bo'ladi. Shu sababli nobudgarchilik koeffitsienti belgilanadi. Ayrim hollarda nobudgarchilik belgilangan koeffitsientdan oshib ketsa, tabiat muhofazasiga katta zarar yetkazilishi mumkin.

O'zbekistonda yiliga 200 mln. t tog' jinslari xomashyosi qazib olinadi, chiqindi sifatida tashlangan jinslarning hajmi esa 250 mln m kub dan ko'p. Kon va shaxtalar atrofiga chiqarib tashlanayotgan jinslar faqat Olmaliq tog'-kon sanoat majmuyida 1,5 ming ga maydonni egallagan. Butun O'zbekistonda bunday maydonlar 10 ming yetkardan ortiqroqdir.

Chiqindilarning to'planishi katta maydonda tuproq va yaylovlardan foydalanishni cheklaydi. Qazilma boyliklar ochiq usulda qazib olinganda kamroq isrof bo'ladi.

Masalan, ko'mirni shaxta usulida qazib olishda uning 20 — 40 foizi, qora va rangli metall rudalarning 15 — 25 foizi, tog'-kimyo sanoati xomashyosining 20 — 60 foizi isrof bo'lishi mumkin.

Mustaqillik davrigacha Angren ko'mir havzasida qalinligi 1,5 m bo'lgan qatlama olinib, undan yupqa qatlamlar keraksiz jinslar bilan birga chiqarib

tashlangan. O'sha keraksiz jinslar ichida qimmatbaho *kaolin* xomashyosi ham bo'lgan. Uning yig'ilgan qismi 60 mln. t dan oshib ketdi. Undan aluminiy, chinni-fayans, farmatsevtika, qog'oz sanoatida foydalanish mumkin. Hozir bu yerda Germaniya bilan hamkorlikda „Kaolin“ qo'shma korxonasi mahsulot bera boshladi.

Yoki, Muruntov oltin konidagi ana shunday chiqindilar bazasida AQSH bilan hamkorlikda „Zarafshon-Nyumont“ qo'shma korxonasi buniyod etildi. Ushbu korxona chiqindilarni qayta ishlash orqali yiliga ko'plab oltin ishlab chiqarmoqda.

Mamlakat tabiiy resurslarga qancha boy bo'lmasin ulardan xo'jalikda oqilona foydalanish zarur. Buning uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Mineral resurslarni qazib olish va qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish.

2. Korxonadagi foydali komponentlardan to'liq va kompleks foydalanish.

3. Tabiiy resurslarni qazib olishdagi nobudgarchiliklarga qarshi kurashish va h.k.

Texnologik jarayonlar qancha takomillashsa, tarkibidagi metall kam bo'lgan rudalardan ham foydalanishga imkon tug'iladi. Masalan, XX asr oxirida tarkibida 5 foiz metall bo'lgan rudalardan mis ajratib olingan bo'lsa, hozir 4 foizdan kam bo'lgan rudalardan ham foydalanilmoxda.

Tog'-kon sanoati rivojlangan hududlarda (karyer) chiqindi jinslar to'plamlari — **terrikonlar**, ag'darmalar yig'ilishi tufayli tabiiy muhit buziladi va undan foydalanish qiyin bo'ladi. Shu sababli bunday yerlarni qayta tiklash, ya'ni ularning **rekultivatsiya** qilinishi lozim bo'ladi. Buzilgan yerlarning mahsulorligini qayta tiklash va xo'jalik samaradorligini yanada ko'tarish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar rekultivatsiya ishlari orqali amalga oshiriladi.

Rekultivatsiya 2 bosqichda olib boriladi. Bular: **texnik rekultivatsiya** va **biologik rekultivatsiyalash**. Birinchi bosqichda yerlar tekislanadi, biologik rekultivatsiyalashda buzilgan joyning tuproq qoplami va o'simligi qayta tiklanadi.



Savol va topshiriqlar

1. Tabiiy resurslardan kompleks foydalanish nimani anglatadi?
2. Tog'-kon sanoatida chiqindilardan qanday foydalanilmoxda?
3. Rekultivatsiya nima?
4. Siz yashab turgan hududning ekologik holatini ta'riflab bering.



Mavzu. O'ZBEKISTON AHOLISI

6- §. Aholi soni, ko'payishi, zichligi

Aholi — bu kishilarning mamlakat, rayon yoki butun Yer sharida guruh-guruh bo'lib yashashi, ularning hududiy birligidir.

Aholi va ishlab chiqarishning joylashishi bir-biriga bog'liq. Bunda ishlab chiqarishning joylanishi asosiy o'rinni egallaydi va u aholining joylashishiga

ta'sir qiladi. Aholining soni va mehnat resurslarining miqdori viloyat, tuman, qishloq iqtisodiyotiga, u yoki bu huddagi ishlab chiqaruvchi kuchlarning joylashishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Aholi zinch joylashgan hududlarda, odatda, mehnatni ko'p talab qiladigan ishlab chiqarish tarmoqlari mavjud bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi aholisining soni 2002-yil boshida 25,1 mln. kishini tashkil etdi. Mamlakatimiz aholi soni jihatdan MDHda Rossiya va Ukrainadan keyin 3-o'rinda turadi. O'rta Osiyo aholisining 40 foizi O'zbekistonga to'g'ri keladi. Respublika aholisi sonining o'sishini 20-betdagi jadvaldan ko'rish mumkin.

O'zbekistonning tub aholisini o'zbeklar tashkil qiladi. Aholi soni jihatdan o'zbeklar, shuningdek, ruslar, qozoqlar ko'pchilikni tashkil qiladi, tojiklar, qirg'izlar, qoraqalpoqlar, koreyslar, turkmanlarning ham salmog'i sezilarli darajada.

Mamlakatimizda tatarlar, ukrainlar, beloruslar, polyaklar, cheklar, slovaklar, bolgarlar, forslar, pushtunlar, armanlar, yahudiylar va jami 100 ga yaqin millat vakillari istiqomat qiladilar.

Aholining yillik o'sishi 70- yillarda 3 foizni tashkil etgan bo'lsa, hozir bu ko'rsatkich 1,2 — 1,4 foizga teng. (Buni qanday izohlash mumkin?)

1990 — 2000- yillar o'rtasida mamlakat aholisi 122,7 foizga ko'paydi. **Aholining tabiiy o'sishi bir yil davomida tug'ilganlar va o'lganlar orasidagi farqdan iborat.**

Bu ko'rsatkich har 1000 kishiga nisbatan hisoblanadi. Masalan, tug'ilish koeffitsienti 20 promille deyilsa, bu har ming kishi hisobiga 20 ta tug'ilish demakdir. 2002-yilda respublikamizda tug'ilish 20,9, o'lish 5,4 va tabiiy ko'payish 15,5 promillega teng bo'lgan.

Aholining tabiiy o'sishi xalqning urf-odatlariga, tarixiy an'analariga ham bog'liq. O'zbeklarning bolajonligi tabiiy o'sishning har doim yuqori bo'lib kelishini ta'minlagan. Shaharlarda tabiiy o'sish qishloq joylariga nisbatan birmuncha pastroq.

Aholining o'lim darajasi turli yillarda turlicha bo'lgan. Ayniqsa qatag'on yillarda, ikkinchi jahon urushi hamda kasalliklar tarqalgan paytlarda u ancha yuqori bo'lgan. Yer qimirlashlar, turli xil epidemiyalar ham tabiiy o'sishni pasaytiradi.

Mamlakat aholisi tug'ilganlar sonining o'lganlar soniga nisbatan ko'pligi hisobiga oshmoqda. Bu ko'rsatkich tabiiy o'sish deyiladi.

Aholi, asosan, o'lganlar soniga nisbatan tug'ilganlar sonining ortiqligi hisobiga doimo ko'payib turadi. Bunday ko'payishni **mutlaq tabiiy ko'payish** deb ataladi. Mamlakatimizda mutlaq tabiiy ko'payish yiliga 400 ming kishi atrofida.



O'zbekiston aholisi, asosan, tabiiy ko'payish hisobiga oshmoqda.

O'zbekiston aholisi sonining o'sishi

Yillar	Jami aholi soni (ming kishi)	Shu jumladan				Aholi zichligi, har bir kv. km/ga kishi	
		Shahar aholisi		Qishloq aholisi			
		aholisi jami (m.k.)	foizda	aholisi jami (m.k.)	foizda		
1865	3320	466	14,0	28,54	86,0	7,4	
1897	3948	743	17,0	3205	83,0	8,8	
1900	4016	816	20,3	3550	79,7	9,8	
1940	5197	1606	24,5	3436	75,1	14,6	
1970	11799	4322	36,6	9043	63,4	26,4	
1980	15757	6452	40,9	9455	59,1	35,2	
1989	19780	8059	40,4	11721	59,3	42,3	
1990	20222	8241	40,7	11981	59,8	44,5	
1991	20608	8305	40,8	12303	59,7	45,4	
1992	21106	8450	40,3	12656	60,0	46,3	
1993	21602	8326	40,0	13076	60,6	47,4	
1994	22092	8615	39,4	13477	61,0	48,5	
1995	22462	8671	39,0	13791	61,3	49,6	
1996	22906	8768	38,3	14138	61,7	50,4	
1997	23349	8879	37,9	14470	62,1	52,7	
1998	23772	8999	37,7	14779	62,3	53,5	
1999	24136	9087	37,6	15049	62,4	54,5	
2000	24488	9166	37,4	15322	62,6	55,0	
2001	24813	9225	37,2	15588	62,8	55,2	
2002	25116	9287	37,0	15829	63,0	56,0	

Aholi zichligi. Aholi zichligi deganda 1 kv. km hudud doirasida yashaydigan aholi soni tushuniladi. O'zbekistonda aholining o'rtacha zichligi 1 kv. km ga 56 kishiga teng (01.01. 2002- y.). Bu ko'rsatkich 1926- yilda

11 kishiga, 1970- yilda 26,4 kishiga teng bo'lgan. (Buning sababini tushuntiring.) Keyingi 30 yil mobaynida respublikamizda aholi zichligi 2 martadan ko'proq oshgan. Aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Farg'ona vodiysisiga to'g'ri keladi. Bu yerda o'rtacha zichlik 300 kishidan yuqori. Xaritadan aholi zich va siyrak joylashgan hududlarni aniqlang.



Savol va topshiriqlar

- Quyidagi jadvalni tahlil qiling. Nima sababdan aholi viloyatlar bo'yicha notejis joylashgan?
- Aholi zichligi qanday aniqlanadi?
- Aholining tabiiy o'sishi nima va u qaysi ko'rsatkichlarda ifodalanadi?
- Keltirilgan jadval ma'lumotlaridan kelib chiqqan holda O'zbekiston shahar va qishloq aholisining mustaqillik yillardagi o'sish dinamikasini chizmada aks ettiring.

O'zbekiston Respublikasi aholisining joylashishi (2003- y.)

Respublika, viloyatlar va Toshkent shahri	Maydoni, ming kv. km	Jami aholi soni, ming kishi	Aholining soni		Aholi zichligi (1 kv. km ga kishi)
			shahar aholisi	qishloq aholisi	
O'zbekiston Respublikasi	448,9	25116	9287	15829	56,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	166,6	1540	754	786	9,4
Andijon viloyati	4,2	2247	673	1574	52,8
Buxoro viloyati	40,3	1456	4433	1012	33,1
Jizzax viloyati	21,2	1006	302	704	47,4
Navoiy viloyati	111,0	796	319	476	7,2
Namangan viloyati	7,4	1983	744	1239	268,0
Samarqand viloyati	16,8	2750	730	2020	163,7
Sirdaryo viloyati	4,3	657	209	448	152,8
Surxondaryo viloyati	20,1	1801	354	1447	89,6
Toshkent viloyati	15,6	2391	959	1438	153,3
Farg'ona viloyati	6,7	2730	785	1945	407,5
Xorazm viloyati	6,3	1369	318	1052	224,4
Qashqadaryo viloyati	28,6	2254	566	1688	78,8
Toshkent shahri	-	2137	2137	-	-

7- §. Aholining joylashishi va migratsiyasi

Aholining joylashishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bular hududning iqtisodiy o'zlashtirilishi, tarixiy jarayonlar, iqtisodiy-geografik omillar va hokazolar bilan izohlanadi. Aholining hududiy joylashuvi bilan uning zichligi uzviy bog'liq jarayondir. Respublika hududining tabiiy sharoiti va o'zlashtirilish darajasining xilma-xilligi bevosita aholining notejis joylashuviga sabab bo'ladi.

Masalan, 60- yillargacha Jizzax, Sirdaryo viloyatlari hududlarida aholi juda siyrak joylashgan edi. Keyingi yillarda bu viloyatlardagi cho'llarning o'zlashtirilishi munosabati bilan aholi zichligi keskin oshdi.

O'zbekiston aholisining joylashishida respublika ma'muriy-hududiy tuzilishidagi o'zgarishlar hamda aholining ko'chib yurishi ham o'ziga xos o'ringa ega. Aholi sonining bunday omil hisobiga o'zgarishini **mexanik o'zgarish**, uning bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishini esa aholi **migratsiyasi** deb yuritiladi.

Mamlakat aholisiga nisbatan tashqi migratsiya immigratsiya (ko'chib kelish) va emigratsiya (ko'chib ketish) ga bo'linadi. Aholining bunday migratsiyasi respublikadagi demografik („*demo*“ — aholi) vaziyatga ta'sir ko'rsatadi. Mexanik harakatga aholi migratsiyasidan tashqari ma'muriy-hududiy o'zgarishlar tufayli aholi sonining o'zgarishi ham kiradi.

Masalan, yaqin o'tmishda O'zbekistonda Jizzax va Navoiy viloyatlari tashkil etildi. Ular qo'shni Sirdaryo, Samarqand va Buxoro viloyatlarining tumanlari asosida vujudga keldi. Natijada bu viloyatlar aholisining soni o'zgardi.

Ichki migratsiyaning yo'nalishlari ko'p: ular shahardan shaharga, shahardan qishloqqa, qishloqdan qishloqqa, qishloqdan shaharga bo'linadi. Odatda, aholining qishloqdan shaharga ko'chib kelishi ko'proq uchraydi. Bu esa shahar aholisining muntazam ko'payib borishiga, urbanizatsiyaning rivojlanishiga olib keladi.

Unutmang: aholining har qanday hududiy harakati ham migratsiya bo'lavermaydi. Haqiqiy migratsiya aholi yashash joyining o'zgarishi bilan bog'liq jarayondir. Migratsiya maysumiy va vaxta shaklida ham bo'ladi.

Vaxta usulidagi migratsiyalar tabiiy sharoit qiyin bo'lgan joylarda mavjud. Foydali qazilmalarni o'zlashtirishda ishslash, uzoq tog'lardagi yaylovlarda cho'ponlik qilish vaxta migratsiyasiga misol bo'lishi mumkin.


Aholi migratsiyasiga qochoqlik harakati ham yaqin turadi. Bir mamlakatdan boshqa mamlakatga aholining majburiy holda ko'chib ketishi natijasida qochoqlaming katta guruhlari vujudga keladi. Bunga turli omillar — tabiiy ofatlar, epidemiya, urushlar, siyosiy va ijtimoiy notinchlik kabi holatlar sabab bo'ladi.

Mayatniksimon (tebranma) migratsiyalar ko'proq katta shaharlar atrofida uchraydi. Ko'pchilik har kuni shaharga ishga, o'qishga boradi va kechqurun yana uyiga keladi.

Shunday qilib, migratsiyaning masshtabi (keldi-ketdi yig'indisi), yo'nalishi, geografiyası, ichki va tashqi migratsiya, uning vaqt va sababiga ko'ra turlarga bo'linishini unutmastlik kerak.

Kelganlar bilan ketganlarning ayirmasi **migratsiya qoldig'i yoki saldosি** deb ataladi; u ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin.

AHOLI XARITASI





Savol va topshiriqlar

1. Aholining joylashishi deganda nimani tushunasiz?
2. Tabiiy sharoit va aholi zichligining aholi joylashishi bilan bog'liq tomonlarini izohlang.
3. Aholining **mexanik o'zgarishi** bilan **migratsiya** tushunchalari o'rtaida qanday o'xshashlik va aloqadorlik bor?
4. Siz yashab turgan joyda migratsiyaning qanday turlari mavjud?

8- §. Mehnat resurslari

Mehnat resurslari yoki iqtisodiy faol aholi jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Mehnat resurslari soni, uning o'sishi, unda ishtirok etuvchilarning malaka va ma'lumot darajasi mamlakat xalq xo'jaligini rivojlantirishning asosiy omillaridan sanaladi.

Aholining mehnatga yaroqli qismiga mehnat resurslari deyiladi. Mamlakatimiz qonuniga ko'ra, 16 yoshdan 59 yoshgacha bo'lgan erkaklar hamda 16 yoshdan 54 yoshgacha bo'lgan ayollar mehnatga yaroqli yoshdag'i aholi hisoblanadi. U mehnat resursining asosini tashkil qiladi. Mehnatga layoqatli yoshda, ammo sog'lig'i tufayli ishlash imkoniyatiga ega bo'lmagan nogironlar mehnat resursiga kirmaydi. Shu bilan birga ishlaydigan o'smirlar (16 yoshgacha) va nafaqa yoshdagilar ham mehnat resursi hisoblanadi.

Mehnatga yaroqlilar zaxirasini oshirishda nafaqat ishchi kuchi miqdori, balki ularning yoshi ham alohida ahamiyatga ega. Shu jihatdan olganda 20 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan kishilar aholining **mehnatga eng yaroqli qismi** hisoblanadi.

Mehnat resurslaridan foydalanishning o'zaro bog'liq bo'lgan 2 tamoyilini ajratish maqsadga muvofiq:

1. Aholining mehnatga yaroqli qismini to'liq band etish.
2. Mehnat resurslaridan xalq xo'jaligida omilkorlik bilan foydalanish.

Aholining mehnatga yaroqli qismini to'liq band etish deb kishilarning ishga bo'lgan talabini ish joylari bilan to'liq qondirishga aytildi.

Ushbu masala mehnat bozori (birjas) orqali amalga oshiriladi yoki tartibga solib boriladi.

Aholining mehnat bilan to'liq bandligining asosiy ko'rsatkichi ishsizlikning bo'imasligidir.

Mehnat resurslaridan omilkorlik bilan foydalanish mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishning asosiy omillaridan biri. Bu omillar quyidagilardan iborat:

- * Kadrlar malakasi.
- * Ishlab chiqarishni tashkil etish va texnik jihatdan ta'minlash darajasi.
- * Mehnat sharoiti (bunda tabiiy sharoit ham hisobga olinadi).
- * Xo'jalikning ixtisoslashuvi va uning joylashish xususiyatlari.

Mamlakat xalq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirishda mehnat resurslari ning **balans metodi** katta ahamiyatga ega. Mehnat resurslari balansida korxona, tuman, viloyatlarning mehnat resurslariga bo'lgan talabi, u yoki bu tumanda, qishloqda mehnat resurslarining ortiqchaligi yoki yetishmovchiligi kabilar aniqlanadi.

Aholining mehnatga layoqatli yoshdagilari mamlakat **mehnat salohiyatini** shakllantiradi. Mehnat resurslari, asosan, aholining tabiiy va mexanik o'sishi, nafaqa yoshidagilar va ishlayotgan o'smirlarning faol qismi hisobiga ko'payadi.

Har bir hudud mehnat resurslariga tavsif berilganda ularning sifati, jinsiy tarkibi, ma'lumot darajasi, yoshi, malakasi kabilarga e'tibor berish zarur. Mehnat resurslarining sifati mehnat unumdorligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimizda aholining o'rtacha yoshi 24 ga (o'rtacha umr 69) teng.

O'zbekistonda mehnat resurslarining soni, salmog'i va o'sish sur'atlari, xo'jalik tarmoqlarida bandligi, taqsimlanishi, ulardan foydalananish samara-dorligi o'ziga xos xususiyatga ega.

Mamlakatimizda mehnat resurslarining iqtisodiyot tarmoqlarida taqsimlanishi, % hisobida, 2000- yil

Xalq xo'jaligi tarmoqlari	%
Qishloq va o'rmon xo'jaligida	40,7
Sanoatda	12,8
Xalq ta'limi, madaniyat, san'at, fan sohasida	12,3
Savdo, moddiy -texnik, umumiy ovqatlanishda	8,2
Qurilishda	6,3
Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, ijtimoiy ta'minotda	5,8
Transport va aloqada	4,2
Kommunal xo'jalik, maishiy xizmatda	2,7
Boshqaruvsda	1,1
Kredit, moliya, sug'urtada	0,6
Boshqa sohalarda	5,3
Jami	100,0

Mehnat resurslarining xalq xo'jaligida bandligi. Yuqorida jadvaldan ko'rinish turibdiki, mehnat bilan band aholi moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohalari o'rtasida o'ziga xos taqsimlanishga ega. Keltirilgan ma'lumotlardan foydalaniib, moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohasida band aholini qiyoslang va xulosalar chiqaring.

Sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilishda band kishilar moddiy boylik vujudga keltiradilar. Maorif, fan, sog'liqni saqlash, madaniyat xodimlarining mehnat natijalari bevosita boylik yaratmasa-da, ular jamiyat uchun niroyatda zarurdir.

Kelajakda respublikamizda FTI natijasida noishlab chiqarish sohalarida band bo'lganlar salmog'i oshib boradi. Chunki xalq xo'jaligining taraqqiyoti bevosita maorif, fan sohasida ishlovchi xodimlar sonining ko'payishi bilan uzviy bog'liqidir.

Fan, maorif, sog'liqni saqlash, san'atda band bo'lgan kishilar sonining oshib borishi ishlab chiqarish sohasida mehnatda band bo'lganlarning mehnat unumdorligi oshishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Moddiy va nomoddiy ishlab



Fan xalq sog'lig'i xizmatida.

chiqarish sohalarida bandlik qayta taqsimlanib turadi. Bu sohalarda ishlovchilarning soni va salmog'i ham doimo o'zgarishda bo'ladi.

2002- yilda O'zbekistonning mehnat resurslari 12,5 mln kishiga yetdi. Har yili mehnat resurslari 200 ming kishi atrofida oshmoqda. Mehnat resurslarining bunday sur'atlarda oshishi, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga jalg etish va ular mehnatidan oqilona foydalanish muammolarini keltirib chiqaradi. Bu muammoni hal etish iqtisodiyotning mehnattalab tarmoqlarini yanada yuqoriroq sur'atlar bilan rivojlantirishni taqozo etadi.

Respublikamizning aksariyat qishloq va tumanlarida ortiqcha mehnat resurslari mavjud. Ulardan oqilona foydalanish yo'llarini izlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mehnat resurslari bilan ta'minlanish va ulardan foydalanish darajasiga ko'ra respublika viloyatlari bir-birlaridan farq qiladi.

Mustaqillik yillarida xalq xo'jaligi tarmoqlarida tub millat aholisi bandligida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Sobiq Ittifoq davrida og'ir sanoat tarmoqlaridagi ishchi kuchlarining aksariyatini yevropaliklar tashkil qildi. Yangi qurilgan sanoat korxonalariga ham Rossiya va Ukrainadan ishchilar taklif etilardi. Mustaqillik yillarida korxonalarning mehnat jamoasi, asosan, mahalliy aholi hisobidan shakllanmoqda.



Savol va topshiriqlar

1. Mehnat resurslari deganda nimani tushunasiz?
2. Aholining mehnatga eng yaroqli qismi nima?
3. Mehnat resurslaridan omilkorlik bilan foydalanish nimani anglatadi?
4. Iqtisodiyot sohalarida aholi bandligi qanday taqsimlangan?
5. O'zbekistonning geografik atlasidan foydalanib, viloyatlarning mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlang.
6. Viloyatlarda mehnatga yaroqli aholi bandligining turlichaligini qanday izohlash mumkin?



Bolalar bizning kelajagimiz.

9- §. Aholining tarkibi

Aholining yosh tarkibi. Aholining yosh tarkibini 3 ta yashash davriga ajratish mumkin.

1. *Ishlash yoshigacha bo'lgan davr.* Bu davrda kishi ishlamasdan iste'mol qiladi.
2. *Ishlash davri.* Bu davrda odam mehnat qilib, o'zi iste'mol qilishiga nisbatan ko'p mahsulot va iste'mol buyumlari ishlab chiqaradi.
3. *Ishlash yoshidan keyingi davr.* Bu davrda kishi iste'mol qiladi-yu, lekin ishlab chiqarmaydi.

Aholining yosh tarkibi tug'ilish va o'lish ko'rsatkichlariga bog'liq. Tabiiy o'sish yuqori bo'lsa, aholi tarkibida bolalar salmog'i ko'p bo'ladi. Aholi yosh tarkibiga ko'pgina omillar: *urushlar, migratsiya, kasalliklar* va boshqalar ta'sir ko'rsatadi. Tug'ilishning ko'payishi aholi o'rtasida yoshlар salmog'inинг oshishiga, aksincha tug'ilishning kamayishi esa yoshlар salmog'inинг kamayishiga olib keladi. Aholining yosh tarkibini o'rganish katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega.

6 yoshgacha bo'lgan bolalar sonini bilish bolalar uchun bog'chalar, bolalar shifoxonalari va boshqa muassasalarni qurishni tashkil qilish uchun zarur bo'ladi. Aholining yosh tarkibini o'rganish va hisobga olish uning uchun ish o'rinarini yaratish, xalq iste'mol buyumlarini ishlab chiqarish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni to'g'ri taqsimlash uchun zarurdir.

Aholining yosh tarkibi jihatdan shahar aholisi qishloq aholisidan farq qiladi. Qishloq joylarida yoshlар salmog'i shaharga nisbatan ko'p. 15 yoshgacha bo'lgan yoshlар shaharlarda 35 foizni, qishloq joylarda 45 foizni tashkil etadi. (Buning sababini tushuntiring.)


Mamlakatimiz aholisi salmog'i da 15 yoshgacha bo'lgan bolalar salmog'i 40 foizni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 1926- yilda 35 foiz edi. Mazkur holat O'zbekiston aholisining yosharayotganligidan dalolat beradi.

Aholi tarkibida jinsiy tarkib ham alohida mavqega ega. Chunki aholining ko'payishi bevosita mana shunga ko'proq bog'liqdir.

Aholining jinsiy tarkibi. 1897- yilda har ming ayolga 1215 erkak to'g'ri kelgan. 1926- yilga kelib erkaklar 52,9 foiz, ayollar 47,1 foiz edi. II jahon urushi arafasida har 1000 ayolga 1068 erkak to'g'ri kelgan. 1959- yilga kelib respublika aholisi tarkibi ancha o'zgaradi — 1000 ayolga 943 erkak to'g'ri keladi. Boshqacha aytganda, bu paytga kelib ayollar butun aholining 52 foizini tashkil qilgan (bunga urush oqibati sabab bo'lgan). 1979- yildan beri O'zbekiston aholisi jinsiy tarkibi deyarli bir xil, ya'ni ayollar 50,4 foiz, erkaklar 49,6 foizni tashkil etmoqda.

Odatda, o'g'il bolalar qiz bolalarga nisbatan ko'proq tug'iladi, 1000 qiz bolaga taxminan 1040 — 1050 o'g'il bola to'g'ri keladi. Lekin o'g'il bolalar orasida qizlarga nisbatan o'llim ko'proqligi sababli 30 — 35 yoshlardan boshlab ayollar soni erkaklarga nisbatan ortib boradi.

Aholining milliy tarkibi. Inson millati uning biror xalqqa yoki elatga mansubligi bilan aniqlanadi. **Xalq (yoki etnos) tushunchasi tarixan yagona til, madaniyat, ongga ega bo'lgan kishilar guruhini aks ettiradi.** Etnoslar aniq hududlarda shakllangan bo'lib, keyinchalik migratsiya ularning joylanishidagi o'zgarishlarga ta'sir qilgan. Ammo, hozirgi kunda u yoki bu etnosning dastlabki tarqalish areali haqida aniq ma'lumotlar juda kam.



Millatning shakllanishi. Yer sharida mavjud bo'lgan 5,5 mingta xalqning 100 dan ortig'i O'zbekistonda istiqomat qiladi. Ular O'zbekiston Konstitutsiyasiga asosan teng huquqlidirlar.

O'zbeklar (ular taxminan jami aholining 78 foizini tashkil qiladi), *qoraqalpoqlar, tojiklar, qozoqlar va qirg'izlar* O'zbekistonda yashab kelayotgan tub joy aholi hisoblanadi. O'zbeklar mamlakatimizning butun hududida yashasalar, boshqa millat vakillari ayrim-ayrim hududlarda istiqomat qiladilar. Masalan, tojiklar Samarqand, Buxoro, Namangan viloyatlarida, qozoqlar Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy va Toshkent viloyatlarida ko'proq yashaydi va h.k.

O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin O'zbekistonda rus millati vakillari ancha ko'paydi. Ikkinci jahon urushi yillarda ham ko'plab boshqa millat vakillari O'zbekistondan boshpvana topdilar.

O'zbek millatiga mansub aholi Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston, Turkmaniston, Afg'oniston davlatlarida ham yashaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda yashayotgan aholining aksariyatini turmush tarzi, madaniyati, urf-odati, tarixi va tili yaqin bo'lgan turkiy xalqlar tashkil etmoqda. Mamlakatimizda barcha xalqlar teng huquqlidirlar. Bu Konsitutsiyamizning 18- moddasida qonun bilan mustahkamlangan.



O'zbekistonda barcha dinlar teng huquqlidir.

Diniy tarkibi. O'zbekiston hududi insonlarda ilk bor diniy tasavvurlar va aqidalar paydo bo'lgan qadimgi o'lkalardan biri. Jumladan, eng qadimiy Zardushtiylik dinining asl vatlani deb mutaxassislar Xorazmni ko'rsatmoqdalar. Zardushtiylikning muqaddas kitobi — Avesto deyarli ikki ming yil ichida yaxlit holga keltirilgan.

Vatanimiz ga Hindistondan Buddha dini ham kirib kelgan. Uning qoldiqlari miloddan avvalgi II asrga mansub bo'lib, Termiz shahri yaqinidan topilgan. O'sha davrda Markaziy Osiyoda *budda* dini keng tarqalgan.

O'zbekiston hududida Islomdan oldin bir qancha dinlar, xususan, *xristianlik*, *iudaizm*, *moniylik* (dehqonlar manfaatini yoqlovchi oqim) ham keng tarqalgan. Islom dini O'zbekiston hududiga VII asrda kirib kelgan.

Vatanimizda Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Mahmud az-Zamaxshariy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Imom al-Buxoriy, Abduxoliq G'ijduvoniy kabi buyuk diniy allomalar yetishib chiqqan. Afsuski, sho'rolar hokimiysi davrida jamiyatni batamom dahriylashtirishga harakat qilindi. Dinga qarshi keng miqyosda tashviqot-targ'ibot ishlari olib borildi. Bu davrda ko'p asrlik ma'naviy qadriyatlardan voz kechishga majbur qilingan, masjid va madrasalarni yopib, binolardan boshqa maqsadlarda foydalanildi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga binoan „Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi“ (31- modda).

1992- yildan buyon Ramazon hayiti (*Iyd al-Fitr*) va Qurbon hayitining (*Iyd al-Adxo*) birinchi kunlari dam olish kuni deb e'lon qilingan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda 20 dan ortiq turli dinlarga e'tiqod qiluvchilar o'zaro tinch-totuv yashamoqdalar. Bulardan *pravoslav*, *baptizm*, *yahudiylilik* vakillari o'zlarining markazlari va o'quv yurtlariga ega.

1990- yilda Muqaddas Qur'on o'zbek tiliga tarjima qilindi. Toshkentda Islom Universiteti faoliyat ko'rsatmoqda. Ko'plab talabalar Misr, Liviya, Saudiya Arabistonni kabi mamlakatlarning diniy oliy o'quv yurtlarida tahlil olmoqdalar.

O'zbekiston aholisining ijtimoiy tarkibiga ko'ra turli davrlarda o'ziga xos bo'lgan. Oktabr to'ntarishidan oldin aholining ijtimoiy tarkibida ishchixizmatchilar 5 foiz, dehqonlar 75 foiz, shahar boylari 6 foizni, qishloq boylari 13 foizni va boshqa ijtimoiy guruhlar 1,4 foizni tashkil etganlar. 1989-yilga kelib butun aholining 79 foizini ishchi va xizmatchilar tashkil qilgan. Dehqonlar salmog'i esa 20 foiz atrofida bo'lgan. Mustaqillik yillarida bu ko'rsatkich yuqoridagilarga mos holda 82 foiz va 17 foiz bo'ldi.

Aholining ma'lumot darajasi. Mustaqillik yillariga qadar O'zbekiston aholisi inqilobgacha yoppasiga savodsiz, faqatgina uning 2 foiz aholisi o'qish va yozishni bilar edi, deb jar solinardi. Vaholanki, aholining 2 foizi deganda rus tilida o'qish va yozishni biladiganlar e'tiborga olingan, xolos. Qolgan aholining ko'pchiligi taxminan 20 — 25 foizi arab imlosidagi yozuvda savodli bo'lgan.

Hozirgi kunda O'zbekiston aholisi yoppasiga savodxon jamiyat. Jahonda o'zining intellektual salohiyati bilan alohida mavqega ega. Minglab yoshlarimiz jahonning eng nufuzli ilm markazlarida ta'llim olmoqdalar. Yildan yilga respublika xalq xo'jaligida ishlaydigan malakali mutaxassislar soni oshib bormoqda. Ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitidan kelib chiqib, sanoat taraqqiyotining jadallashuvi uchun zamonaviy hunar kollejlari orqali malakali ishchilar tayyorlashga alohida e'tibor berila boshlandi.

O'zbekiston xotin-qizlari hayotida sifat o'zgarishlar ro'y berdi. Mamlakatdagi 40 ming ilmiy xodimning deyarli 40 foizini xotin-qizlar tashkil qiladi. **Xotin-qizlar orasida 1,5 ming fan doktorlari, 20 mingga yaqin fan nomzodlari yetishib chiqqanligi yuqoridagi fikrlarning isbotidir.**



Savol va topshiriqlar

1. Aholining tarkibi deganda nimani tushunasiz?
2. Aholining yosh tarkibi nimalarga bog'liq deb o'ylaysiz?
3. Nima sababdan 15 yoshgacha bo'lганlar soni shaharlarda qishloqda qaragan-da oz?

10- §. Aholi manzilgohlari

Shahar va qishloq aholi manzilgohlari ijtimoiy va hududiy mehnat taqsimoti natijasida vujudga kelgan. Mehnat taqsimoti shahar bilan qishloqning paydo bo'lishi va ularning alohida-alohida rivojlanishiga olib kelgan. Har ikkala aholi punktlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular bir-biridan farq qiladi. **Qishloq aholi manzilgohida** har bir oilaning o'z tomorqasi, chorva mollarini boqish uchun zarur shart-sharoitlari bo'lishi lozim, qishloq aholisi asosan, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadi. O'zbekistonda aholi manzilgohlari 2 turga bo'linadi. Bular shahar joylari va qishloq joylari (ovullar).

Qishloq yoki ovullar kishilarning hududiy-ijtimoiy va tarixiy tashkil topgan birligidir. Sug'oriladigan dehqonchilikning takomillashuvi, uning chorvachilikdan ajralib chiqishi aholining o'troqlashuviga, ular yashaydigan joylarning turg'unligiga sabab bo'lgan. Qishloq xo'jaligida yirik sug'orish inshootlarining qurilishi va boshqa o'zgarishlar ham aholining guruh-guruh, jamoa bo'lib yashashini taqozo etgan.

Qishloqlar shaharlarga nisbatan uzoq tarixga ega. Ayni paytda, **qishloqoylari deganda, odatda, shahardan tashqarida turuvchi, xo'jalik jihatdan o'zlashtirilgan joylar tushuniladi.**

Bu joylar aholisining bajaradigan vazifalari ham turlicha. O'zbekistonda 63 foiz aholi qishloq joylarida yashaydi. Qishloqlar katta-kichikligi, joylashuvi va aholisining bajaradigan vazifalariga ko'ra turlicha bo'ladi.

O'tmishda qishloqlar aholisining vazifasiga, mavjudligiga, kelajagiga shaharlar nuqtayi nazaridan qarash oqibatida ular o'z tarixiy va ijtimoiy mav-qeyidan uzoqlashib bordilar. Qishloqlarni yiriklashtirishga, xutor tizimidagi qishloqlarni tugatishga e'tibor berildi. Sun'iy ravishda shahar bilan qishloq o'rtasidagi tafovutlarni tugatishga harakat qilindi. Ularni „istiqbolli“, „istiqbolsiz“ tabaqalarga ajratildi.

Ma'lumki, hozirgi sharoitda, qishloqlarning barchasi ham shaharlar toifasiga o'tish imkoniyatiga ega emas. Qolaversa, hamma joylarning shaharlashuvi ham maqsadga muvofiq bo'lavermaydi. Binobarin, qishloq ham shaharlar kabi o'z mavqeyiga ega bo'lib qolaveradi.

Qishloqlarda mehnat resurslari ko'p. Ulardan oqilona foydalana bilmaslik aholining yashash darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yirik shaharlar atrofida joylashgan qishloqlarda aholining turmush tarzi birmuncha yuqori. Chunki mazkur qishloqlar aholisi ham shahar aholisiga yaratilgan imtiyozlardan foydalanish imkoniyatlariga ega. Tabiiyki ular o'zlariga berilgan bu imkoniyatlardan foydalanadilar.

Mustaqillik yillarda go'zal va obod qishloqlar ko'paya boshladi. Ularga ham sanoat, zamonaviy aholiga xizmat ko'rsatish obyektlari jadal kirib kelmoqda. Ko'pgina qishloqlarda xorijiy davlatlar bilan tashkil qilingan qo'shma korxonalar ham mavjud.

Shaharlar aholi manzilgohlari tarzida, dastavval, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanishi natijasida tashkil topgan. Mamlakatimiz shaharlarining tarixi miloddan avvalgi 4- asrga borib taqaladi. Ayniqsa, 6 — 8- asrlarda Kesh, So'g'd, Toxoriston, Chag'oniyon, Davon, Kushon, Shosh kabi ko'plab qo'rg'on va shahristonlar barpo etilgan.

Afrosiyob, Varaxsha, Buxoro, Termiz, Xiva, Samarcand, Shahrisabz, kabi o'nlab shaharlar o'lkamizdagi eng qadimiy shaharlar hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston hududidan o'tgan Buyuk ipak yo'li shaharlarning barq urib gullahida katta rol o'ynagan. XX asr boshlarida O'zbekistonda 20 dan ortiq shaharlar bo'lgan. Ularning aksariyati daryo bo'ylarida va karvon yo'llari ustida bunyod etilgan.

Urbanizatsiya („urbanizatsiya“ — shahar, mamlakat yoki tumanlarda shaharlar va shahar aholisining o'sishi, ularning ahamiyatini oshishi) jarayonlari shahar va qishloqlarning taraqqiy etishi bilan bog'liq. Uning asosiy ko'rsatkichi shahar joylarda yashovchi aholining hissasi yoki ulushidir.

O'zbekistonda urbanizatsiya darajasi 37 foizni tashkil qiladi. Ishlab chiqarishning taraqqiy etishi, rivojlanishi shaharlarning shakllanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shaharda aholining turmush tarzi ham qishloqdaidan sifat jihatidan farqli bo'ladi.

Xo'sh, shahar maqomini olish uchun unda qancha aholi yashashi kerak?

O'zbekistonda aholi punktlari shahar maqomini olishi uchun ulardagi aholi soni 7 mingdan kam bo'lmasligi, aholisining 1/2 qismidan ko'prog'i ishchi-xizmatchilar hamda ularning oilalaridan iborat bo'lishi talab etiladi. Bu ko'rsatkich yoki ma'lumot dunyoning turli mamlakatlarida turlichadir. Masalan: Germaniya yoki Fransiyada 2 ming, Turkmanistonda 5 ming, Qirg'iziston va Qozog'istonda 10 ming, Rossiyada 12 ming, Yaponiyada 30 mingdan ortiq kishilar yashaydigan aholi punktlari shahar deb yuritiladi.

Unutmang: shaharlarda aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligi bo'limgan tarmoqlar bilan shug'ullanadi. Shahar joylar bizda bevosita shahar va shahar tipidagi posyolka yoki shaharchalarga bo'linadi. 2002- yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda 121 shahar va 113 shaharcha mavjud.

Turli davrlarda shahar tushunchasi, uning xalq xo'jaligidagi vazifasi, jamiyatdagi mavqeyi turlicha bo'lgan.

O'zbekistondagi aksariyat shaharlar aholisi sanoatning rivojlanishi, qishloqlardan aholining ko'chib kelishi, qishloq aholi punktlarining shaharlarga aylanishi va boshqa jarayonlar tufayli shakllangan.

Shaharlar bajaradigan vazifalariga ko'ra:

1. Ko'p vazifali yirik shahar — Toshkent shahri, u siyosiy, ma'muriy - ishlab chiqarish, ilmiy, madaniy, transport markazi.

2. Viloyatlarning yirik iqtisodiy-ma'muriy markazlari. Masalan: Andijon, Samarqand, Namangan, Buxoro, Farg'ona, Nukus, Qarshi, Urganch, Jizzax, Navoiy, Termiz, Guliston.

3. Sanoat markazlari — Olmaliq, Angren, Qo'qon, Marg'ilon, Chirchiq, Yangiyo'l, Bekobod va boshqalar.

4. Kichik va o'rta sanoat shaharlari — Asaka, Zarafshon, Uchquduq, Taxiatosh, Quvasoy, Ohangaron, G'azalkent, Kattaqo'rg'on va boshqalar.

5. Sanoati rivojlanayotgan qishloq tumanlarining xo'jalik va ma'muriy markazlari — Denov, Beruniy, To'rtko'l, G'ijduvon, Qorovulbozor, Koson, Jomboy, Kosonsoy, Quva va boshqalarga bo'linadi.

Ayrim shaharlar transport tuguni vazifasini ham bajaradi. Kogon, Qo'ng'irot shaharlari bunga misol bo'la oлади. Viloyatlarning markazlari siyosiy-ma'muriy va madaniy markaz rolini ham o'ynaydi. Mamlakatimizda kurort-shaharlar, tarixiy, madaniy, ilmiy markaz vazifasini bajaradigan shaharlar ham bor.

Sizning viloyatingizda shaharlarning qanday turlari bor?

Misollar keltiring.

Shaharlar kattaligiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

⇒ Millioner shaharlar.

- ⇒ Eng yirik shaharlar — aholisi 500 ming kishidan ortiq.
- ⇒ Yirik shaharlar — aholisi 250—500 ming kishi.
- ⇒ Katta shaharlar — aholisi 100—250 ming kishi.
- ⇒ O'rtacha kattalikdagi shaharlar — aholisi 50—100 ming kishi.
- ⇒ Kichik shaharlar — aholisi 50 ming kishidan kam.

Ko'p vazifali katta shaharlar tez o'sadi, ular yonida yo'ldosh shaharlar vujudga kelib, **aglomeratsiyalarni** hosil qiladi. Chunki katta shaharlarda ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-xo'jalik, ilm-fan va madaniy taraqqiyot uchun kuchli imkoniyatlar to'plangan bo'ladi. Ular sanoat korxonalarini, qo'shma korxonalar va boshqa muassasalar, yo'ldosh shahar va shaharchalarning paydo bo'lishiga sharoit tug'diradi. Hozirgi kunda mamlakatimizda shu tariqa paydo bo'lgan va aniq ifodalangan Toshkent va Farg'ona-Marg'ilon aglomeratsiyalari shakllangan. Bundan tashqari, Samarqand, Andijon, Buxoro, Navoiy, Nukus aglomeratsiyalari ham shakllanmoqda.

Shaharchalar, asosan, tog'-kon sanoati rivojlanayotgan, yangidan o'zlashtirilayotgan hududlarda vujudga keladi. Masalan: G'ozg'on, Ingichka, Zomin, Iskandar, Ko'kdumaloq, Gazli, Sharg'un va h.k. Ularning aholisi ma'lum bir ishlab chiqarish tarmog'ida xizmat qiladi. O'zbekistonda juda ko'p shaharchalar temiryo'lbekati, qazilma konlar, yangi yerlarni o'zlash-tirish asosida ham paydo bo'lgan.

Mamlakatimizda aholisi 10—20 ming kishi bo'lgan 39 ta, 20—50 ming kishi bo'lgan 7 ta shaharcha bor. Barcha shaharchalar aholisi 1069 ming kishi (shaharlarniki esa 8156 ming kishi).

Shaharchalar shakllanib shaharlarga aylanishi mumkin. Angren, Bekobod, Olmaliq, Chirchiq, Navoiy, Uchquduq, Taxiatosh, Zarafshon, Shirin, Pitnak va boshqalar shunday shaharlardandir. Oltin ko'l, Xovos, Shovot, Gurlan va boshqalar katta shaharchalardir. Xonqa shaharchasida 32 ming aholi bor. Bu O'zbekistonda eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi.



Savol va topshiriqlar

1. Aholi manzilgohlarining nomlarini ayting.
2. Qishloq deganda nimani tushunasiz?
3. Qishloqlar katta-kichikligiga ko'ra qanday guruhlarga ajratiladi?
4. Shahar deganda nimani tushunasiz?
5. Shaharlar bajaradigan vazifalariga ko'ra qanday guruhlarga ajratiladi? Kattaligiga ko'ra-chi? Ularni jadval tarzida ko'rsating.

Ikkinchchi qism

MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI GEOGRAFIYASI



Mavzu. RESPUBLIKA IQTISODIYOTINING TARKIBIY TUZILISHI

11- §. Xalq xo‘jaligining tuzilishi va tarmoqlarining umumiy tavsifi

O‘zbekiston iqtisodiyoti mustaqil mamlakatga xos iqtisodiyot bo‘lib, milliy manfaatlarga xizmat qiladi (binobarin, u milliy iqtisodiyot deyiladi).

Mamlakatimiz tabiiy va mehnat resurslariga boy. Respublikamizda 4,2 mln. ga sug‘oriladigan yerlar, mineral xomashyoning 95 turi va juda ko‘p konlari mavjud. Markaziy Osiyodagi tabiiy gazning 40 foizi, paxta tolasining 75 foizi, gidroenergetika resurslarining 15 foizi, oltinning katta qismi, rangli metallurgiyaning 25 foizi, mehnat resurslarining 40 foizi O‘zbekistonga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekistonning milliy iqtisodiyoti o‘zaro mustahkam aloqador bo‘lgan tarmoqlardan: sanoat, fan, qishloq xo‘jaligi, transport, qurilish, savdo, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va boshqalardan iborat (chizmaga qarang).

Xalq xo‘jaligining yetakchi tarmoqlari sanoat va qishloq xo‘jaligidir. Sanoat mehnat qurollarini, aholi uchun iste’mol mollarini ishlab chiqaradi va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlaydi.

Sanoat iqtisodiyotning yetakchi sohasi bo'lib, unda 1 mln. dan ortiq ishchi-xizmatchilar mehnat qiladi. Sanoatda 100 dan ortiq tarmoqlar mavjud, uning hissasiga asosiy fondlarning 40 foizi, yalpi ijtimoiy mahsulotning 23,6 foizdan ortiqrog'i to'g'ri keladi.

Butun sanoat, odatda, 2 yirik guruhga bo'linadi. Oq'ir sanoat, yengil va oziq-ovqat sanoati. Bundan tashqari, ular tog'-kon (undiruvchi) va qayta ishlovchi sanoat tarmoqlariga ham bo'linadi.

Sanoatda davlat korxonalarini xususiylashtirish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususiylashgan korxonalar bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida ishlamoqda.

Bozor iqtisodiyoti deganda, asosan, taklifga nisbatan talabning ustuvorligi, mulkchilikning turli shakllari mavjudligi, raqobat muhitini vujudga keltirish, sifatlari mahsulotlarni ishlab chiqarish tushuniladi.

Sanoat tarmog'i sanoat korxonalarining ma'lum xomashyo zaxirasi yoki ma'lum maqsadda ishlashi, texnologik jarayonining umumiyligiga qarab ajratiladi.

Olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatmoqdaki, kelajakda butun jahonda ishlab chiqariladigan mahsulot va tovarlarning 95 foizi bevosita aql, ya'ni intellektual mahsuli bo'ladi (lotincha intellectue — aql, fikrlash demakdir), 4—5 foiz mahsulotgina xomashyo va energiyadan iborat bo'ladi. **Kelajakda sanoatni fan taraqqiyotisiz tasavvur etish qiyin bo'ladi.**

Eslab qoling: Respublika sanoat mahsulotlarining 2/3 qismi davlat tasarrufida bo'lмаган korxonalarda yaratiladi.

O'zbekiston iqtisodiyoti murakkab xo'jalik majmuyidan iborat. Mamlakat xalq xo'jaligi asosini turli mulkchilik shakllariga asoslangan 92000 ga yaqin korxona tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligi. Mamlakat milliy iqtisodiyotining eng muhim va yirik sohasi bo'lib, barcha xalq xo'jaligida yetishtiriladigan yalpi ichki mahsulotning 30 foizdan ko'prog'i, respublikadagi mehnatga yaroqli aholining 40 foizga yaqini qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi.

Respublika qishloq xo'jaligi kooperativ, jamoa xo'jaliklari, xo'jaliklararo korxonalar, shirkat uyushmalari, dehqon-fermer xo'jaliklari, aholining yordamchi xo'jaliklari, davlat xo'jaliklari va hokazolardan iborat.

Transport — mamlakat xalq xo'jaligining qon tomiridir (sababini tushuntiring). O'zbekiston Respublikasida umumiy foydalaniладиган yuk va yo'lovchilar tashuvchi transportning barcha turlari — temiryo'l, avtomobil, aviatsiya (havo), shahar elektr transporti (tramvay, trolleybus, metropoliten), daryo, quvur transporti rivojlangan. 2000- yilda yaratilgan yalpi ichki mahsulotning 8,4 foizi transport tarmoqlariga to'g'ri kelgan.

Respublika mustaqillikka erishganidan keyin mamlakatda transport korxonaları davlat ishtirokidagi aksionerlik kompaniyalari, korporatsiyalari, ochiq turdagı aksionerlik, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarga, jamoa korxonalariga aylantirildi.

Xalq xo'jaligi va uning tarmoqlari mamlakat hududida notekis joylashgan. Ular sanoat rayonlarida, markazlari va tugunlarida to'plangan. Tarmoqlar bir-biri bilan transport vositalari orqali bog'lanib turadi.

Ishlab chiqarish tarmoqlarining rayonlarda (viloyat, iqtisodiy rayon), tugun va markazlarda o'zaro aloqadorlikda joylashuvini xalq xo'jaligining hududiy tarkibi deyiladi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy vazifasi — mamlakat xalq xo'jaligining hududiy tarkibi va tuzilishini o'rghanishdan iboratdir.



Savol va topshiriqlar

1. Xalq xo'jaligi qanday tarmoqlardan iborat?
2. Sanoat, qishloq xo'jaligi qanday guruhlarga bo'linadi?
3. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda tarmoqlar o'mini tartib bilan aytin.

12- §. Mehnat unumdarligi, ekstensiv va intensiv rivojlantishning o'rni, ahamiyati

Mamlakat xalq xo'jaligini rivojlantirishda mehnat resurslarining hududiy joylashuvi e'tiborga olinishi kerak. Bunda mehnat unumdarligi alohida ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim ko'rsatkichi mehnat unumdarligi hisoblanadi. Yalpi mahsulot miqdorining ko'payishini mehnat unumdarligisiz tasavvur qilish qiyin.

Ma'lum vaqt mobaynida ishlab chiqarilgan va har bir ishlovchiga to'g'ri keladigan mahsulot miqdori bilan aniqlanuvchi, iqtisodiy holatiga baho berishda qo'llaniladigan umumiyligi iqtisodiy ko'rsatkich — **mehnat unumdarligi** deyiladi.

Mamlakat miqyosida yoki alohida tarmoqda, korxonada, ma'lum davr mobaynida ishlab chiqarilgan mahsulot **yalpi mahsulot** deyiladi.

Mehnat unumdarligini aniq mehnatning samaradorligi, mahsuldarligi deb ham tushunish mumkin. Masalan: korxona 8 soatda 100 ta televizor ishlab chiqaradi. Agar korxona fan yutuqlari, jahondagi ilg'or texnologiyadan foydalanib 8 soatda 120 ta televizor tayyorlasa, korxonadagi mehnat unumdarligi $120:100 = 20$ foizga oshgan bo'ladi.

Mehnat unumdarligini oshirish yo'llari juda ko'p. Bular:

- * Vaqtidan unumli foydalanish.
- * Mehnat intizomiga qat'iy rioya etish.
- * Ishlab chiqarishda mehnatni yaxshi tashkil etish.
- * Sifati past mahsulotlar ishlab chiqarmaslik.
- * Mahsulotni kam mehnat sarflab ishlab chiqarishga erishish.
- * Zamonaliv texnika va texnologiyadan unumli foydalanish.
- * Kadrlar malakasini oshirish.
- * Xorijiy ilg'or tajribalarni qo'llash.

- * Qo'shma korxonalar barpo etish.
- * Tejamkorlikka e'tibor berish.
- * Ishchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish va h.k.

Mehnat unumdorligini oshirish bilan iqtisodiyotni rivojlantirishning 2 ta yo'nalishi bir-biri bilan bevosita bog'liq.

Ekstensiv yo'l (lotincha **extensivis** — kengaytirish demakdir) rivojlanishning bu yo'lida **mahsulot ishlab chiqarishda miqdor o'zgarishlari yetakchi bo'lib**, sifat o'zgarishlar ikkinchi o'ringa tushadi. Korxonalar soni ko'payadi, ularda ishlovchilar soni oshadi, tabiiy resurslarni qazib olish va qayta ishlash doimo ko'payib boradi yoki qishloq xo'jaligini rivojlantirish yangi yerlarni ochish, mollar tuyeq sonini ko'paytirish hisobiga amalga oshadi va h.k.

Intensiv yo'l ekstensiv usulining qarama-qarshi yo'nalishi (lotincha **extensiv** — kuchayish demakdir) bo'lib, bunda mehnat unumdorligini oshirish oliv maqsad qilib qo'yiladi. Ishlab chiqarishni intensivlashtirish yerlarni kengaytirish evaziga emas, balki ulardan samarali, tejab-tergab foydalanish, ITT yutuqlaridan unumli foydalanish, xorijiy texnologiyalarni qo'llash va boshqalar asosida amalga oshadi. Bunda yetakchi ko'rsatkich sifat o'zgarishlari hisoblanadi. **Miqdor va sifat ko'rsatkichlari o'zaro uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi.**



Savol va topshiriqlar

1. Mehnat unumdorligi deganda nimani tushunasiz?
2. Intensiv rivojlanish ayniqsa qaysi iqtisodiy tarmoqlarga xos?
3. Ekstensiv rivojlanish ko'proq qaysi tarmoqlarda uchraydi?

13- §. Ishlab chiqarishning mujassamlashuvi. Ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatlashuv

Bozor munosabatlariga o'tish davrida sanoatni joylashtirishni ijtimoiy tashkil etish shakllarida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ladi. Jumladan, konsentratsiya (mujassamlashuv) hozirgi sharoitda keskin o'zgaradi.

Mujassamlashuv ishlab chiqarishning katta korxonalarda, shahar, tuman yoki viloyatlarda ko'proq joylashuvi demakdir. U jami mahsulot, ishlab chiqarish fondlari yoki ishchi xodimlarning bir joyda to'planligini bildiradi va foiz ko'rsatkichida o'z aksini topadi.

Ma'lumki, ilgari yirik sanoat korxonalarini qurish an'ana bo'lib qolgan edi. Xuddi shunday korxonalar bizning respublikamizda ham ko'plab barpo etilgan edi.

Mamlakatimizdagagi yirik korxonalarga misollar keltiring. Ularda qanday muammolar paydo bo'lganligini o'qituvchingiz bilan mulohaza qiling.

Hozirgi kunda bunday ishlab chiqarish shakli bilan bog'liq bo'lgan muammolar jiddiy tus olmoqda. Yirik korxonalar, ayniqsa, ijtimoiy va ekologik muammolarning vujudga kelishiga olib keladi.

Ishlab chiqarishda yuqori darajadagi mujassamlashuvning salbiy oqibati atrof-muhitning, ekologik vaziyatning o'zgarishida sodir bo'ldi. Masalan: Olmaliq, Chirchiq, Navoiy kabi shaharlarda yirik kimyo korxonalarining joylashtirilishi bu yerlarda ekologik muhitning va muvozanatning birmuncha buzilishiga, mehnat resurslaridan foydalanishda muammolarga olib keladi.

Demak, mujassamlashuv va markazlashuvni haddan tashqari yuksaltirish, faqat yirik korxonalarini qurish bozor sharoitida unchalik ma'qul emas ekan. Aksincha, kichik va o'rta korxonalarini tashkil etish mahsulotning arzon bo'lishini, boshqaruvni, ekologik vaziyatni yaxshilashni ancha yengillashtiradi. Rivojlangan davlatlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning 75—85 foizi kichik va o'rta korxonalariga to'g'ri kelishi bunga yorqin misoldir. Kichik korxonalar ni xomashyo, ishchi kuchi bilan ta'minlash, boshqarish, zarur hollarda uni qayta ixtisoslashtirish imkoniyatlari mavjuddir. Ammo kichik sanoat korxonalarini (ishchi xodimlari 250 kishigacha bo'lgan zavod va fabrikalar) hamma sanoat tarmoqlarida ham qurish mumkin emas.

Kichik sanoat korxonalarini ko'proq qurish bozor munosabatlariga o'tish davriga mos keladi. Kichik korxonalar faqat sanoatda emas, balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga ham xos. Mamlakatimiz rahbariyati kichik va o'rta tadbirdorlikni rivojlantirishga katta e'tibor bermoqda.

Eslab qoling. Mujassamlashuvning har xil turlari yoki shakllari mavjud: korxona darajasidagi ishlab chiqarish mujassamlashuvi, tuman, shahar, mintaqasi miqyosidagi hududiy mujassamlashuv va h.k.

Ixtisoslashuv. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ixtisoslashuvda ham tub o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.



Asakadagi avtomobil zavodi ixtisoslashuvning eng yuqori, ya'ni tayyor mahsulot ishlab chiqarish bosqichiga yo'naltirilgan,

Sanoat korxonasining alohida mahsulot ishlab chiqarishi va ishlab chiqarilgan mahsulotni almashtirish uchun mo'ljallanishi ixtisoslashish deyladi.

Sanoatda ixtisoslashuvning turli ko'rinishlari (detal, texnologiya, tayyor mahsulotga ixtisoslashuv) keng tarqalgan.

Detalga ixtisoslashuv murakkab buyumlarni ishlab chiqarishda keng tarqalgan. Masalan: samolyot minglab detallardan tashkil topadi. Uni bir joyda ishlab chiqarish mumkin emas. Shu tufayli uning detallari turli korxonalarda ishlab chiqariladi.

Texnologik ixtisoslashuv metallurgiya, oziq-ovqat sanoati va boshqa tarmoqlarda keng qo'llaniladi.

Ixtisoslashuv, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida va ijtimoiy hayotda ham mavjud. **U ijtimoiy va hududiy mehnat taqsimoti natijasidir.** Ixtisoslashuv natijasida kishilarning kasb-hunarlarini, xo'jalik tarmoqlari va iqtisodiy rayonlar vujudga keladi.

Ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishning yana bir shakli kooperatsiyadir.

Ishlab chiqarishning tayyor mahsulot yetkazib berishda bir qancha korxona qatnashadigan tashkiliy shakli kooperativlashuv deyladi. Qishloq joylarida imorat qilishda xalqimizning an'anaviy hashari ham kooperatsiyaga misol bo'la olishi mumkin.

Kooperatsiya ixtisoslashuv bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi vaqtda, ya'ni o'tish davrida kooperativlashuvga oid sanoat korxonalarini mumkin qadar mamlakatimiz mintaqalari doirasida amalga oshirish maqsadga muvofiq. Masalan, avtomobil, traktor va boshqa murakkab mashinalar hamda vositalar uchun ehtiyoj qismlarni kooperatsiya asosida xorijdan olmasdan bevosita mamlakatimizda ishlab chiqarish har tomonlama yaxshi natijalar beradi.

Kombinatlashuv — ma'lum bir xomashyoni qayta ishlash, uning chiqindilaridan ham foydalanish asosida turli mahsulot ishlab chiqarish demakdir. Buning uchun zamонавиу texnologiya ham jalb etiladi, atrof-muhit tozaligi saqlab qolinadi.

Misol: to'qimachilik kombinatida paxta yoki ipak tolasidan, go'sht kombinatida go'shtdan turli mahsulotlar olinadi. Kimyo kombinatida kislota, bo'yog, mineral o'g'itlar, qora metallurgiya kombinatida cho'yan, po'lat va prokat ishlab chiqariladi.

Kombinatlashuv iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga xos; qayerda „kombinat“ yoki „kompleks“ so'zi bo'lsa, bilingki, bu yerda kombinatlashuv bor (Olmaliq va Navoiy tog'-metallurgiya kombinati, Ohangaron sement kombinati, Toshkent un kombinati, maishiy xizmat ko'rsatish kombinatlari va hokazo).

Sanoat, transport, qishloq xo'jaligini **hududiy ishlab chiqarish majmuasi** shaklida tashkil qilish ko'p jihatdan afzaldir. Bunday holda barcha tarmoq va korxonalar uchun yagona infrastruktura (yo'llar, yerosti va usti kommunikatsiyalari, elektr uzatuvchi shoxobchalar va h.k.) katta miqdordagi mablag'larni tejash imkoniyatini beradi va kooperativlashuvning samaradorligini ta'minlaydi.



Savol va topshiriqlar

1. Ishlab chiqarishning mujassamlashuvi deb nimaga aytildi?
2. O'zbekistonda eng yirik korxonalarga misollar keltiring.
3. Mustaqillik yillarda nima sababdan kichik va o'rta korxonalarни bunyod etishga ko'proq e'tibor berilmoqda?
4. Kichik korxonalar qanday afzallikkarga ega?
5. Ishlab chiqarishda ixtisoslashuv nima uchun kerak?
6. Kombinatlashuvning kooperatsiyadan farqi nima? Kombinatlarga 5 ta misol keltiring.



Mavzu. YOQILG'I-ENERGETIKA SANOATI (YOES)

14- §. YOESning umumiyl tavsifi

Insonning yashashi uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy zarur. Ularning barchasi kishilarning mehnati bilan yaratiladi. Ammo yuqoridagilarning birontasini energiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Hozirgi kunda yoqilg'i-energetika sanoati mamlakatimiz xalq xo'jaligining **bazaviy** (tayanch) **tarmog'i** bo'lib, respublikada iqtisodiy va texnika taraqqiyotining mustahkam poydevori hisoblanadi.

Yoqilg'i-energetika sanoati — tarmoqlararo tizim, u mamlakat xalq xo'jaligining eng yirik qismidir. Mazkur sanoat o'z tarkibiga barcha jarayonlarni: qazib olish, yoqilg'ini qayta ishslash (sanoatning yoqilg'i tarmoqlari), elektr energiya ishlab chiqarish, transportirovka qilish (eltib berish) va energiyani taqsimlashni oladi.

YOES butun xalq xo'jaligida yuqori mehnat unumdarligini ta'minlovchi asosiy omildir. Mamlakatimizda uni rivojlantirish uchun 20 foizdan ortiq pul mablag'lari sarflanadi.

YOESning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi salmog'i yildan-yilga oshib bormoqda. Bu ko'rsatkich 1994- yilda 18,3 foiz bo'lgan bo'lsa, 2000- yilda 26,2 foizga yetdi.

YOES faqat energiya ishlab chiqarish va uni uzatish bilan chegaralanmaydi. Ushbu sanoatga turli xil yoqilg'i resurslarini qazib olish, bug' ishlab chiqarish ham kiradi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirish ko'p jihatdan energetikaning rivojlanganligi bilan bog'liq. Yirik energiya manbalari yaqinida (ko'mir, neft, gaz, elektrostansiyalar) yirik sanoat markazlari, shaharlar va ko'plab aholi punktlari paydo bo'lgan.

Bunga misollar keltiring.

YOESning qaysi tarmoqlari yuqori sur'attlar bilan rivojlanmoqda?

Mamlakatimiz YOESda 70 mingga yaqin ishchilar mehnat qiladilar.

YOES tarmoqlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular proporsional (mutanosib) rivojlanishi kerak. Bunda, albatta, iqtisodiyot ehtiyojlarini e'tiborga

olinishi zarur. Shuning bilan bir qatorda, YOES tarmoqlarining rivojlanishi (yoqilg'i va energetika) bir-biridan keskin farq qiladi. Shunga o'xshash nomutanosiblikning oldini olish uchun turli yoqilg'ilar qazib olish, energiya ishlab chiqarish va uni iste'molchilar o'rtasida taqsimlashda yoqilg'i-energetika balansidan foydalaniladi.

Yoqilg'ining turli xillarini qazib olish va ishlab chiqarilgan energiya (kirim) hamda ulardan xalq xo'jaligida foydalanish (sarfl qilishning nisbatiga) yoqilg'i-energetika balansi deyiladi.

Har xil turdag'i va xilma-xil issiqlikka ega bo'lган yoqilg'i resurslarining yoqilg'i-energetika balansini hisoblashda yoqilg'i turli xillarining miqdorini taqqoslash uchun ular shartli yoqilg'iga aylantiriladi. **Shartli yoqilg'i yonganda 7 ming kkal (29 MJkg) energiya beradigan, issiqlik koefitsienti esa bir deb qabul qilingan yoqilg'iga aytildi** (fizika fanidan turli xil yoqilg'ilarning yongandagi issiqligini aniqlang).

Torf, slanets, qo'ng'ir ko'mirning issiqlik quvvati kam bo'lганligi tufayli aksariyat hollarda ular qazib olingan joylarida foydalaniladi.

Masalan: Angren ko'mir koni negizida Ohangaron vodiysida 2 ta yirik IES qurilgan, chunki qo'ng'ir ko'mirni uzoq masofalarga tashish harajatlari hisobiga mahsulot tannarxi ancha qimmatlashib ketadi.

Mamlakatimizda yoqilg'idan foydalanish tarkibida gaz salmog'i 85 foiz, neft 7 foiz, ko'mir 5,5 foiz, yoqilg'ining boshqa turlari 2,5 foizga teng (diagramma shaklida aks ettiring).

YOES tarmoqlarini rivojlantirish kelajakda mamlakatimiz kuch-qudratini mustahkamlashda muhim poydevor bo'lib qoladi.



Savol va topshiriglar

1. YOES tarmoqlarini aytинг.
2. Energetika boyliklarining asosiy turlari qaysilar?
3. YOES balansi deganda nimani tushunasiz?
4. YOES nima uchun kerak? Uning balansida qanday o'zgarish bo'lmoqda?
5. Shartli yoqilg'i deganda nimani tushunasiz?

15- §. YOES tarkibiy qismlari. Yoqilg'i sanoati

Yoqilg'i sanoati O'zbekiston og'ir sanoatining eng muhim tarmog'i bo'lib, u yer qa'rida topilgan va qazib olinayotgan tabiiy gaz, neft, ko'mir qazib chiqarishni, neftni qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib berishni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston iqtisodiyotda to'la ravishda o'z yoqilg'i sanoati resurslariga tayanadi.

Respublikamizda 160 ga yaqin neft va gaz konlari (zaxirasi sanoat darajasida hisoblangan) ochilgan. Ularning 115 tasi Buxoro — Xiva oralig'ida, 27 tasi Farg'ona vodiysida, 10 tasi Surxondaryo va 7 tasi Ustyurtda joylashgan.

Konlarning gaz, gaz kondensatli, gaz-neft, neft, gaz-neft kondensatli va neft-gaz kondensatli turlari mavjud.

Hozir mamlakatimiz yoqilg'i sanoatida 71 ta neft, gaz va gaz kondensat konlari va 2 ta ko'mir konlaridan foydalanilmoqda. 50 ta neft, gaz va gazkondensat koni yaqin kelajakda ishga tushirish uchun tayyorlab qo'yilgan.

Yoqilg'i sanoatining yirik korxonalari Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari joylashgan.

Respublika sanoatining umumiy hajmida yoqilg'i-energetika mahsulotlari hajmi 26,2 foizni tashkil etadi (1980- yilda 8,8 foiz).

Gaz sanoati tarkibiga tabiiy gazni qazib chiqarish, tozalash, suyultirish va sun'iy gaz tayyorlash, uni foydalanuvchilarga (yoqilg'i yoki kimyo sanoati xomashyosi sifatida) yetkazib berish kiradi.

Gaz eng qulay yoqilg'i turi bo'lib, u neftni qazib olishga nisbatan 2—2,5 marta arzon tushadi. Gaz sanoatda yoqilg'i va qimmatbaho kimyoviy xomashyo sifatida ishlatalidi. Mamlakatimizda aniqlangan gaz zaxiralari 5 trln kubometrni tashkil etadi.

O'zbekistonning asosiy gaz qazib olinadigan rayonlari Buxoro va Qashqadaryo, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan.

Juda qisqa muddatlarda Buxoro — Ural (1-, 2-, 3- navbatlari), O'rta Osiyo — Markaz, Buxoro — Toshkent — Bishkek — Almati gaz quvurlari qurib ishga tushirildi.

Gaz qazib olish hajmi yildan-yilga oshib bordi: 1940- yilda 0,7 mln .m³, 1945- yilda 9 mln m³, 1960- yilda 446 mln m³. 1970- yilda 32 mlrd m³, 1980- yilda 35 mlrd m³, 1990- yilda 41 mlrd m³, 1995- yilda 48 mlrd m³, 1997- yilda 52 mlrd m³, 2000- yilda 56 mlrd m³ ga yetdi.

O'zbekiston MDH mamlakatlari ichida gaz qazib chiqarish hajmi bo'yicha Rossiya va Turkmanistondan keyin turadi. Jahonda esa tabiiy gaz zaxirasiga boy bo'lgan 10 ta davlatlar qatoridan o'rinn oladi.

Mamlakatimizda gaz qazib chiqarish hajmi Gazli, O'rtabuloq, Uchqir, Jarqoq, Muborak, Sho'rtan, Shoxpaxta gaz konlari hisobiga oshdi. (Bularni xaritadan toping va yozuvsiz xaritaga tushiring.)

Muborak gazni qayta ishslash zavodining (1-, 2-, 3-, 4-) navbatlari, Sho'rtan gaz kompleksi qurib ishga tushirilishi mamlakatimiz hayotida katta voqeа bo'ldi. Ma'lumki, respublikada qazib chiqarilayotgan gazning 98 foizi oltingugurtli gaz konlariga to'g'ri keladi. Shu tufayli ularni qayta ishlamasdan foydalanish mumkin emas.

Eng muhimmi gazni tozalash jarayonida undan oltingugurt va suyultirilgan gaz olinadi.

Mamlakatimizda 7 ta magistral gaz quvuri mavjud: (Buxoro — Gazli — Toshkent — 522 km, Muborak — Navoiy — 112 km, Sho'rtan — ToshGRES — 602 km, Kalif — Dushanbe — 408 km, Buxoro — Ural (O'zbekiston hududidan o'tgan qismi — 489 km), O'rta Osiyo — Markaz (O'zbekiston hududidan o'tgan qismi — 369 km.). Bularni xaritadan toping va yozuvsiz xaritada belgilang.

Gaz qazib chiqarish geografiyasida ham talay o'zgarishlar ro'y berdi. Ilgari qazib chiqarilgan gazning 90 foizi Buxoro viloyatidagi konlardan qazib chiqarilgan bo'lsa, endilikda Qashqadaryo viloyatidagi konlardan tabiiy gazning 80 foizi qazib chiqarilmoqda. O'zbekistonda yozda tejalgan gazni qishda foydalanish uchun 5 ta yerosti omborlari qurilgan. Shunday omborlardan eng yiriklari *Gazli* va Andijondagi *Xo'jaobod* omborlaridir.

Respublikamizda gaz sanoatining rivojlanishi xalqimizning turmush sharoitini yaxshilashda ham muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Neft sanoati yoqilg'i sanoatining muhim tarmog'i bo'lib, undan turli maqsadlarda foydalaniladi. Neft yuqori darajada issiqlik beruvchi yoqilg'i bo'libgina qolmasdan, kimyo sanoatining qimmatli xomashyosi hamdir. O'zbekistonning aniqlangan neft zaxiralari 4 mlrd tonnaga teng.

Mamlakatimizda dastlabki neft koni 1904- yilda Chimyon qishlog'ida topilgan. O'sha yili Vannovsk (hozirgi Oltiariq) temiryo'l stansiyasida neftni qayta ishlash zavodi ishga tushirilgan. 1913- yilda O'zbekiston hududidan 13 ming tonna neft qazib chiqarilgan.

1985- yilda Ko'kdumaloq, 1992- yilda Farg'ona vodisida Mingbuloq neft konlari topildi. Ko'kdumaloq koni negizida Fransiyaning TEKNEP firmasi bilan hamkorlikda Qorovulbozor tumanida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi qurib ishga tushirildi. Zavodda yuqori sifatlari aviabenzin, dizel yonilg'isi, motor va surkov moylari kabi 50 dan ortiq neft mahsulotlari ishlab chiqariladi.

O'zbekistonning neft mustaqilligi to'la ta'minlandi. Hozirgi kunda O'zbekistonda yiliga 8 mln. t neft qazib chiqarilmoqda. Bu ko'rsatkich bo'yicha u dunyoda 52- o'rinda turadi.

Respublikamizda energiyadan foydalanish tarkibida neft mahsulotlari ning ulushi rivojlangan mamlakatlar bilan deyarli bir xil. Yoqilg'i balansida neft salmog'ini kamaytirish kelajak avlod uchun bu qimmatli xomashyoni tejab qolish imkoniyatlarini beradi (Ayting-chi, bunga qanday erishish mumkin?). Yaqin kelajakda Quyi Amudaryo mintaqasida, xususan Ustyurt platosida yirik neft va gaz konlari ochilishi mumkin.

Bularni bilib qo'ying.

O'zbekistonda neft qazib chiqarish hajmi quyidagicha bo'lган:

1. 1913- yilda 13 ming t.
2. 1924- yilda 6 ming t.
3. 1940- yilda 121 ming t.
4. 1960- yilda 1603 ming t.
5. 1970- yilda 1805 ming t.
6. 1980- yilda 1329,4 ming t.
7. 1990- yilda 2810 ming t.
8. 1995- yilda 7600 ming t.
9. 1997- yilda 7900 ming t.
10. 2000- yilda 8 mln t.

Ko'mir sanoati. O'zbekistonda ko'mir zaxiralari uncha katta emas. Uning 96 foizi Toshkent viloyatida to'plangan. Mamlakatimizda jami 2 mlrd t ko'mir



Angren ko'mir havzasida zamonaviy mashinalar ishlamoqda.

zaxiralari bor. Eng yirik kon Angren qo'ng'ir ko'mir koni bo'lib, u respublikaning asosiy ko'mir bazasi hisoblanadi. Surxondaryo viloyatida Sharg'un, Boysunda toshko'mir konlari mavjud.

Mamlakatimizda ko'mirni sanoat usulida qazib olish 1930- yillarda boshlangan. 1940 – 1948- yillarda Angren havzasida ko'mir ochiq usulda qazib olina boshlandi.

Ochiq usulda ko'mir qazib olishda mehnat unumdarligi eng yuqori va mahsulot tannarxi juda past bo'ladi. Shaxta, ya'ni yopiq usulda ko'mir qazib chiqarishning esa o'ziga yarasha qiyinchiliklari mavjud.

Angren ko'miri yaxshi sifatli va harorati past bo'lsa-da, uning sanoat shaharlariga yaqinligi ko'mir qazib chiqarishning tez sur'atlarda o'sishiga sabab bo'ldi. Havza ko'miri ochiq usulda qazib olinganligi uchun tannarxi eng arzon ko'mirdir.

Shuni unutmaslik kerakki, ko'mirni ochiq usulda qazib olish atrof-muhitga katta zarar yetkazadi. Ko'mirdan bo'shagan karyerlar o'rnidagi yerlarni rekultivatsiyalash vazifalari ko'ndalang bo'lib qoladi (Rekultivatsiya so'zi lotincha bo'lib, shu hududning, ya'ni yerning unumdarligini qayta tiklash demakdir). Angren ko'mirni qazib olishda u bilan birga kaolin (oq loy) ham chiqadi. U chinni sanoati va aluminiy olishda qimmatli xomashyo hisoblanadi.

Bundan tashqari, havza ko'miri yoqilganda kuli tarkibida nodir va tarqoq moddalar borligi ham aniqlangan. Hozir Angren gilmoyasidan foydalanish maqsadida Germaniya bilan hamkorlikda „Kaolin“ qo'shma korxonasi barpo etilgan. Angren ko'mirini yer ostida yuqori bosimdagi havo oqimi yordamida energetik gazga aylantirish ham yo'lga qo'yilgan. Bu yerda yerosti gaz ombori (quvvati 800 mln. m³) qurilgan.

Angren ko'mirini uzoq hududlarga tashish mahsulot tannarxini oshirishi mumkinligini e'tiborga olib, undan shu joyning o'zida foydalanish masalalarini yechish zarur. Shu tufayli bu yerda Angren, Yangi Angren GRES'lari qurilishi

mamlakatning ko'mirga bo'lgan ehtiyojini yanada oshiradi. Jumladan, ko'mir sanoatini rivojlantirish mahsus Davlat dasturi ishlab chiqilgan. Unga muvofiq yaqin 10—15 yilda respublikada ko'mir qazib olishni 15 mln. tonnaga yetkazish ko'zda tutilgan.

Surxondaryo viloyatidagi Sharg'un ko'mir koni salohiyati jihatidan O'zbekistonda 2- o'rinda turadi. Bu kon 1941-yilda ochilgan. 1958-yilda mahsulot bera boshlagan. Kon dengiz sathidan 700—800 m balandda joylashgan. Mahsulotining sifati jihatdan Donbass va Kuzbas ko'mir mahsulotidan qolishmaydi. Bu yerda Markaziy Osiyoda yagona briketlash (iskanalash) fabrikasi bor. Ko'mir shaxta usulida qazib olinadi. Mahsulot 18 km lik osma sim yo'llar orqali briketlash fabrikasiga tushirib yiriklashtiriladi. Fabrikaning yillik quvvati 150 ming tonna.

Sharg'un konidan yiliga 200 ming tonna ko'mir qazib olinadi.

O'zbekistonning ko'mirga bo'lgan yillik ehtiyoji 8—9 mln. tonnaga teng. Shu tufayli Qozog'iston, Rossiya va Qиргизистондан ma'lum miqdorda ko'mir keltiriladi. Kelajakda Angren, Sharg'un, Boysun ko'mir konlarini yanada kengaytirish hisobiga ko'mir qazib olishni ko'paytirish mo'ljallangan.



Savol va topshiriqlar


1. Mamlakatimizdagi yirik gaz, neft, ko'mir konlarining nomlarini aytib bering.
2. Uchqir, Shoxpaxti, Muborak, Sho'rtan gaz konlari qaysi viloyatlarda joylashgan?
3. Eng yirik gaz va neft quvurlarining nomini aytинг.

16- §. Elektr energetika sanoati

Elektr energiyasiz birorta sanoat tarmog'i mavjud bo'la olmaydi. Iqtisodiyotni rivojlantirish uchun, avvalo, elektr energetika sanoatini jadal rivojlantirish maqsadga muvofiq. Mamlakatimiz energetika tizimining umumiyligi quvvati 11,3 mln. kVT bo'lgan 37 ta issiqlik va gidravlik elektr stansiyalardan iborat (chizmaga qarang).

Elektr stansiyalar

Elektr stansiyasi



Eslab qoling. Ishlab chiqarilgan elektr energiyasi o'sha zahotiyoyq foydalaniishi kerak. Chunki, uni saqlab yoki yig'ib bo'lmaydi.

O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyaning 85 foizini IESlar beradi. Vaholanki, 1950-yilda O'zbekiston umumiyligi energetika balansida ishlab

chiqarilgan elektr energiyaning 64,5 foizi GESlar hissasiga to'g'ri kelgan. Keyinchalik tabiiy gaz konlarining boy zaxiralari topilishi elektr energiyaning IESlarda ko'p ishlab chiqarilishiga sabab bo'ldi.

Issiqlik elektr stansiyalari

Mamlakatimizda IESlar 50—60- yillarda tabiiy gaz konlarining topilishi va ishga tushirilishi bilan rivojlana boshladи. Hozirgi kunda ular O'zbekistonda ishlab chiqariladigan elektr energiyaning asosiy qismini beradi.

IESlarni joylashtirishda quyidagi tamoyillarga e'tibor beriladi.

1. Agar yoqilg'ini tashib kelish harajati elektr energiyani uzatish harajidan yuqori bo'lsa, elektr stansiya yoqilg'i manbaiga yaqin joyda quriladi. Bunga misol qilib Angren, Yangi Angren GRESlarini ko'rsatish mumkin, chunki ko'mirni Toshkentga tashib olib kelib, elektr energiya hosil qilgandan ko'ra xomashyonи o'sha yerning o'zida yoqish arzonga tushadi.

2. Agar energiyani uzatish qimmatga tushsa, GRESlarni iste'molchiga yaqin joyda qurish foydalidir. Masalan: Toshkent, Navoiy, Taxiatosh, Sirdaryo GRESlari bunga misol bo'ladi. Bu turda xomashyoni keltirish elektr energiyani uzatishga qaraganda arzon.

Respublikaning yirik IESlari

IES nomi	Qurilgan yili	Joylashgan shahar	Quvvati, kVТ
Sirdaryo	1972—1981	Shirin	3,2 mln.
Yangi Angren	1985- 2000	Nurobod	2,4 mln.
Toshkent	1963—1971	Toshkent	2,0 mln.
Navoiy	1963—1981	Navoiy	830 ming
Angren	1957—1963	Angren	600 ming
Taxiatosh	1961—1990	Taxiatosh	348 ming kvt/s
Tolimarjon	1984- yilda qurulishi boshlangan	Nuriston	4,0 ming kvt/s

Yaqin kelajakda Yangi Angren va Tolimarjon GRESlari to'la ishga tushadi.

Aksariyat IESlarda elektr energiya va issiqlik energiyasi (bug') ishlab chiqariladi. Bunday IESlarni TES (IEM) *issiqlik elektr markazlari* deyiladi. Issiqlik energiyasini 20 km dan uzoq masofaga uzatish qiyinligi uchun TESlar foydalanuvchilarga yaqin joylarda—shaharlarda, yirik zavodlar yaqinida quriladi. Ularda elektr energiya ishlab chiqarish vaqtida isigan suvni ishlab chiqarish ehtiyojlar uchun yuboriladi.

Yirik issiqlik elektr markazlari (IEM)

IEM	Qurilgan yillar	Joylashgan shahar
Farg'ona	1956—1979	Farg'ona
Muborak	1985—1988	Muborak
Toshkent	1939—1954	Toshkent

GES lar (gidroelektr stansiyalar)

O'zbekistonda jami 27 ta GES bor. Suv resurslaridan energiya olish, ya'ni GESlar qurish mamlakatimizda ilk bor 1926- yilda Chirchiq shahri yaqinida amalga oshirilgan.

(GESlarning mamlakat xalq xo'jaligidagi afzalliliklarini ayting.)

O'zbekiston tog' daryolari gidroresurslarga boy bo'lib, GESlar, gidrouzellar (suv taqsimlagich), elektr energiya ishlab chiqarish, xo'jaliklarni suv bilan ta'minlash, baliqchilikni rivojlantirish masalalarini kompleks hal qiladi.

Chirchiq daryosida Chirchiq-Bo'zsuv GESlar kaskadi (elektr stansiyalarining yagona suv manbayida birin-ketin qator joylashuvi) qurilgan. Chorbog' (600 ming kVt), Xo'jakent (160 ming kVt), Andijon (110 ming kVt), Tuyamo'yin GESlari (150 ming kVt) respublikamizda eng yirik GESlar hisoblanadi.

Elektr quvvatidan xalq xo'jaligi tarmoqlarida foydalanish balansida sanoat va qurilish yetakchi o'rinda turadi. Ular butun energiyaning salkam 60 foizini iste'mol qiladi. Qishloq xo'jaligida ishlatilayotgan elektr energiya 20 foizdan ortiq.

Mamlakatimiz yagona energiya tizimiga ega. U Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ham bog'langan. Bu tizim tashqariga elektr energiyani eksport qilish imkoniyatini yaratadi. Zarur hollarda elektr energiya ham olish mumkin bo'ladi. Eng muhimmi — yagona energiya tizimida barcha turdag'i elektr stansiyalar o'zaro bog'langan bo'ladi, issiqlik va suv elektr stansiyalarining mavsum davomida ishlab turishi tartibga solib boriladi.

Elektr energiya hosil qilishda AESlar, shamol, to'lqin, qalqish, geotermal, quyosh elektr stansiyalarining ham ahamiyati katta. Ammo bizning mamlakatimizda ularning ahamiyati uncha katta emas. Respublikamiz bitmas-tuganmas quyosh energiyasiga boy. Undan foydalanishda yirik ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shulardan eng yirigi Parkent tumanida joylashgan. Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan „Fizika-Quyosh“ inshootidir.

Atom energetikasi borasida ham Toshkent shahri yaqinidagi Ulug'bek shaharchasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo O'zbekistonda yaqin kelajakda AESlardan foydalanish mo'ljallanmagan. Chernobil falokatlarini eslang. U yerda qanday asoratlar qoldi?

O‘zbekistonda geotermal (yerning ichki issiqligi) va shamol energiyasidan ham foydalanish imkoniyatlari katta. Shamol yil bo‘yi ko‘p esadigan, Yangiyer, Bekobod, Xovos tumanlarida shamol energiyasidan foydalanish mumkin va zarur. Hozirgi kunda mamlakatimizning barcha elektr stansiyalarida 55 mlrd kWt/s elektr energiya ishlab chiqarilmoqda.



Savol va topshiriqlar

1. Turli xildagi elektr stansiyalarni joylashtirish tamoyillarini ayting.
2. GES va IESni qiyoslang, ularning qulay va noqulay jihatlarini aniqlang.
3. Mamlakatimizdagи yirik IESlar va GESlar qaysilar? Aytib bering.
4. O‘zingizga yaqin bo‘lgan elektr stansiyaga ta’rif bering.



Mavzu. METALLURGIYA SANOATI

17- §. Metallurgiya sanoatining xalq xo‘jaligida tutgan o‘rni va ahamiyati

Metallurgiya og‘ir sanoatning bir tarmog‘i bo‘lib, unda xilma-xil metall ishlab chiqariladi. U qora va rangdor metallurgiyaga bo‘linadi. Qora metallurgiya temirrudasi va kokslanuvchi ko‘mir asosida cho‘yan, po‘lat va prokat ishlab chiqaradi. Shuningdek, bu tarmoqqa yordamchi materiallarni qazib olish (ohaktosh, dolomit va b.), temir qotishmalarini (ferrosplav) ishlab chiqarish ham kiradi. Temirrudasi qazib olinadigan joylarda tog‘ metallurgiya kombinatlari quriladi, u yerda ruda boyitiladi, ya‘ni keraksiz jinslardan ma‘lum miqdorda tozalanadi.

Rangli metallar ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning ayrimlari korroziyaga chidamli bo‘lsa (qalay, qo‘rg‘oshin, nikel), ba‘zilari o‘tga chidamli (titan) bo‘ladi, yoki elektr o‘tkazuvchanlik (aluminiy, mis) xususiyati bilan ajralib turadi. Shu tufayli ham rangli metallurgiya xalq xo‘jaligida ITI rivojlantiruvchi tarmoqlar uchun katta ahamiyatga ega.

Metallurgiya sanoatining joylashishi va rivojlanishi o‘ziga xos.

1. Metall ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan butun jarayonni o‘z ichiga oladi. Bular:

- temir rudasi qazib olish;
- rudani boyitish;
- yoqilg‘ini qazish va keltirish;
- metallni ishlab chiqarish (cho‘yan, po‘lat, prokat);
- qo‘sishmacha materiallarni ishlab chiqarish (o‘tga chidamli materiallar, dolomit, ohaktosh va boshqalar);
- suv manbasi bilan ta’minlash.

Ana shular tufayli metallurgiya sanoatida ishlab chiqarishning kombinatsiyaga usuli keng tarqalgan. Hozirgi zamonga metallning asosiy qismini metallurgiya kombinatlarida ishlab chiqarish xosdir.

Qora metallurgiya va, ayniqsa rangli metallurgiya (mis, aluminiy, nikel, titan va b.) ko‘p elektr energiyasini talab qiladi. Shuning uchun ular ko‘pincha arzon elektr energiya manbayiga yaqin joylashtiriladi.

Metallurgiya sanoati ko'p xomashyo talab qiladi. 1 tonna cho'yan eritish uchun 4 tonna atrofida xomashyo va yoqilg'i kerak. Rangli metallurgiyada 1 tonna metal olish uchun esa yuzlab tonna xomashyo zarur. Shuningdek, qora va rangdor metallurgiya sanoatida suv ham ko'p ishlataladi.

Metallurgiya korxonalarini qurish katta mablag' sarflanadi. To'liq siklli zavodni barpo etishga 1—1,5 mlrd AQSH dollari hisobida mablag' zarur bo'ladi.

Metallurgiya — atrof-muhitni ifloslovchi yirik manba hamdir. Masalan, yiliga 125 ming tonna mis ishlab chiqaradigan zavod atmosferaga 2 mlrd m³ har xil gazlarni, 43 ming tonna changni chiqaradi.

Metallurgiya zavodlarini quyidagi tiplarga ajratish mumkin.

1. Kombinatlar (to'liq siklli zavodlar — bunda cho'yan, po'lat, prokat ishlab chiqariladi).

2. To'liq siklliga ega bo'limgan metallurgiya zavodlari. Ularda mahsulotlardan bittasi bo'lmaydi. Cho'yan, po'lat ishlab chiqarish, po'lat va prokat ishlab chiqarish va hokazo.

3. Qayta ishlovchi (metallurgiya korxonasida metallomdan po'lat va prokat olinadi) zavod.

4. „Kichik metallurgiya“ — yirik mashinasozlik zavodlaridagi quyma sexlardir. Ko'proq mashinasozlik zavodlari yaqinida barpo etiladi.



Savol va topshiriglar

1. Metallning xalq xo'jaligida tutgan o'rnnini yoriting
2. Metallurgiya uchun xos bo'lgan xususiyatlarni aytинг
3. Kombinatlashtirish nima?
4. Metallurgiya bazasi deganda nimani tushunasiz?

18- §. Qora metallurgiya

Joylashuv omillari. Qora metallurgiya sanoatini joylashtirishda eng avvalo xomashyo va yoqilg'i geografiyasi muhim omil hisoblanadi. Har bir tonna cho'yan olish uchun o'rtacha 1,8 tonna kokslangan ko'mir va 2 tonna temir rudasi kerak bo'ladi.

Qora metallurgiya korxonasini xomashyo va yoqilg'i bazasi yaqinida yoki ular oralig'ida qurish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shuningdek, qora metallurgiya korxonasini joylashtirishda quyidagilar e'tiborga olinishi shart:

- transport yo'llarining yaqinligi;
- suv ta'minoti;
- elektr energiyasi;
- tabiiy gaz;
- tabiatni muhofaza etish;
- metallom yig'iladigan hududlar.

Qora metallurgiya korxonasining tarkibiy qismlari o'nlab zavodlardan tashkil topadi.

O'zbekistonda qora metallurgiyaning yagona korxonasi Bekobod shahridagi O'zbekiston metallurgiya zavodi hisoblanadi. Zavod qurilishi 1942-yilda umumxalq hashari bilan boshlanib, 1944- yil 5- mart kuni ishga tushirildi. Zavodda *po'lat va prokat* ishlab chiqariladi. Zavod tarkibida 3 ta marten pechi, prokat sexi, metall quyadigan termik sex va bir qancha yordamchi korxonalar ham bor. 1962- yilda uzlusiz *po'lat* quyuv qurilmasi ishga tushirildi. Shuning uchun ham mazkur korxonani to'liq siklga ega bo'limgan yoki to'liqsiz kombinat deyishadi.

1978- yilda yillik quvvati 250 ming t. bo'lgan elektr bilan *po'lat* eritish sexi mahsulot bera boshladi. Zavodda metalldan tashqari 50 ga yaqin turli xalq iste'mol mollari ham ishlab chiqariladi. Kelajakda mamlakatimizning qora metallurgiya bazasini mustahkamlashga katta e'tibor qaratiladi.



Savol va topshiriqlar

1. Qora metallurgiya sanoati qanday mahsulotlar beradi?
2. Qora metallurgiya korxonasini joylashtirishda qanday omillarga e'tibor berish zarur?
3. Qora metallurgiya korxonasining tarkibiy qismlarini aytинг.
4. Bekobod metallurgiya korxonasiga tavsif bering.

19- §. Rangli metallurgiya

Rangli metallurgiya korxonalarining joylashish omillari qora metallurgiadan farq qiladi. Rangli metall rudalari tarkibida metall miqdori juda kam bo'ladi. Shu tufayli ham bunday rudalar ular qazib olinayotgan joyda boyitiladi.

Rangdor metallurgiyada xomashyo omili yetakchi hisoblanadi. Bu tarmoq rangdor, asl, nodir metallarni qazib chiqarish va boyitishni, eritish va qotishmalar ishlab chiqarishni o'zida birlashtiradi.

Rangli metall rudalarining yana bitta xususiyati shundaki, ularda metallar kompleks holda uchraydi. Masalan, mis rudasi tarkibida molibden, oltin, kumush va boshqalar bo'ladi. Rudada bir necha metallning birgalikda uchrashi *polimetall rudalar* deyiladi (poli — ko'p demakdir).

Rangli metallar xususiyatlari ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi.

1. Yengil metallar (aluminiy, magniy, titan).
2. Og'ir metallar (mis, qo'rg'oshin, nikel, rux).
3. Qimmataho metallar (oltin, kumush, platina).
4. Qiyin eruvchi metallar (volfram, molibden).
5. Nodir metallar (uran, germaniy).

Yengil metallarni olish uchun juda ko'p elektr energiya zarur. Bularda metall birligiga hisoblanganda sarflanadigan elektr energiya miqdori haddan tashqari ko'p. Shu bois ham yengil metallarni erituvchi korxonalar arzon elektr energiya manbalari mavjud joylarda barpo etiladi. Bunday korxonalar arzon elektr energiya beruvchi GES lar yaqiniga qurilsa, mahsulot tannarxi juda arzon bo'ladi.

Og'ir metallar — *mis*, *qalay*, *qo'rg'oshin*, *rux* tarkibida metallning kamligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ham og'ir metallar ishlab chiqaruvchi korxonalarini bevosita xomashyo bazalarida barpo etiladi.

Rangli metallurgiyaning tarkibiy qismlari rudani qazib olish, boyitish, eritish, eritilgan metallni turli usullar bilan tozalash kabi jarayonlardan iborat bo'ladi. Rangli metallarni boyitishda paydo bo'lgan shlaklardan qurilish materiallari, oltungugurt gazidan kislotalar, fosfor, boshqa moddalaridan turli xil o'g'itlar tayyorlanadi. Tayyor metall esa elektrotexnika tarmoqlariga yuboriladi.

O'zbekistonda rangli metallurgiyaning yirik markazi Olmaliq shahri bo'lib, bu yerda tog' metallurgiya kombinati joylashgan. Kombinat mis eritishga ixtisoslashgan. Mis rudasi tarkibida molibden, oltin, kumush ham uchraydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, tabiatda tarkibida faqat bir xil metall bo'lgan ruda konlari deyarli yo'q, ular polimetall tarzda uchraydi. Polimetallar tarkibida asosiy metalldan tashqari qimmatli yo'ldosh elementlar ham uchraydi. Ayrim hollarda yo'ldosh elementlar asosiy elementlardan qimmat turadi. Masalan, Qalmoqqir mis konida misdan tashqari *qo'rg'oshin*, *rux*, *oltin* va boshqa metallar birgalikda mavjud.

Olmaliqda *qo'rg'oshin*, *rux* sanoati ham taraqqiy etgan. *Mis*, *rux*, *qo'rg'oshin* rudalari chiqindilaridan kimyoviy moddalar ham olinadi.

Metallurgiya kombinati Olmaliq ammosos zavodiga sulfat kislotosi yetkazib beradi. Bu yerda qishloq xo'jaligi uchun zaharli kimyoviy moddalar, o'g'itlar, sintetik tolalar ishlab chiqariladi.

Chirchiq shahrida volfram-molibden konsentratlari asosida ishlaydigan qiyin eriydigan va o'tga chidamli qotishmalar kombinati joylashgan. Kombinatda volfram va molibden simlari, tog' jinslarini parmalaydigan asboblar, elektrotexnika sanoati uchun alohida qismlar ishlab chiqariladi. Kombinat Ingichka volfram, Qo'yotosh volfram-molibden konlari asosida ishlaydi.

Oltin qazib olish sanoati mamlakatimiz rangli metallurgiyasining yetakchi tarmog'i idir. Tarmoq yirik oltin zaxiralariga ega.

O'tgan asrda o'zbek olimlarining izlanishlari natijasida mamlakatimizda o'nlab oltin konlari kashf etildi. Qoraqo'ton, Bichanzor, Pirmurot, Go'zal soy, Qo'shbuloq, Muruntov, Marjonbuloq, Zarmiton, Qizil olma, Chodak, Angren va boshqalar shular jumlasidandir.

Muruntov oltin koni va Qizilqumning sochma oltin konlari negizida Zarafshon, Uchquduq, Zafarobod, Muruntov Marjon buloq shahar va shaharchalari bунyod etildi. Muruntov oltin koni Yevrosiyodagi mashhur konlardan biri hisoblanadi. Uning oltinini sifati to'rtta to'qqiz (99,99) bilan ifodalanadi. Navoiy gidrometallurgiya zavodida olingan oltin yombilari London birjasi sertifikatini olgan. Kombinatda zargarlik buyumlari zavodi ham bor. Mustaqillik yillarda oltin sanoati yanada rivojlanmoqda.

1993-yilda Muruntov chiqindilaridan AQSH bilan birgalikda Zarafshon-Nyumont qo'shma korxonasi ish boshladi. Korxona uchun 150 ming AQSH dollari sarflandi. Hozir bu korxona yiliga tonnalab oltin ishlab chiqarmoqda. Markaziy Qizilqumda Buyuk Britaniyaning „Lonro“ firmasi bilan hamkorlikda

oltin ajratib olish maqsadida „**Amantaytu-Toldfildz**“ qo'shma korxonasi, Angrenda AQSH ning Nyumont firmasi bilan qo'shma korxona bунyod etilmoqda.

Respublikamiz rangli metallar zaxirasi bo'yicha jahonda salmoqli o'rин egallaydi. Oltin zaxiralariга ko'ra jahonda to'rtinchи o'rinda, qazib olish bo'yicha esa 8—9- o'rirlarda, uran zaxirasi bo'yicha 7—8, mis bo'yicha 10—11- o'rirlarni egallaydi.

Metallurgiya sanoati atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ma'lumki, bu sanoat juda katta miqdordagi chiqindilarni (shlaklar, keraksiz har xil toshlarni) chiqaradi. Konlardan bo'shagan hududlarda katta maydonlar yaroqsiz ahvolga kelib qoladi. Bunday joylar rekultivatsiya qilinishi kerak.



Savol va topshiriqlar

1. Nima sababdan rangli metallurgiyada xomashyo omili yetakchi hisoblanadi?
2. Polimetall rudalar nima?
3. Rangli metallarni xususiyatiga ko'ra guruhlang.
4. Mis, oltin ishlab chiqarish geografiyasi haqida fikrlang.
5. Respublikamiz viloyatlarini oltin qazib olish bo'yicha qaysi o'rinda ekanligini tartib bilan (4 tasini) yozing.



Mavzu. MASHINASOZLIK SANOATI

20- §. Mashinasozlik sanoatining ahamiyati va joylanish xususiyatlari

Mashinasozlik og'ir sanoatning yetakchi tarmog'i bo'lib, xilma-xil moshinalar, apparatlar, asboblar, jihozlar va xalq iste'mol mollari ishlab chiqaradi. Mashinasozlikning yalpi sanoat mahsulotlaridagi hajmi butun sanoatning 12 foizini tashkil qiladi.

Har bir mamlakatning taraqqiyoti bevosita mashinasozlik sanoati darajasi bilan belgilanadi. Bu borada ayniqsa zamonaviy mashinasozlik-priborsozlik, aniq va „ilmtalab“ mashinasozlik katta ahamiyatga ega.

Mashinasozlik sanoatining asosiy vazifasi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida eng yuqori mehnat unumdarligini ta'minlovchi zamonaviy mashinalarni ishlab chiqarishdan iboratdir.

Xalq xo'jaligida mashinasozlikning yetakchi bo'lish sabablari quyidagilardan iborat:

- mahsulot hajmi va unda ishlovchilar soni bo'yicha boshqa tarmoqlardan ustunligi;
- mashinasozlik sanoatining qishloq xo'jaligi, maishiy turmush, transport uchun zarur bo'lgan mashinalar va jihozlarni ishlab chiqarishi;

- birorta xalq xo'jaligi tarmoqlari mashinasozlik sanoatisiz taraqqiy eta olmasligi;
- ishlab chiqarish jihatidan o'ta murakkab tarmoq ekanligi;
- mashinasozlikning boshqa tarmoqlar bilan uzviy aloqada ekanligi va h.k.

Demak, mashinasozlik fan-texnika taraqqiyotining asosi hamda iqtisodiyotni jadal rivojlantirishning poydevori hisoblanadi.

O'zbekiston mashinasozligi yildan-yilga sifat va tarkib jihatdan o'zgarib bormoqda. Dastlabki paytlarda mashinasozlik sanoati, avvalo, ta'mirlash va paxtachilik majmuasi bilan bog'liq bo'lgan mashinalarni ishlab chiqargan bo'lsa, Ikkinchchi jahon urushi yillarda respublika mashinasozligi front ehtiyojlarini ta'minlashga xizmat qildi.

Urushdan keyingi yillarda mamlakatimiz mashinasozligi ko'p tarmoqli bo'lib rivojlandi.

Mustaqillik yillarda xorijiy mamlakatlar bilan qo'shma korxonalar barpo etish asosida mashinasozlik sanoati tarmoqlari jadal rivojlantirildi. Hozirgi vaqtda respublika mashinasozlik sanoati 15 tarmoqqa mansub yuzdan ortiq korxonalardan iborat.

Mashinasozlikning joylashish omillari. Mashinasozlik sanoati sanoatning boshqa tarmoqlaridan bir qancha xususiyatlari bilan farq qiladi. Bu xususiyatlar, avvalo, uning joylashishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarda namoyon bo'ladi.

Bu omillar quyidagilardan iborat:

1. Ilmiy markaz va malakali ishchi kadrlarning mavjudligi omili. Hozirgi zamон mashinasozligini ilmiy tadqiqot va yangiliklarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu tufayli murakkab mashinasozlik tarmoqlarini yirik ilmiytadqiqot institutlari, konstruktorlik-loyihalash byurolari, tajriba zavodlari va boshqa ilmiy tadqiqotlar mavjud yerlarda bunyod etilishi maqsadga muvofig.

2. Xomashyo omili. Mashinasozlik sanoati tarmoqlari qora metallarning 40 foizini va rangli metallarning ham katta qismini ishlatadi. Shu tufayli metallni ko'p ishlatadigan mashinasozlik sanoati tarmoqlarini bevosita metallurgiya korxonalariga yaqin joylashtirish talab etiladi. Chunki yirik mashinasozlik korxonalarini 10 minglab tonna metallarni sarflaydi.


Metallni ko'p talab qiluvchi mashinasozlik zavodlarini metallurgiya korxonalarini yaqinida barpo etish katta miqdordagi transport harajatlarini tejash imkonini beradi.

Mashinasozlik mahsulotlarini metallni talab qilishga ko'ra kam, o'rta, yuqori guruhlarga ajratish mumkin. Metallni kam talab qiladigan mashinasozlik korxonalarini metall ishlab chiqaruvchi zavodlardan uzoqroqda joylashtirsa ham bo'ladi. Metallni o'rtacha talab qiladigan mashinasozlik korxonalarini metall ishlab chiqaruvchi korxonalarga yaqinroq hududlarga, metallni ko'p talab qiluvchi mashinasozlik korxonalarini esa bevosita metall ishlab chiqarish tumanida joylashtirish — mahsulot tannarxining arzon bo'lishini ta'minlaydi.

3. Mehnat resursi omili (ko'p mehnattalab va yuqori malakali ishchi kuchi talab etuvchi jarayonlar).

Bunday tarmoqlarga stanoksozlik, samolyotsozlik, avtomobilsozlik, elektrotexnika, radiotexnika va boshqa tarmoqlarni ko'rsatish mumkin.

SANOAT XARITASI



Mehnattalab mashinasozlik korxonalarini ham 3 guruhga oz, o'rtta, ko'p mehnattalab guruhlarga ajratiladi. Mehnatni oz talab qiluvchi korxonalar mehnat resurslari kamroq bo'lgan hududlarda joylashtiriladi. Biroq, buning uchun yuqori malakali ishchi kuchi zarur. Shu bois bunday „ilmatalab“ korxonalar fan va texnika yaxshi rivojlangan markazlarda joylashtiriladi.

Ko'p mehnattalab mashinasozlik sanoatida ishlab chiqarish harajatlarining katta qismi ish haqiga kiradi va ishlab chiqarish harajatlarida ish haqi taxminan 20—25 foizni tashkil etadi.

Bu ko'rsatkich to'qimachilik sanoatida 9 foiz, ko'mir sanoatida 30 foizga teng. Mashinasozlik sanoati mahsulotlari ko'p mehnattalab bo'lganligi sababli ham ancha qimmat turadi. Mashinasozlikda ixtisoslashuv va kooperatsiya (hamkorlik) juda rivojlangan bo'ladi, chunki ishlab chiqarilgan mahsulot — mashina va mexanizmlar ancha murakkabdir. Masalan: avtomobil minglab qismlardan iborat. Barcha qismlarni bitta zavodda yasash noqulay. Shu tufayli mashinasozlikda detallar yasashga ixtisoslashuv keng tarqalgan.

Ishlab chiqarish aloqalari, ya'ni kooperatsiya transport tizimi takomilashgan hududlarda yaxshi natijalar beradi. Shu sababli qulay transport yo'llarining mavjudligi mashinasozlik sanoatini rivojlantirishda yetakchi omillardan hisoblanadi. Sanoatning biror-bir boshqa tarmog'i mashinasozlik sanoati bilan xilma-xil mahsulotlar ishlab chiqarish borasida raqobatlasha olmaydi. Mashinasozlik sanoati yiliga minglab turdag'i mashinalar, vositalar va ularning qismlarini ishlab chiqaradi.

Qishloq xo'jalik mashinalarini ularning hajmining kattaligi va qo'polligi tufayli tashib yurish noqulay. Shu sababli ularni ishlatilish rayonlarida ishlab chiqarish maqsadga muvofiqdir. Yoki paxta terish mashinalarini metallurgiya zavodlari yaqinida emas, balki iste'molchiga yaqin joyda barpo etish zarur bo'ladi.




Savol va topshiriqlar

1. Mashinasozlik sanoatining bosh vazifasi nimalardan iborat?
2. Nima sababdan Ikkinci jahon urushi yillarda mashinasozlik sanoati O'zbekistonda rivojlandi?
3. Mashinasozlik sanoati tarmoqlari tarkibini yoriting.
4. Mashinasozlik sanoati tarmoqlarini joylashtirishga qanday omillar mavjud?
5. Metallni ko'p talab qiluvchi mashinasozlik bilan mehnattalab mashinasozlik o'rtasida qanday farq mavjud?

21- §. O'zbekistonda mashinasozlik sanoatining joylanishi va rivojlanish istiqbollari

O'zbekiston mashinasozligining xalqaro miqyosdagi o'rnini eng avvalo paxtachilik bilan bog'liq bo'lgan va unga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar belgilaydi. Mamlakatimiz mashinasozligi mahsulotlarining anchagina qismi paxtachilikka xizmat qiladi.

Paxtachilik majmuasi bilan bog'liq bo'lgan mashinasozlik tarmoqlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:



Toshkent traktor zavodi.

1. Traktorsozlik va qishloq xo‘jaligi mashinasozligi.

2. Irrigatsiya, melioratsiya mashinasozligi.

3. Paxtani qayta ishlash sanoatiga xizmat qiluvchi mashinasozlik tarmoqlari (to‘qimachilik mashinasozligi, paxta tozalash va boshqa zavodlar uchun mashina va uskunalar ishlab chiqarish).

Traktorsozlik va qishloq xo‘jalik mashinasozligi.

Mamlakat mashinasozligida ishlab chiqariladigan jami mahsulotning taxminan 20 foizi shu tarmoq hissasiga to‘g‘ri keladi.

90- yillargacha bu tarmoq mahsulotlari sobiq Ittifoq ahamiyatiga ega bo‘lgan va ularga paxta terish mashinalari, seyalkalar, chopiq traktorlari va hokazolar yetkazib bergen. Hozirgi kunda tarmoqda paxtachilik traktorlari, dizel dvigatellari, paxtachilik texnikasi majmuyi, bog‘dorchilik va tokchilik mashinalari ishlab chiqarilmoqda.

Ko‘pgina mashina va jihozlar xorijiy davlatlar — AQSH, Italiya va boshqa davlatlar bilan hamkorlikda qo‘shma korxonalar buniyod qilish orqali ishlab chiqarilmoqda. Mustaqillik yillarida MDH va boshqa mamlakatlardan keltirilgan 45 dan ortiq nomdag‘i qishloq xo‘jalik mashinalari va vositalarini ishlab chiqarish o‘zlashtirildi. Ayniqsa „O‘zitalmotor“ (Italiya bilan hamkorlikda), AQSHning „Keys“ firmasi bilan tashkil etilgan ta‘mirlovchi korxonalar qishloq xo‘jaligining rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

Toshkentdagi „Toshqishloqmash“, „O‘zbekqishloqmash“ va Chirchiqdagi „Chirchiqqishloqmash“ kabi korxonalar traktor seyalkalari, kultivatorlar, g‘o‘zapoya chopadigan, ko‘sak chuviydigan mashinalar; „Kimyoqishloqxo‘jalikmash“ (Toshkent) zavodi purkagichlar, changlatgichlar, kartoshka seyalkalari, ehtiyyot qismlar ishlab chiqaradi.

Urganchda o‘t o‘rish kombaynlari zavodi, Mang‘it shahrida chorvachilik uchun vositalar, Buxoroda chorvachilik jihozlari, Yuqorichirchiq mashinasozlik zavodida avtomat planirovshiklar, tishli boronalar, tirkama va osma traktor boronalar ishlab chiqariladi. Kelajakda AQSH bilan hamkorlikda g‘alla kombaynlari ishlab chiqarish ham yo‘lga qo‘yiladi.

Suv omborlari, kanallar qurilishi va ularni loyqadan tozalash mashina va jihozlari, irrigatsiya mashinalari, yer tekislovchi mashinalar, gidronasoslar va boshqalarni ham ishlab chiqarish mamlakatimizda yo‘lga qo‘yilgan. Irrigatsiya va melioratsiya mashinasozligining yirik markazi Andijon shahridir.

Paxta tozalash sanoati mashinasozligi. „O‘zbekpaxtamash“ birlashmasida mujassamlashgan. Bu tarmoq paxta tayyorlash punktlari, paxta tozalash zavodlari uchun texnologik qurilmalar (quritish, tozalash, saqlash, mashina va mexanizmlar), tolani chigitdan ajratuvchi mashinalar, transportyorlar, paxta uzatgichlar, tunnel ochish mashinalari, chang tutgichlar va jami 50 dan ortiq

mashina va jihozlar ishlab chiqaradi. Yirik markazlari Toshkent, Andijon, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Chust shaharlaridir.

To'qimachilik mashinasozligi „O'zbekto'qimachilikmash“ birlashmasida mujassamlashgan bo'lib, unda yigirish, halqali yigirish, yigirish-pishitish mashinalarini, pillakashlik (pilla bug'lash) uskulunari ishlab chiqariladi. To'qimachilik mashina va jihozlarining 50 dan ortiq turi tayyorlanadi.

Ushbu tarmoqlarda ishlab chiqarilgan mashinalar chet ellarga ham eksport qilinadi. Ular xalqaro ko'rgazmalarda bir necha oltin medallarga sazovor bo'lgan. Yirik markazlari Toshkent, Qo'qon. Kelajakda to'qimachilik mashinasozligi Namangan, Buxoro, Sirdaryo viloyatlarida ham rivojlanadi.

Avtomobilsozlik O'zbekiston mashinasozligining muhim tarmog'i bo'lib, u o'z ichiga avtomobillar, avtomobilarga ehtiyoq qismlar, turli jihozlar ishlab chiqarishni oladi.

Avtomobilsozlik mustaqillik mevasidir. Avtomobilsozlikka oid barcha korxonalar „UzAvtomash“ uyushmasiga qaraydi. Tarmoqning yirik korxonasi Asakadagi „UzDEU“ qo'shma korxonasidir. Korxona yiliga 200 ming yengil avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega. Samarqandda Turkiya bilan hamkorlikda avtobuslar ishlab chiqaradigan „SamKochavto“ korxonasi ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Hozir O'zbekiston dunyoda avtomobillar ishlab chiqaruvchi 28-mamlakat bo'ldi. Kelajakda Rossiya bilan avtobus va trolleybuslar ishlab chiqarish korxonalarini bunyod etish ham mo'ljallangan.

O'zbekiston mashinasozligining muhim tarmog'i **elektrotexnika** sanoatidir. Tarmoqning mamlakatimiz mashinasozligidagi hissasi 20 foizga teng. Tarmoq transformatorlar, generatorlar, radiolampalar, panellar, kabellar va jami 200 nomdag'i mahsulotlar ishlab chiqaradi. Toshkent elektrotexnika va kabel zavodlari, Chirchiq va Namangan transformator zavodlari, Toshkent „Uzelektroapparat“, Andijon „Elektroapparat“ zavodlari elektrotexnika sanoating yirik korxonalarini hisoblanadi. Mazkur tarmoqning tarkibiga Toshkentdagi „Mikond“, „Algoritm“, „Zenit“ zavodlari ham kiradi. Ularda video-magnitofonlar, video pleyyerlar, EHM lar ishlab chiqariladi. Elektrotexnika va elektronika mashinasozligi sanoatida Turkiya, Janubiy Koreya, AQSH, Singapur, Rossiya, kabi mamlakatlar bilan 20 dan ortiq qo'shma korxonalar tashkil etilgan.

Asbobsozlik sanoati mashinasozlik sanoati tarkibida yosh va rivojlanib kelayotgan tarmoq hisoblanadi. Bu tarmoq xalq xo'jaligi uchun qirquv va o'ichov asboblari, slesarlik, sozlash asboblari hamda paxta tozalash sanoati zavodlari uchun paxta tolasi sifatini aniqlaydigan o'nlab turdag'i mahsulotlar



Elektroapparat zavodi.



Toshkent aviatsiya zavodida
ishlab chiqarilgan zamonaviy
IL-114 samolyoti.

monaviy IL-114 samolyotlarini ishlab chiqarish ham o'zlashtirildi. Zavod boshqa turdag'i samolyotlar uchun ehtiyoq qismlar ham tayyorlab beradi. U MDH davlatlari bilan mustahkam kooperatsiyaga ega.

Kimyo va neft-kimyo mashinasozligi. Tarmoqning yirik korxonasi „O'zbekkimyomash“ (Chirchiq) kimyo, mikrobiologiya, selluloza-qog'oz va boshqa tarmoqlarga jihozlar, truba yig'ish, ammiak selitrasи va boshqa o'g'itlar uchun kuchli kompleks texnologik liniyalar, truba-kompressorlar, ventilyatorlar ishlab chiqaradi. Namangan, Qo'qon mashinasozlik zavodlarida neft, gaz, kimyo, neftni qayta ishlash sanoati uchun xilma-xil vositalar ishlab chiqariladi.

Qurilish va yo'l qurilishi mashinasozligi Mamlakatimizdagi bu tarmoq taraqqiyoti bevosita irrigatsiya mashinalarini ta'mirlovchi „Irmash“ zavodi bilan bog'liq. Keyinchalik bu zavod negizida Toshkent ekskavator zavodi tashkil etildi. „Podyomnik“, „Kompressor“ (Toshkent) zavodlarida ko'tarma transport jihozlari, ko'priq va osma kranlar, to'rt oyoqli kranlar ishlab chiqariladi. „Andijon gidravlika mashinasozligi“ yuklagichlar, ekskavatorlar, nasos va dizellar, ehtiyoq qismlar ishlab chiqaradi.

Kommunal xo'jaligi va madaniy-maishiy ro'zg'or texnikasi mashinasozligi. Samarqand liftsozlik zavodida xalq xo'jaligi uchun passajir va yuk liftlari, yog'ochga ishlov beruvchi stanoklar ishlab chiqariladi. Zavod tarkibida Rossiya bilan hamkorlikda „Vostoklift“ qo'shma korxonasi tashkil etilgan.

Samarqand „Sino“ sovutgichlar zavodi, „Kinap“ kinoapparatlar zavodi tarmoqning yirik korxonalaridir. Toshkentdag'i „Texnolog“ „Sharq“ ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari qadoqlash, o'rash jihozlari, pivo va yaxna ichimliklarni qadoqlovchi, oziq-ovqat, konserva sanoati korxonalarini uchun mashinalar majmuyi va patok liniyalar yaratilish bilan shug'ullanadi.

„Signal“, „Texnopribor“ (Toshkent) birlashmalari avtomatlashgan liniyalar, gidrometeorologiyaga oid o'lchov asboblari va boshqa turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslasngan.

O'zbekiston mashinasozligining kelajakdagi taraqqiyoti, asosan, horijiy mamlakatlar hamkorligida va ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalari asosida olib boriladi.

ishlab chiqaradi. Tarmoqda olmos, sun'iy olmos ham ishlab chiqariladi. Toshkent asbobsozlik zavodi, Toshkent abraziv zavodi kabilar tarmoqning yirik korxonalaridir.

Samolyotsozlik. Toshkent aviatsiya zavodi 1941-yilda barpo etilgan. Bu korxonada urush davrida harbiy samolyotlar ishlab chiqarilgan. Zavodda IL-14, AN-22, IL-76, IL-76F transport samolyotlari ishlab chiqariladi. Mahalliy havo yo'llarida uchish uchun za-

XX asr o'rtalariga qadar mamlakatimiz mashinasozligi bir tomonlama rivojlangan bo'lib, asosan, qishloq xo'jalik mashinalari ishlab chiqaruvchi, paxtani qayta ishlovchi va paxta mahsulotlari bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlardan iborat edi. Urush yillarida esa front uchun mashina va jihozlar ishlab chiqarish yetakchi bo'ldi. Urushdan keyingi mashinasozlik taraqqiyoti metallni kam talab qiladigan ilmtalab va ko'p mehnattalab mashinasozlik sanoati tarmoqlarini rivojlantirishga qaratildi.

Mamlakatimiz mashinasozligining kelajakdag'i taraqqiyoti bevosita xalqning turmushi farovonligini oshirishga qaratilgan jarayonlar bilan uzviy ravishda bog'liq bo'ladi. Jumladan, yuqori mehnat unumdarligini ta'minlaydigan avtomatik liniyalar, maxsus stanoklar, kompleks mexanizatsiyalashgan liniyalar, metall o'rnni bosadigan plastmassa va boshqa materiallardan tayyorlanadigan vositalardan yasaqidigan jihozlar ustun bo'ladi.



Savol va topshiriqlar

1. O'zbekiston mashinasozligining asosini tashkil qiluvchi tarmoqlarni aiting.
2. Traktorsozlik va qishloq xo'jalik mashinasozligi xalq xo'jaligiga qanday mahsulotlar yetkazib beradi?
3. Paxta tozalash va to'qimachilik mashinasozligining yirik markazlari qaysi shaharlarda joylashgan?
4. Mamlakatimizda qurilgan qo'shma korxonalarni aiting va ularni kartaga tushiring.



Mavzu. KIMYO SANOATI

22- §. Kimyo sanoatining asosiy xususiyatlari

Kimyo sanoati boshqa sanoat tarmoqlariga nisbatan ancha yosh tarmoq bo'lib, ilmiy-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishini ta'minlovchi soha hisoblanadi. **Kimyolashtirish xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida kimyo texnologiyasi va materiallarini keng qo'llash demakdir.** O'zbekistonda kimyolashtirishning asosiy maqsadi quyidagilar:

1. Mamlakat iqtisodiyotini ITT talablariga mos holda kimyoviy mahsulotlar bilan ta'minlash.
2. Kimyoviy mahsulotlar ishlatiladigan sohalarni yanada kengaytirish.
3. Turli xil xomashyolarni qayta ishlashda kimyoviy usullarni keng qo'llash.

Kimyo sanoati mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o'rinni egallaydi. O'zbekiston kimyo sanoatida 750 dan ortiq mahsulot ishlab chiqariladi. Hozirgi zamон ishlab chiqarishini plastik massalar, sun'iy tola va sintetik kauchuk, kimyoviy mahsulotlarsiz tasavvur qilish qiyin.

Kimyo sanoati ham tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Mamlakat kimyo sanoatida tabiiy gaz, neft, ko'mir, tuzlar, oltingugurt, turli minerallar, ohaktosh, rangli metallurgiya, paxtani qayta ishlash chiqindilaridan xomashyo tarzida foydalilaniladi. Shuningdek, g'o'zapoya ham qimmatli xomashyo



Kimyo sanoati laboratoriyanadan boshlanadi.

hollarda tabiiy mahsulotlardan sifat jihatidan ustun turadi. Ularni qo'llash nafaqat mehnat resurslarini iqtisod qiladi, balki qishloq xo'jalik mahsulotlarini tejashga ham sharoit yaratadi. Masalan, kapron ishlab chiqarishga tabiiy ipak tayyorlashga qaraganda 20 barobar kam mehnat sarf qilinadi.

Ikkinchidan, kimyo sanoatida kombinatlashtirish keng tarqalgan. Kimyoviy qayta ishlash uslublarini turli-tumanligi xomashyodan kompleks foydalanish imkoniyatlarini beradi. Chunonchi, ko'mir, neft, gaz, slanesdan bir vaqtning o'zida ham energiya, ham qimmatli mahsulotlar olish uchun foydalanish mumkin.

Uchinchidan, kimyo sanoati cheklanmagan xomashyo bazalariga ega. U xilma-xil minerallar, suv va havo asosida hamda o'simlik va hayvonot dunyosidagi chiqindilardan foydalanadi. Shu tufayli kimyo sanoati tarmoqlarini xohlagan joyda qurish mumkin. Ammo bu sanoat korxonalarining atrof -muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi sababli ularni joylashtirishda ekologik omillarga e'tibor berish kerak. Shunday qilib, kimyo sanoatini joylashtirish ancha erkin xususiyatlarga ega, chunki uning xomashyo zaxirasi keng.

Unutmang. Kimyo sanoati boshqa sanoat tarmoqlariga qaraganda ekologik jihatdan „xavfliroq“.

Eslab qoling. Kimyo sanoati mashinasozlik va elektr energetika bilan birga hozirgi zamонави ITT ni ifodalovchi tarmoqdir.

Hozirgi vaqtida O'zbekiston kimyo sanoati taraqqiy etgan mamlakatlardan biridir. Respublikamizda kimyo sanoatining juda ko'p mahsulotlari ishlab chiqariladi. Azotli, fosforli va murakkab mineral o'g'itlar, sulfat kislotalar, spirlar, lak-bo'yoq, rezina buyumlar, dori-darmonlar, plastmassalar, kimyoviy tolalar va boshqalar shular jumlasidandir.



Savol va topshiriqlar

1. Kimyo sanoati nima sababdan arzon mahsulot beradi?
2. Kimyolashirishning asosiy maqsadi nimalardan iborat?
3. Kimyo sanoati boshqa sanoat tarmoqlaridan qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi?
4. Kimyo sanoati tarmoqlarini ta'riflang.

23- §. Kimyo sanoatining asosiy tarmoqlari va markazlari

Kimyo sanoati bir necha guruh tarmoqlardan iborat. Ularning joylashish omillari ham har xil.

Kimyo sanoati tarmoqlarini quyidagicha guruhash mumkin:

- I. Tog' kimyo (mineral xomashyo qazib chiqarish) sanoati.
- II. Asosiy kimyo (kimyoviy tuzlar, kislotalar olish) sanoati.
- III. Organik sintez (yarimfabrikatlar — tezlikni oshirish, ya'ni organik kislotalar, spirtlar ishlab chiqarish) sanoati.

IV. Polimerlar (polimer materiallar ishlab chiqarish kimyosi, sintetik kauchuk, plastmassa, sintetik tola) ishlab chiqarish sanoati.

Kimyo sanoati xalq xo'jaligining o'nlab tarmoqlari bilan mustahkam aloqaga ega.

Tog' kimyo sanoati tarmoqlari foydali qazilmalar va boshqa minerallar qazib olinadigan hududlarda joylashadi. Navoiy, Toshkent, Qashqadaryo viloyatlarida bu tarmoq ancha taraqqiy etgan. (Sababini tushuntiring.)

Asosiy kimyo tarmog'i kislotalar va mineral o'g'itlar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Sulfat kislotasini (H_2SO_4) tashib yurish murakkabligi uchun uni bevosita foydalanimuvchi rayonlarda joylashtiriladi. Fosfat o'g'itlar (superfosfat) ishlab chiqarishni ham bevosita qishloq xo'jaligi rivojlangan hududlarda barpo etish zarur. Masalan, 1 tonna apatit yoki fosforitdan 2 tonna o'g'it olinadi. Shu tufayli uni ham iste'mol hududlarida tashkil etiladi. Bunga Qo'qon, Samarqand superfosfat zavodlari misol bo'lishi mumkin. Mustaqillik yillarda Navoiy viloyatida fosforit kombinati ishga tushirildi. Navoiy, Farg'ona, Chirchiq shaharlarida azot (selitra) zavodlari, Olmaliqda murakkab mineral o'g'itlar (ammofos) ishlab chiqariladi.

Organik sintez kimyosi xilma-xil mahsulotlar ishlab chiqaradi. Bular *sintetik tolalar, etilen, atsetilen, benzol, izopren, butilen (uglevodorod xomashyosi), etil spirt, fenol, glitserin, atseton, uksus kislotosi (sirka), mochevina* (organik yarimfabrikatlar) va hokazo. Bu tarmoqning aksariyat mahsulotlarini ishlab chiqarish xomashyo, suv va energiyani ko'p talab qiladi. Masalan, 1tonna sintetik tola ishlab chiqarish uchun 20 ming m kub tabiiy gaz, 10 ming kWt/s elektr energiya, 2000—5000 m³ suv talab etiladi. Shu sababli bunday korxonalarни xomashyo, elektr energiya va suvg'a yaqin hududlarda barpo etilishi maqsadga muvofiqdir. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, organik sintez kimyosining barcha tarmoqlari ham bu tamoyilga muhtoj emas.

Organik sintez kimyosining yirik korxonasi Navoiy kimyo kombinati hisoblanadi. Kombinatda atsetilen, sirka kislota, atsetil-selluloza, nitron ishlab chiqariladi. Farg'onada atsetat ipak ishlab chiqaruvchi zavod barpo etilgan. Namangan kimyo zavodida viskoz ipak ishlab chiqarilmoqda. Viskozi ipagidan gazlama, gilam, trikotaj tayyorlashda foydalanimadi. Chirchiq „Elektrokimyosanoat“ ishlab chiqarish birlashmasida kaprolaktam (yillik quvvati 80 ming t) tayyorlanadi. Mamlakatimizda tayyorlanayotgan atsetat, nitron tolalar va kaprolaktamning 2/3 qismi eksport qilinadi. Farg'ona kimyoviy tolalar zavodida 23 ming t kaprolaktamni qayta ishlab 20 ming t kapron va sintetik iplar tayyorlashga imkon beradigan quvvatlar qurilmoqda.

Organik sintez kimyosining muhim sohalaridan biri gidroliz zavodlaridir. Yangiyo'l, Andijon, Farg'ona gidroliz zavodlarida asosiy xomashyo — chigit shulxasi va sholi qobig'idan *texnik etil spirit, furfurol, achtqilar* (xamirturush), *furi spiriti*, Andijon, Qo'qon, Yangiyo'l zavodlarida esa *etil spiriti* ishlab chiqariladi. Mamlakatimiz oziq-ovqat sanoati, tibbiyat, atir-upa va boshqa sanoat tarmoqlari o'zimizda ishlab chiqarilayotgan spirt bilan to'la ta'minlanmoqda.

Polimerlar kimyosi juda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bu tarmoqda mahsulot birligi uchun „ko'p miqdorda issiqlik energiya, suv hamda maxsus tayyorlangan xomashyo sarflanadi. Shu sababli polimer materiallar ishlab chiqarish neft mahsulotlari ishlab chiqariladigan, ko'mir kokslanadigan hududlarda, arzon energiya va yoqilg'i, suv serob bo'lgan joylarda bunyod etiladi. Tayyor mahsulot (masalan, plastmassadan yasalgan buyumlar) ishlab chiqarish foydaluanuvchilarni e'tiborga olib joylashtiriladi. Polimerlar kimyosining yirik markazlari Ohangaron („Santexlit“), Jizzax (plastmassa quvurlar), Toshkent (lak-bo'yoq firmasi), Farg'ona (sintetik smolalar), Olmaliq, Namangan shaharlari hisoblanadi.


Polimer materiallarini qayta ishlash tarmog'i (shinalar, rezina-texnika buyumlari, polietilen plyonkalar va boshqalar) ishlab chiqariladi. Tarmoqning yirik korxonalari Angrendagi „O'zbekrezinatexnika“ birlashmasi, Toshkent rezina-texnika, Pop rezina-texnika, Jizzax polietilen, Andijon polietilen plyonkaları, Toshkentdagi „Sovplastital“ korxonalari va boshqalardir.

Mustaqillik yillarda Qorovulbozorda (Buxoro viloyati) Fransiya davlati bilan hamkorlikda yirik neftni qayta ishlash zavodi qurildi. Farg'onadagi shunday korxona eng zamonaviy texnologiyalar asosida qayta jihozlandi. Hozirgi vaqtida Qo'ng'irotda respublikamizda yagona soda zavodi qurilishi davom ettirilmoqda.

Istiqlolda kimyo sanoatini rivojlantirish fosforit, selluloza, kaustik va kalsiy sodasi, kaliyli o'g'itlar, o'simliklarni kimyoviy vositalari, toluol, polimerlar ishlab chiqarish xorijiy mamlakatlar bilan qo'shma korxonalar barpo etish, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik muammolarni hal etish, kimyo sanoatining eksport imkoniyatlarini yanada kengaytirish yo'nalishlarida olib boriladi. Jumladan, hozirgi kunda Qo'ng'irotda soda zavodi, Qashqadaryo tabiiy gaz konlari asosida yirik Sho'ttan kimyo majmuasi barpo etilmoqda. Muborakda esa zamonaviy gaz-kimyo majmuasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Kimyo sanoati korxonalari atrof-muhitni, atmosferani, suvlarni kuchli ifloslaydi. Masalan, kapron tola zavodi yiliga 7 mln m³ ifloslangan suv chiqarishi mumkin. Agar bu suv tozalanmasa, u 420 mln m³ toza suvni bulg'aydi. Bunday hajmdagi suv 6 mln aholini 1 yil davomida ta'minlaydi. Shu tufayli kimyo korxonasini barpo etishdan oldin unda tozalovchi inshoot va uskunalarimi loyihalash ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq. Har qanday kimyo korxonasi qurilishidagi xarajatlarning 1/3 qismi tozalovchi qurilmalarga to'g'ri keladi.

Kelajakda kimyo sanoati korxonalarini barpo etishda e'tiborni tabiatga zarar yetkazmaslikka qaratish, uni qo'riqlash va kimyo korxonalarini had-dan tashqari kattalashtirib yubormaslikka qaratish zarur. Demak, O'zbekistonda kimyo sanoatini yanada rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar bor. Uning mamlakatimizdagi bundan keyingi taraqqiyoti bevosita suvni kam talab qiladigan va atrof-muhitga ziyon yetkazmaydigan tarmoqlarni ustunroq rivojlantirish bilan bog'liq bo'lib qolaveradi.



Savol va topshiriqlar

1. Tog' va asosiy kimyo sanoati tarmoqlarini joylashtirish omillarini aytинг.
2. Organik sintez kimyosi qanday mahsulotlar ishlab chiqaradi?
3. Polimerlar kimyosi bilan polimer materiallarni qayta ishlash kimyosi o'rasisida qanday o'xshashliklar bor?
4. Siz yashayotgan viloyatda kimyo sanoati korxonalari bormi? Ularni shu yerda joylashtirilganligiga sabab nima?



Mavzu. O'RMON VA YOG'OCHNI QAYTA ISHLASH VA SELLULOZA -QOG'ÖZ SANOATI

24- §. O'rmon va yog'ochni qayta ishlash sanoati

Yog'ochsozlik sanoati — mamlakat sanoatining eski tarmoqlaridan biri bo'lib, hunarmandchilikning bir turi tarzida rivojlanib keldi. O'rmon tabiatning bir qismi. Yog'ochsozlikning asosini o'rmon tashkil qiladi. U insонning turmush tarzida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'rmon tabiatdagi eng foydali boylik, u tirik mavjudotning yashashi uchun ekologik sharoitni vujudga keltirib, odamlar va yerni boqadigan, kiyintiradigan, havoning, suvning mo'l-ko'l bo'lishini, shifobaxsh o'simliklarning yaxshi o'sishini ta'minlaydigan manbadir.

O'zbekistonda o'rmonlar 79,2 ming kv.km maydonni tashkil etadi. U faqat sanoat xomashyosi bo'lmay, tuproqni, suv va shamol eroziyasidan ham saqlaydi, yerdagi namni ushlaydi, daryolarning toshishiga yo'l qo'yaydi, dalalarni garmseldan qovjirab ketishidan himoya qiladi va h.k.

O'rmonlar inson hayot faoliyatining eng muhim ehtiyoji bo'lmish kislorodni ishlab chiqaruvchi manbadir.

O'rmon ahamiyatiga ko'ra xilma-xil bo'lib, shahar atrofi daraxtzorlari, qo'riqxona o'rmonlari, dalalarni eroziyadan saqlovchi o'rmonlarga bo'linadi. Bunday o'rmonlarda daraxtlarni kesish taqiqilanadi. O'rmon sanoati mahsulotlarining iste'molchilari mashinasozlik, yengil sanoat, transport, qurilishi va aholining ehtiyojlaridir. Yog'ochsozlik sanoati o'zaro bog'langan bir qancha ishlab chiqarishlardan iborat bo'lib, biri ikkinchisini mahsulot bilan ta'minlab turadi. Masalan, yog'och tayyorlash korxonasi taxta tilish zavodlariga yog'och beradi. Tilingan yog'och mebel sanoatiga jo'natiladi.

Yog'och tayyorlashda hosil bo'lgan shox-shabba, po'stloq, chiqindilar o'rmon-kimyo sanoatiga spirt, moylar, bo'yoq ishlab chiqarish uchun jo'natiladi va h.k. Shu tufayli ham yog'ochdan to'liq foydalanish maqsadida o'rmon-kimyo kombinatlarini qurish foydalidir. Kombinatda yog'ochga ketma-kech ishlov berish bilan birga chiqindilarni ham to'la qayta ishlash mumkin bo'ladi.

„Yog'ochni qayta ishlash“ tushunchasi o'z ichiga „yog'ochga ishlov berish“, „yog'ochni mexanik usulda ishlash“ va „yog'ochni qayta ishlash“ (yog'ochni kimyoviy qayta ishlash) tushunchalarini oladi.

O'zbekistonda o'rmon-kimyo kombinatlari. O'zbekistonda o'rmon xomashyolari juda kamligidan o'rmon-kimyo sanoati zaif rivojlangan. Mamlakatimizning o'rmon bilan qoplanganlik darajasi butun maydon hisobiga olinganda juda past. Mavjud o'rmonlarning aksariyati tog'li hududlarda saqlangan. O'rmonchilik ishlariда xaratnatning asosiy qismi yog'och tayyorlashga (65—70%) ketadi. Shu tufayli o'rmon-kimyo kombinatlarini yog'och ko'p bo'lgan hududlarda qurish maqsadga muvofiqdir.

O'rmon sanoatining ayrim korxonalariga foydalanuvchi, suv, energiya bilan ta'minlanish sharoiti ham ta'sir ko'rsatadi. Mebelni tashib yurish uning qismlarini tashishga nisbatan qimmatga tushadi. Binobarin, mebel ishlab chiqarish korxonalarini yirik shaharlar va aholi joylashgan hududlarda joylashtirish mahsulot tannarxining arzon bo'lishini ta'minlaydi. Toshkent shahri va aksariyat viloyat markazlaridagi mebel fabrikalarining joylashishi bunga yorqin misolidir. Selluloza-qog'oz ishlab chiqarish ko'p miqdorda suv va energiya talab qiladi.

Qog'oz mahsulotlari tayyorlashda xorijiy mamlakatlar tajribasini qo'llanilishi har tomonlama foydalidir. Masalan, Yaponiyada tayyorlanayotgan qog'ozlarning 50 foizdan ko'pi makulatura hisobiga amalga oshiriladi.

O'zbekistonda yog'ochsozlik sanoati tarmoqlari va rivojlanish istiqbollari. Mustaqillik yillarda o'rmon sanoati korxonalari son va sifat jihatdan o'zgardi.

1992-yilda Andijon viloyati Asaka shahrida duradgorlik buyumlari zavodi ishga tushirildi. 1994-yil iyun oyida Toshkentda Markaziy Osiyoda birinchi bo'lgan O'zbekiston-Gretsiya qo'shma korxonasi „Uz-Ellas“ gugurt zavodi ishga tushirildi. U yiliga 300 mln quti gugurt ishlab chiqarish quvvatiga ega. Shuningdek, Namangan viloyatida qog'oz ishlab chiqarish korxonasi ham barpo etilmoqda.

„O'zqurilish yog'och sanoati“ tarkibidagi yog'ochsozlik korxonalarining ko'pchiligi qayta ta'mirlandi. Xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda o'nlab qo'shma korxonalar barpo etildi. Toshkent, Quvasoy, Sirg'ali, Urganch, Farg'ona, Yangiyo'l, Olmaliq mebel fabrikalari zamонави mebellar ishlab chiqara boshladi. Urganchda Germaniya bilan hamkorlikda sholipoya somonidan DSPlar va har xil mebellar uchun jihozlar ishlab chiqarish sexi ishga tushirildi.

Kelajakda mamlakatimizda o'rmon sanoatini rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. O'rmonlar maydonini kengaytirish va mavjud o'rmonlarni asrab-avaylash.
2. O'rmon sanoatida zamонави texnologiyani qo'llanilishi.

- Yog'ochga kompleks ishlov berish korxonalarini barpo etish. Yog'ochni kimyoviy qayta ishlashni kuchaytirish.
- Yog'ochsozlik va selluloza-qog'oz sanoatida eng zamonaviy kimyo materiallarini qo'llab, yaxshi sifatli qog'oz olishga erishish.
- G'o'za, sholi va bug'doy poyalaridan selluloza-qog'oz sanoatida unumli foydalanish.
- O'rmonlar ekologiyasiga katta e'tibor berish.



Savol va topshiriqlar

- O'rmonlar ahamiyatini reja asosida tariflang?
- O'rmon sanoati tarkibiga qanday tarmoqlar kiradi?
- Duradgorlik deganda nimani tushunasiz?
- Xaritadan mebel sanoati markazlarini toping va ularga ta'rif bering.
- Nima sababdan mazkur tarmoq respublikamizda sust rivojlangan? Sababini tushuntiring.



Mavzu. BINOKORLIK VA QURILISH MATERIALLARI SANOATI

25- §. Binokorlik sanoatining umumiyligi ta'risi.

Tarkibiy qismlari va xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Binokorlik sanoati tarkibiga qurilishga xizmat ko'rsatadigan barcha muassasa, tashkilotlar, ya'ni loyihaftirishdan tortib bino va inshootlarni foydalanishga topshirgunga qadar xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar kiradi.

Binokorlik sanoati o'z ichiga: zavod va fabrikalar, kanallar va suv omborlari, konlar, yo'l va tonellar, kasalxona va ta'lim muassasalari, uy- joylar, madaniy-maishiy, bozorlar va savdo, ovqatlanish bilan bog'liq bo'lgan barcha qurilishlarni qamrab oladi. Binokorlik sanoati mahsuloti foydalanishga topshirilgan binolar va inshootlardir.

Mazkur sanoatning joylashishida eng muhim omil geografik muhit hisoblanadi. Har bir joy o'ziga xos iqlim, geologik tuzilish, yerosti va yerusti suvlari, seysmik holati va boshqa xususiyatlarga ega. U yoki bu qurilishni boshlashdan oldin mana shu omillar e'tiborga olinishi kerak. Masalan, Toshkent viloyati, Farg'ona vodiysi, Surxondaryo va boshqa viloyatlarda 9—10 balli silkinishlarga, Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasida 8—9 balli zilzilaga bardosh beradigan inshootlarni qurish talab etiladi.

Mamlakatimizda qurilish ishlarining muvaffaqiyati bevosita qurilish tashkilotlari faoliyati bilan chambarchas bog'liq. Hozirgi kunda ko'pgina qurilish tashkilotlari nodavlat sektori qaramog'ida faoliyat ko'rsatmoqda.

Qurilish sanoatining eng muhim xususiyati shundaki, u yangi o'zlashtirilayotgan hududlarda boshqa xalq xo'jalik tarmoqlaridan oldin vujudga keltiriladi. Binobarin, viloyatlarda mustahkam qurilish bazasining mavjudligi katta ahamiyatga ega.

1913- yilda O'zbekistonda jami 20 dan ko'proq kichik g'isht zavodlari, ohak va alebastr kuydirish korxonalari bo'lgan. Hozir respublikamiz ko'p tarmoqli qurilish materiallari sanoatiga ega. Cement, asbest-sement, devorblok materiallar, izolyatsiya materiallari, qoplama plitalar, noruda qurilish keramikasi, ohak, gips, bo'tr, sanitariya-gigiyena jihozlari yasaladigan materiallar, temir-beton ishlab chiqaradigan korxonalar mavjud. Tarmoq korxonalarida 100 dan ortiq nomdag'i mahsulot turlari tayyorlanadi.

Qurilish materiallari sanoati yuksak darajada mexanizatsiyalashgan va xalq xo'jaligining qurilish materiallariga bo'lgan talabini to'la qondirmoqda; qurilishdagi ishlarning deyarli 90 foizini mashinalar bajarmoqda. Xorijiy investorlar yordami va ishtirokida yangi qo'shma korxonalar bunyod etilmoqda, ishlab turgan korxonalar esa zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanib, kengaytirilmoqda.

O'zbekistonda uysozlik kombinatlari qurish, zamonaviy texnika va texnologiya bilan jihozlangan yangi kombinatlarni ishga tushirish borasida talaygina ishlar amalga oshirilmoqda.

Qurilish sanoati o'z tarkibiga quyidagi tarmoqlarni oladi:

— cement sanoati; toshtaroshlik sanoati; devorbob materiallar (g'isht) sanoati; keramika sanoati; shisha-oyna sanoati; sanitariya jihozlari sanoati; yig'ma beton ishlab chiqarish sanoati.

Respublikaning barcha viloyatlarida qum, shag'al, ohak, marmar, granit, gips singari xomashyolar juda serob. Ana shu xomashyolar asosida O'zbekistonda ko'p tarmoqli qurilish materiallari sanoati vujudga keltirildi.



Savol va topshiriqlar

1. Binokorlik sanoatining ahamiyati nimalardan iborat?
2. Qurilish materiallari sanoatining xususiyatlarini aytib bering.
3. Sis yashab turgan uy qanday qurilish materiallaridan qurilgan?

26- §. Qurilish materiallari sanoati tarmoqlari, korxonalari va ularning joylashish xususiyatlari

Sement sanoati qurilishning „noni“ deb nom olgan. Hozirgi kunda mamlakatimiz sement sanoati qurilishga yetadigan darajada mahsulot ishlab chiqarmoqda. Yurtimizda dastlab Bekobod sement zavodiga 1914- yilda asos solingan. 1932- yilda Quvasoy, 1947- yilda Angren, 1962- yilda Ohangaron sement kombinatlari qurilib foydalanishga topshirildi. 1977- yilda yillik quvvati 3,5 mln tonna bo'lgan Navoiy sement kombinati ham ishga tushirildi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda yiliga 5,5 mln tonna sement ishlab chiqaradigan 5 ta yirik korxona faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston MDH mamlakatlari

ichida sement ishlab chiqarish bo'yicha 4- o'rinda turadi. Angrenda oq sement ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yilgan.

Toshtaroshlik (toshga ishlov berish)da hozirgi zamon qurilishida keng foydalanilayotgan marmar, granit va boshqa bezak toshlar asosida toshtaxtalar (plitalar) tayyorlash muhim o'rinn tutadi. O'zbekiston marmar konlari bo'yicha MDH davlatlari orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Mamlakatimizda 30 dan ortiq marmar, granit, g'ovak ohaktosh va boshqa konlar topilgan. O'zbekiston marmari bilan MDH mamlakatlaridagi barcha metropolitenlar, arxitektura yodgorliklari, ma'muriy binolar bezatilgan.

G'ozg'on, Nurota, Orkutsoy marmari, Langar, Savasoy, Chustda g'ovak ohaktoshning yirik zaxiralari bor. Toshga ishlov berishning yirik korxonalari G'azalkent, Toshkent, Nukus va boshqa shaharlarda mavjud.

Ohak, alibastr va gips ishlab chiqarish ham rivojlanib bormoqda. Bu korxonalar Jizzax, Kogon kabi shaharlarda joylashgan?

Noruda va qoplama materiallar tarmog'ida ham 20 ga yaqin toshga ishlov berish korxonalari faoliyat ko'rsatadi. Sho'rolar davrida marmarning ko'p qismi markazga tashib ketilgan.

G'isht sanoati qurilish materiallarining eng qadimgi tarmoqlaridan biri. Bu tarmoq respublikamiz viloyatlarida bir xil zichlikda joylashgan desa bo'ladi. Olovga chidamli va imorat g'ishtlari Toshkent viloyatida 2- g'isht zavodida, Yangiyo'l 8- g'isht zavodida, Olmaliq, Xo'jayli, Chirchiq g'isht zavodlarida ko'p miqdorda ishlab chiqariladi.

Tabiiy gaz yordamida g'isht pishirish deyarli har bir tumanda mavjud. O'zbekistonda yiliga 3,4 — 4 mlrd dona g'isht tayyorlanadi. G'isht sanoati joylashishida asosiy omil xomashyo, yoqilg'i, suv va energiya hisoblanadi. Bu tarmoq foydalanuvchi hududlarda joylashtiriladi.

Keramika sanoatining yirik korxonalari Angren keramika kombinati va Toshkent qurilish materialari kombinati hisoblanadi. Shisha-oyna sanoatining yirik korxonalari Quvasoy va G'azalkentda (Iskandar shaharchasida) joylashgan.



Kulolchilik qadimiylar tarmoq.



Kashtachilik xalqimizning azaliy mashg'uloti.

Bu korxonalarda shisha idishlar, deraza oynalari ishlab chiqariladi. Sanitariya jihozlari, cho'yan vannalar, kanalizatsiya quvurlari, oshxona rakovinalari va boshqa ehtiyoj uchun zarur mahsulotlar Ohangarondag'i „Santex qurilma“ zavodida, Angrendagi uysozlik buyumlari zavodida tayyorlanadi.

Mamlakatimiz yalpi sanoat mahsulotida qurilish materiallari sanoatining hissasi 5 foizni tashkil qiladi. Temir-beton konstruksiyalari ishlab chiqarishning 70 foizi Toshkent viloyatiga to'g'ri keladi (sababini tushintiring).

Mustaqillik yillarida serquyosh respublikamizning barcha qishloq va shaharlarida qurilish ishlari misli ko'rilmagan darajada rivojlanib ketdi. Magistral temir va avtomobil yo'llari, zavod va fabrikalar, qo'shma korxonalar, shaxta va konlar ishga tushirildi. Barcha viloyat markazlari tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketdi. Ayniqsa, Toshkentdag'i qurilishlar poytaxtimiz husniga husn qo'shmoqda.



Savol va topshiriqlar

1. Binokorlik sanoati tarkibiy qismlarini aytинг.
2. Qurilish sanoati qanday tarmoqlardan iborat?
3. Sement, toshtaroshlik sanoati markazlarini aytинг.
4. Urbanizatsiya bilan binokorlik sanoati o'rtaida qanday aloqadorlik mavjud?
5. Sement ishlab chiqarish qanday xomashyoga asoslanadi?



Mavzu. YENGIL VA OZIQ-OVQAT SANOATI

27- §. Yengil sanoatning umumiyligi ta'siri

Yengil sanoat 30 ta yirik tarmoqlardan tashkil topgan. U nooziq-ovqat iste'mol mollarining yarmini ishlab chiqaradi. Yengil sanoat taraqqiyoti bir necha xususiyatlар bilan ajralib turadi.

Birinchidan, uning mahsulotlari kishilarning hayot darajasiga ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, bu sanoat mehnatni ko'p talab etuvchi soha bo'lib, unda barcha ishlovchi xotin-qizlarning 70% ga yaqini xizmat qiladi.

Uchinchidan, yengil sanoat korxonalari suv va energiyani uncha ko'p talab qilmaydi.

Shu tufayli yengil sanoat tarmoqlarini to'g'ri joylashtirish quyidagi muhim vazifalarni hal qilishga yordam beradi:

1. Mamlakat turli qismlarida aholining moddiy manfaatdorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

2. Og'ir sanoat rivojlangan rayonlarda xotin-qizlar mehnatidan to'liq va unumli foydalanishga imkon yaratiladi.

3. Suv, energiya manbalari yetishmaydigan hududlarda ham bu sanoatni barpo qilish imkoniyatlari mavjud.

4. Ishlab chiqarishni o'rtta va kichik korxonalarda ham barpo etish mumkin.
5. Bu sanoatda bozor islohotlarini amalga oshirish osonroq va h.k.

Yengil sanoat respublikamiz xo'jaligining qadimiy kasb-koridir. Turkiston o'zining to'qimachilik mahsulotlari bilan mashhur bo'lib kelgan. Uning serjilo matolari va ipaklari, attorlik buyumlari „Buyuk ipak yo'li“ orqali xorijiy mamlakatlarga chiqarilgan.

1990- yilgacha O'zbekistonda yetishtirilgan paxta tolasining atigi 5—6% i respublikada qayta ishlanar, qolgan qismi xomashyo sifatida Rossiya va boshqa davlatlarga jo'natilar edi. Mamlakatimizda bu sanoatni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar — xomashyo bazasi, mehnat resurslari, energetika manbalari, iste'molchilar yetarli darajada mavjud.

O'zbekiston yengil sanoatini 2 guruuhga ajratish mumkin.

1- guruuhga qishloq xo'jalik mahsulotlarini dastlabki qayta ishlaydigan paxta tozalash, pillakashlik, qorako'l terisiga ishlov berish, jun yuvish kabi tarmoqlar kiradi.

2- guruuhga aholi va xo'jalik ehtiyojlari uchun keng iste'mol mollari — to'qimachilik, ip gazlama, jun gazlama, trikotaj, tikuvchilik, poyabzal, mo'yna, gilam, attorlik mollari, chinni idishlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradigan tarmoqlar kiradi.

Har ikkala guruuhga kiruvchi yengil sanoat tarmoqlari ishlab chiqariladigan mahsulotning xillari bilan emas, balki rivojlanish darajasi va o'tni bilan ham bir-biridan farq qiladi. Mamlakatimizning qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi paxta tozalash, pillachilik, kanop sanoati xalqaro ahamiyatga ega.

O'zbekistonda yengil sanoat ichida eng keng tarqalgan va rivojlangan tarmog'i **paxta tozalash sanoati** hisoblanadi. Hozirgi davrda O'zbekiston yengil sanoati ko'p tarmoqli soha bo'lib, uning tarkibida paxta tozalash zavodlaridan tashqari to'qimachilik, trikotaj, shoyi to'qish, tikuvchilik, ko'n-poyabzal, gilamchilik, chinni-fayans, attorlik mollari ishlab chiqarish sohalari mavjud.

Respublika sanoat mahsulotlari umumiy hajmida yengil sanoatning hissasi 17,6 foizni tashkil etadi. Yengil sanoat tarmog'ida 300 mingdan ortiq kishi mehnat qiladi.



Savol va topshiriqlar

1. Yengil sanoatning asosiy xususiyati nimadan iborat?
2. Xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarishning ahamiyatini so'zlab bering.
3. Mamlakatimiz yengil sanoatining tarixi haqida nimalarni bilasiz?
4. Kartangizga yengil sanoat markazlarini tushiring.

28- §. Yengil sanoat tarmoqlari joylashishi va yirik korxonalari

Paxta tozalash sanoati yengil sanoat tarmoqlari ichida yetakchi o'rinda turadi. Bu sanoat ishlab chiqarish jarayoni bir-biriga bog'liq bo'lgan paxta quritish, tozalash, presslash va transport xo'jaligidan iborat. Hozir paxta tozalash zavodlari zamонави texnologiyaga ega bo'lgan yirik korxonalardan iborat.



Marg'ilon shoyilari.

Paxta tozalash sanoati paxta ekiladigan hududlarda joylashtiriladi. Bu sanoat ko'pgina sanoat tarmoqlari bilan ishlab chiqarish aloqasiga (kooperatsiyaga) ega. (Ayting-chi, bular qaysi ishlab chiqarishlar?) Paxtaning 1/3 qismi chigitdan iboratligi tufayli yog' zavodlari paxta tozalash zavodlariga yaqin bo'lishi maqsadga muvofiq. Paxta tozalash, yog', kunjara kabi mahsulotlarni tashish arzon bo'lishi uchun bunday korxonalar magistral yo'llarga yaqin joyga joylashishi lozim.

Mamlakatimizdagi dastlabki paxta tozalash zavodlari Toshkent va Kattaqo'rg'onda XIX asrning ikkinchi yarmida qurilgan.

Asrimiz boshida paxta tozalash zavodlari kamquvvatli bo'lib, ko'pi bilan 3 ming t paxtani tozalay olgan.

Bugungi kunda paxta tozalash sanoatiga yangi texnika va texnologiya jadal sur'atlarda joriy etilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar AQSH, Shveysariya va boshqalarda ishlab chiqarilgan zamонави dastgohlardan samarali foydalanimoqda va bu borada xalqaro ilmiy-texnikaviy hamkorlik yo'lga qo'yilmoqda.

Mustaqillik yillarida xorijiy firmalar bilan paxta xomashyosini dastlabki qayta ishlashdan to tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonlar **kombinatlar** tarzida amalga oshirildi. To'ytepa, Toshkent, Bo'ston, Gurlan, Jomboy, Qorako'l, Shahrixon, Jarqo'rg'on, Nukus va boshqa shaharlardagi to'qimachilik kombinatlari bunga misol bo'la oladi. Bularning ayrimlari qo'shma korxona maqomida faoliyat ko'rsatishmoqda.

Paxta tozalash sanoati sohasida yirik ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada Markaziy paxta tozalash sanoati ilmiy-tadqiqot ishlari (SNIIIX) alohida o'ringa ega. Respublikada ishlab chiqarilgan paxta tolasining 75—80 foizi eksportga chiqariladi. O'zbekiston jahondagi 6 ta xalqaro paxta tolsi savdosi birjalaridan eng yirigi Liverpul (Angliya) paxta birjasni bilan hamkorlik qiladi.

Pillachilik ham qishloq xo'jalik mahsulotlarini dastlabki qayta ishlovchi engil sanoat tarmoqlaridan biri. Respublika MDH davlatlarida tayyorlanadigan pillaning 60 foizini beradi.

Yirik pillakashlik fabrikalari Samarcand, Shahrisabz, Marg'ilon, Buxoro, Toshkent, Urganch shaharlarda joylashgan.

Kanop tolsi ishlab chiqarish va uni dastlabki qayta ishlash ham yengil sanoat tarmog'iغا mansub. Kanop tolasidan arkon, qanor, qop, brezent, linoleum, gilam-poyandoz va boshqa mahsulotlar tayyorlanadi. Kanop tolsi ishlab chiqaradigan 10 dan ziyod zavod Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq, O'rta Chirchiq, Oqqo'rg'on tumanlarida joylashgan.

To'qimachilik sanoati yengil sanoatning eng muhim tarmog'i, hisoblanadi. O'zbekistonda to'qimachilik uzoq tarixga ega. Bu yerda tayyorlangan matolar (atlas, baxmal, beqasam, olacha) O'rta asrlarda „Buyuk ipak yo'li“ orqali Yevropa va Yaqin sharq mamlakatlariga chiqarilgan. Chorizm davrida uning

mustamlaka siyosati bu tarmoqning taraqqiyotdan orqaga ketishiga sabab bo'ldi. Keyinchalik, XX asrda Toshkent, Farg'ona, Andijon, Buxoro shaharlarida ip-gazlama, Namangan, Marg'ilonda ipak gazlama to'qimachilik sanoati barpo etildi.

Xivada gilam kombinati, Popda noto'qima materiallar kombinati faoliyat ko'rsatmoqda.

Toshkent, To'ytepa shaharlarida Janubiy Koreya bilan hamkorlikda, Toshloq, Namangan, Gurlan, Bo'ston, Nukus shaharlarida esa Turkiya, Qorako'lda AQSH bilan hamkorlikda zamonaviy to'qimachilik korxonaları bunyod etildi. Yana o'nlab shaharlarda ip-gazlama korxonaları qurilmoqda. Kosonsoyda (Namangan viloyati) O'zbekistonda yagona jun gazlamalar ishlab chiqaruvchi „Kosonsoy — Tekmen“ qo'shma korxonasi qurilgan.

Barcha to'qimachilik korxonalarida gazlama ishlab chiqarish bir qancha bosqichlardan iborat bo'ladi. Agar korxonada ip yigirilsa yoki pardozlash ishlari amalga oshirilsa bu korxona fabrika darajasida qolaveradi

Ipakchilik va shoyi to'qish sanoati. Ipak mamlakatimizda juda qadimdan ishlab chiqariladi. Marg'ilon, Namangan, Qo'qon, Buxoro, Samarcand shaharları o'zining ajoyib ipak gazlamalari bilan mashhur bo'lgan.

1913- yilda mamlakatimizda 4 ming tonna pilla yetishtirilgan. Ammo uning barchasi rus savdogarlari tomonidan Italiya va Fransiyaga jo'natilgan. Ipak to'qimachiliginning yirik korxonaları Marg'ilon („Marg'ilon xonatlas“ aksiyadorlik jamiyati), Namangan („Atlas“ va ipak gazlamasi kombinati), Samarcand (baxmal), Urganch (ponbarxit), Qo'qon (xilma-xil shoyilar), Poytug'da (shoyi) joylashgan. Marg'ilonda mamlakatimiz ipak gazlamalarining ancha qismi ishlab chiqariladi. Namanganda plashbop, kastumbop, astarbop materiallar ishlab chiqarish rivojlangan.

Xomashyoga ishlov berishdan tortib, tayyor gazlama holiga kelguncha bo'lgan jarayonlar bir korxona doirasida amalga oshirilsa, u **kombinat** bo'ladi. Ishlab chiqarishni bir korxonada, ya'ni kombinatda amalga oshirish mahsulot tannarxining birmuncha arzon bo'lishini ta'minlaydi.

Trikotaj sanoati 1930—1940- yillarda shakllandi. Bu sanoat 1500 dan ortiq nomdag'i mahsulot ishlab chiqaradi. Toshkentdagi „Malika“ trikotaj birlashmasi, Jizzax, Qo'qon paypoq kombinatlari, Shahrisabz, Shahrixon, Andijon, Samarcand, Buxoro shaharlaridagi ustki trikotaj kiyim fabrikalari tarmoqning yirik korxonaları hisoblanadi. Trikotaj sanoati bo'yicha Andijon, paypoq ishlab chiqarishda Farg'ona viloyatlari ajralib turadi.

Tikuvchilik sanoati. Mamlakatimizda tikuvchilik hunarmandchilik tarzida shakllangan. Mohir chevarlar cho'pon, do'ppi, ko'rpa-to'shak, so'zana, kashta, xilma-xil kiyimlar tikib, ularni san'at darajasigacha ko'targanlar. Tikuvchilikning yirik markazlari — Toshkentdagi „Qizil tong“, „Yulduz“, Samarcanddagi „8- mart“ tikuvchilik birlashmalarida Fransiya, Germaniya, Shveysariya, Yaponiya, Italiya firmalari bilan hamkorlikda yangi texnologik liniyalar o'rnatildi.

Ko'n-poyabzal sanoati ham yengil sanoatning yetakchi tarmog'idir. Tarmoqda mahalliy xomashyo — hayvonlar terisidan yumshoq va qattiq charm,

tabiiy va sun'iy charmidan poyabzal, bosh kiyimlari, ot-ulov asboblari, attorlik buyumlari ishlab chiqariladi.

Yirik ko'n zavodi Toshkentda 1928- yilda ishga tushirilgan. Keyinchalik Xonobod (Andijon), Toshkent shaharlarida yangi ko'n zavodlari qurildi. Mustaqillik yillarda xorijiy mamlakatlari—Xitoy, Turkiya, Pokiston bilan hamkorlikda teri ishslash qo'shma korxonalarini bunyod etildi.

Toshkent, Farg'on'a, Chirchiq, Qo'qon, Yangiyo'l, Buxoro, Urganch shaharlarida poyabzal fabrikalari mavjud. Farg'onada Germaniyaning „Salamander“ qo'shma korxonasi, Urganchda Italiya bilan hamkorlikda „Darital“ qo'shma korxonalarini bunyod etildi.

Chinni-fayans sanoati ham yengil sanoat tarmog'i hisoblanadi. Toshkent, Samarqand, Quvasoy chinni zavodlari o'zining mahsulotlari bilan mashhur.

Angren, Xiva, G'ijduvon, Shahrisabz shaharlarida dag'al chinni, xilmashil mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Rishton va Kasbi tumanlarida qadimdan kulolchilik rivojlangan.

Respublika yengil sanoat tizimida mahalliy sanoat tarmoqlari ham faoliyat ko'rsatadi. Uning tarkibida yuzlab xalq iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi korxonalar bor.



Savol va topshiriqlar

1. Yengil sanoatga barpo etilgan qo'shma korxonalar qaerlarda joylashgan?.
2. Yengil sanoat tarmoqlarini guruhlang.
3. O'zbekistonda paxta tozalash va to'qimachilik sanoati tarmoqlarining joylashishi omillarni aytинг.
4. Pilla va kanopni qayta ishslashning 10 ta markazini yozing.
5. Gilam va polos fabrikalari, gilam kombinati qaysi shaharlarda joylashgan?
6. Quyidagi shaharlar ichidan shoyi to'qish markazlarini ajrating: Urganch, Nukus, Jizzax, Marg'ilon, Qarshi, Namangan, Termiz, Poytug', Yangiyo'l, Qo'qon, G'ijduvon, Buxoro.
7. Trikotaj sanoati ishlab chiqaradigan mahsulotlardan 20 tasini yozing.
8. Quyida yengil sanoatda mashhur bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarini nomlari yozildi. Ular ro'parasiga korxona joylashgan shahar nomini yozing.
 1. „Malika“
 2. „Yulduz“
 3. „UzSalaman“
 4. „Atlas“
 5. „Ipakchi“
 6. „Xon atlas“
 7. „Darital“
9. Yozuvsiz xaritaga yengil sanoat tarmoqlarining yirik markazlarini tushiring (har tarmoqdan 5 tadan).

29- §. Oziq-ovqat sanoatining umumiyligini xususiyatlari

Oziq-ovqat sanoati agrosanoat majmuasining asosi, u aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlaydigan ishlab chiqarish korxonalaridan iborat. Ushbu sanoat mahsuloti barcha uchun va har doim kerak. Aynan ana shu xususiyatlardan oziq-ovqat sanoat korxonalarini joylashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Respublika umumiy sanoat mahsuloti hajmining 10 foizi shu tarmoqqa to'g'ri keladi.

Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoati qadimdan rivojlanib kelayotgan tarmoq bo'lib, dastlab ular oddiy turdag'i korxonalaridan tashkil topgan.

Oziq-ovqat sanoati inson yashaydigan hamma joyda mavjud. Bunga birinchidan, xomashyoning keng tarqalganligi, ikkinchidan oziq-ovqat mahsulotlarining doimiy iste'mol qilinishi sabab bo'ladi.

Shunga qaramasdan, oziq-ovqat sanoati joylashishida va rivojlanishida o'ziga xos qonuniyatlar bor. Bular:

1. Aholining soni va joylashishi, ya'ni iste'molchilar omili bilan aloqadorligi.
2. Qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi.
3. Mahsulotning sifatini saqlab qolish va transport omili.

Shu jihatdan olganda, oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini 2 ta guruhga ajratish mumkin.

I guruh qayta ishlanmagan xomashyoni ishlatuvchi tarmoqlar. Bu tarmoq asosan, xomashyoga tayanib ish ko'radi. Uning 85 foizini qishloq xo'jaligi mahsulotlari tashkil qiladi. Bular:

1. Yorma.
2. Yog' oluvchi.
3. Qand-shakar.
4. Sut-go'sht.
5. Konservalar.
6. Baliq.
7. Yaxna ichimliklar ishlab chiqarish va h.

Bu guruhda tayyor mahsulot miqdori xomashyodan ancha kam bo'ladi. Chunki guruhning aksariyat mahsulotlari quritiladi, tozalanadi (choy, mevalar, baliq va h.k.) va katta qismi chiqindilarga chiqib ketadi.

Bundan tashqari, ularning sifati buziladi (sut, mevalar va boshqalar). Shu tufayli bunday xomashyolar zudlik bilan qayta ishlanishi va 50—60 km dan uzoq masofaga olib borilmasligini taqozo etadi. Shuning uchun bunday korxonalar bevosita xomashyo yetishtiriladigan rayonlarda joylashtirilishi maqsadga muvofiq.

II guruhga qayta ishlovdan o'tgan xomashyoni ishlatuvchi tarmoqlar kiradi. Bu tarmoq iste'molchiga tayanib ish ko'radi.

Bular: 1. Makaron. 2. Non yopish (pishirish). 3. Qandolat. 4. Choy qadoqlash. Bu guruh dastlabki qayta ishlovdan o'tgan mahsulotlarni ishlatadi. Shu bois, tayyor mahsulotga nisbatan xomashyoni tashish arzonga tushadi. Masalan, 1 ta vagonga 40 tonna makaron sig'sa, xuddi shu vagonga 60 tonna un sig'ishi mumkin.

O'ylab ko'ring: un yoki bug'doyni keltirib turli un mahsulotlari (masalan, ver mishel, qotirlig'an non, pecheniy, makaron va h.k.) ishlab chiqarish ma'qulmi yoki bunday mahsulotlarning har birini alohida keltirishmi?

Oziq-ovqat sanoatining ayrim tarmoqlari xomashyo va iste'molchiga teng tayanadilar. Masalan, go'sht yetishtirish bunga misol bo'lishi mumkin. Uni iste'molchi yaqinida yoki xomashyo manbayida ham tashkil etsa bo'ladi.

Go'shtni muzlatish orqali uzoq masofalarga tashish imkoniyatlari mavjud. Go'shtni qayta ishlash jarayonida uning 10 foizi yo'qoladi, isrof bo'ladi.



Savol va topshiriglar

1. Agrosanoat majmuyi nima?
2. Kartadan oziq-ovqat sanoatining asosiy markazlarini yozib oling.
3. Oziq-ovqat sanoati qo'shma korxonalar haqida nimalarni bilasiz?
4. Xonqa, Jomboy, Xovos kabi shaharlarda yirik don mahsulotlari kombinatlari bor. Nima sababdan ular aynan shu shaharlarda joylashgan?

30- §. Respublika oziq-ovqat sanoati tarmoqlari va mahsulotlari.

Yog'-moy sanoati respublika oziq-ovqat sanoatining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Mamlakatimizda qadimda juvozlarda qovoq, kunjut, zig'ir, paxta chigit, poliz ekinlari urug'idan moy ishlab chiqarilgan.

O'zbekiston hududida birinchi moy ishlab chiqaruvchi zavod 1884- yil Qo'qonda ishga tushirilgan. Hozir O'zbekistonda jami quvvati 3 mln.t. o'simlik moyi ishlab chiqaradigan 20 dan ortiq zavod bor. Yog'-moy sanoati paxta, soya, raps moylari, shaftoli, o'rik, uzum va sabzavot urug'lari asosida ishlaydi. Yog'lar nafaqat aholi iste'moli, balki margarin, mayonez, xilma-xil sovunlar ishlab chiqarishda ham keng ishlatiladi.

Respublika yog'-moy sanoati oziq-ovqat sanoati umumiy mahsuloti hajmining 40 foiziga yaqinini beradi.

Tarmoqning yirik korxonalari Kosonsoy, Guliston, Farg'ona, Qo'qon, Kattaqo'rg'on, Urganch, Uchqo'rg'on, Yangiyo'l, Kogon, Denov, Xo'jayli va boshqa shaharlarda joylashgan.

Qo'qon yog'-moy kombinatida 15 nomdagi meva danagi moylari (o'rik, shaftoli, pomidor, uzum va dorivor o'simliklardan) ishlab chiqariladi.

Tarmoqda „Krupp“, „Sket“ (Germaniya), „Alfa Laval“ (Shvetsiya), „Jon Braun“, „Karvar“, „Kraun“ (AQSH), „Bollistra“ (Italiya), Polsha, Ukraina, Rossiya firmalari bilan hamkorlikda yangi texnologik liniyalar o'matish bo'yicha hamkorlik qilinmoqda. Yog'ning aksariyat qismi xorijiy mamlakatlarga eksport qilinadi.



Shifobaxsh ichimliklar mustaqillik mahsulotlari.

Go'sht sanoati. Respublika go'sht sanoati o'zining mustaqil va yetarli xomashyo bazasiga ega. Tarmoq qadimdan aholini qazi, qoramol, qo'y go'shtidan uzoq muddat saqlanadigan, quritilgan, qovurilgan go'sht mahsulotlari bilan ta'minlab kelgan. Hozir O'zbekistonda 20 dan ortiq go'sht kombinatlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Eslab qoling: paxta chigitidan paxta yog'ining olinishi taxminan 20 foiz atrofida. Demak, 5 kg chigitdan 1 kg paxta yog'i olinar ekan.

Go'sht kombinatlari chovachilik rivojlangan joylarda quriladi. Go'sht mahsulotini bug'ini qochirmsandan sifatli qilib ishlatish maqsadida yirik shaharlar atrofida mol so'yish punktlari bunyod etilgan. Respublikamizning Toshkent (O'rtaovul), Samarqand, Andijon, Namangan, Farg'ona, Xo'jayli, Urganch va boshqa shaharlarida go'sht kombinatlari faoliyat ko'rsatmoqda. Go'sht kombinatlarining barchasida kolbasa sexlari zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan.

Germaniya, Turkiya firmalari bilan hamkorlikda suyakni qayta ishlash, ichak mahsulotlari tayyorlash, yarim tayyor go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish, go'shtni o'rash, qadoqlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Sut sanoati. Sut sanoati sariyog', sut-qatiq, sut-konservalar, quruq sut, pishloq, brinza, qaymoq, muzqaymoq, kazein va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaradi.

O'zbek xalqi juda qadimdan sutdan xilma-xil mahsulotlar tayyorlab kelgan, qatiq, ayron, suzma, pishloq, qurt, sariyog' olish ana shular jumlasidandir.

Zamonaviy sut zavodlari Toshkent, Farg'ona, Qo'qon, Angren, Turkiston, Jizzax, Navoiy, Kattaqo'rg'on, Chirchiq shaharlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda qishloq xo'jalik xomashyosi ko'p sarf bo'ladi. Masalan, yog', pishloq va boshqa sut mahsulotlarini tayyorlashda xomashyo xarajati 80—90 foizgacha bo'ladi.

Elevator va tegirmon sanoati. Yetishtirilgan g'alla elevatorlarda saqlanadi. O'zbek xalqi qadimdan yetishtirilgan g'allani turli usullar bilan saqlash yo'ilalarini bilgan. Ular buni chuqur, quruq o'ra va xumlarda, maxsus omborlarda saqlashgan.

Hozirgi kunda Haqqulobod, Asaka, Shahrixon, Qarshi, Namangan, Samarqand, Koson, Qamashi, G'uzor, G'allaorol, Xonqa, Jomboy va boshqa 50 ga yaqin shahar va qishloqlarda zamonaviy elevatorlar joylashgan. G'allaning 2/3 qismi elevatorlarda saqlanadi. Ularning umumiy sig'imi 4,5 mln t.

Un tortish mamlakatimizda sanoat tarzida XIX asr oxirlarida paydo bo'ldi. 1870- yilda respublikamiz hududida 5 mingdan ortiq tegirmon bo'lgan. Hozir O'zbekistonda sutkasiga 500 tonnagacha don tortadigan korxonalar bor. Jizzax, Ohangaron, Qo'qon, Qarshi, Jomboy, Xovos, Taxiatosh, Xonqa kabi shaharlarda un tortish kombinatlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda g'alla mustaqilligiga erishilgach, tegirmon sanoati rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda 9 navli un, yormalar ishlab chiqariladi. Aksariyat un tortish korxonalarida xorijning zamonaviy texnologiyalari joriy qilingan.

Non sanoati. Mamlakatimizda novvoylik juda qadimiy tarixga ega. Bu borada avloddan-avlodga o'tib kelayotgan an'analar mavjud. Tandirda yopiladigan *gijda*, *patir*, *shirmoy*, *sutli non*larning o'nlab xillari mavjud. Samarqand, Qo'qon, Marg'ilon va boshqa qadimiy shaharlar o'zlarining nonlari bilan mashhur.

Barcha viloyatlar markazlarida non — bulka, qandolat kombinatlari ishlab turibdi. Eng yirik korxona Toshkent non sanoati ishlab chiqarish birlashmasidir.

Yorma sanoati. *Suli, grechka, bug'doy, arpa, makkajo 'xori, sholi, no'xat, loviya, yasmiq* va boshqa donlardan har xil yormalar ishlab chiqariladi. Yorma sanoatida sholidan turli navli guruchlar tayyorlanadi.

Taxiatosh, Xo'jayli, Shumanay, Chimboy, Urganch, Xonqa, Shovot, Bog'otda guruch zavodlari ishlab turibdi. Mustaqillik yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati qishloqlarining kichik korxonalarida *bug'doy, guruch, makkajo 'xori, oq jo 'xoridan* yorma tayyorlash amalga oshirildi.

Konserva sanoatida meva kompotlari, murabbo, jem, sharbatlar, tuzlangan sabzavotlar, pomidor pastasi, quritilgan mevalar tayyorlanadi. O'zbekistonda har yili 1 mlrd shartli banka konservalar tayyorlanadi. Ularning 100 mln bankasi eksport qilinadi.

Germaniya, Yaponiya, Polsha, Malayziya, Italiya va boshqa davlatlarda O'zbekistonning servitamin mahsulotlarini xush ko'radir. Toshkent, Yangiyo'l, G'azalkent, Quva, Farg'ona, Andijon, Namangan, Shahrisabzda yirik meva-konserva korxonalari joylashgan.

Qand-shakar sanoati mamlakatimiz xalq xo'jaligidagi yangi tarmoq. O'zbekistonda Ikkinchiji jahon urushigacha bir necha kichik qand-shakar zavodlari bo'lgan. Urushdan keyingi yillarda bu korxonalar tugatilib, qand-shakar tashqaridan olinadigan bo'ldi.

Mustaqillik yillarda e'tibor qand-shakar sanoatini rivojlantirishga qaratildi. 1995- yilda Turkiya bilan hamkorlikda Xorazm viloyatida shakar zavodi barpo etildi.

Vino, pivo va alkagolsiz ichimliklar sanoati. Mamlakatimiz vino sanoatida juda ko'p turdag'i spirtli ichimliklar ishlab chiqarilmoqda. Hozirgi kunda O'zbekistonda 20 dan ortiq aroq zavodi, 60 ga yaqin vino mahsulotlari tayyorlash korxonalarini ishlab turibdi. O'nlab vino turlari jahon ko'rgazmalarida 30 medalga sazovor bo'ldi.

Germaniya, Italiya, Isroil, Fransiya, Rossiya va boshqa davlatlar bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar barpo etildi.

Pivo va alkagolsiz ichimliklar korxonalarini barcha viloyat markazlarida va aksariyat yirik shaharlarda mavjud. Dorivor o'tlar damlamasidan ham shifobaxsh ichimliklar tayyorlanmoqda.

Ko'pgina shaharlarda mineral suvlari va chanqobosdi ichimliklarni tayyorlash korxonalarini ishlab turibdi. Xorijiy mamlakatlar firmalari bilan hamkorlikda Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch, Andijon shaharlari qo'shma korxonalar bunyod etildi. Vino, pivo va alkagolsiz ichimliklar korxonalarida xorijiy mamlakatlarning unumli avtomatik liniyalari ishga tushirilmoqda.

Choy sanoatining yirik markazi Samarqand shahri bo'lib, bu yerda — Hindiston, Xitoy, Indoneziya, Turkiya, Gruziya, Shri-Lankadan keltirilgan choy bargi xomashyosi saralanib qadoqlanadi. Samarqand choy fabrikasida yalpiz, dalachoy, rayhon, na'matak qo'shilgan choylar ishlab chiqarilmoqda. Fabrikada Argentinaning „**Surta**“ firmasi bilan 1 marta damlanadigan (1—3 grammlig'i) choy ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yilgan.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda **tuz sanoati** ham taraqqiy etdi. Qo'ng'irot tumanida, Surxondaryo viloyatida „Xo'jaituzkon“ korxonalaridan yangidan barpo etildi. Natijada Rossiya, Qozog'iston, Turkmaniston davlatlaridan tuzni keltirishga zarurat qolmadı.

Samarqand va Urgutda **tamaki fermentatsiya** zavodi, Toshkentda tamaki fabrikalari faoliyat ko'rsatmoqda. Buyuk Britaniya bilan hamkorlikda „Uzbat“ qo'shma korxonasi bunyod etilgan.



Savol va topshiriqlar.

1. Oziq-ovqat sanoati joylashtirilishidagi xususiyatlarni aytинг.
2. Oziq-ovqat sanoati guruhlarini tasniflang.
3. Nima uchun sanoat korxonalarini barcha joylarda mavjud?
4. Yog'-moy, go'sht, sut sanoat tarmoqlari joylashishini qiyoslang.
5. Yirik yog'-moy kombinatlaridan beshtasini aytинг va ular haqida qisqacha izoh bering.



Mavzu. QISHLOQ XO'JALIK GEOGRAFIYASI

31- §. Qishloq xo'jaligining tarkibiy qismlari, ixtisoslashuv omillari

Respublika qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining muhim va yetakchi tarmog'i bo'lib, aholini oziq-ovqat va kiyim-kechak xomashyosi bilan ta'minlaydi. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning o'simliklar yetishtiradigan (dehqonchilik) va chorva mollarini ko'paytiradigan (chorvachilik) tarmoqlaridan tashkil topgan.

Bu tarmoq o'simlik va hayvonot mahsulotlarini dastlabki yoki to'liq qayta ishslashning turli jarayonlarini ham o'z ichiga oladi va xalqning moddiy farovonligini ta'minlashda eng muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonning qulay tabiiy iqlim sharoiti, aholining ko'p yillik mehnat malakasi, ishchi kuchlarining ko'pligi qishloq xo'jalik tarmoqlarini rivojlanishiga qulay imkoniyatlar yaratadi. Mamlakat paxtadan tashqari, o'zini to'la ta'minlaydigan miqdorda *bug'doy, sholi, go'shi, sabzavot, meva* va boshqa mahsulotlarni yetkazib bermoqda.


O'zbekiston jahonda yalpi paxta hosili yetishtirish bo'yicha 4- o'rinda turadi. Shuningdek meva, uzum, sabzavot, poliz mahsulotlari, qorako'l terilari, sifatli pilla yetishtirish bo'yicha ham mamlakatimiz jahonda o'z mavqeyiga ega.

Yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 2/3 qismi aholining shaxsiy yordamchi xo'jaligida yetishtirilmoqda.

Qishloq xo'jaligida mehnat predmeti va mehnat vositasi yer hisoblanadi. Shu sababli yerdan to'g'ri foydalanish, uning hosildorligini saqlash muhim vazifadir.

QISHLOQ XO'JALIGI

78



Qishloq xo'jaligida ko'pgina ishlab chiqarish jarayonlari o'ziga xos xarakterga ega. Chunki ular o'simliklar o'sishi va hayvonlar rivojlanishining tabiiy sharoitlari bilan bog'langan. Tabiiy sharoit qishloq xo'jaligining rivojlanishi va joylashishiga ko'p jihatdan ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi, avvalo, tabiiy sharoit bilan bevosita bog'liq. O'zbekiston qishloq xo'jaligi tabiiy-iqtisodiy omillarga ko'ra:

I Sug'orma dehqonchilik (obikor mintaqasi).

II Adir-tog' mintaqasi.

III Cho'l-yaylov mintaqasiga bo'linadi.

Sug'orma dehqonchilik respublika hududining 20 foizini tashkil etadi.

Obikor dehqonchilik qilinadigan hududlar Farg'ona vodiysi, Mirzacho'l, Dalvarzin cho'li, Chirchiq-Ohangaron, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxon-Sherobod vodiylari va Quyi Amudaryoni o'z ichiga oladi.

Obikor mintaqaning asosiy tarmog'i paxta va bug'doy hisoblanadi. Bundan tashqari sholi, kanop, makkajo'xori, kartoshka, sabzavot va poliz ekinlari, meva va uzum, ipak qurti boqish uchun tut bargi, chorva ozuqalari yetishtiriladi.

Sug'oriladigan maydonlarning 1/3 qismiga paxta ekiladi.

Adir-tog' mintaqasi respublika hududining 1/5 qismini egallaydi. Bu mintaqaga bahorikor (lalmikor) g'allachilik, mevachilik, chorvachilikka (qo'y, echki, qoramol) ixtisoslashgan. Bu mintaqaga yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotining 10 foizga yaqinini beradi. Kelajakda fan va ilg'or texnologiyalardan unumli foydalanish asosida mintaqada qishloq xo'jaligi mahsulorligini 4 martaga ko'paytirish imkoniyatlari mavjud.

Cho'l yaylov mintaqasi, asosan, respublikaning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, O'zbekiston hududining 60 foizdan ortig'ini ishg'ol etadi, u cho'l va suvsiz tekisliklardan iborat.



Savol va topshiriqlar

1. Qishloq xo'jaligining mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rmini mushohada qiling.
2. Respublika qishloq xo'jaligining tarmoqlarini ta'riflab bering.
3. O'zbekiston qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvidagi omillar qaysilar?
4. Qishloq xo'jaligi rivojlanishidagi asosiy xususiyatlarni aytib bering.

32- §. Qishloq xo'jaligida ekstensiv va intensiv rivojlanish

Siz oldingi darsda qishloq xo'jaligi tarmoqlarining turli hududlarda o'ziga xos joylashuvini ko'rib chiqdingiz.

Har bir qishloq xo'jaligi mintaqasi o'simliklar o'sadigan va rivojlanadigan davrga ega. Buni **vegetatsiya** davri deyiladi. Vegetatsiya davrida +10° C dan yuqori bo'lgan sutkalik o'rtacha haroratlar yig'indisi bilan belgilanadi.

Qishloq xo'jaligidagi mehnat jarayoniga va uning natijasiga tabiiy sharoit kuchli ta'sir ko'rsatadi. Agrar sohaning rivojlanish darajasi irrigatsiya va melioratsiya, kimyolashtirish, kompleks mexanizatsiya va boshqa tadbirlarga bog'liq. Agar xo'jalikda, maydon birligiga hisoblaganda, mahsulot yetishtirish ko'p miqdorda yangi texnika, agrotexnika vositalari, yangi mol zotlari, yangi navlar

hisobiga bo'lsa, bu yerda mehnat unumdorligi yuqori bo'ladi. Xo'jalikni bunday yuritish tarzi **intensiv** xo'jalik deyiladi. Masalan, har biri yiliga 2000 l sut beradigan 20 ta sigirdan har biri 10000 l sut beradigan 4 ta sigirni boqish afzalroq. Demak, chovachilikda ko'proq mahsuldor zotlarni yaratish hisobiga mahsulotni ko'paytirish intensiv rivojlanish bo'ladi.

Xo'jalik yuritish — qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, ekin maydonlarini kengaytirish va chorva mollarining tuyog sonini ko'paytirish hisobiga ko'paysa, bunday qishloq xo'jaligi **ekstensiv** xo'jalik deyiladi.

Mexanizatsiya, elektrlashtirish, kimyolashtirish, fan yutuqlaridan foydalanish, irrigatsiya va melioratsiyadan foydalanish qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning asosiy yo'lidir.

Qishloq xo'jaligining hozirgi va kelajakdag'i asosiy vazifasi xo'jalikni intensiv rivojlantirish yo'li bilan ekinlar hosildorligini va chorva mollari mahsuldorligini oshirishdan iboratdir.

O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jaligida yuqori hosildorlikka erishishda melioratsiya alohida ahamiyatga ega. Faqat melioratsiya orqaligina dehqonchilikda yuqori hosil olish mumkin.

Respublikada sug'orish dehqonchilikning zaruriy sharti va moddiy asosidir.

Sug'oriladigan yerlar maydonini kengaytirish, suv ta'minotini yaxshilash, daryolar oqimini mavsumiy va ko'p yillik boshqarishda suv omborlari, to'g'onlar qurish, katta o'zioqar va mashina kanallarini barpo etish, irrigatsiya shoxobchalarini yaxshilash borasida qilinadigan ishlar qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning bosh omilidir. Melioratsiya yuqori mehnat unumdorligini ta'minlashga yordam beradi.



Mahsuldor zotlarni yaratish intensiv yonalishda muhim yo'l.

Qishloq xo'jaligida dehqon-farmer xo'jaliklari va boshqa turli mulkchilik shakllaridan unumli foydalanish mehnat samaradorligini yanada oshiradi, sanoatning kichik korxonalar tarzida qishloqqa kirib kelishiga imkon yaratadi.



Savol va topshiriqlar

1. Intensiv xo'jalikni Siz yashab turgan xo'jalik misolida yoriting.
2. Ekstensiv va intensiv xo'jalikka misollar keltiring.
3. Qishloq xo'jaligini intensivlashtirishning asosiy yo'nalişlarini aytинг.
4. Melioratsiya bilan xo'jalikni intensiv rivojlantirish o'tasidagi aloqadorlikka misollar keltiring.

33- §. Respublika dehqonchiligining asosiy tarmoqlari

Madaniy o'simliklarning nihoyatda xilma-xilligi tufayli dehqonchilikning tarmoqlar tarkibi ancha murakkab. Dehqonchilik geografiyasи quyidagi omillarga:

- a) haydaladigan unumdar yerkarning mavjudligi;
- b) iqlimi sharoitlar;
- d) ekinlarning biologik xususiyatlari bo'lgan.

Dehqonchilikning qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti tarkibidagi hissasi 50 foizdan ko'proqni tashkil etadi. Ammo uning hissasi barcha viloyatlarda bir xil emas (sababini tushuntiring).

Dehqonchilik dalachilik, bog'dorchilik, uzumchilikdan iborat.

Dalachilik o'z navbatida: donli ekinlar, texnika ekinlari, yem-xashak ekinlari, sabzavot va poliz ekinlari, kartoshka ekinlari bo'linadi.

Mamlakatimiz dehqonchiligi joylashish xususiyatlarga ko'ra: **lalmikor dehqonchilik va sug'orma dehqonchilik** turlariga bo'linadi.

Lalmikor dehqonchilik, asosan, adir zonalarida joylashgan bo'lib, ko'proq bug'doy, arpa, zig'ir, kunjut, no'xat, ozuqabop ekinlar, bog'dorchilikdan iborat. Bunday dehqonchilik lalmikor yerlarda rivojlanadi. Yerlar sun'iy su-g'orish yordamida emas, balki tabiiy, ya'ni bahor va yoz yomg'irlari asosida to'yinadi.

Sug'orma dehqonchilikda lalmikor dehqonchilikka nisbatan 3—5 marta ko'proq hosil olinadi.

Sug'oriladigan yerkarning 1/3 qismida paxta yetishtiriladi. Paxta texnika ekinlari maydonining 85 foizini egallaydi.

Donchilik respublika qishloq xo'jaligida muhim o'rinni tutadi. Aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini to'la qondirish, chorvachilikning yem-xashak bazasini mustahkamlash don yetishtirishni ko'paytirish bilan bog'liq. Respublikada kuzgi bug'doy, bahorgi bug'doy, arpa, javdar, suli, sholi, makkajo'xori, oq jo'xori, tariq, moyli don ekinlari — zig'ir, kunjut, soya, kungaboqar yetishtiriladi.

Dukkakli don ekinlari maydoni mamlakat miyosida juda kam bo'lib, atigi 4—5 ming ga ni tashkil etadi.

Ikkinci jahon urushiga qadar arpa va bug'doy 1,5 mln gektarga ekinlar va ekin maydonlarining katta qismini tashkil etgan.

G'alla mustaqilligiga erishish mamlakatimiz oldida turgan bosh masala hisoblangan. 1995-yilda mamlakatda g'alla mustaqilligini ta'minlash yo'lida katta qadamlar tashlandi va g'alla uchun 40 foiz ekin maydonlari ajratildi yoki g'alla



O'zbekiston g'alla mustaqilligiga to'la erishdi -



O'zbekiston mevalari ko'zni quvontiradi.

G'allachilik sohasida mamlakatimiz oldida turgan eng muhim vazifalar quyidagilar:

— hosildorlikni oshirish, dehqonchilik madaniyatini shakllantirish, urug'chilikni yaxshilash, navli urug'larni ekish, intensivlashtirishdan unumli foydalanish, sug'oriladigan hududlarda o'rtacha hosildorlikni 30—35 sentnerga yetkazish va boshqalar.

Sholichilik dorichilikning yetakchi tarmog'i bo'lib, jami donli ekin maydonlarining 1/10 qismini tashkil etadi. Sholining asosiy maydonlari Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida joylashgan. U Toshkent, Sirdaryo, Surxondaryo va boshqa viloyatlarda ham ekila boshlandi.

Makkajo'xorichilik respublikamizda 60- yillardan don va silos bostirish maqsadlarida tez rivojiana boshladi. Ilg'or xo'jaliklarda har gektar yerdan 50—60 s don, 1300—1400 s ko'k poya hosili olinadi. Makkajo'xori doni yemlik xususiyatiga ko'ra barcha donli ekinlardan afzal turadi.

Texnika ekinlari ichida kanop yetishtirish alohida mavqega ega. Respublikada kanop ekish 1936- yilda boshlangan. Kanopning 99 foiz ekin maydonlari Toshkent viloyatida joylashgan. Hozir yiliga 6—7 ming tonna kanop poyasi yetishtiriladi. Kanop poyasidan dag'al gazlama, o'rov materiallari, qop, brezent, arqon, ip, kabel-ip tayyorlanadi.

Lavlagi ekini ham texnika ekini sifatida respublikadagi qadimgi tarmoqlardan hisoblanadi.

Texnika ekinlarining eng ko'p tarqalgan turi — paxta yetishtirishidir. Bu tarmoq respublikamizning barcha viloyatlarida rivojlangan.

Tamaki yetishtirish esa asosan Urgut tumanida mavjud.

Kartoshkachilik, sabzavot va polizchilik. O'zbekistonning iqlimi, suv, tuproq sharoiti bu ekinlardan yuqori hosil olish imkoniyatlarini beradi. Tarmoq ekinlari barcha viloyatlarda yetishtiriladi. *Kartoshka, sabzi, sholg'om, turp, rediska, pomidor, baqlajon, qalampir, bodring, qovun, tarvuz, qovoq, piyoz, sarimsoq, karamdan, bargli* sabzavotlardan (*ukrop, petrushka, kashnich* va boshqalardan) yuqori hosil olinmoqda. Sabzavot va polizchilik qishloq xo'jaligining qadimiy tarmog'i; Mamlakatimizga XIX asrning 2 yarmida *pomidor, kartoshka, gulkaram, bolgar qalampiri, rediska, patison* kabilar kirib kelgan. Bu ekinlar o'z vatanlaridagi hosildorlikdan ham yuqori hosil bera boshladi.

egin maydonlari 1300 ming gettarga yetkazildi. 1996- yilga kelib g'alla maydonlari 1700 ming getktarni tashkil etdi. (Shuning 1200 ming getktari sug'oriladigan yerlarga to'g'ri keldi.) Hosildorlik sug'oriladigan maydonlarda 40—50 s gacha yetkaziladi. Mamlakatimizda ahollining g'allaga bo'lgan ehtiyojini to'la ta'minlash uchun yiliga 6 mln tonna g'alla zarur (jon boshiga ilmiy asoslangan yillik me'yor 300 kg).

Kartoshka, poliz va sabzavot mahsulotlarini yetishtirishda shaxsiy tomorqa xo'jaliklarining ulushi katta. O'zbekistonda sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkaning serhosil navlарини yetishtirish yo'lga qo'yilgan va bu borada tadqiqot ishlari olib borilmоqda.

Sabzavot va kartoshka yetishtirish yirik shaharlar atrofida ham rivojlangan. Polizchilik esa asosan Sirdaryo, Jizzax va Xorazm viloyatlarida yaxsh yo'lga qo'yilgan.

Bog'dorchilik va uzumchilik respublika qishloq xo'jaligining eng qadimgi tarmog'i. Mamlakatimizda meva daraxtlari ming yillardan buyon ekip kelinadi.

O'zbekistonning iqlim sharoitlari bog'dorchilik va uzumchilik uchun juda qulay. Mamlakatimizda dunyoda tengi yo'q mevalar, xususan *o'rik, shaftoli, uzum, anor* navlari yetishtirilganki, ular qand miqdori va sifati jihatdan eng sershira mevalardir. Uzumchilik asosan tog'oldi rayonlarida yaxshi rivojlanadi. Shu sababli bu tarmoq Toshkent, Samarqand, Namangan kabi viloyatlarda katta maydonlarni ishg'ol qiladi. Dunyoda eng yaxshi quruq mevalar ham O'zbekistonda yetishtiriladi. *Mayiz, turshak, jiyya, shaftoli, olma qoqilar* aholi uchun asrlar davomida qand, shakarning o'mini bosib kelgan.

Respublika bog'larida 20 dan ortiq meva beradigan daraxtlar o'stiriladi. Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

— urug'li mevalar (*olma, behi*), danakli mevalar (*o'rik, shaftoli, gilos, olcha, olxo'ri*), subtropik mevalar (*anor, anjir*), boshqa mevalar (*yong'oq, pista, bodom*), rezavor mevalar (*qulupnay, malina, smorodina, chakanda*). Olma, nok, tokning yozgi, kuzgi, qishki navlari muhim xo'jalik ahamiyatiga ega. Tokning xo'raki, mayizbop, konserva mahsulotlari turlari (shinni, murabbo, sharbat) hamda vinochilik yo'nalishlari mavjud.

Tropik va subtropik mintaqalardan olib kelingan *limon, apelsin, mandarin, unobi, sharq surmosi* kabi mevalar keng maydonlarni egallamoqda. Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyatida issiqxona limonzorlari juda katta maydonlarni egallagan.

Bog'dorchilik va tokchilikning ilmiy asoslarini yaratishda R.R. Shreder nomidagi bog'dorchilik, tokchilik korporatsiyasining xizmati katta bo'lmoqda. Bu korporatsiya yiliga 8—10 mln dona meva va tok ko'chatlari yetkazib beradi.



Savol va topshiriqlar

1. Lalmikor va sug'orma dehqonchilik qaysi hududlarda keng tarqalgan?
2. Donchilik tarkibini tasniiflang.
3. G'alla mustaqilligi deganda nimani tushunasiz?
4. Texnika ekinlari guruhiiga tavsif bering.

34- §. Paxtachilik va uning O'zbekiston iqtisodiyotida tutgan o'rni

Paxtachilik respublika xalq xo'jaligining eng muhim va ixtisoslashgan tarmog'i hisoblanadi. Paxtakorlik o'zbek xalqining qadimiy kasbi bo'lib, u asrlar davomida takomillashib kelgan.



Paxta dalasi.

Respublika xalq xo'jaligining 70 foizdan ko'prog'i texnologik jihatdan paxtachilik bilan bog'liq. Bu mamlakatda paxtachilik agrar sanoat majmuasining shakllanishiga olib keldi.

O'zbekiston dunyoda paxta yetishtirishda Xitoy, AQSH, Hindistondan keyin 4- o'rinda turadi. Paxta hosildorligiga ko'ra u Isroil, Xitoy, Misr, Turkiya, Meksika, Gretsya va Avstraliyadan keyingi o'rirlarni egallaydi.

Mustaqillik yillarda O'zbekiston hukumati paxta yakka hokimligini bartaraf etish faqat iqtisodiy emas, balki siyosiy ahamiyatga ega ekanligini nazarda tutib, qat'iy tadbirlar ko'rdi. Mamlakatning eng muhim oziq-ovqat resurslari bilan o'z-o'zini ta'minlashga erishish yo'lini tanlandi.

Birinchi navbatda respublikada ekin maydonlarining tarkibi o'zgartirildi. 1991—2000- yillarda paxta maydonlari yildan yilga qisqartirilib, g'alla, sabzavot, poliz, dehqon, fermer xo'jaliklari yerlari kengaytirildi. **Paxta yakka hokimligi almashlab ekishga amal qilmagan holda bir turdag'i o'simlikni uzoq vaqt va uzlusiz ekish asosida vujudga keldi.** Natijada tuproqning fizik xususiyati yomonlashdi, gumus miqdori kamaydi, tuproq bir tomonlama oriqladi. Masalan, donli o'simliklar bir joyda uzoq o'stirilganda tuproqda fosfor, lavlagi va kartoshka ekilganda — kaliy, dukkaklilar ekilganda — fosfor va kalsiy kamayadi. Buning oqibatida tuproqda eroziya sodir bo'ladi. Bular hosildorlikni 1,5—2 marta kamaytirib yuboradi.

„Monokultura“ begona o'tlar, zararkunanda va kasallik qo'zg'atuvchilar ning ko'payishiga sharoit yaratadi. U aksariyat dalalarning zaharlanishiga, tuproq unumidorligining pasayishiga hamda foydali hasharotlarning qirilib ketishiga olib keladi.

Zaharlangan dalalarning oqava suvlari suv havzalariga qo'shilib suvlar ichishga yaroqsiz holga kelib qoladi. Mamlakat paxtachiligi oldida turgan eng asosiy vazifa hosildorlikni va tola chiqishini oshirishdan iboratdir. Ayniqsa, paxta-beda-g'alla, paxta-g'alla tarkibida almashlab ekishni joriy etish va o'rtacha hosildorlikni 30—35 sentnerga yetkazish mamlakat paxtachiligining ustivor yo'nalishi qilib belgilangan.

O'zbekistonda ingichka tolali paxta ham yetishtiriladi. Bu borada mamlakatimiz MDH davlatlari orasida Tojikistondan keyin 2- o'rinda turadi.

Paxta har tomonlama foydali bo'lgan texnik ekin. Jumladan, 1 tonna paxta xomashyosidan 320—350 kg tola, 3500 m gazlama, 10 kg momiq, 620 kg chigit olinadi. O'z navbatida 620 kg chigitdan 110 kg lint, 30 kg tuk (delint), 110 kg moy, 225 kg kunjara, 170 kg shulxa olinadi. G'o'zadan olinadigan mahsulotlar asosida sanoat usulida 1200 dan ko'proq turli mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin. G'o'za-poyadan gidroliz va qurilish sanoatida keng foydalaniadi.

Respublikada ingichka tolali paxta, asosan, Surxondaryo va qisman Qashqadaryo hamda Buxoro viloyatlarida ekiladi.



Savol va topshiriqlar

1. Paxtachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini yoriting.
2. Paxtadan qanday mahsulotlar olinadi? Ularning eng muhimlarini tasniflang.
3. Jahonda paxta ekiladigan mamlakatlardan haqida nimalarni bilasiz?
4. Mustaqillik yillarda nima uchun paxta maydonlari qisqaradi?

35- §. Chorvachilik va qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari

Mamlakatimizning tabiiy iqlim sharoitlari, bepoyon cho'l, adir, tog' yaylovlari chorvachilikning rivoji uchun qulay.

Qishloq xo'jaligining bu tarmog'i **qoramolchilik, qo'ychilik, yilqichilik, cho'chqachilik, parrandachilik, asalarichilik, pillachilik, baliqchilik, darrandachilikdan** tashkil topgan.

Sug'oriladigan yerlarda *qoramolchilik, cho'chqachilik, parrandachilik, quyonchilik, asalarichilik* ancha keng tarqalgan. Cho'l, adir, tog'oldi yaylovlarida *qo'ychilik, echkichilik, yilqichilik, tuyachilik, parrandachilik*, sun'iy suv havzalarida esa *baliqchilik* rivojlangan.

Respublika qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning 2/3 qismi chorvachilik uchun foydalilaniladigan yerlardan iborat.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin chorvachilikda tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Chorvachilik sohasidagi aksariyat davlat xo'jaliklari xususiyashtirildi, xususiy sektorga e'tibor kuchaytirildi. Mamlakatimizda zarar bilan ishlayotgan barcha *qoramolchilik, qo'ychilik* fermalari ferma jamoalariga xususiy mulk qilib berildi. Natijada, hozir respublikada ishlab chiqarilayotgan go'sht va sutning 80 foizini xususiy sektor bermoqda.

Qoramolchilik respublika chorvachiligining yetakchi tarmog'i. 2000- yilda mamlakatimizdagi barcha toifadagi xo'jaliklarda 5,3 mln bosh qoramol bo'lgan. Mamlakatimizda yetishtiriladigan go'shtning 3/4 qismini va sutning 100 foizini qoramolchilik beradi.

Mamlakatimizda agroqlim xususiyatlarga ko'ra **sut, sut-go'sht va go'sht yo'nalishidagi** qoramol zotlari boqiladi.

Yem-xashak bazasining xususiyatidan kelib chiqib, qoramollar **molxonalarda, molxona-yaylovlarda va haydab** boqiladi. Qoramollarning 40 foizini sigirlar tashkil qiladi.

Respublikada ixtisoslashtirilgan **sutchilik, bo'rdoqichilik, buzoq boqildigan, go'shtchilik kompleksi** mavjud. Ularda ozuqa tayyorlash, sog'ish, oziqlantirish va boshqa ishlar mexanizatsiyalashtirilgan.

O'zbekistonda qoramol zotlarini yaxshilash sohasida ko'p ishlar qilingan va qilinmoqda. Xorijiy mamlakatlardan sersut qoramollar keltirilib, rayonlashtirilgan va ularni chatishtrish orqali yangi zotlar olingan. Mahalliy zotlarni **Shved va qora-ola zotlar** bilan chatishtirib qo'ng'ir va qora-ola zotlarning **O'zbekiston tipi** (sut mahsulдорлиги 4000—4100 kg) yaratildi.

Go'sht yetishtirishda AQSHning Texas shtatidan **Santa-Gertruda** zotlari keltirildi va tog'li zonalardagi mahalliy zotlar bilan chatishtirilib yangi go'shtdor mol zotlari yaratildi.

Qo'yechilik. Qo'yechilik chorvachilikning tovar-mahsulot beradigan yetakchi tarmoqlaridan hisoblanib, go'sht yetishtirishda qoramolchilikdan keyin turadi. Respublikada yetishtiriladigan go'shtning 20 foizi qo'y go'shtiga to'g'ri keladi. Qo'y va echkilarning 28—30 foizi qorako'l, 53—55 foizi jaydari va hisori qo'ylar, 16—18 foizi echkilarga to'g'ri keladi.

Qorako'l qo'ylari respublika qo'yechiligining faxri hisoblanadi. U qimmatbaho teri, go'sht-yog', jun olish uchun Qizilqum va boshqa cho'llarda boqiladi. Qorako'lning asl vatani Zarafshon vohasidir.

Buxoro, Navoiy hamda Qoraqalpog'istonda qo'ylar ko'p boqiladi. Qorako'l terisining rangi qora, sarg'ish, ko'k, havorang, oqrang, marvaridrang, kulrang tiplarda bo'lib, jahon bozorida yuqori baholanadi. Ayniqsa, sur terilar quyoshda tovlanib turadi. Qorako'l terilar 1—3 kunlik qo'zilardan olinadi va bu terilar qalpoq, yoqa va boshqa mahsulotlar tayyorlashda ishlataladi. Qorako'lning 30 dan ortiq xillari mavjud.

Respublikamizda go'sht va jun yetishtirish maqsadida dag'al jun va go'shi, yog' beruvchi hisori va jaydari qo'y zotlari ham boqiladi. Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand viloyatlarida go'sht-jun beradigan qo'ylar ko'p bo'lsa, **hisori qo'ylar** ko'proq Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida, **jaydari qo'ylar** esa Farg'ona, Namangan, Andijon viloyatlarida keng tarqalgan.

Echkichilik Surxondaryo, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand viloyatlari tog'oldi zonalarida rivojlangan. Echki go'shti, serqaymoq va shifobaxsh suti, juni, terisi hamda tiviti uchun boqiladi. O'zbekistonda echkilarning **serjun Angor, tivitli Orenburg, jundor O'zbekiston zotlari** keng tarqalgan. Echki juni qo'y juniga nisbatan yaxshi sifatlari bo'lib, undan drap matosi, odeyal, trikotaj mahsulotlari tayyorlanadi. Echki ob-havoning noqulay sharoitlariga ancha chidamli hisoblanadi.



Qorako'ichilik respublikamiz faxri.

Cho'chqachilik. Bu tarmoqning rivojlanishi O'zbekistonga ruslar va yevropa-liklarning kirib kelishi bilan bog'liq.

Toshkent, Samarqand, Navoiy viloyatlarida maxsus cho'chqachilik komplekslari bor. Cho'chqa go'shtidan kolbasa tayyorlashda keng foydalaniladi.

Yilqichilik. Otlardan, asosan, qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Ayniqsa, ilgarigi zamонlarda ko'pgina yumushlarda: yuk tashish, paxtaga ishlov berishda ulardan unumli foydalanilgan. Otlarning eng asosiy mahsulдорligi ham ularning ish layoqati bilan baholanadi. Bundan tash-qari, yilqi suti va go'shti xalqimizning sevimli ozig'i hisoblanadi. Respublikamizda ot zavodlari va naslchilik xo'jaliklari ot sporti maktablari va to'garaklarini ot bilan ta'minlaydilar. Ot zavodlari xorijiy mamlakatlar uchun ham nasldor va sport otlari yetkazib beradi.

Agar biyalar yaxshilab boqilsa, har 100 bosh biyadan 100 tagacha qulun olish mumkin.

Tuyachilik. Tuyachilik cho'l, chala-cho'l va qisman adir mintaqalarida keng tarqalgan. Tuyalar suti, go'shti, terisi va juni uchun boqiladi. Har bir sog'in tuya **1500—5000** litrgacha sut beradi. **Baqtriya** (bir o'rakchli) tuyasiдан 5—10 kg, **Dromedorlardan** (ikki o'rakchli) esa 2—4 kg gacha jun olinadi.

Tuya juni gilamchilik va to'qimachilik sanoati uchun eng qimmatli xomashyo hisoblanadi.

Parrandachilik. Mamlakatimiz chorvachiligining yosh tarmog'i bo'lib, u sanoat asosida rivojlanmoqda. Parrandachilik barcha viloyatlarda keng tarqalgan tarmoqdir. Go'sht uchun tovuq, kurka, o'rdak, g'oz va parhez taomlar uchun bedana boqiladi. O'nlab tovuq, o'rdak, g'oz turlari mavjud. Parrandachilik serdaromad soha: bir tovuq o'rtacha bir yilda 200—260 ta tuxum beradi. Jo'ja tovuq 5 oyda tuxumga kiradi. O'zbekistonda Isroiil, Germaniya, Belarus va boshqa mamlakatlardan keltirilgan zotli tovuqlar ko'paytirilmoqda.

Isroiuning „MAD“ firmasi bilan hamkorlikda Xonobod, Rishton, Urganch, Yangiyo'l, Chimyonda kurkachilikka ixtisoslashgan parrandachilik fabrikalari jadal rivojlanmoqda. Aksariyat parrandachilik fabrikalari xususiyashtirilgan.

Pilla **chilik.** Bu soha qishloq xo'jaligining eng qadimgi tarmoqlaridan biri bo'lib, paxtachilik bilan uzviy bog'liq holda rivojlanmoqda. O'zbekiston pilla yetishtirish bo'yicha Xitoydan keyin 2- o'rinda turadi. Ipak qurti mamlakatimizga miloddan avvalgi II asrda Xitoydan kirib kelgan.



Qorako'l qo'yłari.

Pillachilik paxtachilik bilan qo'shib olib boriladi. Paxta dalalarining aksariyati tutzorlar bilan ihota qilingan. Bular g'o'zani shamoldan himoya qiladi, ariq va kanallar qirg'og'ini yuvishdan saqlaydi. Pillachilik ortiqcha mehnat resurslaridan foydalanishda ham katta ahamiyatga ega. Ayniqsa, may-iyun oylarida paxta parvarishidan bo'shagan kishilar pillachilik bilan shug'ullanish imkoniyatiga egalar.

Pillachilik barcha viloyatlarda keng tarqalgan. Ilgari respublikada yetishtirilgan pillaning 90 foizi Farg'ona vodiysida yetishtirilar edi (hozir bu ko'rsatkich 45 foizga tushib qoldi). Pillachilik eng kam mexanizatsiyalashgan qishloq xo'jalik tarmog'i hisoblanadi. (Buning sababini tushuntiring.) 1993- yilda pilla yetishtirish davlat buyurtmasidan chiqarildi.

Baliqchilik. Respublikamizning daryo, ko'l va suv omborlarida 60 dan ortiq baliq turi mavjud. Toshkent, Xorazm, Buxoro viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida baliqchilik xo'jaliklari tashkil etilgan. *Zog'ora baliq, sazan, do'ngpeshona, sudak, ilonbaliq, cho'rtan, tovonbaliq* (karas) kabi o'nlab baliq turlaridan yuqori mahsulorlikka erishilmoqda. Mamlakatimizda baliqchilikni sanoat asosida rivojlantirishga katta e'tibor berilmoqda.

Hozir respublika baliqchilik xo'jaliklarida yetishtirilayotgan baliqlarning 60—70 foizini o'simlikxo'r baliqlar tashkil qiladi. O'simlikxo'r oq amurdan kanal va kollektorlarni tozalashda „biologik meliorator“ sifatida foydalilanadi. Mamlakatimizda „O'zbaliq“ korporatsiyasi tashkil etilgan bo'lib, uning tarkibida o'nlab birlashma va baliqchilik xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda. Xususan, Sirdaryo, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy, Xorazm viloyatlaridagi baliqchilik kombinatlarining olib borayotgan ishlari diqqatga sazovordir.

Asalarichilik. Asal muhim oziq-ovqat mahsuloti hisoblanadi. Asalarichilikning *asal, asalari mumi, propolis* (asalari yelimi), *asalari suti, asalari yig'adigan gulchanglar* (perga) kabi mahsulotlar yo'nalishlaridagi sohalari mavjud.

Asalarichilikka ixtisoslashtirilgan xo'jaliklar bilan birga xususiyashtirilgan xo'jaliklar ham faoliyat ko'rsatadi. Mavsumda ikki marta — may va iyun (bahorgi) va avgust-sentabrda (yozgi) asal olinadi. Asalari ko'proq ko'chma usulda boqiladi. Qishloq xo'jalik ekinlari *g'o'za, beda, kanop, yer yong'oq* va boshqalar asalarichilikda muhim ahamiyatga ega.

Asalarilardan o'simliklarni changlatishda ham foydalilanadi. G'o'zani asalarilar bilan changlatish asosida paxta hosildorligi 5—6 sentnerga oshishi tadqiqotlarda isbotlangan.

Darrandachilik qishloq xo'jaligining noan'anaviy tarmog'idir. Bu sohada *kalamush* (ondatra), *suv bobri* (nutriya), *tulki, norka* kabi hayvonlar boqib ko'paytirilmoqda. Nutriya Sibir va Ozarbayjondan, ondatra Amerikadan keltirilgan. Ular mahalliy sharoitga moslashib, tez ko'paymoqda. Shuningdek, darrandachilikning ba'zi bir turlari bilan uy sharoitida ham shug'ullaniladi.



Savol va topshiriqlar

1. Chorvachilikning qanday tarmoqlarini bilasiz?
2. Qoramolchilik va qo'ychilik rivojlangan hududlarga misollar keltiring.

- 
3. Siz yashab turgan viloyat, tuman, jamoa xo'jaligida chovachilikning qanday tarmoqlari ustun rivojlangan? Buning sababini izohlang.
 4. Pillachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyatini ta'riflab bering.

Mavzu. XIZMAT KO'RSATISH GEOGRAFIYASI

36- §. Xizmat ko'rsatish asoslari

Xizmat ko'rsatish geografiyasi nomoddiy ishlab chiqarish sohasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Mamlakatning taraqqiy qilishi bilan xizmat ko'rsatish sohalari ham shunga yarasha rivojlana boradi. Binobarin, ishlab chiqarishning iqtisodiy taraqqiyot darajasi qancha yuksak bo'lsa, xizmat doirasiga bo'lgan talab, uni rivojlantirish imkoniyati ham shuncha yuqori bo'ladi.

Xizmat ko'rsatish korxonalari shaxsiy, aksiyadorlik, kooperativ, jamoa, xususiy kabi turlicha mulk shakllariga asoslangan korxonalardan iborat bo'lib, 1000 dan ortiq turdag'i xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Xizmat ko'rsatish sohasini umumlashtirgan holda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Uy-joylardagi communal va texnik xizmat.
2. Aholiga transport xizmati.
3. Savdo va ovqatlanish xizmati.
4. Ijtimoiy ta'minot xizmati.
5. Ta'llim va bolalar muassasalaridagi xizmatlar.
6. Tibbiy xizmat.
7. Maishiy xizmat.
8. Aholining maishiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish xizmati.
9. Aholi xavfsizligi va qonunchilikni saqlash xizmati.
10. Sport.
11. Rekreatsiya xizmati.
12. Turizm xizmati.
13. Moliya xizmati.
14. Pochta, telegraf, telefon xizmati va h.k.

Xizmat ko'rsatish doirasidagi barcha tarmoqlar jamiyatning infratuzilma majmuasini tashkil qiladi. Mazkur soha xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari uchun yuqori malakali kadrlar, mutaxassislar yetkazib beradi, aholining salomatligini mustahkamlaydi, ularni har-xil tajovuzlardan himoya qiladi va h.k. Ayni vaqtda bularning barchasi mehnat unumdarligining yuqori bo'lishini ta'minlaydi.

Xizmat ko'rsatish muassasalarining joylashishi bevosita aholining joylashuviga bilan bog'liq. Har qanday aholi manzilgohida xizmat ko'rsatishning barcha turlari bo'lavermasligi mumkin. Chunki maishiy xizmat korxonasining faoliyat ko'rsatishi uchun muayyan miqdorda aholi bo'lishi zarur. Shu tufayli xizmat ko'rsatish tarmoqlarini joylashtirishda aholining u yoki bu xizmat doirasiga

bo'lgan talabini, aholining soni, yosh-jins, milliy tarkibi va joylanishini, mavjud joydagi xizmat ko'rsatishning haqiqiy ahvolini o'rganish lozim. Xizmatlar ikki turga ajratiladi:

birinchisi, moddiy ne'matlarni iste'molchiga yetkazish va ularni iste'mol qilishlari uchun xizmat ko'rsatish;

ikkinchisi, bajaruvchidan ajratib bo'lmaydigan xizmat turlari: shifokorlar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, aktyorlar xizmati. Ushbu xizmat vakillari bevosita moddiy boylik ishlab chiqarmasa-da, ularsiz moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirib bo'lmaydi.

Barcha xizmatlar shunday joylashtirilishi kerakki, ulardan foydalanish aholiga har tomonlama qulaylik tug'dirishi kerak. Shu sababli inson yashaydigan joylarda xizmat ko'rsatish sohalaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

Xizmatlar bir-biridan foydalanish turiga, foydalanuvchilar soniga ko'ra va ulardan foydalanish davri bilan ajralib turadi.



Savol va topshiriqlar

1. Nomoddiy ishlab chiqarish o'z ichiga qaysi tarmoqlarni oladi?
2. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarining xalq xo'jaligida tutgan o'rnnini yoriting.
3. O'zingiz yashab turgan mahalla, qishloqda mavjud bo'lgan xizmat turlarini guruhlarga ajrating.
4. Siz yashab turgan joydagi maishiy xizmat turlarining qaysilari talablar darajasida emas? Javobingizni isbotlang.

37- §. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarining joylashishi

Xizmat ko'rsatish sohalarining hududiy tashkil etilishi—bu korxonalar joylashishi, ular o'rtasidagi aloqalar va aholining xizmat ko'rsatiladigan joylarga harakatidan iborat.

Xizmat ko'rsatish korxonalarining joylashishi bevosita u yoki bu xizmatga bo'lgan talabning oz-ko'pligi bilan belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:


1. Kundalik xizmatlar. Biz har kuni oziq-ovqat savdosini xizmatidan (non, sut sotib olish), bolalar bog'chasi, maktab, transport, uy-kommunal xizmatlaridan foydalanamiz.

2. Epizodik xizmatlar. Onda-sonda, yiliga bir necha marta foydalaniadigan buyumlarni sotib olish va ta'mirlash, teatr va muzeylarga borish, turistik sayohatlarga chiqish va h.k.

3. Doimiy xizmatlar. Ko'pgina oziq-ovqatlar (oyda bir-ikki marta sotib olinadigan) sartaroshxona xizmati, kinoteatr, kir yuvish korxonasi xizmati va h.k.

Xizmatga talab qancha ko'p bo'lsa, u aholi yashash joyiga yoki ish joyiga shuncha yaqin joylashishi maqsadga muvofiq. Talab ko'p bo'lgan xizmatlar avtotransport to'xtash joylarida, yirik chorrahaldarda joylashtiriladi.

SOG'LIQNI SAQLASH



Bitta hududda joylashgan xizmat ko'rsatish korxonalar o'zaro uzziy bog'liq bo'lib, xizmat ko'rsatishning hududiy tizimini (majmuasini) tashkil qiladi. Masalan, tibbiy xizmat ko'rsatish korxonalar quyidagi tartibda joylashadi. **Feldsherlik punkti → shifokor → ambulatoriya → markaziy shifoxona → viloyat kasalxonasi.**

Bu yerda feldsherlik punkti birinchi yordamni ko'rsatsa, undan yuqoridagilari esa o'z imkoniyatlariga ko'ra maxsus ixtisoslashgan tibbiy xizmatlarni ko'rsatishi mumkin. Boshqa xizmat tarmoqlari ham ko'pchilik hollardla shu tartibda joylashtiriladi.

Eslab qoling: „Servis“ ingliz tilidan olingan so'z bo'lib, xizmat ko'rsatish ma'nosini bildiradi. Ijtimoiy infraturilma esa aholining ijtimoiy hayoti uchun zarur bo'lgan shart va sharoitlar majmuasidir (poliklinika, shifoxona, o'quv muassasalari, stadion, kutubxona, kinoteatr va h.k.)



Savol va topshiriqlar

1. Xizmatlarni hududiy joylashtirish deganda nimani tushunasiz?
2. To'ldirib o'qing.
Xizmat ko'rsatish korxonalarining joylashishi, unga qilinadigan _____ belgilanadi.
3. Xizmatlarni foydalanish darajasiga ko'ra guruhlarga ajrating.
4. Xizmat ko'rsatish markazlari deganda nimani tushunasiz?
5. Siz yashab turgan joyda xizmat ko'rsatish sohalari to'g'ri va oqilona joylashtirilganmi? Javobingizni izohlang.



Mavzu. REKREATSIYA XO'JALIGI VA TURIZM

38- §. Rekreatsiya resurslari va ulardan foydalanish

Tabiat va uning xilma-xil inshootlari, obyektlari, tarixiy obidalari insonga ruhiy oziq beruvchi, betakror va beqiyos manba hisoblanadi.

Insonning rekreatsion faoliyati dam olish, hordiq chiqarish, sog'liqni tiklash, tabiat go'zalliklaridan, madaniy obidalardan zavqlanib, kayfiyatni ko'tarishga qaratilgan faoliyat majmuasini o'z ichiga oladi.

„Rekreatsiya“ so'zi polyakcha „*rekrasia*“— „*dam olish*“, lotincha „*rekratio*“— „*sog'liqni tiklash*“ demakdir.

Har bir hudud o'ziga xos rekreatsiya resurslari tizimiga ega. Inson bo'sh paytlarida ana shu resurslardan to'g'ri foydalansa, jamiyatning iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy taraqqiyotini ko'tarishga yordam bergen bo'ladi.

Kishilarning hayot, turmush tarzining yaxshilanib borishi ularda bo'sh paytlarni ko'paytiradi. Bu insonlarda rekreatsiya faoliyatiga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Inson o'z umrining 1/3 gacha bo'lgan qismini tashkil etuvchi bo'sh vaqtida dam oladi, sog'lig'ini tiklaydi va sayohat qilib, chinakam ruhiy-ma'naviy oziq oladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin uning tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri **turizm** deb belgilandi. Agar bu faoliyat to'g'ri tashkil qilinsa u eksportning samarali sohasiga aylanishiga va chet el valutasining mamlakatimizga oqib kelishiga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizning dunyoga yuz tutishida va jahonning rivojlangan davlatlari qatoridan o'rin olishida turizm industriyasini shakllantirish ijtimoiy hayotning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu tufayli ham respublikada turizm industriyasini rivojlantirish asosida butun xo'jalik tizimini qayta qurishning ilmiy asoslangan dasturlarini ishlab chiqish bugungi kunning muhim vazifasidir.

O'zi yashab turgan hudud, o'lka yoki biror mamlakatning diqqatga sazovor joylarini ko'rish va u yerlarda bo'lish maqsadlarida uyuştiriladigan rekreatsion faoliyat turiga sayohat, ya'ni turizm deyiladi. Turizm so'zi fransuzchadan olingen bo'lib, „sayr-sayohat“ demakdir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng 150 dan ortiq davlatlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalar o'rnatdi. Bularning barchasi mamlakatlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, ular o'ttasida madaniy, iqtisodiy aloqalarning kengayishiga yordam beradi. Hozirgi kunda 60 dan ortiq o'lkalarga sayohat yo'llari ochilgan. Ayniqsa, Turkiya, Arab mamlakatlari, Xitoy, Hindiston, Singapur, Malayziya, Yaponiya, G'arbiy Yevropa mamlakatlari, AQSH ga ochilgan yo'llar orqali vatanimiz fuqarolari turli sayohat safarlariga borib kelmoqdalar. Ayniqsa, vatanimizni o'rganishga, uning qadimiy shaharlari Buxoro, Samarcand, Xiva, Shahrisabz, Farg'ona vodiysiga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda.

Tarixiy obidalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Tarixiy yodgorliklar qadimiy inshootlar, yodgorlik buyumlari va muhim tarixiy voqealarni, ulkan qurilish bilan bog'liq bo'lgan joylarni o'z ichiga oladi.

Arxeologik yodgorliklarga qadimiy shaharlar va qishloqlarning qoldiqlari, qal'alar, qoyatoshlardagi tasvirlar, qadimiy ziyoratgohlar, qabrler va ko'hna buyumlar kiradi.

Me'morchilik san'ati tasviriy (san'at asarlari, tashkil yordamchi etilgan), qurilish-me'morchilik va san'at yodgorliklaridan iborat.

Respublikamizda yuqoridaqilarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan sayohat maskanlari ham mavjud. Bular Samarcand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Xazoraspb, G'ijduvon, Termiz, Toshkent va boshqa shaharlardir.

Sanatorijs-kurort tizimlari mavjud xilma-xil rekreatsiya majmuasi bo'lgan hududlarni **kurort** deb ataladi. Kurort so'zi nemischa bo'lib „davolanadigan joy“ demakdir. Kurortlar xususiyatlari ko'ra:

- a) balneologik — mineral suv bilan davolovchi;
- b) shifobaxsh balchiqlar bilan davolaydigan;
- v) iqlimiyl-balneologik;
- g) iqlim bilan davolaydigan kurortlarga bo'linadi.



Savol va topshiriqlar

1. Rekreatsiya deganda nimani tushunasiz?
2. Rekreatsiya bilan turizm qanday aloqada?
3. Respublikamizda xalqaro turizmni rivojlantirishning qanday imkoniyatlari mavjud?
4. Turizm sohasida qanday qo'shma korxonalar barpo qilish mumkin?

39- §. O'zbekiston rekreatsiya rayonlarining tavsifi

Mamlakatimizda quyidagi rekreatsiya rayonlari mavjud.

Farg'ona rekreatsiya rayoni. Mazkur mintaqaga joylashgan geografik o'mniga ko'ra Italiya, Kavkaz orti respublikalariga teng keladi. Vodiyya 50 dan ortiq mineral suv buloqlari bor. Sayohatchilar uchun tarixiy-me'morchlilik yodgorliklari ham mavjud. Qo'qon, (Madrasai Amir (XVIII asr), Xudoyorxon saroyi) Rishton, Marg'ilon, Namanganda milliy uslubdagi obidalar serob. Chortoq, Chimyon, Shohimardon kabi dam olish maskanlari va mashhur shifoxonalar bor.

Mustaqillik yillarda vodiyya 50 dan ortiq noyob tabiiy ob'ektlar hisobga olindi va o'rganildi.

Jumladan, Yordon qishlog'i yaqinidagi manzarali daryo vodiysi alohida ahamiyatga ega. Shohimardon daryosining o'ng irmog'i Oqsuv daryosi Yordon qishlog'ining shimoli-g'arbida manzarali vodiyni hosil qiladi. Bu yerning betakror tabiiy go'zalligi, relef shakllari kishini maftun qiladi.

Chirchiq-Ohangaron rekreatsiya rayoni. Bu hudud dengiz sathidan 700 – 800 m dan 4000 – 5000 m gacha bo'lgan Chirchiq-Ohangaron vodiysi va Tyanshan tog'ining g'arbiy qismini o'z ichiga oladi.

Toshkent viloyati eng yirik sayohlik masmani hisoblanadi. Bu yerda tabiatni kishining diqqatini o'ziga jalb qiladigan joylar, suv omborlari, daryolar, turli xil ma'danli shifobaxsh suvlar ko'p.

Oqtosh, Xumson, G'azalkent, Tovoqsoy, Boldirsoy, Chorvoq, Chimyon, Kumushkon, So'qoq, Ohangaron, Yangiobod, Ertosh, Ko'ksaroy, Qizilcha kabi sog'lomlashtirish maskanlari ming-minglab odamlarning mehnat faoliyatini, sog'ligini tiklashda beqiyos ahamiyatga ega bo'llib kelmoqda.

Rayonning tekislik va adir qismida ham sayohat qiladigan joylar va shifobaxsh maskanlar bor. Bu yerda Botanika, Turon, Chinobod, Toshkent mineral suvi, 8- mart,



Xivadagi eng baland minora.

Qibray, Nov, Bo'ston, Zangiota kabi sanatoriy kurort zonalari joylashgan. Bu yerlarda har yili ko'plab yurtdoshlarimiz dam olib hordiq chiqaradilar.

Zarafshon rekreatsiya rayoni. Zarafshon vodiysi Turkiston, Qoratog', Oqtog', Zarafshon, Ziyovuddin, Zirabuloq tog'lari bilan o'ralgan. Bu yerda tabiatning nodir go'shalari, xilma-xil tarkibli mineral suvlar bor. Ayniqsa, XIV – XV asr tarixiy-madaniy yodgorliklari ko'p. Samarqanddagi qadimiy Afrosiyob shaharchasi, Shohizinda, Bibixonim madrasalari, Registon maydoni, Go'ri Amir maqbarasi va boshqalar jahonga mashhur.

Qashqadaryo rekreatsiya rayoni. Oloy tog'ining etaklarida joylashgan bu hududda shifobaxsh issiq mineral suvlarning yirik konlari mavjud. Bu yerda Temuriylar davridan qolgan tarixiy obidalar bor. Shahrisabz o'zining xilma-xil me'moriy yodgorliklari va Oqsaroy bilan mashhur.

Langar, Xujaikon shifoxonalari turli kasalliklarga shifo. Bu yerda Hisorak suv ombori atroflarida ajoyib sayohatgohlar bor. Miraki dam olish maskani o'ziga ko'plab kishilarni jalg qiladi.

Surxondaryo rekreatsiya rayoni. Hisor, Bobotog', Ko'hitang tog'lari bilan o'ralgan bu rayon ajoyib subtropik iqlimga ega. Bu yerda yanvarning o'rtacha harorati 0 darajadan yuqori bo'ladi.

Rayonda gidrogeologlar tomonidan o'nlab ma'danli shifobaxsh suv buloqlari topilgan. Kelajakda bu buloqlar atrofida ko'plab shifoxonalar ochilishi mo'ljallanmoqda.

Boysun atrofining go'zal tog' yonbag'irlarida dam olish uylari, tog'lardagi go'zal manzaralar, g'orlar, „Temir darvoza“ deb ataluvchi chuqur daryo o'zani nihoyatda maftunkor. Sherobod daryo vodiysisidagi Darkent maskani ham o'zining go'zal manzaralari bilan mashhur.

Termiz yaqinidagi islom ilmining buyuk bilimdoni imom at-Termiziy maqbarasiga dunyoning turli burchaklaridan ziyoratchilar keladilar.

Quyi Amudaryo rekreatsiya rayoni. Hududning san'at va me'morchilik obidalar, mahalliy xalqning urf-odatlari, to'y-marosimlari sayohatchilarda katta qiziqish uyg'otadi.

Xivaning me'moriy yodgorliklari, uning ochiq havodagi muzey ekanligi butun dunyo sayohatchilarini o'ziga jalg qiladi.

Quyi Amudaryo rekreatsiya rayoni hududida o'nlab shifobaxsh balchiqli ko'llar bor. Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar bor. Xorazmning qadimiy poytaxtlari Qiyot, Qo'y-qirilgan qal'a, Tuproqqa'l'a kabi 50 dan ortiq qadimiy obidalar chet ellik sayyoohlarni juda qiziqtiradi.

Xuddi shu tarixiy obidalarga boriladigan yo'naliishlarda qulay shart-sharoitlar yaratilsa, minglab xorijiy sayyoohlarni jalg qilish imkoniyati tug'iladi.

Respublikamiz Qo'ng'irot-Makat oralig'ida avtomobil yo'lining qurib bitkazilishi bu yerning rekreatsiya ahamiyatini yanada oshirishi mumkin. Ustyurt qirlarida qadimiy hayot izlari, bu yerning o'ziga xos landshafti turizmni rivojlantirish uchun qiziqarli obyektdir. Eng muhimi, bu yerda sayyoohlilik infraturilmasi yaratilsa bas.

Ustyurt sayg'oqlarga nihoyatda boy o'lka. Ularning sonini tabiatga zarar keltirmagan holda kamaytirmsandan xorijiy sayyoohlarni uchun ovchilikni tashkil qilish, bu yerga ko'plab sayyoohlarni jalg qilish imkoniyatini tug'dirishi mumkin.

Mirzacho'l rekreatsiya rayoni. Bu rayon Turkiston tizma tog'lari bilan o'ralgan. „O'zbekiston Shveysariyasi“ bo'lishi mumkin bo'lgan Zomin, Baxmal tumanlari o'xhashi yo'q go'zal tabiatini bilan kishini o'ziga maftun qiladi.

Mirzacho'l rayonida Xavotog', G'allaorol, Gagarin, O'rikli, Armasoy, Zomin sanatoriya va dam olish zonalarida har yili minglab kishilar dam oladilar. Bu mintaqalarda 2 – 3 kunlik dam olish maskanlari tashkil etilsa yanada ko'plab sayohatchilarni jalg qilish imkonini tug'iladi.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish muammolari. Jahondagi ayrim davlatlar milliy daromadi asosan turizm hisobidan bo'lib, ular kundankunga rivojlanmoqda. Ispaniya, Fransiya, G'arbiy Yevropadagi aksariyat mamlakatlar daromadi asosan turizmdan bo'lib, ularning yillik daromadi yil sayin ortib bormoqda.

Parij, Nyu-York, Tokio, London, Madrid hamda Italiya shaharlari turizm yiliga bir necha milliard AQSH dollari hisobida foyda keltiradi.

Butun dunyoni lol qoldirayotgan Buxoro, Xiva, Samarcand, Toshkent shaharlari ham xuddi shunday imkoniyatlarga ega. Hozirgi kunda respublikada turizm infrastrukturasini shakllantirish asosiy muammo bo'lib turibdi. Shu tufayli ham bu shaharlар to'laqonli turizm markazlari bo'lib shakllanganicha yo'q.

Mamlakatimizning xorijiy mamlakatlar bilan olib boradigan tashqi alopalarini yaxshi yo'lga qo'yilishi turizm bilan bog'liq bo'lgan masalalarning ijobjiy hal qilinishiga yordam beradi.

„O'zbek-turizm“ milliy kompaniyasi „Buyuk ipak yo'li“ ni qayta tiklash borasida yangi sayyoqlik yo'nalishlarini belgiladi. Xizmat ko'rsatish madaniyati yuzasidan maxsus dastur yaratilib, chet el firmalari bilan bevosita shartnomaga tuzgan va xorijiy sayyoqlarning kelishini ko'paytirish yo'lida qator tadbirlar ishlab chiqdi.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun quyidagi muammo'larni yechish maqsadga muvofiq:

— xorijiy mamlakatlarda O'zbekiston sayyoqlik obyektlari haqida reklama va marketingni kuchaytirish;

— turizm obyektlarida ekologik sharoitlarni yaxshilash tadbirlarini ishlab chiqish;

— respublikamiz turizmni jahon standartlari asosida rangli jurnallarda tasvirlash;

— turizm industriyasi bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlashni yo'lga qo'yish.



Savol va topshiriqlar

1. Rekreatsiya deganda nimani tushunasiz?
2. Rekreatsiyaning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Mustaqillik yillarigacha O'zbekistonda rekreatsiya ahvolini yoriting.
4. Sayohat turlarini tavsiflang.
5. Turizmning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni qanday?



40- §. Transport turlari va xususiyatlari


Transportni, ba'zan, mamlakat xo'jaligining **qon tomiri** ham deyishadi (Nima sababdan shunday deyiladi?).

O'zbekiston Dunyo okeaniga chiqish uchun kamida ikki davlat hududidan o'tadi. Shu jihatdan olganda u jahonda yagona mamlakatdir.

Dunyo okeaniga chiqish imkoniyatiga ega bo'lgan mamlakatimiz uchun transportning barcha turlari katta ahamiyatga ega.

Transport istalgan mamlakat xo'jaligining normal rivojlanishi uchun zaruriy shart hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida umumiyl foydalilaniladigan yuk va yo'lovchilar tashuvchi transportning barcha turlari — *temiryo'l, avtomobil, aviatsiya, shahar elektr transporti* (tramvay, trolleybus, metropoliten), daryo, quvur transporti, shuningdek *umumiyl foydalaniilmaydigan (sanoat)transporti, temir yo'l, avtomobil tasmali* (lentali) *transport, osma sim (kanat) transporti* mavjud.

Mamlakatimiz transport turlarini umumiyl tarzda quyidagicha aks ettirish mumkin.



O'zbekiston transportining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Aholi manzilgohlari sanoat korxonalari, iqtisodiy rayonlar va xorijiy mamlakatlar o'rtaida mustahkam aloqani o'rnatish.
2. Aholining, mamlakatning tashib keltiriladigan yuklarga nisbatan ehtiyojini to'la qondirish.
3. Korxonaclar va boshqa xo'jalik tarmoqlarining samaradorligini hamda ulardag mehnat unumdarligini oshirish.
4. Aholi qatnovini ta'minlash.

Respublikadagi barcha transport turlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan yagona majmuani tashkil etadi.

TRANSPORT

86



Respublika mustaqillikka erishgandan keyin transport tarmoqlari tubdan yaxshilandi. „O'zbekiston havo yo'llari“ Milliy aviakompaniyasi (1992- y), „O'zbekiston avtomobil transporti“ („O'zavtotrans“) Davlat aksiyadorlik kompaniyasi (1993- y), „O'zbekiston temiryo'llari“ Davlat aksiyadorlik kompaniyasi (1994- y) va boshqa idoralar tashkil etildi.

O'zbekiston transporti geografik o'rningizga xosligi uning hududidan O'rta Osiyo mamlakatlarini Rossiya, Osiyo, Yevropa davlatlari bilan bog'lovchi temir va avtomobil yo'llarining o'tganligi bilan belgilanadi.

Respublikaning transport tizimini temiryo'l, avtomobil yo'llari, zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan vokzallar, stansiyalar, yuk omborlari bandargohlar, havo flotining yirik aeroportlari va infrastrukturasi qamraydigan murakkab xo'jalik tizimi tashkil qiladi.

Transport mahsulotlari — bu yuklarni va yo'lovchilarni tashish-vositasidir. Transportsiz hududiy mehnat taqsimoti bo'lmaydi, rayonlar shakllanmaydi. Tashqi iqtisodiy aloqalar, korxonalar faoliyati to'xtaydi. Binobarin, iqtisodiy geografiya fanini ham transportsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Yuk transporti korxonalar o'rtaida ishlab chiqarish aloqalarini ta'minlash va aholiga iste'mol mahsulotlarini yetkazib berishdan iborat. Bu ishlab chiqarish jarayonlarini xizmat ko'rsatish sohalariga yetkazilishi demakdir.



Savol va topshiriqlar

1. Transportning xalq xo'jaligidagi ahamiyati nimalardan iborat?
2. Transportning qanday turlarini bilasiz?
3. Transport turi va tizimi nima?

41- §. Transport turlari geografiyasি

Temiryo'l transporti. Xalq xo'jaligida temir yo'l transporti yo'lovchilar hamda yuk tashishda salmoqli o'ringa ega. Bu transport qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

1972- yilda qurib bitkazilgan Qo'ng'irot-Beynov magistrali Qozog'iston orqali Rossiyaning Markaziy, Janubiy Ural mintaqalariga tutashgan. Xovos-Aris magistrali mamlakatimizni Qozog'iston orqali Rossiyaning Sibir, Uzoq Sharq mintaqalari bilan bog'laydi. Termiz-Dushanbe yo'nalishi Tojikiston, Toshkent-Turkmanboshi yo'nalishi esa Kavkaz mamlakatlari bilan bog'laydi.

Hozirgi kunda, mamlakatimiz temiryo'llarining umumiy uzunligi 7 ming km ga yaqin bo'lib, shundan umumiy foydalanimaydigan yo'llar 3,1 ming km. ga teng. Ular sanoat korxonalariga tortilgan yo'llardan iborat.

O'zbekiston mamlakatimizni Xitoy, Koreya, Yaponiya hamda Eron, Turkiya va G'arbiy Yevropaning janubi bilan tutashtiradigan Transosiyo magistrali (Istanbul-Toshkent-Almati-Pekin) qurilishida shuningdek, TRASEKA loyihasida hissabay ishtiroy etmoqda.

Bu magistralning Turkmanistonda Tajan-Saraxs va Eronda Saraxs-Mashhad qismlari qurib foydalanishga topshirildi (1996- yil). 295 km uzunlikka ega bo'lgan bu yo'l eng qisqa masofa orqali O'rta Osiyoni Fors qo'shitig'i bilan bog'ladı.

Mamlakatimiz kelajakda bu katta yo'lning markaziy bo'g'ini bo'lib qoladi. **O'zbekiston Buxoro-Beynov orqali Yevropaga, Tajan-Saraxs orqali esa Yaqin Sharq mamlakatlariga, Drujba orqali Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariga chiqish imkoniga ega bo'ldi.**

O'zbekistonda ichki transport mustaqilligiga katta ahamiyat berilmoqda. Yaqin kelajakda Turkmanistonga kirmasdan Surxondaryo va Quyi Amudaryoga borish imkoniyati tug'iladi. Shu maqsadda Uchquduq-Nukus, G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on, Urganch-Beruniy yo'llari qurildi (Bularni xaritadan toping).

Mustaqillik yillarida Uchquduq-Nukus temir yo'li qurib bitirildi. G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'li 2005- yilda ishga tushadi.

Avtomobil transporti. Bu transport turi ancha qimmat bo'lishiga qaramasdan istalgan joyga, ya'ni yuklarni „Eshikdan-eshikkacha“ eltib berish imkoniyatiga ega.

Avtomobil yo'llarining samaradorligi bevosita yo'llar zichligi va sifati bilan belgilanadi. Respublikada avtomobil yo'llarining uzunligi 120 ming km. ga yaqin. Shundan umumiyligi foydalilaniladigan (tosh yoki qoplama yo'llari) avtomobil yo'llari 44,5 ming km, jumladan 3500 km xalqaro, 19000 km davlat (respublika), 22000 km. mahalliy — (viloyat ahamiyatiga ega bo'lgan) yo'llardan iborat.

Mustaqillik yillarida mavjud avtomobil yo'llari xalqaro andazalar asosida ta'mirlana boshlandi. O'zbekiston Xitoy va Pokistonga chiqish imkoniyatini beruvchi Andijon-O'sh-Ergashtom-Qashqar avtomobil yo'li qurilishida o'z ulushi bilan qatnashmoqda. Mamlakatimizni Yevropa bilan bog'laydigan Qo'ng'irot-Beynov magistrali qurilishi jadal olib borilmoqda.

Buyuk ipak yo'li qayta tiklanmoqda, Andijon-Toshkent-Nukus-Qo'n-g'irot tezyurar avtomobil yo'li jahon andazalari asosida bunyod etilmoqda.



O'zbekiston havo yo'llarida zamонавиј самолотлар катнайди.

Havo transporti. Zudlik bilan tashiladigan va tez buziladigan mahsulotlarni tashishda juda qulay bo'lgan transport turi. Havo transportining eng asosiy vazifasi yo'lovchilarni uzoq masofalarga eltishga ixtisoslashishidir. Shunga qaramasdan, havo transportida tashiladigan yuklar hajmi unchalik katta emas (sababini tushuntiring).

Hozirgi kunda O'zbekiston jahondagi ko'pgina mamlakatlarning poytaxtlari, yirik shaharlari, sanoat markazlari bilan havo yo'llari orqali bog'langan. „O'zbekiston havo yo'llari“ning Yevropa, Osiyo, Amerika mamlakatlarida vakolatxonalar ochilgan.

Toshkentda MDHdan tashqari London, Nyu-York, Manchester, Frankfurt-Mayn, Tel-Aviv, Jidda, Istanbul, Pekin, Seul, Osaka kabi o'nlab shaharlarga xalqaro aviareyslar qatnab turibdi.

„O'zbekiston havo yo'llarida“ „Boing-757“, „Boing-767“, „Il-114“, „Rj-85“, „Il-62“, „Il-86“, „Tu-154“, „F-310“ kabi xalqaro klassdagi samolyotlar parvoz qilmoqda.

Mamlakatimizning barcha viloyat markazlarida zamonaviy aeroportlar bunyod etilgan. Shulardan Toshkent, Samarqand, Termiz, Buxoro, Urganch aeroportlari xalqaro aeroport maqomiga ega. Uchquduqda ham shunday aeroport barpo etilmoxda.

Suv transporti. Respublikada Termiz daryo bandargohi, Sharlovuq, To'rtko'l, Beruniy, Qoratov, Xo'jayli bandargohlari; Amudaryo orqali To'rtko'l-Xonqa, Cholish-Beruniy parom ko'priklari, Xo'jayli kema ta'mirlash zavodi ishlab turibdi.

Termiz-Hayraton, Sharlovuq-To'rtko'l, Xo'jayli-To'rtko'l, Xo'jayli-Beruniy, Qoratov-Taxiatosh yo'nalish va bandargohlari daryoda suv ko'paygan paytlarda faoliyat ko'rsatmoqda, Termiz-Hayraton (Afg'oniston) orqali xalqaro eksport-import yuklari tashiladi. Oxirgi yillarda Amudaryoda suvning juda kamayib ketishi uning quyi qismlaridagi bandargohlarning faoliyatini qisqartirib qo'ydi.



Termiz daryo bandargohi

Keyingi o'n yilliklarda transport qatoriga yangi transport turi, ya'ni **quvur transporti** qo'shildi. Quvur transportida, asosan, neft va gaz tashiladi. Bu transport bajaradigan ishlari hajmiga ko'ra temiryo'l transportiga yaqinlashib qoldi. Quvur transportida tashilgan yuk temiryo'lga qaraganda 3 – 5 marta tez va arzonga tushadi.

Elektr asosida ishlaydigan transport turlariga **elektrlashtirilgan temiryo'llar, trolleybus, tramvay, metropoliten** kiradi.

Mamlakatimizda Toshkent-Yangiyo'l-Chinoz-Sirdaryo-Guliston oraliq'idagi temiryo'l eng dastlabki elektrlashtirilgan yo'l hisoblanadi. Keyinchalik Toshkent-Keles-Nazarbek-Toshkent halqa temiryo'li, Toshkent-Xo'jakent, Toshkent-Angren temiryo'llari ham elektrlashtiriladi. Elektrlashtirilgan temiryo'llarda yuk tashish arzonga tushishi bilan atrof muhit kam ifloslanadi.

Trolleybus qatnovi mamlakatimizda ilk bor 1947- yilda Toshkentda ishga tushdi. Keyinchalik, 1967- yilda Samarqandda, 1968- yilda Olmaliqda, 1970- yilda Farg'onada, 1971- yilda Andijonda, 1973- yilda Namanganda, 1987- yilda Buxoroda, 1992- yilda Nukusda, 1997- yilda Urganchda, 1997- yilda Jizzaxda trolleybus qatnay boshladi. O'zbekistonda 410 km trolleybus yo'llari mavjud (2000- y). 1997- yilda Xivaning 2500- yilligi munosabati bilan Urganch-Xiva trolleybus yo'li ishga tushirildi. Xuddi shunday shaharlararo trolleybus qatnovi Namangan To'raqo'rg'on oralig'ida ham tashkil etildi.



Toshkent metrosi.

Tramvay eng qadimiy elektr asosida ishlaydigan transport turi bo'lib, u mamlakatimizda dastavval Toshkentda XX asr boshlarida paydo bo'ldi. Tramvay yo'llarining umumiy uzunligi 300 km ga yaqin.

Metropoliten eng qulay transport turi. Toshkent metropoliteni 1972-yilda ishga tushirildi. Hozirgi kunda Toshkent metropolitenidagi 3 yo'nalishda poyezdlar harakat qilmoqda. Metropolitenda sutkasiga 270–300 ming yo'lovchi tashiladi.

Elektron transport. Mamlakatimizda elektr stansiyalarning O'rta Osiyo elektr tizimiga ularishi bilan transportning yangi turi — elektron transport vujudga keladi.

O'zbekistonda birinchi elektr uzatkich tarmog'i 1933-yilda qurildi. 1958-yilda Qayroqqum GES — Qo'yliq (Toshkent) orasida elektr uzatgich tarmog'i qurildi. So'ngra Sirdaryo GRES — Toshkent, Andijon-To'xtag'ul, Toshkent GRES — Chimkent, Tursunzoda-G'uzor-Sirdaryo, Navoiy GRES — Urganch va boshqa tarmoqlar ham ishga tushirildi.

O'zbekistonning elektr quvvati manbalari O'rta Osiyo, Qozog'iston energetika tizimiga birlashtirildi. Hozirgi kunda mamlakatimizda 16 ming km ga yaqin yuqori kuchlanishli elektr uzatkich tarmoqlari ishlab turibdi.

Mamlakatimizning O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashganligi uning transport-geografik o'rniiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Yevropa va Yaqin Sharqdan Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga olib boruvchi yo'llar shu yerda kesishadi.

O'zbekistonda aksariyat temiryo'l, avtomobil hamda havo yo'llari davlat va xalqaro ahamiyatga ega. Masalan, Buxoro-Beynov, Andijon-Jalolobod-O'sh, Xovos-Aris-Orenburg va boshqalar ana shunday darajadagi yo'llar hisoblanadi.

Bir qancha avtomobil yo'llari: Katta O'zbekiston trakti (Toshkent-Termiz), Andijon-O'sh-Ergashton-Qashqar, Termiz-Xirot-Karochi, Toshkent-Qo'qon, Qo'ng'irot-Beynov davlat ahamiyatiga va xalqaro ahamiyatga ega (Bu yo'llarni xaritadan toping).

O'zbekiston dunyoning 40 ga yaqin mamlakati va 100 dan ortiq shaharlari bilan havo yo'llari orqali bog'langan (Shunday shaharlardan 20 tasini yozing).



Savol va topshiriqlar

1. Mamlakat transport mustaqilligi haqida nimalarni bilasiz?
2. Asosiy transport turlarini aytинг.
3. O'zbekistonda qaysi transport turi yetakchi va nima uchun?
4. Temiryo'l transportiga xos xususiyatlarni ta'riflang.
5. Yuk oboroti (aylanmasi) deganda nimani tushunasiz?

MUSHOHALADA QILING

Toshkentdan Urganchga boradigan yangi avtomobil va temir yo'llari, sizningcha qayerlardan o'tgani ma'qul? Javobingizni yozma ravishda bayon qiling.

42- §. Xalqaro iqtisodiy aloqalar

O'zbekiston Sovet hokimiyati hukumronlik qilib kelgan yillarda xorijiy mamlakatlar bilan mustaqil ravishda tashqi iqtisodiy aloqalarni olib borish imkoniyatidan mahrum edi. Tashqi faoliyat bilan bog'liq bo'lган barcha masalalar sobiq Ittifoqning tegishli vazirliklari ihmivorida bo'lган.

Respublikamiz bevosita jahon savdo-sotiq ishlariда qatnasha olmas, o'zining tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlardan, aholining mehnat malakalari natijasidan to'laqonli foydalana olmas edi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin u bir qancha xorijiy mamlakatlar bilan bevosita iqtisodiy hamkorlikni amalga oshirishga kirishdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lган ko'pgina masalalar isloh qilindi. Uni boshqarish jarayonlari ancha takomillashdi.

Tashqi savdo-iqtisodiy aloqalar borasidagi ishlar mamlakatimizning asosiy talab-ehtiyojlari va manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilmoqda. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning an'anaviy va rivojlangan shakllardan biri — bu xalqaro tashqi savdodir. Dunyodagi iqtisodiy aloqalarning 80 foizi tashqi savdoga to'g'ri keladi.

Tashqi savdo deganda ayrim bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan savdo-sotig'i tushuniladi. U haq to'lanadigan tovar olib kirish (import) va haq to'lanadigan tovar olib chiqish (eksport)dan iborat.

Tashqi savdo turli-tuman ko'rinishga ega bo'lib, tayyor mahsulotlar ayriboshlash, xomashyolar va xizmatlar bilan savdo qilish turlariga ajratiladi.

Hozirgi kunda O'zbekiston dunyoning 140 dan ortiq mamlakati bilan tashqi savdo aloqalari olib bormoqda. Respublikaning xalqaro savdo aloqalarida 3 ta asosiy yo'nalish mavjud. Ular:

1. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar bilan savdo aloqalari (35,3%).
2. Rivojlanayotgan mamlakatlar bilan savdo aloqalari (27,3%).
3. MDH va Boltiq bo'yи mamlakatlari bilan savdo aloqalari (37,4%).

O'zbekistonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar bilan tashqi savdo aloqalari respublika iqtisodiyotini qayta qurish strategiyasini jadal sur'atlarda amalga oshirishda katta rol o'ynaydi. Bu yo'nalishda O'zbekistonning asosiy savdo sheriklari (2000- y.) Koreya Respublikasi (6,3%), AQSH (5,0%), Germaniya (4,7%), Shveysariya (4,8%), Buyuk Britaniya (4,7%), Turkiya (3,2%), Fransiya (2,0%) hisoblanadi.

Geografik jihatdan olganda, O'zbekistonning tashqi savdo aloqalari, asosan, Yevropa davlatlariga (62%) va Osiyo mamlakatlariga (33%) to'g'ri keladi. Mamlakatimiz tashqi savdosida yetakchi o'rinni paxta tolasi egallaydi. (Mamlakatimiz paxta tolasi eksport qilishda AQSHdan keyin 2- o'rinni egallaydi). Paxta tolasi ko'proq MDH mamlakatlariga chiqariladi.

Mustaqillik yillarida mashina va jihozlarni eksport qilish 2,1 barobarga, qora va rangli metallar 1,2 barobar, yoqilg'i resurslari 1,9 barobarga ko'paydi. Respublika importida ishlab chiqarishni yangi texnologiyalar bilan boyitish uchun mashina va jihozlar va ichki bozorni to'ldirish maqsadida xalq iste'mol mollari keltiriladi.

O'zbekiston tashqi savdo aloqalarida eksport va importning tarkibi quyidagi ko'rinishga ega.

O'zbekiston eksport va importining tarkibi (2000- y, % hisobida)

Mahsulot	eksport	import
Paxta tolasi	27,5	—
Oziq-ovqat mahsulotlari	5,4	12,3
Kimyo mahsulotlari va plastmassalar	8,9	13,6
Yonilg'i mahsulotlari	10,3	3,8
Qora va rangli metallar	6,6	35,4
Mashina va jihozlar	3,4	8,5
Xizmatlar	13,7	7,5

Aholi jon boshiga eksportning miqdori jihatidan O'zbekiston MDHda oldingi o'rinnlarda turadi.

Mamlakatimiz xorijiy investitsiyalardan ham unumli foydalanganmoqda. Jalg etilgan xorijiy investitsiyalar miqdori 2000- yilda 1 mlrd AQSH dollaridan oshib ketdi. Bundan tashqari, O'zbekiston uzoq muddatli va imtiyozli kreditlar ham olmoqda. Xorijiy investitsiyalarning aksariyati, avvalo, **agrosanoat majmuasi, energetikani rivojlantirish, ishlab turgan korxonalarini yangilash, mamlakatning importga qaramligini kamaytirish, o'rta va kichik korxonalarini ko'paytirish kabi o'nlab sohalarga yo'naltirilmoqda**. Eng muhimi — xomashyoni chetga chiqarishni kamaytirish, tayyor mahsulotni sotish, oziq-ovqat mahsulotlarini imkon qadar mamlakatimizda ishlab chiqarish muhim masalalar hisoblanadi.

Respublikamiz kimyo, neft, gaz sanoati va qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha yirik investitsiya loyihibalarida ishtirok etmoqda. Ko'kdumaloq neft koni kreditlar bo'yicha o'zlashtirildi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda Muruntov oltin konlaridan oltin, kumush va boshqa nodir metallar olishga ixtisoslashgan „Zarafshon-Nyumont“ O'zbekiston-AQSH qo'shma korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Paxta xomashyosini xalqaro bozor talablariga javob beradigan darajada qayta ishlaydigan o'nlab to'qimachilik korxonalari buniyod etildi va etilmoqda (Shulardan 5 tasini aytинг).

Mamlakatimiz **Xalqaro valuta fondi, Jahon banki, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Xalqaro elektr aloqa ittifoqi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot**

banki, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro Moliya korporatsiyasi, Bojxona hamdo'stligi Kengashi kabi iqtisodiy hamkorlik bo'yicha nufuzli tashkilotlarga a'zo bo'ldi.

O'zbekiston xalqaro turizm rivojlanayotgan o'lkalardan biriga aylanmoqda. Mamlakatimizning ko'hna tarixi, qadimiy madaniy-me'moriy yodgorliklari jahon turistlarini hamisha o'ziga chorlab kelgan.

O'zbekiston fan va madaniyat sohasida ham xorijiy mamlakatlar bilan mustahkam aloqalar o'rnatgan. Ayniqsa, AQSH, Germaniya, Angliya, Fransiya, Yaponiya kabi o'nlab rivojlangan mamlakatlar bilan bu borada talaygina shartnomalar imzolangan. 1997- yil yanvarida respublika Prezidentining „Umid“ jamg'armasi tashkil topdi. Bu jamg'armaning asosiy vazifasi iste'dodli yoshlarni tanlash va ularni chet ellardagi nufuzli o'quv yurtlarida ta'lif oldirishdan iborat.



Savol va topshiriqlar

1. Tashqi savdo deb nimaga aytildi?
2. Tashqi savdo turlarini ajrating.
3. O'zbekistonning rivojlangan mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalariga tavsif bering.
4. Mamlakatimiz tashqi savdo munosabatlarida qanday siyosat olib bormoqda?

Uchinchchi qism IQTISODIY RAYONLAR TAVSIFI



Mavza. IQTISODIY RAYONLASHTIRISH ASOSLARI

43- §. Iqtisodiy rayonlashtirish prinsiplari. Geografik mehnat taqsimoti

Biz oldingi darslarimizda mamlakatimiz sanoati, qishloq xo'jaligi, transport, tashqi iqtisodiy aloqalarning joylanishi va rivojlanishini ko'rib chiqdik. Ularning joylanishidagi o'ziga xos xususiyatlar va qonuniyatlar mavjudligini biliib oldik.

Ma'lumki, respublikamizning turli qismlari bir-biridan tabiiy sharoiti va resurslari, iqtisodiy yo'nalishlari bilan farq qiladi. Bu xususiyatlar, o'z navbatida, sanoat, qishloq xo'jaligi tarmoqlari rivojiga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimiz ayrim hududlarining iqtisodiy taraqqiyoti bir-biridan o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, shunday hududlar borki, ular boy mahalliy resurslar asosida taraqqiy etib ketgan bo'lsa, ikkinchi hudud tashqaridan keltiriladigan xomashyoga tayanadi. Yoki, yana boshqasida

neft, gaz, ko'mir zaxiralari mujassamlashgan bo'lib, u o'z taraqqiyoti bo'yicha boshqa hududlardan juda ilgarilab ketgan bo'ladi. Bundan tashqari, shunday xududlar borki, bu yerda mineral resurslar yetishmasa ham o'zining intellektual salohiyati hisobiga ilmtalab mahsulotlar ishlab chiqarishda mamlakatda yetakchi o'rinni egallashi mumkin va h.k.

Demak, har bir hudud yoki rayon bir yoki bir necha mahsulotni nafaqat o'zi uchun, balki boshqalar uchun ham arzon ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. U, o'z navbatida, o'zida zarur bo'lган ayrim mahsulotlarni qo'shni hududlardan keltiradi. Buning oqibatida mehnat natijalari almashinishi sodir bo'ladi, geografik mehnat taqsimoti rivojlanadi.

Mamlakatning ayrim qismlari o'rtasida mehnat natijalarining almashinishi geografik yoki hududiy mehnat taqsimoti deb ataladi.

Geografik mehnat taqsimoti oqibatida rayon, hudud u yoki bu mahsulotni ishlab chiqarishga ixtisoslashadi. Ma'lum bir mahsulotning (xizmatning) ishlab chiqarishga ixtisoslashishi quyidagi hollarda mavjud bo'ladi:

ishlab chiqarilayotgan mahsulot mahalliy ehtiyojlardan ortiqcha bo'lsa va tovar sifatida chetga chiqarilsa;

mahsulotni ishlab chiqarish mamlakatning boshqa qismlariga nisbatan arzon bo'lsa;

mahsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lган sharoit va resurslar uzoq davrlarga yetsa;

mahsulot talab va taklif qonuniga mos bo'lsa, ushbu mahsulot taqchilligiga barham bersa.

Hudud ixtisoslashuvi uzoq vaqt largacha davom qilishi mumkin. Xo'jalikning taraqqiy etishi bilan ixtisoslashuv o'zgarib boradi. Masalan, Qashqadaryo viloyatlarida neft va gaz konlarini ishga tushirilishi uning ixtisoslashuvini o'zgartirib yuborishga olib keladi (Sababini tushuntiring).

Geografik mehnat taqsimoti alohida hududlarning ixtisoslashuvida namoyon bo'ladi. Bu, o'z navbatida, mamlakat miqyosida ijtimoiy mehnatni tejashevchi mehnat unumdarligini oshirish imkonini beradi.

Geografik mehnat taqsimoti oqibatida iqtisodiy rayonlar shakllanadi. Iqtisodiy rayonlar bir-biridan o'z ixtisoslashuvi bilan farqlanadi.

Xo'sh, mamlakatni iqtisodiy rayonlarga ajratish nima uchun zarur? Rayonlashtirish turli maqsadlarni amalga oshirish uchun ajratilishi ham mumkin. Chunonchi, agrar islohotlarni differensiyalash, qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun har xil dasturlar ishlab chiqish, yer solig'i miqdorlarini aniqlash, ekologik muammolarni hal qilish va hokazolarda ham aniq hududiy yondashuv talab etiladi.

Rayonlashtirishda 4 ta asosiy funksiya (vazifa) bajarilishi ko'zda tutiladi:

1. Hudud haqidagi ma'lumotlarni tartibga solish, uning rivojlanish rejasigacha tegishli ma'lumotlarga ega bo'lish.

2. Hudud haqidagi ma'lumotlarni chuqur o'rganish va rayonlar haqida to'liq tasavvur hosil qilish.

3. Mutaxassislar va keng aholi ommasida „Rayon obrazini“ shakllantirish.

4. Mamlakatning mintaqaviy siyosatini amalga oshirish.

Unutmang: agar bir hudud ijtimoiy yo'nalishi bo'yicha boshqa hududlardan farq qilmasa, hududiy (geografik) mehnat taqsimoti ham, iqtisodiy rayonlar ham bo'lmaydi. Ularsiz esa iqtisodiy geografiya ham fan sifatida shakllanmaydi. Binobarin, hududiy mehnat taqsimoti va uning natijasi — iqtisodiy rayonlar iqtisodiy geografiyaning asosiy tushunchalari bo'lib, ular bu fanning tub mohiyatini ochib beradi.

O'zbekiston Respublikasi hududi 6 ta iqtisodiy rayonga ajratiladi. Ular ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot xususiyatlari hamda demografik va geografik salohiyatga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Shuningdek, bu rayonlar aholi soni va hududining kattaligi bilan ham keskin ajralib turadi. Jadvalga qarang.

O'zbekistonning asosiy iqtisodiy rayonlari (2002- yil)

Iqtisodiy rayonlar	Viloyatlar	Iqtisodiy rayon				Aholi zichligi, kishi kv/km	
		hudud, ming kv/km	foizda	aholisi			
				ming kishi	foizda		
1	2	3	4	5	6	7	
Toshkent iqtisodiy rayoni	Toshkent shahri, Toshkent viloyati	15,6	3,5	45,28	18,1	290	
Mirzacho'l iqtisodiy rayoni	Jizzax va Sirdaryo viloyatlari	25,5	567	1663	6,6	65,2	
Farg'ona iqtisodiy rayoni	Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlari	1962	4,3	6960	27,7	362	
Zarafshon iqtisodiy rayoni	Buxoro, Navoiy, Samarqand viloyatlari	168,1	37,4	5002	19,9	29,7	
Janubiy iqtisodiy rayon	Surxandaryo, Qashqadaryo viloyatlari	48,7	10,8	4055	16,1	83,3	
Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni	Qoraqalpog'siston Respublikasi, Xorazm viloyati	171,2	38,3	2909	11,6	17,0	

Iqtisodiy rayonlar o'zidan kichikroq bo'lgan ma'muriy-iqtisodiy rayonlar (viloyatlar) hamda ularning tarkibida tumanlararo hududiy iqtisodiy birliklar („okruglar“)ga ajratiladi. Chunonchi, Qashqadaryo viloyatida Shahrisabz, Qarshi, Muborak; Surxondaryoda Termiz va Denov; Namangan viloyatida — Namangan va Chust; Qoraqalpog'istonda Nukus, To'rtko'l-Beruniy, Chimboy, Qo'ng'irot kabi quyi darajadagi iqtisodiy rayonlar shakllanmoqda.



Savol va topshiriqlar

1. Geografik mehnat taqsimoti qanday vujudga keladi?
2. Qanday holatlarda ixtisoslashuv sodir bo'ladi?
3. Iqtisodiy rayon nima?
4. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada rayonlashtirishning ahamiyatini tushuntirib bering.

44- §. Hududiy ishlab chiqarish majmualari va iqtisodiy rayonlarga ta'rif berish tartibi

Hududiy mehnat taqsimoti zaminida iqtisodiy rayonlar va XICHM lari (hududiy ishlab chiqarish majmualari) yotadi. **Boshqacha qilib aytganda, hududiy mehnat taqsimoti birlamchi, qolgan ikkitasi esa uning natijasi, hosilasidir.**

XICHMlari. Ma'lum bir joyda turli korxonalarining o'zaro ilmiy asoslangan holda bog'liq joylanishidan vujudga kelgan majmualarni XICHMlari deb atash mumkin. Ularning bunday joylanishi mablag'larni tejash, mehnat unumdorligini oshirish, atrof-muhitni qo'riqlash, kishilarning turmush tarzini yaxshilash imkoniyatlarini beradi. Ba'zan, turli bosqichdagi iqtisodiy rayonlarni XICHM tarzida ko'rsa bo'ladi. Masalan, Farg'ona vodiysi, Toshkent viloyati XICHMlari va h.k.

Lekin majmualar, agar ularning iqtisodiy ixtisoslashuvi hisobga olinsa, har doim ham ma'muriy chegaralarga mos kelmaydi, ular bu darajadan keng yoki tor bo'lishi mumkin. Masalan, Qashqadaryoda vujudga kelayotgan XICHM ikki yo'nalishda bo'lib (ASM va yoqilg'i-energetika), u butun viloyat hududini egallamaydi, majmua, asosan, viloyatning quyi qismida, Qarshi dashti doirasida shakllanmoqda.

Odatda, XICHMlari yangi o'zlashtirilayotgan rayonlarda, ulkan tabiiy boylik va ayniqsa, yoqilg'i-energetika asosida shakllanadi. Chunonchi, Angren-Olmaliq, Qarshi, Mirzacho'l, Buxoro-Navoiy majmualari shular jumlasidandir. Demak, O'zbekiston XICHMlari sug'oriladigan dehqonchilik, agrosanoat tarmoqlari va mehnatni ko'p talab qiluvchi korxonalarini o'z ichiga olar ekan.

XICHMlarni katta hududdan ko'ra kichik joyda ixcham qilib yaratish ko'proq samara beradi va ularni boshqarish ham qulay bo'ladi. Aynan shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda kichik XICHMlarni ko'proq shakllantiriladi. Katta hududlarda XICHMlarni barpo etish sobiq Ittifoq sharoitida G'arbiy

Sibir, Janubiy Yoqutiston kabi o'lkalarda ko'zda tutilgan edi. Ammo ular amalda shakllanmadi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, XICHMlarni kichik hududlarda yaratish ma'qul ekan. Masalan, O'zbekiston sharoitida paxta tozalash zavodi bilan yonma-yon yog' zavodi, to'qimachilik majmuasi, oziq-ovqat korxonalarini barpo etish maqsadga muvofiq. Ular yagona transport, energetika, qurilish bazalaridan umumiy foydalanadi. Shu joyda ekologik muammolarni birgalashib yechadi, mehnat resurslaridan oqilona va unumli foydalanadi.

Qulay sharoitlarda va ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etib, kattaroq XICHMlarni ham shakllantirish mumkin. Bu borada Farg'ona vodisida, Qarshi zonasida, Angren-Olmaliq tog'-kon sanoati rayonida mukammal XICHMlarni yaratishga imkoniyatlar mavjud.

XICHMlar o'zlarining geografik joylashuvi hamda ixtisoslashuviga qarab ham turli xil bo'ladi. Ular tog'-kon sanoati yoki agrosanoat asosida, poytaxt rayonida va boshqa joylarda shakllanadi. **Biroq bunday majmualarning barchasi uchun hududiy infrastruktura va iqtisodiy-geografik o'rinning umumiyligi xos.**

Iqtisodiy rayonga ta'rif berish rejasি

1. Rayon tarkibi: qanday ma'muriy-hududiy va tabiiy bo'linmalardan iborat? Agar rayon chegaralari o'zgargan bo'lsa, sababi? Mintaqqa (rayon) iqtisodiyotining mamlakat (milliy) iqtisodiyotida tutgan o'rni.

2. Rayonning tabiiy va iqtisodiy-geografik o'rni: boshqa mamlakatlarga, mintaqalarga, asosiy xo'jalik markazlariga, transport yo'llariga, yuk yo'nallishlari va mehnat resurslariga, tashqi bozorga nisbatan joylanishi

3. Rayon tabiatи va uning rivojlanishidagi tabiiy shart-sharoitlar: tabiiy resurslari (agroqlim, o'rmon, suv, baliq, foydali qazilmalar va boshqalar)

4. Hududni o'zlashtirish tarixi va rayon xo'jalik majmuasining shakllanishi, uning hudud xo'jaligi tashkil etilishi va tarkibiga ta'siri.

5. Aholi va mehnat resurslari: rayon hududida aholining joylashishi, zichligi, tabiiy va migratsiya harakatlari, aholi tarkibi, aholi bandligi, mehnat bozoridagi ahvol.

6. Rayonning xalq xo'jalik majmuasi; har bir tarmoqning ulushi, ixtisoslashgan tarmoqlari, sanoat va qishloq xo'jalik tarmoqlari, bozor islohotlari, qo'shma korxonalarini, transporti, aholiga xizmat ko'rsatish sohalari.

7. Rayon iqtisodiyotining hujudiy tarkibi: sanoat tugunlari va rayonlari, asosiy shaharlari va iqtisodiy markazlari, tashqi iqtisodiy aloqalari.

8. Rayonda iqtisodiyot rivojlanishining asosiy muammolari va istiqbollari.



Savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy geografiyada XICHM lari qanday ahamiyatga ega?
2. Respublikamizdagи asosiy XICHM lari qaysilar?
3. Iqtisodiy rayonga qanday taribda ta'rif berish kerak?
4. Kartadan O'zbekiston iqtisodiy rayonlari va ularning tarkibini yozib oling.



45- §. Rayonning umumiyligi ta'rifi

Ushbu rayon tarkibiga Toshkent shahri va Toshkent viloyati kiradi. Uning maydoni respublika hududining 3,5 foizini, aholisi esa 18,1 foizini tashkil etadi.

Iqtisodiy-geografik o'rni. Toshkent iqtisodiy rayoni O'zbekistonning shimoli-sharqiy qismida, G'arbiy Tyanshan tog'lari bilan Sirdaryoning o'rta oqimida, ya'ni Chirchiq va Ohangaron daryolari oqib o'tadigan vodiylarda joylashgan. Uning iqtisodiy-geografik o'rnidagi qulaylik, avvalo, rayonning Mirzacho'l, Zarafshan, Farg'ona vodiysini bog'lovchi hududda joylashganligi bilan belgilanadi.

Iqtisodiy rayonning O'rta Osiyo markazida joylashganligi uning mavqeini yanada oshiradi. Uning hududidan Sharq bilan G'arbni bog'lovchi yo'llarning o'tishi bevosita rayon geografik o'rnidagi qulaylikni yanada yuqori pog'onaga ko'taradi.

Tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari. Iqtisodiy rayon yer yuzasining tuzilishi uning sanoati va qishloq xo'jaligining joylashishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Rayon tabiiy sharoiti va xo'jalik ahamiyatiga ko'ra 2 qismga ajratiladi.

1. Tekislik qismi. 2. Tog'li qismi.

Rayonning tekislik qismi Chirchiq va Ohangaron vodiylaridan iborat bo'lib, dengiz sathidan 250 – 450 metr balandlikda joylashgan. Bu tekisliklar Sirdaryogacha (120 km masofada) cho'zilgan. Tekisliklardan qadim zamonlardan buyon dehqonchilik va boshqa xo'jalik maqsadlarida foydalanib kelinadi. U antropogen (inson) faoliyat tufayli butunlay o'zgarib ketgan. Chirchiq va Ohangaron daryolari voha yerlarini sug'orish uchun juda qulay. Yillik yog'in miqdori tog'oldi mintaqasida 450 – 650 mm gacha boradi. Unumdar bo'z tuproqlar va issiq iqlim paxta, uzum, poliz ekinlari, sabzavot, kanop yetishitish va ipakchilik bilan shug'ullanishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Bahor paytlarida sel bo'lish havfi bo'lgan hududlar ham mavjud. Tog' yonbag'irlarida ularga qarshi daraxtzorlar barpo etilgan va bu ishlar hozirgi kunda ham davom ettirilmoxqda. Chirchiq daryosi gidroresurslarga boy. Uning yuqori qismida Chorvoq suv ombori barpo etilgan. Bu suv ombori o'n minglab hektar yerlarni o'zlashtirish va sug'orish imkonini berdi.


Iqtisodiy rayondagi sug'oriladigan maydonlarning 70 foizi Chirchiq daryosidan sug'orilib, dehqonchilik qilinadi. Bundan tashqari, daryoda 20 ga yaqin GEslar ham qurilgan. Chirchiq daryosi 3 mln dan ortiq aholining suvgaga bo'lgan ehtiyojini qondiradi (qaysi shaharlar bevosita Chirchiq daryosidan suv bilan ta'minlanishini aniqlang).

Rayon o'simlik resurslariga ham boy. Rayonning tog'li qismida olcha, yovvoyi olma, yong'oq va boshqa mevali daraxtlar ko'p o'sadi. Chotqol tog'larida **Chotqol davlat biosfera qo'riqxonasi** tashkil etilgan.

Mineral resurslari. Toshkent iqtisodiy rayoni xilma-xil tabiiy resurslarga boy. Rayonda qo'ng'ir ko'mir (O'zbekiston ko'mir zaxirasining 96 foizi),

TOSHKENT VILOYATI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TOSHKENT VILOYATINING SALMOGI (%)da)




Sanoat tarmoqlari

- yoqiq'i sanoati
- gora metallurgiya
- rangli metallurgiya
- mashinasozlik va metallni gayta ishlash
- kimya
- qurilsh materiallari
- yengil
- paxta tozalash
- ioziq-ovqat
- boshqa tarmoqlar

ISHLOV BERUVCHI SANOAT

Yalpi mahsulot hajmi
bo'yicha sanoat punktlari



KENG TARQALGAN RAYONLAR

	RAYONLAR
bo'g'lar	
uzumzorlar	
sabzovol va kartoshka	
sholi	cho'chqachilik
yong'oqzorlar	parrandachilik
pista	asalarichilik
beda	ipakchilik
tamaki	
o'rmonlar	Qo'riqlanadigan yerlar

QISHLOQ XO'JALIGINING IXTISOSLASHUVI

Sug'orma dehqonchilik zonasasi

- shahar atrofi xo'jaligi, sabzavotchilik, bog'dorchilik va go'sht-sut chorvachiligi
- paxtachilik, donchilik, ipakchilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik, mevacilik, uzumchilik, asalarichilik, sut-go'sht chorvachiligi, parrandachilik
- sabzavotchilik, ipakchilik, bog'dorchilik, sut-go'sht chorvachiligi, parrandachilik

Lalmikor dehqonchilik zonasasi

- Don ekinlari, ba'zi yerdarda texnik ekinlari va uncha rivojlanmagan go'sht-sut chorvachiligi

Cho'l-yaylov zonasasi

- Cho'l-yaylov chorvachiligi

Tog'-yaylov zonasasi

- Tog'-yaylov chorvachiligi (go'sht-jun-qo'ychiligi, go'sht-sut chorvachiligi, daryo vodiylarida bo'g'lar va uzumzorlar)

MASSHTAB 1 : 2 000 000



**Toshkent shahri: Milliy bank va
Interkontinental mehmonxonasi.**

mis, polimetall, qalayi rudalari, oltin, molibden, dala shpati, alunit, kaolin, korund, abraziv (juda qattiq tosh), qurilish ashyolari (granit, ohak, mergel, va h.k.) topilgan.

Angren ko'mir havzasi nafaqat O'zbekistonda, balki butun O'rta Osiyoda yirik ko'mir koni hisoblanadi. Undagi ko'mir zaxirasi 2 mld tonna deb baholangan. Ko'mir yer yuzasiga yaqin joylashgani sababli ochiq usulda qazib olinadi. Uni qazish

jarayonida kaolin gilmoya minerali ham chiqadi. Germaniya bilan hamkorlikda qurilgan qo'shma korxona jamoasi kaolinni qayta ishlashda faoliyat ko'rsatmoqda. Kaolindan chinni buyumlar tayyorlashda, aluminiy xomashyosi olishda keng foydalanish mumkin.

Olmaliqdagi rangdor va nodir metall rudalari yirik zaxiraga ega. Masalan, bu yerdagi mis konlari MDHda Qozog'istondan keyin 2- o'rinda turadi. Mavjud tabiiy resurslar qulay iqtisodiy-geografik o'ringa egaligi tufayli ularni qazib olish ancha arzonga tushadi.

Aholisi va mehnat resurslari. Toshkent iqtisodiy rayonida 4,5 mln aholi yashaydi. Aholi soni bo'yicha u Farg'ona iqtisodiy rayonidan keyin 2- o'rinda turadi. Bu respublika aholisining salkam 20 foizini tashkil qiladi. Aholining o'rtacha zichligi 1 kv km yerga 290 kishi. Zichlik bo'yicha ham mazkur rayon Farg'ona vodiysidan keyin turadi. O'zlashtirilgan hududlarda, tog' etaklarida, daryo vodiylarida aholi zichligi 1 kv. km maydonga 400 kishigacha boradi. Tog'li joylarda bu ko'rsatkich birmuncha past. Shahar atroflarida ham aholi ancha zich joylashgan.

Toshkent shahrisiz viloyat aholisi 2,4 mln kishini tashkil qiladi. Toshkent iqtisodiy rayoni aholisining o'sish sur'atlari mamlakatimizning boshqa rayonlariga qaraganda nisbatan pastroq (sababini tushuntiring).



Savol va topshiriqlar

1. Toshkent iqtisodiy rayoni geografik o'rniga xos xususiyatlarni aytинг.
2. Nima sababdan Toshkent iqtisodiy rayoni O'rta Osiyoda „iqtisodiy ko'priк“ vazifasini o'taydi?
3. Iqtisodiy rayon maydoni bo'yicha O'zbekistonda qanday salohiyatga ega?
4. Chirchiq va Ohangaron vodiylari xo'jaligini taqqoslang.
5. Iqtisodiy rayonda joylashgan 10 ta shaharni kattaligiga ko'ra tartib bilan yozing.

46- §. Iqtisodiy rayon xo'jaligi

Toshkent iqtisodiy rayoni xo'jaligining tez rivojlanishida, avvalo, uning qulay geografik o'rni va poytaxtlik mavqeyi katta rol o'ynaydi. Rayon sanoat salohiyati bo'yicha respublikada 1- o'rinda turadi.

Iqtisodiy rayonning rivojlanishida Toshkent shahriga yaqin hududlardan oqib o'tadigan Chirchiq daryosining boy gidroresurslarga egaligi muhim

ahamiyat kasb etadi. Daryoda qurilgan GESlar iqtisodiy rayonning rivojlanishida katta turtki bo'ldi. Rayonda xilma-xil foydali qazilmalarning mavjudligi ham og'ir sanoatning jadal rivojlanishiga imkon beradi.

Iqtisodiy rayon xo'jaligi industrial-agrar yo'nalishga ega. Xo'jalikda yetakchi o'rinni sanoat egallaydi. Bu sohada u respublikada birinchi o'rinda turadi. Qishloq xo'jaligi ham yuqori darajada taraqqiy etgan. Ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturaning (temir va avtomobil yo'llari, elektr uzatish tarmoqlari, aloqa vositalari, malakali kadrlarni tayyorlovchi ta'lim maskanlari va boshqalar) yaxshi taraqqiy qilganligi sababli rayon xo'jaligi respublikamizda eng yuqori o'rinda turadi.

Sanoati. Iqtisodiy rayon sanboti yuksak darajada rivojlangan. Rayonda sanoatning turli tarmoqlari mavjud. Mamlakatimiz yalpi sanoat mahsulotining 40 foizga yaqinini beradi.

Rayonda sanoatning **ixtisoslashgan tarmoqlari** quyidagilar:

- Elektr energiya ishlab chiqarish.
- Qishloq xo'jalik mashinalari va traktorlar ishlab chiqarish.
- Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish.
- Temir beton konstruksiyalari va qismlarini ishlab chiqarish.
- Po'lat, prokat ishlab chiqarish.
- Ko'mir qazib olish.
- Rangli metallar ishlab chiqarish.

Rayon ip gazlama va poyabzalning 1/3 ini, o'simlik moyi va qandolat mahsulotlarining 30 foizini, uzum sharoblarining 1/2 qismini yetkazib beradi.

Qora metallurgiya, rangli metallurgiya, ko'mir sanoati, qishloq xo'jaligi mashinasozligi kabi tarmoqlar, asosan, shu yerda rivojlangan.

Yoqilg'i-energetika sanoati. Rayon energetika xo'jaligi mahalliy gidro-energiya resurslari, qo'ng'ir ko'mir va Qashqadaryodan keltiriladigan tabiiy gazga asoslangan.

Rayon elektrstansiyalari respublikamizda ishlab chiqariladigan elektr energiyaning 45 foizga yaqinini beradi. Bu yerda yoqilg'i-energetika majmuyi tashkil topgan.

Metallurgiya sanoati. Toshkent iqtisodiy rayoni respublika qora metallurgiya sanoati mahsulotlarining deyarli hammasini beradi. Bu tarmoqning yetakchi korxonasi Bekobod shahrida joylashgan O'zbekiston metallurgiya zavodi (yoki to'liq siklga ega bo'lмаган kombinat) hisoblanadi. Zavod temirtersak asosida ishlaydi. Bu yerda elektr quvvati yordamida po'lat eritish va prokatning sifatli turlari ishlab chiqariladi. Mustaqillik yillarda gaz va suv quvurlarini ishlab chiqarish ham yo'liga qo'yildi.

Bekobod metallurgiya zavodini xomashyo bilan ta'minlash maqsadida Boyovut, Denov, Kitob, Urganch, Taxiatosh va Qarshi shaharlariда temirtersak yig'ish va ularni saralash bazalari bunyod etilgan.

Rangdor metallurgiya. Rangdor metallurgiya iqtisodiy rayonning eng taraqqiy etgan sanoat tarmog'idir. Bu sohada Angren-Olmaliq sanoat rayoni respublikada alohida mavqega ega. Olmaliqdagi tog'-metallurgiya kombinati ishlab turibdi.

Olmaliq tog'-metallurgiya kombinati mis va mis rudalari, rux, qo'rg'oshin rudalari, sulfat kislota, molibden va nodir metallar ishlab chiqaradi. Mustaqillik

yillarida bu kombinat negizida oltin eritish sexi ishga tushirildi. Mis zavodi pechlarini tabiiy gaz bilan ishlashga o'tdi.

Rangdor metallurgiya sanoatining ikkinchi yirik markazi Chirchiq shahridir. Bu yerda qiyin eriydigan va o'tga chidamli qotishmalar kombinati joylashgan. Kombinat Ingichka va Qo'ytoshning volfram rudasi va Olmaliq mis rudalaridan ajratib olinadigan molibden asosida 100 dan ortiq mahsulotlar ishlab chiqaradi. Bular volfram va molibden prokatlari, titan, kobalt, metall kukunlari va hokazolardan iborat.

Mashinasozlik iqtisodiy rayonning eng rivojlangan sanoat tarmog'i. Tarmoq respublika mashinasozlik sanoati yalpi mahsulotining yarmidan ko'prog'ini beradi. Rayon mashinasozligi paxtachilik majmuyini mashina va jihozlar bilan ta'minlashga ixtisoslashgan. Jumladan, paxta terish mashinalari, chopiq traktorlari, chigit ekish, ko'sak yig'ish, ko'sak chuvish mashinalari va boshqalar shular jumlasidandir.

Toshkent traktor zavodi negizida AQSHning „Keys“ firmasi bilan hamkorlikda yangi traktor va kombaynlarni yig'ish yo'lga qo'yildi.

Toshkent motor zavodida O'zbekiston-Italiya qo'shma korxonasi („O'zitalmotor“) tashkil etildi. „Chirchiq qishloqxo'jalikmash“ zavodi paxtachilikni kompleks mexanizatsiyalash uchun mashina va mexanizmlar, g'o'za kultivatorlari, chizel kultivatorlar, o'g'it solgichlar, chorvachilik uchun xilmoxil mashinalar ishlab chiqaradi.

Elektrotexnika („O'zbek kabel“, Chirchiqdagi „Transformator“, Toshkentdagи „O'zelektroapparat“), **kimyo mashinasozligi** (Chirchiqdagi „O'zbek kimyomash“, Toshkentdagи „Kompressor“) va boshqa tarmoqlar rivojlangan.

Radioelektronika bo'yicha Toshkent radiolampa („Foton“), EHMLar ishlab chiqaradigan „Algoritm“, Janubiy Koreyaning „Goldstar“ firmasi bilan hamkorlikda videomagnitonlar, televizorlar, videopleyyerlar, har xil mikrosxemalar ishlab chiqaradigan „Zenit“ zavodi yetakchi o'rinnlarni egallaydi.

Samolyotsozlik bo'yicha Toshkent aviatsiya zavodi nafaqat O'rta Osiyoda, balki MDHda alohida o'ringa ega. Bu yerda ikkinchi jahon urushi yillari ko'plab samolyot turlari, jangovar samolyotlar ishlab chiqarildi. Hozir zavodda zamонави IL-76, IL-114 samolyotlari ishlab chiqarilmoqda.

Rayonda qurilish materiallari sanoatining yirik markazlari ishlab turibdi. Bekobod, Angren, Ohangarondagi sement zavodi, G'azalkentdagи oyna va marmar ishlab chiqarish korxonasi, Toshkent, Olmaliq, Angrendagi uysozlik kombinati, Toshkentdagи lak-bo'yoq korxonasi, Ohangarondagi plastmassa korxonasi shular jumlasidandir.



Savol va topshiriqlar

- Mustaqillik yillarida iqtisodiy rayon xo'jaligidagi sodir bo'lgan eng muhim o'zgarishlarni aytинг.
- Yoqilg'i-energetika va metallurgiya sanoatining markazlarini yozинг.

1. _____

2. _____

3. _____ va h.k.

- Qora metallurgiya zavodi nima sababdan Bekobodda qurilgan?

47- §. Qishloq xo'jaligi. Transport. Atrof-muhutni muhofaza qilish

Toshkent iqtisodiy rayoni qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti bo'yicha respublikada oldingi o'rinda turadi. Bu yerlar sabzavot, meva, uzum, kanop, don ekinlari yetishtirishda mamlakatimizda yetakchi hisoblanadi. Rayon O'zbekistonda yetishtiriladigan paxtanening 8 foizini, sholining 12 foizini, kartoshkaning 25 foizini, sabzavotning 24 foizini, mevaning 10 foizini, uzumning 6 foizini beradi.

Jami qishloq xo'jalik yerlari 876 ming ga bo'lib, haydaladigan yerlari 335 ming getktarni (38,2 foiz) tashkil qildi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarda paxtachilik, bog'dorchilik, tokchilik, pillachilik, tog' etaklarida lalmikor dehqonchilik (bug'doy va arpa), qayirlarda sholichilik rivojlangan.

Sug'oriladigan yerlarning 40 foizdan ortiq qismiga paxta ekiladi. Kanop (Chirchiq havzasida), sholi (Sirdaryo va Chirchiq daryolari qayirlarida) ekiladi. Mamlakatimizda yetishtiriladigan kanopning 90 foizi Toshkent iqtisodiy rayoniga to'g'ri keladi. Kartoshka va sabzavot Toshkent, Chirchiq, Yangiyo'l, Angren shaharlari atrofidagi xo'jaliklarda yetishtiriladi. Poytaxt atrofidagi Toshkent, Zangi ota, Qibray tumanlari Toshkent shahri aholisi uchun sabzavot, meva, sut, go'sht mahsulotlari yetkazib berishadi.

Chorvachilik go'sht-sut yetishtirishga ixtisoslashgan. Shahar atroflarida qoramolchilik, cho'chqachilik, parrandachilik rivojlangan. Qo'y-echkilar tog'li hududlarda boqiladi. Echkichilikda angor echkilarini ko'paytirish muhim ahamiyatga ega. Yilqichilik (qorabayir otlari) ham rivojlangan. Sug'oriladigan yerlarda ipak qurti boqish rivojlangan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish. Iqtisodiy rayonda atrof-muhitni muxofaza qilish masalalari davlat ahamiyatiga ega. Tog'li hududlarda ko'chkilar vujudga kelishi, eroziya, yonbag'irlar qulashi, ovchilik va dorivor o'simliklarni yig'ishni tartibga solish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda.



Savol va topshiriqlar

1. Iqtisodiy rayon qishloq xo'jaligining qaysi sohalariga ixtisoslashgan? Sababini tushuntiring.
—a—, —a—, —a—a—, —a—a—, —a————
(Zah, Qorasuv, Hamdam, Dalvarzin, Parkent).
2. Iqtisodiy rayon hududidagi quyidagi kanallarning nomlarini o'qing.
3. Shahar atrofi qishloq xo'jaligi tarmoqlari dehqonchilik va chorvachilikning qanday sohalariga ixtisoslashgan?

48- §. Toshkent viloyati

Toshkent viloyati O'zbekistonning shimoli-sharqida joylashgan. U Qozog'iston va Tojikiston Respublikasi hamda Namangan va Sirdaryo viloyatlari bilan chegaradosh. Viloyatning iqtisodiy-geografik va geosiyosiy o'mi o'ziga xos bo'lib, bu uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.



Toshkent. Xalqaro aeroport.

Yer usti tuzilishi ancha murakkab bo'lib, tekislik, tog' va tog'oldi rayonlari dan iborat. Yog'ingarchilik nisbatan ko'p, asosiy daryolari Sirdaryoning irmoqlari — Chirchiq va Ohangaron.

Toshkent viloyati foydali qazilmalarga ham boy. Angren-Olmaliq sanoat rayoni mineral xomashyo yetishtirish jihatdan nafaqat mintaqada, balki mamlakatda ham alohida o'rinni tutadi.

Aholining 40,4 foizi shaharda joylashgan. Zichlik 1 km² ga o'rtacha 153 kishi,

tabiiy ko'payish har ming kishiga nisbatan 12,0 promeilleeni tashkil etadi. Iqtisodiy faol aholi soni 1291 ming kishi, uning ko'pchiligi mehnatda band. Viloyatda yirik shaharlar ko'p. Chirchiq, Angren va Olmaliq shular jumlasidan. Bekobod va Yangiyo'l shaharlari ham aholi soni bo'yicha mintaqada respublikada ancha ajralib turadi.

Viloyat iqtisodiyoti industrial-agrar yo'nalishda, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi jihatdan respublikada ikkinchi o'rinni egallaydi. Metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoati yaxshi rivojlangan. Mashinasozlik va metallni qayta ishlash, un-krupa va omuxta yem ishlab chiqarish sanoat majmuasida muhim o'rinni tutadi.

Viloyat O'zbekistonda sanoatning turli tarmoqlarini rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, rangdor va qora metallurgiya, kimyo va mashinasozlik, yoqilg'i va energetika, qurilish, oziq-ovqat sanoati tarmoqlari yaxshi rivojlangan.

Chirchiq, Angren, Olmaliq, Bekobod, Ohangaron, G'azalkent, Yangiyo'l shaharlari asosiy sanoat markazlari hisoblanadi. Olmaliqda rangli metallurgiya va kimyo, Chirchiqda kimyo, mashinasozlik va yengil sanoat, Bekobodda qora metallurgiya va qurilish sanoati, Angrenda yoqilg'i-energetika, kimyo, Ohangaronda qurilish va oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Viloyatda respublikaning boshqa hududlarida yo'q yoki sust rivojlangan sanoat va qishloq xo'jalik tarmoqlari mavjud. Ular jumlasiga ko'mir, qora metallurgiya sanoati, kanop yetishtirish kiradi. Shu bilan birga rangdor metallurgiya, elektr-energetika va qurilish sanoati mahsulotlari ham ancha yuqori mavqega ega.

Qishloq xo'jaligi meva-sabzavot, uzum, don, paxta yetishtirishga ixtisoslashgan. Mamlakatda yetishtiriladigan kanopning yuz foizi ushbu viloyatga to'g'ri keladi.

Poytaxt — Toshkent shahrining qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiluvchi shahar atrofi qishloq xo'jaligi ham rivojlangan.

Viloyat transport majmuasida temiryo'l va avtomobil transporti yaxshi rivojlangan. Horij mamlakatlari hamda Hamdo'stlik mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalar olib boriladi. Jumladan, viloyat tashqi savdo oborotining 60 foizga yaqini Niderlandiya, Turkiya, Germaniya, Shveysariya, Italiya, Janubiy Koreya, Xitoy kabi davlatlarga to'g'ri keladi.

Ijtimoiy sohalar. Viloyatda ijtimoiy sohalar, xususan sog'liqni saqlash, ta'lim, bozor infratuzilmasi, rekreatsiya xo'jaligi yaxshi rivojlangan. Chorvoq suv ombori atrifida, Chimyon mintaqasida dam olish maskanlari, tog' sporti uchun imkoniyatlar mavjud.



Savol va topshiriqlar

1. Toshkent viloyati iqtisodiy-geografik o'rnidagi xususiyatlarni ajrating.
2. Viloyat iqtisodiyotining asosiy yo'nalishlarini aytинг.
3. Viloyatning yetakchi sanoat tarmoqlari qaysilar?

49- §. Toshkent shahri

Shahar 2000 yillik tarixga ega. Hozirgi vaqtda u Toshkent viloyati marmazi vazifasini ham bajaradi.

Toshkent viloyatining geoqrafik o'rni, mineral homashyo, demografik hamda infrastruktura salohiyatlari, malakali ishchi kadrlarning mavjudligi uning kelajak rivojida ustuvor yo'nalishlarni belgilab beradi. Shu bilan birga bu yerda aholi bandligi va ekologik vaziyatni yaxshilash, yirik sanoat markazlari rivojlanishini tiklash, rekreatsiya resurslaridan samarali foydalanish ham katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Toshkent shahri respublikaning shimoli-sharqiy qismida, Chirchiq daryosi bo'yida joylashgan. Uning geografik o'rni qulay. Toshkent shahri nafaqat O'zbekiston, balki O'rta Osiyodagi eng yirik sanoat, fan va madaniyat markazidir.

Toshkent shahri hissasiga O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining 16,4 foizi va sanoat mahsulotining 16,9 foizi to'g'ri keladi.

Shahar iqtisodiyoti, eng avvalo, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining ustuvor rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Toshkent shahri aholisi ko'p millatli, uning tarkibida o'zbeklar ko'p-chilikni tashkil etadi. Bundan tashqari, bu yerda ruslar, tatarlar, qozoqlar, tojiklar va boshqa millat vakillari yashaydi. Jami aholining mehnatga yaroqli qismi 1258, 7 ming kishi. Mehnatda band bo'lganlar soni esa 1005 ming kishini tashkil etadi.

Poytaxt respublikada rivojlangan sanoat ishlab chiqarishi bilan alohida ajralib turadi; u bu borada mamlakatda birinchi o'rinda. Hozirgi davrda Toshkentda 500 dan ortiq sanoat korxonalari mavjud. Shuningdek, xorijiy investorlar bilan birgalikda barpo etilgan 2621 ta qo'shma korxona hisobga olingan bo'lib, hozirda ularning 1686 tasi to'liq faoliyat ko'rsatmoqda. Eng yirik qo'shma korxonalar qatoriga „O'zDEU elektroniks“ (Janubiy Koreya), „O'zBAT“ (Angliya), „Toshinterm“ (XXP), „O'z ITALXOLDING“, „Sovplastital“ (Italiya), „Qobul-O'zbek“ (Janubiy Koreya) va boshqalarni kiritish mumkin. Qo'shma korxonalarni respublika ichki bozorini mahsulotlar

bilan ta'minlash, chetga eksport qilish bilan bir qatorda shahar aholisiga ish o'rirlari yaratgan.

Toshkent shahrida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati (27,9 foiz) yetakchi o'rinni egallaydi. Uning korxonalarini qatoriga „Toshselmash“, Toshkent to'qimachilik mashinasozligi, Toshkent traktor zavodi, Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi, „Ekskavator“, „Pod'yomnik“, „Kompressor“, „Toshgaz-apparat“, „Elektr lampalari“, „Agregat“, „Toshkabel“, „Aniqlov asboblari va o'lchov apparatlari“, „Elektron texnikasi“ zavodlari kiradi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ko'ra oziq-ovqat sanoati (24,3 foiz) 2- o'rinda turadi.

Toshkent O'zbekiston Respublikasining madaniy, fan va ilmiy tadqiqot markazidir. Bu yerda O'zbekiston Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Milliy universiteti, iqtisodiyot, texnika, agrar, pedagogika universitetlari, qator ilmiy-tekshirish institutlari, konservatoriya, teatr va konsert zallari bor.

Shahar ma'muriy jihatdan quyidagi tumanlarni o'z ichiga oladi:

1. A. Ikromov. 2. Bektimir. 3. M. Ulug'bek. 4. Mirobod. 5. Sobir Rahimov. 6. Sirg'ali. 7. Hamza. 8. Chilonzor. 9. Shayxontohur. 10. Yunusobod. 11. Yakkasaroy.

Sanoat ishlab chiqarishi Hamza, Yakkasaroy, Chilonzor, Mirzo Ulug'bek tumanlarida ko'proq rivojlangan. Mirobod, Yunusobod, Sirg'ali tumanlarining sanoat salohiyati o'rtacha, Shayxontohur, Akmal Ikromov, Bektimir va Sobir Rahimov tumanlarida esa sanoat ishlab chiqarish hafmi birmuncha kamroq.

Kelajakda Toshkentning boshqaruvi, xalqaro iqtisodiy-siyosiy aloqalar, ilm-u fan, moliya, axborot markazi kabi faoliyatlari yanada oshadi. Sanoatda esa asosiy e'tibor zamонави, „ilmtalab“ tarmoqlarga qaratiladi.



Savol va topshiriqlar

1. Toshkent shahrining sanoat ixtisoslashuvidanagi asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
2. Sizningcha, kelajakda shaharning iqtisodiy va boshqa funksiyalari qanday yo'nalish kasb etishi mumkin?
3. Toshkent iqtisodiy rayonining siyosiy geografik o'rnnini ta'riflab bering.
4. Toshkent shahrida qanday oliy o'quv yurtlari bor?



Mavzu. MIRZACHO'L IQTISODIY RAYONI

50- §. Rayonning umumiy ta'rifi

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridan tashkil topgan. Maydoni 25,6 ming kv. km, respublika maydonining 5,7 foizini, aholisining 6,6 foizini tashkil etadi. Aholi zichligiga ko'ra mamlakatda 6- o'rinda turadi.

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni, eng avvalo, yangi yerlarni o'zlashtirish asosida tarkib topgan. Rayon sug'oriladigan yerlar maydoni jihatdan respublikada oldingi o'rnlarda turadi. U mamlakatimizda yetishtiriladigan paxtaning 14 foizini, g'allaning 17 foizini beradi.

Iqtisodiy-geografik o'rni. Mirzacho'l iqtisodiy rayonining geografik o'rni birmuncha qulay. Buning sababi uning iqtisodiy jihatdan rivojlangan Toshkent, Farg'ona, Zarafshon iqtisodiy rayonlari bilan chegaradoshligidir. Qo'shni rayonlar Jizzax va Mirzacho'lning bepoyon cho'llarini o'zlashtirishda iqtisodiy jihatdan va malakali kadrlar bilan yordam berib keldilar. Bundan tashqari, uning hududidan yirik temiryo'l, avtomobil magistrallari va gaz quvurlari o'tgan (xaritadan ularni aniqlang).

Tabiiy gaz asosida ishlaydigan va O'zbekistonda eng yirik bo'lган Sirdaryo IESining ham shu iqtisodiy rayonda joylashganligi uning iqtisodiy-geografik o'rning yaxshilanishiga imkoniyat yaratadi.

Xo'jaligi. Iqtisodiy rayonning hozirgi kundagi holati bundan 40 – 50 yillar oldin shakllana boshlagan. Mirzacho'lning o'zlashtirish Oktyabr to'ntarishigacha bo'lган davrda boshlangan bo'lsa ham uning xo'jaligini rivojlantirish keyingi 50 yil ichida amalga oshirildi.

Har ikkaла viloyatning infratuzilmalarini shakllantirish, ya'ni sug'orish inshootlari, elektr uzatish tarmoqlarini barpo etish, yo'llarni o'tkazish, madaniy-ma'rifiy muassasalarni ishga tushirish bevosita yangi yerlarni o'zlashtirish bilan qo'shib olib borildi.

Rayon xo'jaligida, avvalo dehqonchilik tarmoqlari ustun turadi. Respublika qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 15 – 16 foizi shu yerda yetishtiriladi. Ekin maydonlarining 40 foiziga yaqini paxta bilan band. Dehqonchilikda g'alla, uzumchilik, bog'dorchilik ham tez su'ratlar bilan rivojlanmoqda. Chorvachilikda qorako'l qo'yłari boqish, parrandachilikni rivojlantirish (g'alla ko'p ekiladigan rayonlarda) muhim ahamiyatga ega.

Sanoatda, ayniqsa elektr energetika, qurilish ashyolari, yengil, rangdor metallurgiya, mashinasozlik tarmoqlari nisbatan yaxshi rivojlangan. Iqtisodiy rayon hududida O'rta Osiyoda eng yirik Sirdaryo IESi joylashgan.



Savol va topshiriqlar

1. Mirzacho'l iqtisodiy rayonining hududi va aholisiga xos xususiyatlarni boshqa iqtisodiy rayonlardagi holat bilan qiyoslang.
2. Tabiiy sharoiti va resurslarini o'zingiz yashab turgan iqtisodiy rayon bilan taq qoslang.
3. Mirzacho'l iqtisodiy rayonining qaysi qismida aholi zinch joylashgan? Buning sababi nimada?



Mirzacho'l qovunlari olamga mashhur.

51- §. Jizzax viloyati

Maydoni 20,4 ming kv/ km (respublika maydonining 4,6 foizi). Aholisi 905,3 ming kishi (respublika aholisining 3,5 foizi). Viloyat ma'muriy jihatdan 11 tuman, 7 shahar va 8 shaharchaga bo'linadi. Maydonining kattaligi bo'yicha respublikada 4- o'rinda, aholi soniga ko'tra esa Sirdaryo va Navoiy viloyatlaridan oldindida turadi. Viloyatda aholi zichligi 1 kv/ km ga 45 kishini tashkil etadi. Bu Sirdaryo viloyatiga nisbatan deyarli 3 marta past demakdir.

Jizzax viloyati Mirzacho'l iqtisodiy rayonining janubi-g'arbiy qismida joylashgan. Uning yerlari Sangzor, Zominsuv, Zarafshon daryolari va Janubiy Mirzacho'l kanali suvlari bilan sug'oriladi.

Iqlimi keskin kontinental — yozi issiq, qishi nisbatan yumshoq. Viloyatda Jizzax, Zomin, Qorovultepa suv omborlari bor. Tekisliklarda och, tipik va to'q bo'z tuproqlar, tog'li tumanlarda chimli qo'ng'ir, och-qo'ng'ir tuproqlar, baland tog'larda o'tloqli dasht va o'tloqli toshloq tuproqlar keng tarqalgan. Foydali qazilmalardan Uchqulochda polimetall, Marjonbulogda oltin konlari, Oqtosh, Uzun, Qoratoshda marmar va o'nlab qurilish materiallari konlari bor.

Aholisi. Bu viloyatda 1006 ming kishi yashaydi (2002-y.) Viloyat aholisining 80 foizdan ko'prog'ini o'zbeklar tashkil etadi. Shuningdek, bu yerda qozoqlar, ruslar, tojiklar, tatarlar, qirg'izlar ham yashaydi. Qisman ukrainlar, nemislar, armanlar, eroniylar ham bor. Viloyatda shahar aholisi salmog'i 32,5 foizga teng.

Jizzaxda sho'rolar hokimiyatiga qadar ham hunarmandchilikning turli sohalari rivojlangan edi. Jumladan, *regirmon*, *juvoz*, *temirchilik*, *kulolchilik*, *o'ymakorlik* korxonalari xalq ehtiyojini ta'minlab turgan. Jizzax uyezdida Rossiya podshosining mardikorlikka olish haqidagi farmonidan nafrati oshgan xalq 1916- yilning 4- iyulida qo'zg'olon ko'taradi. Jazo otryadlari qo'zg'oltonni shafqatsizlik bilan bostiradi. Shaharga o't qo'yilib yer bilan yakson qilinadi, yosh-u qari osib, otib, chopib o'ldiriladi. Ushbu voqeа tarixga „Jizzax qo'zg'oloni“ nomi bilan kirgan. Bu xalqning ozodlik, mustaqillik uchun olib borgan kurashi edi.

Sanoati. Viloyat sanoati uncha yaxshi rivojlanmagan. Ayniqsa yoqilg'i-energetika xo'jaligi zaif holda.

Marjonbulog, Uchquloch, Qo'ytosh shaharlarida tog'-kon sanoati (volfram, molibden, oltin rudalari qazib olish), Jizzaxda akkumulyator, polietilen quvurlar ishlab chiqarish, KamAZ avtomashinalarini ta'mirlash zavodi,

trikotaj fabrikasi, sopol bu-yumlari zavodi, temir-beton konstruksiyalari zavodi, ohak va g'isht zavodi, yog'-pishloq, non, go'sht kombinatlari kabi sanoat korxonalari joylashgan. Viloyatda xorijiy mam'lakatlar bilan barpo etilgan 20 dan ortiq qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.



Jizzax shahri.

Qishloq xo'jaligi. Viloyatda qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar 1500 ming hektar atrofida (tomorqa yerlari bilan), shundan qishloq xo'jaligi ekinlari ekiladigan yerlar 1300 ming gektarga yaqin. Haydaladigan yerlar esa 450 ming ga (jami qishloq xo'jaligi yerlarining 35 foizini tashkil etadi).

Barcha ekin maydonining 200 ming gektari donli ekinlar, 140 ming gektari texnika ekinlari (shundan paxta 135 ming ga), ozuqa ekinlari 70 ming gektarni tashkil etadi. Sirdaryo viloyatida ekin maydonlari salmog'ida paxta yetakchilik qilsa, Jizzax viloyatida donli ekinlar oldinda turadi. Yaylovlar va o'tloqlar ham anchagina (800 ming ga). Sug'orish qiyin bo'lgan hududlarda lalmikor (bahorikor) don xo'jaligi va yaylov chorvachiligi rivojlangan.

Jizzax viloyatida transport turlarining ko'pchiligi mavjud. Asosiy transport turi avtomobil transporti hisoblanadi. Avtomobil yo'llari uzunligi 4200 km dan oshadi. Viloyat hududini temiryo'llar ham kesib o'tgan. Bu viloyatni O'rta Osiyoning turli regionlari bilan bog'lash imkoniyatlarini beradi. Jizzax viloyatida quvur, elektron transport turlari ham mavjud bo'lib, ular xalq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega.

Jizzax shahrida turli sanoat korxonalarini, pedagogika instituti, kollej va litseylar bor. Shuningdek, viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotini hududiy tashkil etishda **Paxtakor**, **Gagarin**, **Do'stlik**, **G'allaorol** kabi shaharlarning o'rni ham yuqori.

52- §. Sirdaryo viloyati

Sirdaryo viloyati maydoni 5,0 ming kv/km, aholisi 657 ming kishi (2002- y). Viloyat maydonining kattaligi jihatidan faqat Andijon viloyatidan oldinda, aholi soni bo'yicha esa viloyatlar ichida eng oxirgi o'rinda turadi. Aholi zichligi 1 kv/ km ga 153 kishini tashkil etadi. Viloyatda 9 ta tuman va katta-kichik 10 ta shahar mavjud.

Viloyatning ma'muriy markazi **Guliston** shahri. (Bu shahar 1961- yilgacha Mirzacho'l deb atalgan).

Aholisi. Viloyat aholisi milliy tarkibida o'zbeklar, ruslar, tojiklar, qozoqlar, tatarlar, koreyslar va boshqalar bor. Aholisining 90 foizi sug'oriladigan rayonlarda istiqomat qiladi. Jami aholining 30 foizdan ortiqrog'i shaharlarda yashaydi. Viloyatdagi aholi soni 1926 – 2002- yillarda 8 marta o'sdi.

Sanoati. Viloyatda 100 dan ortiq sanoat korxonalarini mavjud. Uning yetakchi tarmoqlari energetika, paxta tozalash, qurilish sanoati, donmah-sulotlarini qayta ishslash, oziq-ovqat sanoati hisoblanadi. Viloyatda mustaqillik yillarida yangi sanoat qurilishlari amalga oshirildi. 1994-yilda Guliston shahrida alkogolsiz ichimliklar zavodi, 1995- yilda „Malik“ shirkatlar uyushmasida Isroiil uskunalarini asosida ishlaydigan sut mahsulotlari korxonasasi, 1996- yilda Sayxunobodda non



Guliston davlat universiteti.

SIRDARYO VILOYATI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SIRDARYO VILOYATINING SALMOG'I (%)da)



ISHLOV BERUVCHI SANOAT

Yalpi mahsulot
hajmi bo'yicha sanoat
punktлari




Sanoat tarmoqlari

- mashinasozlik va metallni qayta ishlash
- qurilish materiallari
- yengil
- paxta tozalash
- oziq-ovqat
- boshqa tarmoqlar

UNDIRUVCHI SANOAT

- g'isht-cherepitsa xom ashyosi
- qum-shag'ai materiallari



QISHLOQ XO'JALIGINI IXTISOSLASHUVI

Sug'orma dehqonchilik zonasasi

donchilik, paxtachilik, bog'dorchilik, uzumchilik
va ipakchilik, sut-go'sht chorvachchiligi

Lalmikor dehqonchilik zonasasi

donchilik, go'sht-sut chorvachchiligi

KENG TARQALGAN RAYONLAR

- paxtachilik
- poliz ekinlari
- bog'lar
- sholi
- sabzavot va kartoshka
- makkajo'xori

RAYONLAR

- asalarichilik
- baliqchilik

Gaz quvurlari

Elektr uzatish liniyalari

Issiqlik elektrostansiyalari

MASSHTAB 1 : 700 000

kombinati, keyingi yillarda Italiya bilan hamkorlikda paypoq to‘qish fabrikasi, Chexiya bilan „Lechivo“ dori-darmon fabrikasi va boshqalar ishga tushirildi.

Yirik sanoat markazi **Guliston**. Aholisi 56 ming kishi (1914- yilda 1,2 ming kishi yashagan). 1896- yilda Toshkent-Krasnovodsk temiryo‘li qurilishi boshlangan paytda hozirgi Guliston o‘rnida Achchiqquduq qishlog‘i mavjud edi. 1905- yilda u Mirzacho‘l stansiyasi deb atala boshlanadi. 1963- yildan bu shahar viloyat markazi sifatida faoliyat ko‘rsataydi.

Gulistonda paxta tozalash, yog‘-ekstraksiya, sut zavodi, tikuvchilik fabrikasi, elevator kabi yirik sanoat korxonalari ishlab turibdi. Shaharda universitet, zamonaviy sport inshootlari va boshqa madaniy-maishiy muassasalar bor.

Yangiyer viloyatning qurilish materiallari sanoati markazi hisoblanadi.

Shaharda qurilish materiallari va konstruksiyalari kombinasi, asfalt-beton, sopol quvurlar, ta‘mirlash mexanika zavodlari, un-non, sut zavodi, qandolat fabrikalari bor. Shaharda kuchli shamollar esib turishi uning xo‘jaligini rivojlantirishda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Qishloq xo‘jaligi. Sug‘oriladigan maydonlarning 70 foiziga paxta ekiladi. Bundan tashqari makkajo‘xori, oqjo‘xori, beda, no‘xat, mosh, kunjut, tariq, loviya yetishtiriladi, sug‘oriladigan yerlarda poliz mahsulotlari, bog‘dorchilik ham keng tarqalgan.

Viloyatda chorvachilik tarmoqlari tez rivojlanmoqda. Qishloq xo‘jaligining aksariyati nodavlat sektoriga to‘g‘ri keladi. Sirdaryo viloyatida qadimgi kanallarning izlari, sardobalar saqlangan. Hozirgi kunda viloyat hududida o‘nlab kanallar va **Xo‘jamushkent**, **Sarmich** suv omborlari bor. Yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash maqsadida kollektor-drenaj tarmoqlari qurilgan. Viloyatda mingga yaqin fermer xo‘jaliklari mavjud.



Savol va topshiriqlar

- Quyidagi qiyosiy jadvalni darslik, atlas, xarita va boshqa manbalar asosida to‘ldiring.

Viloyatlar	Maydoni	Aholi soni	Zichligi	Sanoatining ihtiisoslashgan tarmoqlari	Qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari	Ekologik muammolari
Sirdaryo Jizzax						

- Har ikkala viloyat xo‘jaligidagi o‘xhash va farqlanadigan 3 ta tarmoqni yozing.
 - O‘xhash tarmoq

- _____
- _____
- _____

- Farqlanadigan tarmoq

- _____
- _____
- _____

- Har ikkala viloyat sanoatida yetakchi bo‘lgan tarmoqlarni ajrating.

4. Viloyatdagi transport turlarini qiyoslang.
5. Jizzax va Sirdaryo viloyatlarda ijtimoiy sohalarnung rivojlanishi va joylashishi bo'yicha nimalarni bilasiz?



Mavzu. FARG'ONA IQTISODIY RAYONI

53- §. Iqtisodiy rayonning umumiyligi ta'rifi

Farg'ona iqtisodiy rayoni tarkibiga Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlari kiradi. Maydoni 19,2 ming kv/km, aholisi 6 mln 960 ming kishi (2002 y.) Iqtisodiy rayon mamlakat hududining 4,3 foizini egallagani holda, bu yerda O'zbekiston aholisining 27,6 foizi istiqomat qiladi. **Demak, Farg'ona iqtisodiy rayoni respublikada hududining kattaligi jihatdan 6- o'rinda, aholi soni jihatdan esa 1- o'rinda turadi.**

Iqtisodiy rayon O'zbekistonda ishlab chiqariladigan sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 26 – 28 foizini beradi.

Iqtisodiy geografik o'rni. Iqtisodiy rayon Farg'ona vodiysida joylashgan. Hamma tomondan tog'lar bilan o'ralgan. Baland tog'lar shimol va shimalisharqdan keladigan sovuq Arktika havo massalari vodiyya kirib kelishiga imkon bermaydi. Ayni vaqtida, bu yerda shakllangan havo massasi chetga ham chiqib keta olmaydi. Qadimda bu hududdan Buyuk ipak yo'lining o'tganligi sababli qishloq xo'jaligi, savdo, hunarmandchilik ancha yaxshi rivojlangan.

Eslab qoling. Respublika bo'yicha aholining o'rtacha zichligi ma'lum bo'lsa, bu ko'rsatkichni alohida rayonlarning hududi va aholisidagi ulushining nisbatidan ham aniqlash mumkin. Masalan, Farg'ona iqtisodiy rayoni O'zbekiston maydonining 4,3 foizi, aholisining esa 27,6 foizini tashkil etadi. Demak, 27,6:4,3 = 6,4. Mamlakatdagi o'rtacha zichlikni shu raqamga ko'paytirib rayon aholisi zichligini aniqlaymiz. Misolimizda $55 \times 6,4 = 325$ kishi.

Xo'jaligi. Farg'ona iqtisodiy rayonida paxtachilik bilan bog'liq ishlab chiqarish tarmoqlari yetakchi o'rinni egallaydi. Rayon mamlakatimizning yirik paxtachilik va pillachilik bazasi. U respublikamizda ip va ipak gazlama, o'simlik yog'i, konserva, spirt, deraza oynasi, mineral o'g'itlar, neft mahsulotlari, yengil avtomobillar, elekrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarish bilan ham ajralib turadi.

Yuqoridagilardan tashqari, rayonda paxtachilik bilan bog'liq bo'lgan mashinasozlik korxonalar, sug'orish inshootlari uchun mashinalar, asbob-uskunalar, paxta tozalash va to'qimachilik sanoatlari hamda neft-gaz sanoati uchun xilma-xil mashinalar, ehtiyoj qismlar ishlab chiqariladi. Ba'zi bir sanoat tarmoqlari asosan shu rayonda mavjud. Masalan, yengil mashinalar, neftni qayta ishlash, elektr dvigatellari, deraza oynasi, yupqa qoplamlalar, bitum ishlab chiqaruvchi tarmoqlar shular jumlasiga kiradi.

Sanoati. Iqtisodiy rayon sanoati mamlakatimiz yalpi sanoat mahsulotining 25–28 foizini beradi. Bu yerda respublikamiz sanoat tarmoqlarining barchasi mavjud. Rayon sanoatida yengil, oziq-ovqat va mashinasozlik sanoatlari yetakchi o'rinda turadi.

Qishloq xo'jaligi. Farg'ona iqtisodiy rayoni mamlakatimizning eng yirik qishloq xo'jaligi rayonidir. U qishloq xo'jaligining barcha ko'rsatkichlari bo'yicha mamlakatimizda birinchi o'rinda turadi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlari 1 mln hektar bo'lib, shundan sug'oriladigan yerlari 660 ming hektarni tashkil etadi. Ekin maydonlarining yarmidan ko'prog'iga paxta ekiladi. Sug'oriladigan maydonlarda bug'doy, makkajo'xori, sholi, oq jo'xori, sabzavot va poliz ekinlari ham yetishtiriladi.

Vodiya bog'dorchilik, uzumchilik ham yaxshi rivojlangan. Quva anorlari, Namangan olmalari bilan mashhur. Xurmo, limon yetishtirish ham keyingi vaqtarda rivojlanmoqda.

Chorvachilikda qoramolchilik ustun bo'lib, sut, go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan. Demak, iqtisodiy rayon qishloq xo'jaligining quyidagi sohalariga ixtisoslashgan. Bular paxtachilik, pillachilik, g'allachilik, bog'dorchilik va uzumchilik, qoramolchilik va asalarichilikdir. Farg'ona iqtisodiy rayonida ijtimoiy sohalar yaxshi rivojlangan. Ayniqsa, adabiyot va san'atning barcha turlari, musiqa va qo'shiqchilik san'ati, askiya an'anaviy ahamiyatga ega.



Savol va topshiriqlar.

1. Iqtisodiy-geografik o'rnidagi qulayliklardan 5 tasini yozing.
2. Rayon xo'jalik jihatidan qanday mintaqalarga bo'linadi?
3. Iqtisodiy rayonning asosiy rivojlanish omillari qaysilar?
4. Iqtisodiy rayon mashinasozlik sanoatining yirik markazlarini aytинг va xaritadan toping.
5. Qishloq xo'jaligining ixtisoslashgan tarmoqlarini yozing.

54- §. Andijon viloyati

Viloyat Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan. Maydoni 4,2 ming kv/km, aholisi 2 mln 247 ming kishi. Ma'muriy markazi Andijon shahri. Viloyatda 14 tuman, 11 shahar va 5 ta shaharcha mavjud (xaritadan toping).


Andijon viloyati maydoni jihatidan respublikada eng kichik bo'lib, mamlakat maydonining atigi 1 foizini egallaydi. Ammo aholi juda zinch — 1 kv/ km ga 530 kishini tashkil etadi. Bu respublika ko'rsatkichidan deyarli 10 marta yuqori demakdir.

Viloyat hududining tuzilishi yerlarni sug'orish, transport shoxobchalarini rivojlantirish, binolarni bunyod yetish uchun qulayliklarga ega. Yog'in miqdori nisbatan yuqori, daryo shoxobchalari vodiyning boshqa qismlariga qaraganda birmuncha ko'pligi uchun suv bilan ta'minlanish ahvoli ham ancha yaxshi.

Viloyat hududida yoqilg'i-energetika resurslari vodiyning boshqa viloyatlariga nisbatan birmuncha ko'proq. Bu yerda 10 dan ziyod (Andijon, Xo'jaobod, Bo'ston, Janubiy Olamushuk, Xartum, Polvontosh, Xo'jausmon va boshqalar) neft, gaz konlari bor. Neft quvurlar orqali Farg'ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlariga yuboriladi. Xo'jaobodda O'zbekistonda eng

ANDIJON VILOYATI

9.—A. Solishev, R. Qurbonniyozov



yirik yerosti gaz ombori bunyod etilgan. Bu yerda gaz zaxiralari to'planib, tabiiy gazga tanqislik sezilgan paytlarda xo'jalik tarmoqlariga beriladi.

Xo'jaligi. Viloyat iqtisodiyotining asosini paxtachilik majmuyi bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlar — paxta yetishtirish va uni qayta ishlash, mashinasozlik, elektrotexnika, qurilish materiallari sanoati, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati va boshqalar tashkil qiladi. Viloyat xo'jaligida og'ir sanoat salmog'i 25 foizni tashkil qiladi. Bu jihatdan olganda u respublikada oldingi o'rirlarda turadi.

Viloyatda Katta Farg'ona, Janubiy Farg'ona, Katta Andijon, Savay, Andijonsoy, Shahrixonsoy kabi kanallar mavjud.

Chorvachilik sut-go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan. Tog' va tog'oldi hududlarida qo'ychilik rivojlangan. Ipakchilik viloyat iqtisodiyotining rivojlangan tarmoqlaridan biri (respublika pillsasining 12 – 15 foizini yetkazib beradi).

Asosiy shaharlari

Andijon shahri respublikaning yirik sanoat shaharlaridan biri. Aholisi 343 ming kishi, aholi soniga ko'ra Toshkent, Namangan va Samarcanddan keyin 4- o'rinda turadi. Dengiz sathidan 450 metr balandda joylashgan.

Shahar nomining kelib chiqishi haqida har xil rivoyatlar bor. Ba'zilar shaharga Afrosiyobning qizi Adinajonning nomi berilgan deyishadi. Qiz betob bo'lib, shu yerda davolangan. Ayrimlar bu yerda andilar (hindlar) yashagan va shahar nomi „Andukon“ (keyinroq Andijon) deb, ya'ni „Hindlar joyi“ deb atalgan deyishadi. Yoki yana boshqalar „Andijon“ so'zini o'troq h'ayot kechiruvchi „Andi“ qabilasi nomidan kelib chiqqan, bu so'zga vaqt o'tishi bilan jon qo'shimchasi qo'shilgan va „Andijon“ ga aylangan deyishadi va h.k.

Hozirgi kunda Andijon sanoat ahamiyati bo'yicha vodiya Farg'onadan keyin 2- o'rinda, respublikada esa 4- o'rinda turadi. Shahar mashinasozlik sanoatining yirik markazi hisoblanadi. „**Andijonirmash**“, „**Elektrosvigatel**“, „**Elektroapparat**“, „**Etalon**“ kabi korxonalar shular jumlasidandir. Shaharda „Bobur“ ip gazlama kombinati AQSHning „Ay-ti-Ey“ firmasi dastgohlari bilan jihozlangan. Andijon mebel kombinati qoshida Janubiy Koreyaning „O'zdongyang“ qo'shma korxonasi ishga tushurilgan. Andijonda yirik gidroliz zavodi, yog'-moy kombinati, non, konserva kombinatlari, trikotaj fabrikasi mavjud. Shaharda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar jahoning o'nlab mamlakatlariga eksport qilinadi.

Andijon mamlakatimizning boshqa regionlari bilan avtomobil, temiryo'l, havo yo'llari orqali bog'langan. Shahar malakali kadrlar tayyorlovchi ilmiy-madaniy markaz hamdir. Andijon Davlat universiteti, Muhandislik-iqtisodiyot instituti, Davlat tillar pedagogika instituti, tibbiyot instituti, Andijon qishloq xo'jaligi instituti va qator kollejlar nafaqat viloyat balki mamlakatimiz xalq xo'jaligi uchun malakali kadrlar yetishtirib bermoqda.

Shahrixon — viloyatda kattaligi bo'yicha ikkinchi shahar. Aholisi 57 ming kishi. Paxta tozalash, to'qimachilik, oziq-ovqat, qurilish materiallari, mashinasozlik sanoati korxonalarini bor.

Asaka — viloyatning rivojlanayotgan sanoat markazi hisoblanadi. Axolisi 51 ming kishi. Shaharda respublikamiz fahri bo'lgan yengil avtomobillar zavodi, paxta va yog'-moy zavodlari, yengil sanoat korxonalari mavjud.

Viloyatda **Xonobod** (26 ming kishi), **Qorasuv** (25 ming kishi), **Qo'rg'ontep** (25 ming kishi), **Poytug'** (24 ming kishi), **Paxtaobod** (22 ming kishi) shaharlarida ham yengil, oziq-ovqat sanoatining korxonalari joylashgan.



Savol va topshiriqlar.

1. Andijon viloyatining iqtisodiy geografik o'rmini baholang.
2. Viloyat qanday qazilma boyliklariga ega?
3. Qishloq xo'jaligida „Andijon usuli“ nima?
4. Viloyat sanoatidagi qo'shma korxonalar haqida nimalarni bilasiz?
5. Andijon viloyati ijtimoiy geografiyasini so'zlab bering.

55- §. Farg'ona viloyati

Viloyat maydoni 7,1 ming kv/km. Aholisi 2 mln 730 ming kishiga yaqin. Aholisining soni jihatidan respublikada Samarqand viloyatidan keyin 2- o'rinda turadi. Uning tarkibida 15 tuman, 9 shahar va 10 ta shaharcha bor. (Ularni xaritadan toping.)

Tabiiy sharoiti va resurslari. Farg'ona viloyatining shimoliy qismini Qo'shete massivi va Yozyovon dashti egallagan. Viloyatda **Qoraqalpoq cho'li**, **Damko'l**, **Sarisuv** cho'kmalari kabi qumloq va botqoq yerlar ham bor. Vodiyning g'arbida esadigan kuchli „Qo'qon shamoli“ xo'jalik yuritishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Viloyatning shimoli-g'arbiy chegarasi bo'ylab Sirdaryo oqadi. Oloy tizmasidan **Isfara**, **So'x**, **Shohimardonsov**, **Isfayramsov** daryolari (soylari) boshlanadi. Ular iyul-avgustda to'lib oqadi. Viloyatda bo'z va o'tloqi-botqoq tuproqlar keng tarqalgan. Adirlarda ko'proq och va tipik bo'z tuproqlar keng tarqalgan.

Viloyat hududida foydali qazilmalardan neft, tabiiy gaz, oltingugurt, ohaktosh, gil, qum va boshqalar uchraydi.

Aholisi. Aholi zichligi xar kv/km maydonga 408 kishidan to'g'ri keladi. Bu borada u Andijon viloyatidan keyin 2- o'rinda turadi. Aholisining milliy tarkibida o'zbeklar taxminan 85 foizni tashkil qiladi. Bundan tashqari ruslar, tojiklar, qirg'izlar, tatarlar va boshqa millatlar ham yashaydi. Shahar aholisi salmog'i 30 foizga teng. Farg'ona viloyatida uchta katta shahar bor: Qo'qon, Farg'ona va Marg'ilon. Yirik shaharlarning soni bo'yicha u respublikada Toshkent viloyati bilan bir qatorda turadi.

Xo'jaligi. Farg'ona respublikaning sanoati eng rivojlangan viloyatlaridan biri bo'lib, bu borada u mamlakatda 3- o'rinni egallaydi. Sanoatning yetakchi tarmoqlari — *yoqilg'i-energetika*, *kimyo*, *neftni qayta ishlash*, *mashinasozlik*, *qurilish materiallari*, *paxtani tozalash va qayta ishlash*, *yengil sanoat*, *oziq-ovqat sanoati* va boshqalar. Yalpi sanoat mahsulotida og'ir sanoatining salmog'i katta. Yengil va oziq-ovqat sanoati bevosita paxtachilik va boshqa qishloq xo'jalik tarmoqlari negizida vujudga kelgan.

FARG'ONA VILOYATI

131

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FARG'ONA VILOYATINING SALMOGI (%da)

- hududi
- ahollining soni
- yelpi ichki mahsulot
- sanoat mahsulotlari
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari
- donli ekin maydoni
- paxta ekin maydoni

Sanoat tarmoqlari

- yoqilg'i sanoat
- mashinasozlik va metallni qayta ishlash
- neftni qayta ishlash
- kimyo
- qurilish materiallari
- yengil
- paxta tozalash
- oziq-ovqat
- boshqalar

ISHLOV BERUVCHI SANOAT

Yalpi mahsulot hajmi
bo'yicha sanoat punktlari

yirik
o'rta
kichik



MASSHTAB 1:900 000

KENG TARQALGAN RAYONLAR

- | | | | |
|-----------------|-----------------------|--|---------------|
| | bog'lar | | makkojoxori |
| | uzumzorlar | | sholi |
| | anor va anjirzorlar | | o'mronlar |
| | sabzavot va kartoshka | | |
| RAYONLAR | | | |
| | parrandachilik | | asalarichilik |
| | ipakchilik | | |

QISHLOQ XO'JALIGINING IXTISOSLASHUVI

Sug'orma dehqonchilik zonasasi

Shahar atrofi xo'jaligi sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va go'sht-sut chovvachiligi

Paxtachilik, sabzavotchilik, mevachilik, go'sht-sut chovvachiligi, ipakchilik

Sabzavotchilik, bog'chilik, uzumchilik, mevachilik, asalarichilik va go'sht-sut chovvachiligi

Cho'l-yaylov zonasasi

Cho'l-yaylov chovvachiligi

Tog'-yaylov zonasasi

Tog'-yaylov chovvachiligi (daryo vodiylarida bog'lar va uzumzorlar)

UNDIRUVCHI SANOAT

- ▲ neft
- ▲ neft va tabiiy gaz
- △ tabiiy gaz
- gips
- ☒ ohaktosh
- ☒ qum-shag'al materiallari
- ☒ qurilish materiallari
- ☒ g'isht-cherepitsa xom ashyosi
- tsement xom ashyosi
- ! mineral suv buloqlari

Farg'ona viloyati sanoat tarmoqlari tarkibining turli-tumanligi bo'yicha mamlakatda Toshkent viloyatidan keyin, ikkinchi o'rinda turadi. Respublika mehnat taqsimotida — xususan, neftni qayta ishlash, mineral o'g'itlar, paypoq, ipak gazlamalar ishlab chiqarish bo'yicha ajralib turadi.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari *paxtachilik*, *pillachilik*, *bog'dorchilik* va *chorvachilikdan* iborat. Mayjud yerlarning yarmidan ko'pi qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar hisoblanadi. Ekiladigan jami yerlari 365 ming hektar, shundan haydaladigan yerlari 260 ming hektarni tashkil qiladi.

Sug'oriladigan hududlarda paxtadan tashqari bug'doy, sholi, makka-jo'xori, arpa, kartoshka, sabzavot va poliz mahsulotlari etishtiriladi. Bog'larda ko'proq o'rik o'stiriladi. Anor, anjir, olma, shaftoli ham ko'p. Uzumzorlar ham katta maydonlarni egallagan.

Viloyat erlari Farg'ona, Andijon, Katta va Janubiy Farg'ona kanallari, Karkidon va Qo'rg'ontepa suv omborlari yordamida sug'oriladi. Shaharlar atrofida sabzavot, kartoshka va polizchilik xo'jaliklari ham mavjud.

Transporti. Viloyatda transportning barcha turlari mavjud. Yetakchi transport turi avtomobil transporti hisoblanadi. Temiryo'llar orqali mamlakatimizning boshqa hududlari bilan bog'lanish imkoniyatiga ega. Havo yo'llari orqali ham MDH va xorijiy mamlakatlarga chiqa olish imkoniyatlari yaratilgan.

Ijtimoiy sohalar taraqqiyoti. Farg'ona viloyatida fan, adabiyot, san'at, xalq milliy san'ati yaxshi rivojlangan. Qo'qon va Marg'ilon shaharlari mamlakatimizga juda ko'p fan va san'at arboblarini bergen. Hamzaobod, Vodil, Chimyon kabi joylarda dam olish maskanlari rivojlangan.

Asosiy shaharlari

Farg'ona shahri. Viloyat va mintaqaning yirik sanoat, transport, ilmiy va madaniy markazi. Aholisi 183,8 ming kishi (2002- yil). Mustaqillik yillarida rus millatiga mansub kishilarning o'z vatanlariga ketishi tufayli aholi birmuncha kamaygan (shahar 1907- yilgacha Yangi Marg'ilon, 1907 – 24 yillarda Skobelev, mahalliy talaffuzda Iskobil deb atalgan. O'rta Osiyoni bosib olishda va keyingi yillarda ko'plab qirg'inbarotlar uyush-tirgan general M.D. Skobelev nomiga qo'yilgan edi).

Farg'ona shahri dengiz sathidan 580 metr balandda joylashgan. Olimlar „Farg'ona“ so'zining bundan 13 asr oldingi so'g'd yozuvlarida „Parg'ona“, „Pragana“ shakllarida yozilganligini hamda hind-sanskrit tilida kichik viloyat, fors tilida tog' oralig'idagi vodiyl, atrofi berk soylik degan ma'nolarga ega bo'lganligini ko'rsatadilar.

Shahar viloyatning yirik ilmiy va madaniy markazidir. Farg'ona shahrida Davlat universiteti, Politexnika instituti, bir necha kollejlar, o'zbek va rus dramma teatrлari, muzeylar va boshqa ma'naviy-ma'rifiy maskanlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Qo‘qon viloyatning g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, 200 ming aholiga ega. Qo‘qon nafaqat viloyatning, balki butun vodiyning muhim sanoat markazi.

Qo‘qondagi, o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi zavod, „Elektromash“, „Tekstilmash“, metallsozlik, gaz apparatlari zavodlari og‘ir sanoatning yirik korxonalari hisoblanadi. Shaharda yirik paypoq kombinati, ko‘ylak tikadigan tikuvchilik fabrikasi, xrom-charm fabrikasi, yog‘-moy kombinati, konserva, spirt zavodlari, poyabzal fabrikasi, paxta tozalash zavodlari ishlab turibdi.

Marg‘ilon Farg‘ona shahridan 10 km uzoqlikda joylashgan bo‘lib, 159 ming aholiga ega. Marg‘ilon vodiyyagini qadimiylardan biri, ipak, shoyi ishlab chiqarishning markazi sifatida qadimdan mashhur.

Shahar „Buyuk ipak yo‘li“ da o‘zining atlasi va shoyisi bilan dong taratgan. Marg‘ilon hozirgi kunda ham ana shu mahsulotlarni ishlab chiqarishda butun dunyoga mashhur. Marg‘ilonda bir necha hunarmandchilik artellari negizida yirik „Atlas“ ishlab chiqarish birlashmasi vujudga keldi.

Quva (39 ming aholi yashaydi) vodiyyagini mebel sanoatining yirik markazi. Shaharda paxta tozalash, qandolat fabrikasi joylashgan.

Rishton (31 ming aholi yashaydi) kulolchilikning an‘anaviy markazi, qurilish materiallari ishlab chiqarish rivojlangan.

Quvasoyda (25 ming aholi yashaydi) GRES, sement zavodi, shifer, chinni-fayans buyumlari, oyna ishlab chiqaruvchi korxonalar va to‘qima-chilik korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Farg‘ona viloyatida **Beshariq** (21 ming aholi yashaydi), **Yaypan** (20 ming aholi yashaydi), **Hamza** (13 ming aholi yashaydi) kabi shaharlar ham bor.



Savol va topshiriqlar

1. Viloyat tarkibiga kiruvchi 15 ta tuman va 9 ta shaharni xaritadan toping.
2. Farg‘ona viloyati tabiiy sharoitini qo‘shni viloyatlar bilan qiyoslang.
3. Xarita asosida Qo‘qon shahriga iqtisodiy-geografik tavsif yozing.
4. Shoyi kombinatidagi ishlab chiqarish jarayonini chizma tarzida ifodalang.


56- §. Namangan viloyati

Viloyat vodiyning shimoliy qismida joylashgan. Maydoni 7,1 ming kv/ km. Maydonining kattaligi bo‘yicha Farg‘ona vodiyisida 1- o‘rinda turadi. Aholisi 1 mln 983 ming kishi. Viloyatda 11 ta tuman, 7 shahar, 12 shaharcha bor.

Namangan shahri yaqinida Norin va Qoradaryo birlashib Sirdaryo nomini oladi. Sirdaryo bo‘ylarida qayirilar mavjud. Ularning aksariyati xo‘jalik jihatdan o‘zlashtirilgan. Foydali qazilmalaridan neft, rangli metallar, shifobaxsh ma‘danli suvlar, qurilish materiallari uchraydi. Chortoq, Chodaksoy, Uchqo‘rg‘on o‘zining shifobaxsh ma‘danli suvlar bilan mashhur.

Viloyat aholisi tarkibida o‘zbeklar ko‘pchilikni tashkil etadi. Shuningdek, tojiklar, ruslar, qirg‘izlar, tatarlar, koreyslar, ukrainlar va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Viloyatga O‘zbekiston aholisining 7,8 foizi to‘g‘ri keladi. Aholi zichligi 1 kv/km ga 236 kishini tashkil etadi. Shahar aholisi salmog‘i 38 foizga teng.

NAMANGAN VILOYATI



Xo'jaligi. Namangan viloyati respublikaning 8 – 9 foiz paxtasini, 10 – 13 foiz uzum, uzum vinosi, konservasi, o'simlik moyi, pillasini, 15 foiz to'qimachilik mahsulotlarini beradi. **Sanoatining** yetakchi tarmoqlari — mashinasozlik, elekrotexnika, kimyo, paxta tozalash, to'qimachilik (shoyi ishlab chiqarish), oziq-ovqat va boshqalar.

Qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i paxtachilik hisoblanadi. Shuningdek, bog'dorchilik, uzumchilik, ipakchilik, sabzavot-polizchilik, qoramolchilik, rivojlangan dumbali qo'yalar va angor zotli echkilar boqiladi.

Namangan viloyatida Shimoliy Farg'ona, Chust, Katta Namangan kanallari mavjud. Kosonsoy suv ombori qurilgan. Viloyatdagi barcha qishloq xo'jalik korxonaları nodavlat sektorga aylantirilgan.

Pillachilik ham qishloq xo'jaligining muhim tarmog'i sifatida sug'o-riladigan hududlarda paxtachilik bilan birga qo'shib olib boriladi. Viloyatda avtomobil yo'llari uzunligi 5200 km dan oshadi. Temir yo'l orgali vodiy mamlakatning boshqa mintaqalari bilan bog'langan. Havo transporti ham rivojlangan.

Asosiy shaharlari.

Namangan shahri viloyatning yirik sanoat markazi. Shahar aholisi 395 ming kishidan oshadi. Shahar dengiz sathidan 450 metr balandda joylashgan bo'lib, Namangansoy va Shimoliy Farg'ona kanali kesishgan yerda barpo etilgan. Namangan so'zi Boburning „Boburnoma“ asarida tilga olingan. Shahar tuz koni yaqinida barpo bo'lganligi sababli uning nomi „Namak-kon“ so'zlaridan olingan degan rivoyatlar bor. Namangan shoir Boborahim Mashrab vatanidir. Shahar viloyat yalpi sanoat mahsulotning 60 foizga yaqinini beradi.

Shaharda uysozlik kombinati, temir-beton konstruksiyalari zavodi, g'isht zavodlari, mebel fabrikasi va boshqa o'nlab qo'shma korxonalar ham faoliyat ko'rsatmoqda. Shahar yirik ilmiy, madaniy va ma'rifiy markaz hamdir. Bu yerda 3 ta oliy o'quv yurti — Namangan Davlat universiteti, Namangan muhandislik instituti, Namangan pedagogika instituti, Namangan muhandislik-iqtisodiyot institutlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Namangan milliy madaniyat o'choqlaridan biridir.

Chust aholisi 62 ming kishi. Tuman markazi. Kattaligi bo'yicha viloyatdagi 2- chi shahar. Shaharda paxta tozalash zavodi, to'qimachilik, qurilish materiallari, hunarmandchilik korxonaları, tibbiyot kolleji bor. Bu shahar o'zining do'ppisi, pichog'i va bog'lari bilan mashhur.

47 ming aholisi bo'lgan **Chortoq** viloyatning yirik dam olish maskanidir. Shaharda paxta tozalash zavodi, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati korxonaları faoliyat ko'rsatadi.

Kosonsoyda (43 ming aholisi bor) qurilish materiallari zavodi, oziq-ovqat sanoati korxonaları, har xil ichimliklar zavodi bor. Viloyatda shuningdek, **Uchqo'rg'on** (30 ming aholisi bor, **Haqqulobod** (26 ming aholi yashaydi), **Pop** (22 ming aholi yashaydi), **To'raqo'rg'on** (24 ming aholi yashaydi) kabi shaharlar ham sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda o'z hissasi bilan qatnashadi.



Savol va topshiriqlar

1. Andijon va Namangan viloyatlarining tabiiy-iqlim sharoitlariga jadvalni to'ldirish orqali xo'jalik jihatdan qiyosiy baho bering.

Viloyatlar	Relyefi	Foydali qazilmalari	Suv resurslari	Iqlim xususiyatlari
Andijon Namangan				

2. Har ikkala viloyat ekin maydonlari tarkibini doiraviy diagrammada aks ettiring.
 3. Namangan viloyati sanoatidagi qo'shma korxonalar qaysilar?
 4. Viloyatda kurort xo'jaligi qanday rivojlangan?



Mavzu. ZARAFSHON IQTISODIY RAYONI

57- §. Rayonning umumiy ta'rifi

Bu iqtisodiy rayon tarkibiga Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari kiradi. Maydoni 168 ming kv/km bo'lib, mamlakatimiz hududining 37,4 foizini tashkil qiladi. Zarafshon iqtisodiy rayoni maydonining kattaligi bo'yicha Quyi Amudaryo rayonidan keyingi ikkinchi o'rinda turadi. Aholisi 5002 ming kishi yoki respublika aholisining 19,9 foizini tashkil qiladi va bu ko'rsatkich bo'yicha O'zbekistonda 2- o'rinni egallaydi.

Iqtisodiy-geografik o'rni. Mazkur iqtisodiy rayon respublikamizning markaziy (o'rta) qismida joylashgan. Rayon shimolda Qozog'iston, janubi-g'arbda Turkmaniston, sharqda Tojikiston bilan chegaradosh. U respublikaning uchta iqtisodiy rayonlari bilan ham chegaralanadi (ularni xaritadan toping).

Rayonning iqtisodiy-geografik o'rni qulay bo'lib, uning hududidan magistral temir va avtomobil yo'llari o'tgan.

Xo'jaligi. Iqtisodiy rayon xo'jaligi industrial-agrar yo'nalishga ega. O'rta asrlarda Buxoro, Samarqand barcha sohalarda peshqadam bo'lgan. Bu yerdan „Buyuk Ipak yo'li“ o'tgan. O'lkada juda qadimdan dehqonchilik, chorvachilik, ipakchilik rivoj topgan, zargarlik, misgarlik, kosiblik, to'quvchilik va boshqa hunarmandchilik kasblari taraqqiy etgan. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar Ipak yo'li orqali qo'shni davlatlarga chiqarilgan. Hozirgi kunda rayon mamlakat mehnat taqsimotida paxta, pilla, qorako'l terisi yetishtirish, oltin, marmar ishlab chiqarish bilan ajralib turadi.

Sanoati. Iqtisodiy rayon sanoati har xil tarmoqli bo'lib, bu yerda energetika, rangdor metallurgiya, kimyo va neftri qayta ishslash, qurilish sanoati, yengil va oziq-ovqat sanoatlari ancha rivojlangan.

Yoqilg'i-energetika sanoati hajmi bo'yicha Toshkent, Mirzacho'l iqtisodiy rayonlaridan keyin 3- o'rinda turadi. Rayon mamlakatimiz elektr energiyasining 20 foizga yaqinini ishlab chiqaradi. Elektr energiyaning asosiy qismini 1963- yilda qurib ishga tushurilgan Navoiy GRESi beradi. U mahalliy tabiiy gaz asosida ishlaydi.

Rayonda kimyo sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Uning asosiy homashyosi tabiiy gaz va mineral resurslar hisoblanadi. Qoravulbozordagi **Buxoro neftni qayta ishlash zavodi** sohaning yirik korxonasıdir. Kimyo sanoati yalpi mahsuloti bo'yicha Toshkent, Farg'ona iqtisodiy rayonlaridan keyin 3- o'rinda turadi. Kimyo sanoatining yirik markazi Navoiy shahri. Shaharda O'zbekistonda eng yirik kimyo kombinasi joylashgan. Kombinatda azotli o'g'itlar, shuningdek nitron (kimyoviy tola), har xil gerbistidlar ishlab chiqariladi. Samarqandda superfosfat zavodi bor.

Iqtisodiy rayondagi yirik korxonalar Navoiy tog'-metallurgiya kombinati, „Navoiy azot“ ishlab chiqarish birlashmasi, „Kinap“, Kattaqo'rg'on, Kogon yog'-ekstraksiya zavodi, Navoiy sement kombinasi va boshqalar hisoblanadi. Bu yerda xorijiy davlatlar bilan o'nlab qo'shma korxonalar ham bunyod etilgan. Bular ichida eng yirigi AQSH bilan hamkorlikda bunyod etilgan „Zarafshon-Nyumont“, Turkiya bilan qurilgan „Samkochavto“ qo'shma korxonalaridir. „Ittifoq“, „Edem“, „Agama“, „Binokor“, „Muhandis“, „Interservis“ va boshqa korxonalar ham xorijiy mamlakatlar bilan birgalikda barpo qilingan.

Qishloq xo'jaligi. Zarafshon iqtisodiy rayonida qishloq xo'jaligining ixtisoslashgan tarmoqlari paxtachilik, qorako'chilik, pillachilik hisoblanadi. Ammo rayon maydonining katta bo'lishiga qaramasdan haydaladigan yerlar ko'p emas (sababini tushuntiring).

Aksariyat sug'oriladigan yerlar Zarafshon vodiysida joylashgan bo'lib, asosan paxtachilik-pillachilikka ixtisoslashgan.

Bu yerlarda mayiz olinadigan uzumlar ham ko'p yetishtiriladi. G'alla ekinlari adir va tog'li mintaqalarda azaldan ekib kelinadi. Sug'oriladigan joylarda bug'doy va makkajo'xori yetishtirish ancha ko'paydi.

Rayon go'sht-sut chorvachiligidagi, qorako'chilik, tuyachilik va parrandachilikka ixtisoslashgan. Respublikamizdagi qorako'l qo'yłari va tuyalarning yarmidan ko'pi shu rayonga to'g'ri keladi. Qizilqum va Qarnob cho'lidiagi aksariyat qorako'chilik xo'jaliklari xususiyashtirilgan.



Savol va topshiriqlar



1. Iqtisodliy rayon sanoatning qaysi tarmoqlariga ixtisoslashgan? Sababini tushuntiring.
2. Rayonda hunarmandchilikning qaysi turlari rivojlangan?
3. Darslik materiallari asosida iqtisodiy rayon yer resurslarini doiraviy diagrammada aks ettiring.
4. Rayon transport tarmoqlarini yozuvsız xaritada aks ettiring.
5. Aholisining milliy tarkibi qanday?

58- §. Samarqand viloyati

Viloyatning yer maydoni 16,8 ming kv/km, respublika hududining 3,7 foizini tashkil qiladi. Aholisi 2,8 mln kishi (mamlakat aholisining 11 foiziga teng), Viloyat ma'muriy jihatdan 14 tuman, 11 shahar va 12 shaharchadan iborat.

Iqtisodiy-geografik o'rni. Samarqand viloyati O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan. U shimol va g'arbda Navoiy, sharqda Jizzax, janubda Qashqadaryo viloyati, janubi-sharqda Tojikiston Respublikasi bilan chegaradosh.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Samarqand viloyati Zarafshon vodiysining o'rta qismida joylashgan. U shimalda Nurota, shimali-sharqda Turkiston, sharqda va janubi-sharqda Zarafshon tizma tog'lari bilan o'ralsan.

Foydali qazilmalardan volfram, oltin, marmar, dala shpati, mergel, granit, ohaktosh, keramzit gilining konlari bor.

Viloyatdagi eng katta daryo Zarafshon bo'lib, u o'z suvini qor va muzliklardan oлади. Ammo daryo suv zaxiralariga unchalik boy emas. Zarafshon bahor-yoz oylarida to'lib oqadi va dehqonchilikni yuritish uchun qulayliklar yaratadi. Daryo suvlaridan oqilona foydalanish maqsadida mamlakatimiz hududida birinchi Kattaqo'rg'on suv ombori barpo etilgan. Daryoning quyi oqimida Quyimozor suv ombori ham qurilgan.


Samarqand shahri yaqinida Zarafshon 2 ta tarmoqqa — Oqdaryo va Qoradaryoga ajraladi. Viloyat hududida Darg'om, Narpay, O'ng qirg'oq, Zarafshon, Eski Anxor kabi kanallar bor. Ular ham Zarafshon vodiysining suv ta'minotini yaxshilashda alohida o'ringa ega. Zarafshon daryosining 90 foiz suvi sug'orish ishlariga sarflanadi. Bu borada unga MDH dagi biron ta daryo tenglasha olmaydi.

Aholisi. Viloyat aholisi 2,6 mln kishi (2002 y); zichlik 1 kv/km yerga 160 kishiga to'g'ri keladi. Aholisining 71 foizi qishloqlarda yashaydi. Bu yerda aholining aksariyatini tashkil etgan o'zbeklardan tashqari tojiklar, ruslar, tatarlar, ukrainlar, yahudiylar, armanlar, ozarbayjonlar, eroniylar, arablar ham yashaydi. Viloyat mehnat resurslari bilan yaxshi ta'minlangan.



Samarqand shahri. Registon.

SAMARQAND VILOYATI



Xo'jaligi. Samarqand viloyati xo'jaligi tamaki, paxta, kartoshka, g'alla etishtirishga ixtisoslashgan. Sanoatda esa mashinasozlik, yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari ajralib turadi.

Samarqand qadimda hunarmandchilik rivojlangan o'lkalardan biri bo'lib kelgan. Amir Temur va Temuriylar davri (XIV — XVlasrlar) da xo'jalik ishlari ancha taraqqiy etgan. Hunarmandchilik, tijorat, ilm-fan, soxibkorlik yuqori darajada rivojlangan. O'sha davrlarda xorijiy o'lkalarga hilma-xil mahsulotlar chiqarilgan va „Buyuk Ipak yo'li“da muhim mavqega ega bo'lgan.

Rayondagi mashinasozlik va metallsozlik korxonalari qishloq xo'jalik texnikasi uchun ehtiyyot qismlar, paxta tozalash sanoati uchun jihozlar,sovutkichlar, liftlar, kondisionerlar, kinoapparatlar, teatr yoritish va ovoz yozish apparatlari, radiopriyomnik va televizorlar uchun ehtiyyot qismlar, avtomobillar (avtobuslar, yuk mashinalari) ishlab chiqaradi.

Kimyo sanoati mineral o'g'itlar, sulfat kislotasi, ammosof, akkumulyator kislotasi yetkazib beradi.

Undiruvchi sanoat. Ingichka va Langarda rangdor va nodir metallar, **Zarband** va **Jomda** pardozlovchi materiallar qazib chiqarilib, ularga ishlov beriladi.

Qurilish materiallari sanoati Jomboy, Kattaqo'rg'on, Samarqand, Oqtoshda barpo etilgan.

Yengil sanoat. Viloyatda yengil sanoatning 60 dan ortiq korxonalari mavjud. Bular: paxta tozalash, pillakashlik, to'qimachilik (shoyi, ip-gazlama), tikuvchilik fabrikalari, charm-poyabzal, chinni-fayans, trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish va boshqalardir.

Oziq-ovqat sanoati konserva, o'simlik moyi, tamaki, qandolat mahsulotlari, choy, vino, har xil ichimliklar, non mahsulotlari ishlab chiqaradi.

Samarqand viloyati uzum sharobi, meva-sabzavot konservalari, mol yog'i, mayiz ishlab chiqarishda respublikada oldingi o'rinda turadi.

Viloyatda energetika sanoati yaxshi rivojlanmagan. Darg'om kanalida kichkina Hishrov GES ishlab turibdi, xolos. Elektr energiyaning asosiy qismini viloyat qo'shni hududlardan oladi (xaritadan aniqlang).

Qishloq xo'jaligi. Asosiy sanoat uzellari. Shaharlari

Sug'oriladigan yerlarning asosiy qismi paxtachilik bilan band. Zarafshon vodiysining tekislik qismida paxta ko'p ekiladi. Obikor yerlarda bug'doy ham katta maydonlarga ekila boshlandi. Texnika ekinlaridan *tamaki*, *kunjut*, *zig'ir*, *mahsar* yetishtiriladi.

Samarqand viloyati bog'dorchilik va uzumchilik sohalarida ham mammakatimizda salmoqli o'ringa ega. Ular hissasiga mevali bog'larning 15 foizi, uzumzorlarning 30 foizi to'g'ri keladi. Shahar atrofi va aholining tomorqa xo'jaliklarida sabzavot, poliz ekinlari yetishtirish ustun turadi.

Chorvachilik. Qoramollar soni jihatidan respublikada 1 o'rinda turadi va ular ko'proq sug'oriladigan rayonlarda boqiladi; cho'chqachilik, pillachilik, yaxshi rivojlangan.

Tekislik va tog' etaklarida sut va go'sht olishga ixtisoslashtirilgan qoramol, tog' etaklarida va tog'larda dumbali qo'y va echki, Qizilqum, Qarnob cho'li va tog' etaklaridagi dashlarda qorako'l qo'ylari ko'p boqiladi.

Transporti. Viloyatda transportning barcha turlari yaxshi rivojlangan. Viloyat hududidan Toshkent-Turkmanboshi (sobiq Krasnovodsk), Toshkent-Qarshi temiryo'llari o'tadi. Uni Katta O'zbek (Toshkent-Termiz) avtomobil trakti kesib o'tadi.

Samarqand havo yo'llari orqali jahoning o'nlab mamlakatlari bilan bog'langan. Viloyatdan quvur transporti va elektr uzatish liniyalari ham o'tgan.

Ijtimoiy sohalar. Samarqand viloyatida turizm, fan va adabiyot, san'at, sog'liqni saqlash, ta'llim tizimi yaxshi rivojlangan. Xalqaro turizm ob'ekti sifatida Samarqand shahridan tashqari Urgut, Dahbed, Imam Buxoriy me'morial majmuasi va boshqalar katta ahamiyatga ega. Samarqand shahrida 6 ta oliy o'quv yurti, o'nlab kollej va litseylar faoliyat ko'rsatmoqda.

Asosiy shaharlari

Samarqand shahri respublikada aholi soni bo'yicha Toshkent, Naman-gan shaharlaridan keyin 3- o'rinda turadi. Aholisi 361 ming kishi (2002- y), 1925 – 1930 yillarda respublika poytaxti bo'lgan.

Shaharning qulay geografik o'rni, uni o'rta asrlardayoq O'rta Osiyoning muhim savdo markaziga aylantiradi. Samarqandda zargarlik, kulolchilik, kashtachilik, ipak gazlamalar, shoyi xonatlaslar ishlab chiqarish rivojlangan. Shahar bundan ming yillar oldin ham qog'oz, chinni idishlarni ishlab chiqarish bilan dunyoga mashhur bo'lgan. Temur va Temuriylar davrida (XV – XVII asrlar)da Mavorounnahrning ilmiy tafakkur markazi va saroylari barpo etilgan. Ulug'bek Samarqandda astronomlar maktabiga asos solgan.

Samarqandning noyob tarixiy obidalari umumjahon ahamiyatiga ega. U xuddi qadimgi Misr, Yunoniston, Hindiston bilan bir qatorda turadi. Shaharda Shohi Zinda, Registon, Ulug'bek rasadxonasi, Go'ri Amir,

Bibihonim masjidi kabi tarixiy obidalari jahonga mashhur.

Endilikda Samarqand muhim sanoat tuguni sifatida mamlakatda o'z salohiyatiga ega. Samarqandda mashinasozlik sanoatining yirik korxonalar joylashgan. O'zbekiston va Turkiya hamkorligida „Sam-Kochavto“ korxonasining bunyod etilishi respublikamiz avtomobil-sozligida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu korxona hozirgi kunda avtobuslar va yuk avtomobilлari ishlab chiqarmoqda.



Samarqand xalqaro aeroporti.

Shahardagi yirik korxonalarining yana biri superfosfat zavodi hisoblanadi. Bu korxona fosfor mineral o'g'itlari va sulfat kislotasi ishlab chiqaradi.

Samarqandda pillakashlik, shoyi to'qish, choy qadoqlash, tikuvchilik, mebel, poyabzal, trikotaj fabrikalari, chinni-fayans zavodlari joylashgan. Uning atrofida **Bulung'ur** (25 ming aholisi bor), **Chelak**, (17 ming aholisi bor), **Jomboy** (14 ming aholisi bor), **Juma** (18 ming aholisi bor) va boshqa shaharchalar qad ko'tarib Samarqand sanoat uzelni va aglomeratsiyasini hosil qiladi.

Bulung'urda — vinochilik, oziq-ovqat, ipakchilik, qurilish materialari korxonalarini joylashgan.

Jomboy — elevator, oziq-ovqat korxonalarini joylashgan shahardir.

Juma shahrida — paxta tozalash zavodi, qurilish materiallari, oziq-ovqat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda.

Chelak shahriga yaqin joyda hadislar ilmining sultoni Ismoil al-Buxoriy maqbarasi joylashgan.

Viloyatning yirik sanoat uzellaridan biri **Kattaqo'rg'on shahridir** (aholisi 66 ming kishi). Shaharda paxta tozalash zavodi, yirik yog'-ekstraksiya kombinati, go'sht kombinati, broyler fabrikasi, motor tuzatish, paxta tozalash, g'isht zavodlari ishlab turibdi. Kattaqo'rg'on sanoat uzelida **Ishtixon**, **Oqtosh** shaharlari ham mavjud. Bu shaharlar oziq-ovqat sanoati korxonalarini, paxta tozalash, qurilish materiallari zavodlari bilan ajralib turadi.

Urgut shahrida (aholisi 51 ming kishi) Buyuk Britaniya bilan hamkorlikdagi tamaki fermentatsiya fabrikasi, ipakchilik, oziq-ovqat sanoati korxonalarini joylashgan.

Savol va topshiriqlar

1. Viloyat qishloq xo'jaligining yetakchi tarmoqlari qaysilar va ularning rivojlanishi qanday omillarga asoslanadi?
2. Sug'oriladigan yerlarda qishloq xo'jaligining qaysi tarmoqlari rivojlangan?
3. Samarqand shahrining tarixiy obidalari va turistik imkoniyatlari haqidagi fikringizni yoriting.
4. Aholini milliy tarkibiga ko'ra tartib bilan joylashtirib yozing.

59- §. Buxoro viloyati

Viloyat Zarafshon iqtisodiy rayonining janubi-g'arbida joylashgan. Maydoni 40,3 ming kv/km bo'lib, respublika maydonining 9,0 foizini tashkil etadi va O'zbekiston viloyatlari ichida bu jihatdan 3- o'rinda turadi. Aholisi, 2002- yil ma'lumotlariga ko'ra, 1456 ming kishi, unga mamlakat aholisining 5,8 foizi to'g'ri keladi. Aholi zichligi 1 kv/km ga 35 kishini tashkil etadi. Shahar aholisi 33 foiz. Tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari xo'jalikni rivojlan Tirish uchun ancha qulay.

Viloyat hududi g'arbga, Amudaryo tomon (Qorako'l vohasiga) qiyalashib boradigan to'lqinsimon tekisliklardan iborat. Zarafshon daryosi qumliklarda sho'r ko'llar hosil qilgan. Sug'oriladigan yerlar yer fondining 1,6 foizini tashkil qiladi.

BUXORO VILOYATI

144

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXORO VILOYATINING SALMOGI (%da)

-  hududi
-  aholining soni
-  yalpi ichki mahsulot
-  sanoat mahsulotlari
-  qishloq xo'jaligi mahsulotlari
-  donli ekin maydoni
-  paxta ekin maydoni

ISHLOV BERUVCHI SANOAT Yalpi mahsulot hajmi bo'yicha sanoat punktlari



QISHLOQ XO'JALIGINI IXTISOSLASHUVI

Sug'orma dehqonchilik zonası
Shahar atrofi xo'jaliklari, sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va rivojlangan go'sht-sut chorvachiligi

Paxtachilik, donchilik, bog'dorchilik, ipakchilik, sabzavotchilik, asalarichilik, rivojlangan go'sht-sut chorvachiligi

Cho'l - yaylov zonasasi

Cho'l-yaylov chorvachiligi (qorako'chilik va qo'ychilik)

KENG TARQALGAN RAYONLAR

- | | |
|---|---|
|  paxtachilik |  yong'oqzorlar |
|  bog'lар |  o'rmonlar |
|  sabzavot va kartoshka |  saksoval |
|  makkajo'xori | |

RAYONLAR

- | | |
|--|---|
|  qorako'chilik |  asalarichilik |
|  tuyachilik |  ipakchilik |
|  cho'chqachilik |  baliqchilik |
|  parrandachilik | |

MASSHTAB 1:2 200 000

Sanoat tarmoqlari

- | | |
|--|--|
|  yoqilg'i |  yengil |
|  mashinasozlik va metallini qayta ishlash |  paxta tozalash |
|  neftni qayta ishlash |  oziq-ovqat |
|  qurilish materiallari |  boshqalar |

UNDIRUVCHI SANOAT

- | | |
|--|---|
|  neft |  chaktosh |
|  neft va tabiiy gaz |  marmor |
|  tabiiy gaz |  granit |
|  grafit |  g'isht-cherepitsa |
|  mineral suv buloqlari |  nomashoyisi |

- Gaz qururlari
Elektr uzaqlish liniyaları

Viloyat qishloq xo'jaligida asosan paxtachilik, chorvachilik (qorako'l qo'yalarini boqish), pil-lachilik va shahar atrofi xo'jaligi rivojlangan. Sug'orma dehqonchilik (intensiv qishloq xo'jaligini) Vobkent va Buxoro vohalarida tashkil etilgan. Viloyatning sug'o-riladigan yerlari asosan Amudaryodan suv ichadi. Buning uchun qator kanal va suv omborlari qurilgan (ularni kartadan topping va nomlarini yozing).

Buxoro viloyati yerosti boyliklari-tabiyy gaz, neft, qimmatbaho metallar, qurilish materiallariga boy. Uning sanoati ham bevosita ushbu foydali qazilmalar bilan ko'p jihatdan bog'liq. Qoravulbozor shahrida Fransiyaning „TEKNEP“ firmasi bilan hamkorlikda yiliga 4 mln t neftni qayta ishlaydigan zavod buniyod etilgan. Zavodning ishga tushirilishi O'zbekistonning neft mustaqilligiga erishishida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Sanoat tugunlari va markazlari.

Yirik sanoat tuguni **Buxoro shahri** hisoblanadi. Buxoro atrofida Kogon, Gallaosiyo, Vobkent shaharlari uning aglomeratsiyasini shakllantiradi.

Buxoro shahri viloyatning ma'muriy, iqtisodiy va madaniy markazi. Shaharda 2 ta tuman bor. Aholisi 238 ming kishi. Buxoro jahonning qadimiy shaharlaridan biri. U o'tmishda ko'pgina davlatlar uchun poytaxt vazifasini o'tagan (tarix fanidan ularni eslang). Shahar tarixiy obidalarga juda boy. Shahardan „Buyuk Ipak yo'li“ ning bir tarmog'i o'tgan. Buxoroning qadimiy yodgorliklariga Ark, Ismoil Somoni maqbarasi, Chashmayi Ayub mozori, minoralar ansambl, o'nlab madrasauy-machitlar, savdo-tijorat rastalari, gumbazlar va hokazolarni ko'rsatish mumkin. Shahar yaqinida Bahovuddin Naqshbandiy maqbarasi ham bor.


Jahon fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan Abu Ali ibn Sino, Imam al-Buxoriy, Rudakiy, Ahmad Donish, Bahovuddin Naqshbandiy, Sadreddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Ibrohim Mo'minov kabi buyuk siymolar shu yerda tug'ilib ijod etishgan.

Buxoro qadimdan zargarlik, misgarlik, ganchkorlik va boshqa hunarmandchilik markazlaridan biri. Bu yerda bir necha xorijiy mamlakatlarning qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Shaharda universitet, tibbiyot instituti, oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiyasi instituti, kollej va litseylar, teatrlar, jahonga mashhur muzeylar bor. Shaharga har yili yuz minglab sayyoohlар keladi.

Kogon (53 ming) Buxoro viloyatining ikkinchi shahri hisoblanadi. U XIX asrning ikkinchi yarmida temiryo'l qurilishi asosida Yangi Buxoro nomi bilan vujudga kelgan. Hozirgi kunda Kogonda 50 mingdan ortiq aholi yashaydi. Shaharda yog'-ekstraksiya, ohak zavodlari va boshqa korxonalar bor.



Buxoro neftni qayta ishlash zavodi.



Buxoro obidalari.

G'ijduvon (38 ming) ham Buxoro singari qadimiy shahar. U o'zining zar-do'zları, milliy taomlari bilan mash-hur. Bu yerda yirik paxta tozalash zavodi ishlab turibdi. Shahar Abduxoliq G'ijduvoniy maqbarasi bilan ham dong taratgan.

Shuningdek, viloyatda Qorovul-bozor (shaharda yirik neftni qayta ishlash zavodi ishlab turibdi).

Qorako'l (20 ming) (shaharda O'zbekiston-AQSH to'qimachilik qo'shma korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda) hamda Vobkent, Shofirkon, Rishton, Galaosiyo kabi shahar va shaharchalar mavjud. Gazli, Zafar-obod shaharchalari tog'-kon sanoatiga ixtisoslashgan.



Savol va topshiriqlar.

1. Buxoro viloyatining iqtisodiy geografik o'mini ta'riflab bering.
2. Buxoroning tarixiy rivojlanishi haqida nimalarni bilasiz?
3. Viloyatning ixtisoslashgan tarmoqlari qaysilar?
4. Buxoro viloyatiga xos tomonlarni bilasizmi?
5. Viloyatning irrigatsiya tarmoqlari nomini aytинг.


50- §. Navoiy viloyati

Navoiy viloyati. Viloyat iqtisodiy rayonning shimoliy qismida joylashgan bo'lib, 1992- yilda tashkil topgan. Maydoni 111,0 ming kv/km bo'lib, respublika maydonining 24,7 foizini tashkil qiladi. Aholisi 796 ming kishi va u bu borada faqat Sirdaryo viloyatidan oldinda turadi, xo'los. Aholi zichligi 1 kv/km maydonga 7,2 kishi bo'lib, bu ko'rsatkich bo'yicha esa respublikada eng oxirgi o'rinni egallaydi.

Aholisi. Viloyat aholisi ko'p millatli bo'lib, bu yerda 90 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Aholining milliy tarkibi Buxoro viloyatidan birmuncha farq qiladi; o'zbeklardan tashqari ruslar, qozoqlar, tatarlar, qoraqalpoqlar, ukrainlar, tojiklar va boshqa millat vakillari bor. Shahar aholisining salmog'i 40 foizga teng. Viloyat aholisi notekis joylashgan. (buni xaritadan aniqlang va sababini tushuntiring).

Navoiy viloyati **sanoati** respublikada salmoqli o'ringa ega. Aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi bo'yicha respublikada 1- o'rinni egallaydi. Sanoati elektr energiya ishlab chiqarish, rangli metallurgiya, kimyo, qurilish, oziq-ovqat, paxta tozalash va boshqa tarmoqlardan iborat.

NAVOIY VILOYATI



Navoiy viloyati tog'-kon sanoati, xususan rangdor metallurgiya sanoatining yuqori darajada rivojlanganligi bilan respublikada ajralib turadi.

Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i paxtachilik va qorako'lchilik hisoblanadi. Bundan tashqari g'allachilik, sabzavotchilik, bog'dorchilik, pillachilik, tokchilik ham yaxshi rivojlangan.

Haydaladigan yerlar 112 ming hektar bo'lib, bu viloyat hududining atigi 1,1 foizini tashkil qiladi. Yaylov va o'tloqlar 10 mln hektar yoki jami yerlarning 95 – 97 foizini tashkil etadi.

Haydaladigan yerlarning 90 ming hektarini sug'oriladigan maydonlar qoplaydi. Obikor yerlarning 50 foizi paxta bilan band. Sug'oriladigan yerlarning qolgan 30 foizi donli ekinlar, 20 foizi ozuqa ekinlariga to'g'ri keladi. Viloyat dehqonchiligi Amu-Buxoro mashina kanali tarmoqlari hamda Zarafshon daryosidan suv oladigan kanallar orqali suv bilan ta'minlanadi. Bu yerda 4000 km dan ortiq kollektor-drenaj tizimlari mavjud.

Chorvachiligi sertarmoq soha. Viloyatda 1,6 mln qo'y, echki, 1,5 mln qorako'l qo'yulari boqiladi. Yiliga 0,5 mln qorako'l terilari tayyorlanadi va bu borada respublikada 2- o'rinda turadi.

Sanoat tugunlari

Navoiy (sobiq Karmana, aholisi 142 ming kishi), viloyat markazi hisoblanadi). Shaharga 1958- yilda asos solingan. Shahar Zarafshon daryosi vodiysida, viloyat hududining janubiy chekkasida joylashgan, transport yo'llarining muhim tuguni. U orqali Zarafshon va Uchquduq shaharlariiga boruvchi temiryo'l o'tgan. Shaharda GRES, kimyo sanoati birlashmasi, „Navoiy azot“ kombinati, O'rta Osiyoda eng yirik sement zavodi, uysozlik kombinati, Navoiy tog'-mettallurgiya kombinati, paxta tozalash zavodi, oziq-ovqat sanoati korxonalari, „EDEM“, „Agama“, „Zarispark“ qo'shma korxonalari ham faoliyat ko'rsatmoqda. Shaharda pedagogika, tog'-mettallurgiya instituti, kollej va litseylar bor.

Navoiy — ko'kalamzorlashtirilgan, obod shahar. Unda issiq iqlimni yumshatib turuvchi favvora va hovuzlar ko'p.

Zarafshon shahri (54 ming aholi yashaydi) Navoiy shahridan 125 km shimoli-g'arbda joylashgan. U oltin qazuvchilar shahri sifatida

Muruntov tog'-kon sanoati bazasi yaqinida barpo etilgan. Shaharning yetakchi sanoat korxonasasi kon-metallurgiya kombinati hisoblanadi.

Uning aksariyat ishlab chiqarish quvvatlari Zafarobod, Nurobod, Zarafshon va Uchquduqda joylashgan. Kombinatda zargarlik buyumlari zavodi ham ishga tushirilgan. 1993- yilda tashkil etilgan oltin qazib olish bo'yicha



Zarafshon shahri.

O'zbekiston-AQSH „Zarafshon-Nyumont“ qo'shma korxonasi 1995- yil may oyidan mahsulot bera boshladi.

Buyuk Britaniyaning Lonro firmasi bilan Markaziy Qizilqumda oltin rudalari konini ishga tushirish va ajratib olish bo'yicha „Amantaytu-Goldfieldz“ qo'shma korxonasi ham barpo etildi. Navoiy kon metallurgiya kombinatida olingen oltin yombilar London rangli metallar birjasining sertifikatini olgan.

Zarafshon shahri atrofida uran, fosforit, simob ham qazib olinadi. 2001-yilda shahar yaqinida fosfatlar kombinati ham qurib ishga tushirildi.

Viloyatda sanoat rivojlangan shaharlardan biri **Uchquduqdir** (aholisi 25 ming kishi). U 1978 yilda bunyod etilgan. Shaharga temir va avtomobil yo'llar o'tkazilgan. Uchquduqda tog'-kon sanoati rivojlangan, oziq-ovqat korxonalar ham bor.

Nurota shahri (26 ming aholisi bor) yengil sanoat va qurilish materiallari, oziq-ovqat sanoatlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, viloyatda **Qiziltepa** (12 ming) shahri ham o'z salohiyatiga ega.

Navoiy viloyati tashqi iqtisodiy aloqalar borasida boshqa viloyatlardan oldinda turadi. Eksport qilinadigan mahsulotlar asosini oltin, paxta tolasi, mineral o'g'itlar, kimyo tolasi, sulfat ammoniy, sement, ortoaminofenol va boshqalar tashkil qiladi.



Savol va topshiriqlar.

1. Viloyatning Zarafshon iqtisodiy rayoni salohiyatini ayting.
2. Buxoro va Navoiy viloyatlarini qiyoslang va jadvalni tahlil eting.
3. Navoiy viloyati iqtisodiyotiga xos xususiyatlar qaysilar?
4. Viloyatning ekologik muammolari haqida nimalarni bilasiz?

Viloyatlar	Maydoni, ming kv/km	Aholisi ming kishi	Aholi zichligi	Shaharlari	Sanoat tarmoqlari	Qishloq xo'jalik tarmoqlari	Ekologik muammolari
Buxoro Navoiy							



Mavzu. JANUBIY IQTISODIY RAYON

61- §. Rayonning umumiylar ta'rifi

Janubiy iqtisodiy rayon Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridan Iborat. Uning maydoni 48,7 ming kv/km, aholisi, 2002- yil ma'lumotiga ko'ra, 4055 ming kishi, yoki bu yerda O'zbekiston aholisining 16,1 foizi yashaydi.

Ushbu viloyatlarning bitta iqtisodiy rayonga birlashtirilishi ularning geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, demografik jarayonlarning umumiyligidan kelib chiqadi. Qolaversa, G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lining qurib bitirilishi ham mazkur viloyatlarni yanada yaqinlashtiradi va jipslashtiradi.

Iqtisodiy-geografik o'rni. Rayon mamlakatimiz janubida joylashgan. Iqtisodiy-geografik o'rni qulay. U Zarafshon iqtisodiy rayoni, Tojikiston va Turkmaniston hamda Afg'oniston davlatlari bilan chegaradosh (xaritadan ularni toping). Janubiy rayon hududidan temir va avtomobil yo'llari o'tganligi uning iqtisodiy-geografik o'rnnini yanada yaxshilaydi.

Xo'jaligi. Bu iqtisodiy rayon O'zbekiston xalq xo'jaligi tizimida avvalo tabiiy gaz va neft qazib chiqarish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ish-lash bilan ajralib turadi. Iqtisodiy rayon yirik agrosanoat ishlab chiqarish majmuiga ega. Rayon xo'jaligi mamlakatimiz mehnat taqsimotida gaz qazib chiqarish va uni qayta ishlash, neft qazib chiqarish, paxta va g'alla, subtropik mevalarni, qorako'ichilik mahsulotlarini yetishtirish bilan ajralib turadi.



Savol va topshiriqlar

1. Quyidagi foydali qazilma konlari ro'parasiga u yerdan chiqadigan foydali qazilma nomini yozing.
1) Muborak—————
2) Sho'rtang—————
3) Koson—————
5) Ko'kdumaloq—————
7) Qoraxitoy—————
9) Xovdog'—————
2) Sho'rtang—————
4) Handiza—————
6) Toshloq—————
8) Xo'jakon—————
2. Rayon tabiiy sharoitini xo'jalik jihatdan baholang.
3. Rayon qishloq xo'jaligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar qaysilar?
4. Xo'jaligining ixtisoslashgan tarmoqlarini aniqlang va ularni asoslab bering.


62- §. Surxondaryo viloyati

Surxondaryo mamlakatimizning eng janubiy qismida joylashgan. U shimoli-sharqda Tojikiston Respublikasi, janubda Afg'oniston bilan 137 km masofada chegaradoshdir. Maydoni 20,1 ming kv/km. Aholisi 1 mln 801 ming kishi (2002-y). Respublika hududining 4,5 foizi, aholisining esa 7,2 foizini tashkil qiladi.

Iqtisodiy-geografik o'rni. Viloyatning iqtisodiy va siyosiy-geografik o'rni o'ziga xos. Bu hududdan xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan temir va avtomobil yo'llar o'tadi. Amudaryoda qurilgan ko'priklar, temir va avtomobil yo'llar Surxondaryo viloyatining kelajakdag'i taraqqiyotiga muhim ta'sir ko'rsatadi.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Viloyat shimoldan janubga 230 – 250 km, g'arbdan sharqqa 150 – 170 km ga cho'zilgan. Surxondaryo viloyati O'rta Osiyoning ichki qismida joylashganligi, uch tomonidan tog'lar bilan o'ralganligi, shimoldan sovuq havo oqimlarining bemalol kirib kelaolmasligi, quyosh nuring bosqqa hududlarigna nisbatan ancha tik tushishi kabi omillar uning tabiatini va xo'jaligiga ta'sir ko'rsatib turadi.

SURXONDARYO VILOYATI



Surxon vodiysi ana shu tog'lardan Amudaryo tomon pasayib boradi. Vodiyning dengiz sathidan balandligi janubiy qismida 300 metr, markazda 400 – 450 m, shimoliy va shimoli-g'arbiy qismida 700 – 750 metrni tashkil qiladi. Iqlimi quruq subtropik, o'rtacha yillik harorat 14+18°C. Yanvarning o'rtacha harorati +3 +4°C iyulniki esa +31+32°C. O'simlik o'sishi uchun zarur ijobiy haroratlar yig'indisi o'rtacha 4800 – 5900°C mm dan 650 mm gacha farqlanadi.

Viloyatning iqlimi iqtisodiy rayonda ingichka tolali paxta, subtropik mevalar yetishtirishga imkon yaratadi.

Viloyat suv resurslari bilan yaxshi ta'minlangan. Amudaryodan tashqari **To'palang** (124 km), **Qoratog'** (95 km), **Sangarak** (14 km), **Xo'jaipok** (97 km) daryolaridan, **Sheroboddaryo** (186 km), **Surxondaryo** (196 km) suvlaridan sug'orish ishlarida foydalaniladi.

Surxondaryoda suv omborlari ham ko'p. Masalan, **Janubiy Surxon**, **Uchqizil**, **To'palang**, **Oqtepa**, **Degraz** suv omborlari qishloq xo'jaligini suv bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Viloyat tuproq, o'simlik va hayvonot resurlariga boy. Keng tarqalgan tuproq turi bo'z tuproq bo'lib uning taqirli, tipik va to'q tusli bo'z tuproq kabi turlari bor. O'simlik va hayvon resurslari balandlikka tomon o'zgarib boradi va xo'jalikda o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Surxondaryo mineral resurslarga anchagina boy. Yoqilg'i-energetika resurslari **Amudaryo**, **Xotinrabot**, **Xovdog**, **Lalmikor**, **Uchqizil**, **Tolli** konlaridan neft qazib olinadi. Ulardan neft bilan birga gaz, oltingugurt ma'danli suvlar ham chiqadi.

Ko'mir **Sharg'un** (Sariosiyo), **Tuda** (Boysun) konlardan qazib olinadi. Sharg'un ko'miri 18 km lik osma yo'l orqali pastga (iskanalash uchun) briketlash fabrikasiga tushiriladi. Qazib olingan ko'mir dastavval saralanadi, yiriklari ajratib olinadi, maydalari esa briketlanib yiriklashtiriladi. Xonjizda rux, qo'rg'oshin va boshqa metallarga boy rudalari koni bor.

Surxondaryoda sanoat uchun nihoyatda zarur bo'lgan 20 dan ortiq tuz konlari bor. Ularning ichida eng yirigi (zaxirasi 60 – 65 mln tonnaga teng bo'lgan) **Xo'jaikon** tuz koni hisoblanadi. Kondagi tuz qatlaming qalinligi 170 m ga boradi. Tuz koni bazasida bronxial astma kasalligini davolaydigan Oqtosh sanatoriysi ham barpo etilgan. Qurilish materiallaridan marmar, granit, dolomit, kvat qumi, ohaktosh, keramzit va boshqalar qazib olinadi.

Aholisi. Surxondaryo aholisi tabiiy o'sishi yuqori bo'lgan regionlardan biri hisoblanadi. Viloyat aholisi 1959- yilda 422 ming, 1979- yilda 900 ming, 2002- yilda 1 mln 804 ming kishini tashkil qildi. Oxirgi 23 yilda rayon aholisi 2 marta ko'paydi. Aholi tabiiy o'sishining bunday yuqoriligi viloyatda mehnat resurslaridan samarali foydalanish muammolarini keltirib chiqaradi. Viloyatda o'zbeklardan tashqari, tojiklar, turkmanlar, ruslar yashaydi.

Aholi zichligi 1 kv/km ga 80 kishi atrofida. Bu ko'rsatkich dehqonchilik mintasida ancha yuqori bo'lib, 1 kv/km ga 100 – 200 kishi, adir va tog'larda esa 5 – 10 kishini tashkil qiladi; shahar aholisi salmog'i 20 foiz (ayting-chi, shahar aholisi salmog'i nima uchun juda past?).

Xo'jaligi. Surxondaryo viloyati respublika mehnat taqsimotida agrar-industrial yo'nalishga ega. U avvalo, ko'p tarmoqli qishloq xo'jaligi bilan ajralib turadi.

SANOATI. QISHLOQ XO'JALIGI. SHAHRLARI. TRANSPORTI

Sanoati. Surxondaryoda sanoat asosan 1950- yillarda shakllana boshlagan. Dastlabki sanoat tarmoqlari qurilish (g'isht va ohak tayyorlash), don yanchish, paxta tozalash va yog'-moy sanoatidan iborat bo'lgan. Hozirgi kunda viloyat sanoati paxtachilik, mineral resurslar va qishloq xo'jalik xomashyolarini qayta ishslash asosida rivojlanmoqda.

Avvalgi yillarda Denov, Xayrobod, Sherobod paxta tozalash zavodlari, Termiz go'sht kombinati, yog' va non zavodlari, Denov motor ta'mirlash va vino zavodlari qurib ishga tushurildi. Xuddi shu yillarda „Xovdog“, „Uchqizil“, „Kokaydi“ neft konlari ham mahsulot bera boshladи. Biroq, hozirgi davrda ham Surxondaryo respublikada sanoati zaif rivojlangan viloyatlardan biri sanaladi.

Og'ir sanoat. Bu tarmoqning yetakchi sohasi yoqilg'i sanoati hisoblanadi. Mayjud neft konlaridan yiliga 125 – 130 ming t neft qazib olinadi. Viloyatdagi Sharg'un ko'mir konidan 200 ming t yuqori kaloriyalı ko'mir qazib olinmoqda. Boysundagi Tuda ko'mir koni ham o'zlashtirilgach, ko'mir qazib olish hajmi ancha ko'payadi.

Mashinasozlik sanoati asosan ta'mirlash yo'nalishiga ega. Bular Termiz traktor motorlarini ta'mirlash zavodi, Termiz teplovuz-vagon tuzatish korxonalaridir.

Qurilish materiallari sanoati keramzit, g'isht, gips, ohak, temir-beton ishlab chiqaradi.

Yengil va oziq-ovqat sanoati. Surxondaryo viloyatida yengil va oziq-ovqat sanoati uchun yetarli shart-sharoitlar bo'lishiga qaramasdan, u faqat bir tomonlama rivojlangan va asosan paxta hamda boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslashdan iborat. Bu tarmoqning negizini paxta tozalash sanoati tashkil qiladi. Viloyatda 10 dan ortiq paxta tozalash zavodlari ishlab turibdi. Ularning ichida eng yiriklari **Jarqo'rg'on, Sherobod, Denov, Sho'rchi, Uzun, Termiz** paxta tozalash zavodlari hisoblanadi.

Mustaqillik yillarda to'qimachilik sanoati ancha taraqqiy etdi.

Qishloq xo'jaligi. Viloyat qishloq xo'jaligi ko'p tarmoqli bo'lib, uning asosini paxtachilik tashkil etadi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar 290 ming getkarni tashkil qiladi. Shuning 80 foizdan ortiqrog'i sug'oriladigan yerlardan iborat.

Surxondaryoda bog'dorchilik, tokchilik, limonchilik, pillachilik, ertagi sabzavot yetishtirish ham rivojlanmoqda. Shuningdek, viloyatda uzumning shershira, mayizbop navlaridan yaxshigina hosil olinadi. Anorning o'nlab turlari yaratilgan. „**Dashnobod**“ anorlari mamlakatimiz va xorijda mashhur.

Subtropik meva hisoblangan xurmo Surxondaryoning barcha tumanlarida etishtiriladi. Yapon xurmosining sovuqqa chidamli navlari yaratilgan. Uning „**Sharq**“, „**Kavkaz**“, „**Virjiniya**“, „**Denov kanda**“ kabi navlaridan yuqori

hosil olinmoqda. Xurmoning qandililik darajasi 20 foizgacha boradi, quritilganda esa u 50 – 60 foizgacha yetishi mumkin. Mashhur tabib Ibn Sino xurmoning shifobaxshligini alohida uqtirgan edi.

Chorvachilik. Surxondaryo viloyatida chorvachilik paxta va g'alladan keyin uchinchi o'rinda turadi. Sug'oriladigan mintaqalarda qoramolchilik rivojlangan. U asosan go'sht-sutga ixtisoslashgan.

Qorako'l va dumbali hisori qo'yalar adirlar va tog' etaklarida boqiladi. Qorako'l terilarining „Oq oltin“, „Surxon suri“ „Kumush rang“, „Gavhar“ deb nomlanuvchi turlari jahon bozorida yuqori baholanadi. Hisori qo'yalar ko'proq go'sht va yog'i uchun boqiladi. Bu qo'ylarning vazni 150 – 160 kg gacha boradi. Tog'li tumanlarda juni uchun angor echkilari boqiladi.

Viloyatdada yiilqichilik ham rivojlangan.


Shaharlari. Surxondaryoda eng yirik shahar **Termiz**. U Amudaryoning o'ng sohilida joylashgan. Aholisi 117 ming kishi. Arxeologik topilmalar Termizning qadimiy shahar ekanligini tasdiqlaydi. 2002- yilda shaharning 2500 yilligi nishonlandi.

Shahar nomi „Taramastxa“ (Baktra — narigi sohildagi manzil) so'zidan olingen bo'lib, vaqt o'tishi bilan Tarmita, Taramita, Tarmid, Tarmiz), 10- asrdan Termiz deb atala boshlagan.

Arab istilosiga qadar Termizda buddizm dini ustun bo'lgan. Termiz islom dinining donishmandlari Hakim at-Termiziy (810 – 870) va buyuk muhaddis **Imom at-Termiziy** (824 – 892) larning vatanidir.

Termiz viloyatning madaniy va ma'rifiy markazi hamdir. Bu yerda Davlat universiteti, qator kollej va litseylar faoliyat ko'rsatmoqda. Shaharda yirik hayvonot bog'i ham joylashgan.

Denov (65 ming aholi yashaydi). Viloyatning muhim sanoat markazi. Shaharda paxta tozalash, yog', sharob, sut-moy, motor ta'mirlash va boshqa korxonalar bor.



Imom at-Termiziy maqbarasi.

Sherobod (25 ming aholi yashaydi). Shaharda 9- asrga oid Xo'ja Iso jomi masjidi saqlangan. Yengil sanoat tarmoqlari joylashgan.

Jarqo'rg'on (21 ming aholi yashaydi) o'zining minorasi bilan mashhur. Minoraning balandligi 21,6 m, quyi qismining diametri 5,4 metr. U 1108 – 1109- yillarda qurilgan. Shaharda oziq-ovqat, yengil sanoat korxonaları va neft qazib olish tarmog'ining boshqarmasi joylashgan.

Viloyatda **Boysun**, **Qumqo'rg'on**, **Sharg'un**, **Sho'rchi** kabi shaharlar ham bor.

Mustaqillik yillarida 223 km uzunlikdagi G'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temiryo'li barpo etilmoqda.

Avtomobil transporti ahamiyati bo'yicha temiryo'lidan qolishmaydi. Viloyat avtomobil yo'llari orqali mamlakatimizning deyarli barcha regionlari bilan bog'langan. Kelajakda Termiz-Qobul-Qorachi avtomobil yo'lining ishga tushurilishi nafaqat Surxondaryo, balki respublikamiz iqtisodiyotida yangi sahifalar ochib beradi.

Savol va topshiriqlar

1. Surxondaryo viloyatining mamlakat miqyosidagi salohiyatini yoriting.
2. Sanoat tarmoqlarini quyidagi jadvalni to'ldirish orqali tavsiflang.

Sanoat	Qaysi shaharlarda joylashgan	Qanday mahsulotlar ishlab chiqaradi
--------	------------------------------	-------------------------------------

3. Viloyat yer fondining tarkibini doiraviy diagrammada aks ettiring.
4. Surxondaryoda nima sababdan urbanizatsiya juda past?
5. Viloyatning tarixiy yodgorliklari va folklor qo'shiqchilik san'ati haqida nimalarni bilasiz?

63- §. Qashqadaryo viloyati

Qashqadaryo viloyatining maydoni 28,6 ming kv/km, aholisi 2,3 kishi, ma'muriy jihatdan 14 tuman, 12 shahar va shaharchalardan iborat. Markazi—Qarshi shahri.


Uning iqtisodiy-geografik o'rni Samarqand, Buxoro, Navoiy va Surxondaryo viloyatlari hamda Tojikiston va Turkmaniston davlatlari bilan chegaradoshligi, temir va avtomobil yo'llarining o'tganligi bilan tavsiflanadi.

Viloyatning sharqiy va janubi-sharqiy qismlari tog'liklardan, quyi qismi Qarshi cho'llaridan tashkil topgan. Qazilma boyliklardan neft va gaz konlari ko'p (respublikada 1- o'rinda). Shuningdek, turli xil tuzlar, qurilish materiallari xomashyosining ham katta zaxiralari mavjud. Aholi notekis joylashgan — cho'l qismida siyrak, Shahrisabz mintaqasida zich.

Xo'jaligida ikki asosiy yo'nalish agrosanoat va yoqilg'i-energetika majmualari muhim mavqega ega. Bu jihatdan viloyat Janubiy iqtisodiy rayon va respublikada ajralib turadi.

QASHQADARYO VILOYATI

156



Sanoati. Qashqadaryo viloyatida sanoatning yetakchi tarmoqlaridan biri neft va tabiiy gaz qazib olish hisoblanadi. Gaz, neft va tuz konlari negizida kon sanoati tez sur'atlarda shakllanmoqda.

Qashqadaryo viloyati respublikamizning asosiy yoqilg'i-energetika bazasi hisoblanadi. Viloyat O'zbekistonning 80—90 foiz neft va gazini beradi. **Muborakda** dastlabki gaz-kimyo majmuasi barpo etilgan. Hozirgi vaqtida **Sho'rtongaz** majmuasi tashkil qilinmoqda. Bu yerda mamlakatimizda eng yirik qo'shma korxona barpo etilgan.

Yengil sanoatning ham salmog'i katta. Yengil sanoat asosan paxta tozalash zavodlaridan iborat. Paxta tozalash zavodlari Qarshi, Koson, Muborak, G'uzor, Qamashi, Yakkabog', Shahrisabz, Kitob shaharlarida joylashgan.

Pillakashlik ham iqtisodiy rayonda o'z salohiyatiga ega. Milliy hunarmandchilik asosida do'ppi, so'zana, badiiy buyumlar, gilam va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish ancha rivojlangan. Viloyatning istiqbolli tarmoqlaridan yana biri elektroenergetika sanoati hisoblanadi. Muborakda IES bor, Tolimarjonda yirik GRES qurilishi davom etmoqda. Ular mahalliy tabiiy gaz asosida ishlaydilar.

Oziq-ovqat sanoati tarmoqlari barcha shahar va tuman markazlarida joylashgan. Bu tarmoq bevosa qishloq xo'jaligi bilan uzviy bog'langan bo'lib, uning xomashyosini qayta ishlash bilan shug'ullanadi.

Viloyatda qurilish materiallari sanoati temir-beton, irrigatsiya quvurlari, asfalt-beton, keramzit-beton zavodlari, uysozlik kombinati, qum, shag'al, marmar, ohak va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Shuningdek, to'qimachilik, tikuvchilik, konserva ishlab chiqarish sanoatlarini yanada rivojlantirish va bu borada xorijiy mamlakatlar bilan qo'shma korxonalar qurish muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligi. Dehqonchilik qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'idir. Bu tarmoq qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining asosiy qismini beradi.

Dehqonchilikning negizini paxtachilik hamda g'allachilik tashkil etadi.

Tog'oldi mintaqalarida tokchilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik, Qarshi cho'li mintaqasida esa polizchilik ancha taraqqiy etgan.

Qorako'lchilik viloyatning cho'l qismida rivojlangan. Tog'oldi va tog'li hududlarda jaydari qo'y va echki hamda go'sht va yog' beruvchi dumbali qo'ylar boqiladi.

Viloyat respublikada yetishtiriladigan qorako'l terilarining 20 foizini, junning esa 15 — 16 foizini beradi. Quruq dashtlarda uzun junli echkilar va mayin junli qo'ylar boqib ko'paytirilmoqda.

Qashqadaryo viloyati O'zbekistonda yetishtiriladigan yalpi qishloq xo'jalik mahsulotining 10 foizini, shu jumladan paxtaning 10 foizini, pillaning 7 foizini, g'allaning 15 foizini beradi.

Asosiy shaharlari. Qarshi viloyatining yirik sanoat markazi. Shaharda 205 ming aholi yashaydi (2002- y). Qashqadaryo bo'yida joylashgan.

Qarshi shahrining o'rniida qadimda **Bolo**, **Nashebolo**, **Naxshab**, **Nasaf** nomlari bilan yuritilgan shaharlar bo'lgan. Shahar 1926 — 1937- yillarda **Behbudiy** deb atalgan.

Hozirgi kunda Qarshi yirik sanoat uzeli. Shaharda o'nlab sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Qarshida tikuvchilik fabrikasi, ipakchilik kombinati, yog' zavodi, paxta tozalash korxonalari joylashgan. „Termoplast“ korxonasida o'nlab turdag'i plastmassa buyumlari ishlab chiqariladi. Shaharda „Aziya Treyding“, „O'zinterbiznes“, „Karimpeks“ kabi xorijiy davlatlar bilan qurilgan qo'shma korxonalar ishlab turibdi.

Qarshi viloyatning yirik madaniy va ma'rifiy markazi. Shaharda universitet, muhandislik-iqtisodiyot instituti, kollej va litseylar faoliyat ko'rsatmoqda.

Shahrisabz. Qashqadaryo viloyatining Kitob-Shahrisabz vohasida joylashgan, viloyat markazidan keyingi ikkinchi shahar. Aholisi 90 ming kishiga yaqin. Shaharda yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari yaxshi rivojlangan.

Ipakchilik kombinati, „Hujum“ fabrikasi viloyatning yirik korxonalaridan biri hisoblanadi. Shahrisabz tarixiy obidalarga boy. U 2700 yillik tarixga ega.

Koson iqtisodiy rayonda kattaligi bo'yicha 3- o'rinda turadigan shahar. Aholisi 56 ming kishi. Yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlangan.

Kitob aholisi 35 ming kishi. Oziq-ovqat sanoatining markazi. Shahar yaqinida jahon ahamiyatiga ega bo'lgan Ulug'bek nomidagi Kenglik stansiyasi mavjud. Shuningdek, viloyatda **Qamashi** (32 ming aholisi bor), **Muborak** (24 ming aholisi bor), **Yakkabog'** (22 ming aholisi bor), **G'uzor** (22 ming aholisi bor), **Chiroqchi** (17 ming aholisi bor), **Beshkent** (15 ming aholisi bor), **Yangi-Nishon** (9 ming aholisi bor), **Tolimarjon** (8 ming aholisi bor) kabi shaharlar ham bor. Ularda xilma-xil sanoat korxonalari joylashgan. Bu jihatdan ayniqsa, Muborak va Tolimarjon ajralib turadi.



Savol va topshiriqlar

1. Qashqadaryo viloyatidagi yetakchi sanoat tarmoqlarini aiting.
2. Qishloq xo'jaligidagi yerlar tarkibi qanday taqsimlangan?
3. Qishloq xo'jaligidagi tarmoqlarni ahamiyatiga ko'ra joylashtiring.
4. Qarshi shahriga xarita asosida iqtisodiy-geografik tavsif yozing.



Mavzu. QUYI AMUDARYO IQTISODIY RAYONI

64- §. Rayonning umumiyligi ta'rifi

Iqtisodiy rayon tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati kiradi. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni respublikaning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan. Maydoni 171,2 ming kv/km. U maydoni jihatidan mamlakatda eng katta bo'lib, respublika hududining 38,3 foizini, aholisining esa 1,6 foizini tashkil qiladi (209 ming kishi).

Iqtisodiy-geografik o'rni. Rayon iqtisodiy-geografik o'rni boshqa rayonlardan ancha uzoqda joylashganligi bilan ajralib turadi. Bunday geografik o'rni uning iqtisodiy taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Quyi Amudaryo hududida 1955- yilda Chorjo'y-Qo'ng'irot, 1970- yilda Qo'ng'irot-Makat-Beynov temiryo'llari ishga tushirilishi uning xalq xo'jaligi rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mustaqillik yillarda Uchquduq-Miskin-To'rtko'l-Nukus temiryo'lining barpo etilishi rayon ishlab chiqaruvchi kuchlarini yanada rivojlantirishda ijobiy rol o'ynadi. Ustyurt orqali O'zbekistonning Yevropa bilan bog'lovchi avtomobil yo'lining yaqin vaqtarda qurilib bitkazilishi ham rayon hayotida katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Xo'jaligi. Quyi Amudaryo O'zbekistonning shimolidagi paxta, sholi va chovchilikka ixtisoslashgan mintaqadir.

Rayon hissasiga mamlakatda yetishtiriladigan sholining 70 foizi, paxtaning 14, pillaning 11, qoramollarning 15, qo'y-echkilarining 10 foizga yaqini to'g'ri keladi. Ammo rayon sanoat ko'rsatkichi bo'yicha mamlakatda oxirgi o'rnlarda turadi.

Rayon iqtisodiyotida **qishloq xo'jaligi** yetakchi tarmoq. Dehqonchilik qishloq xo'jalik yalpi mahsulotining 2/3 qismini yetkazib beradi.

Paxtachilik iqtisodiy rayon dehqonchiligining asosiy tarmog'i hisoblanadi. Mustaqillik yillari paxta maydonlari qisqartirilib, o'rniga ko'proq bug'doy va boshqa donli ekinloar ekila boshlandi. Amudaryoning quyi qismlarida hamda daryoga yaqin joylarda sholichilik xo'jaliklari tashkil etildi.

Sanoati. Quyi Amudaryo sanoati boshqa iqtisodiy rayonlarga nisbatan birmuncha zaif rivojlangan. Aboli jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsuloti bo'yicha respublikaning o'rtacha ko'rsatkichidan ancha pastda turadi. Rayonning yalpi sanoat mahsulotida qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi yengil va oziq-ovqat sanoati yetakchilik qiladi. Yengil sanoatda paxta tozalash zavodlari, to'qimachilik sanoati, gilamchilik ustun turadi.

Quyi Amudaryoda og'ir sanoat tarmoqlari nisbatan sust rivojlangan. Mashinasozlik va metallsozlik korxonalarini, qishloq xo'jalik mashinalarini ta'mirlash, kema ta'miri, o't o'rish kombaynlari, ekskovator ta'mirlash korxonalaridan iborat.

Og'ir sanoatning yetakchi tarmog'i elektrenergetika sanoati hisoblanadi. Ammo Taxiatoshdagi issiqlik elektr stansiyasi, Xorazmdagi Tuyamo'yin GESi rayonning elektr energiyasiga bo'lган ehtiyojini to'la qondira olmaydi.



Savol va topshiriqlar.


1. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonining mamlakatimizda tutgan o'rnini boshqa iqtisodiy rayonlar bilan qiyoslang.
2. Rayon hududidan o'tgan magistral temiryo'lliar va avtomobil yo'llarini yozuvsız xaritaga tushiring.
3. Rayon xo'jaligining ixtisoslashgan tarmoqlarini aytинг.

65- §. Qoraqalpog'iston Respublikasi

O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi suveren davlat. Respublika o'z bayrog'i, Konstitutsiyasi, Davlat gerbi, Davlat madhiyasiga ega.

Maydoni 166,6 ming kv/km. O'zbekiston hududining 37,1 foizini tashkil qiladi. Qoraqalpog'iston 15 ta tuman, 12 ta shahar va 16 ta shaharchadan

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI



tashkil topgan (ularni xaritadan toping). Aholisi 1540 ming kishi yoki O'zbekiston aholisining 6,1 foizi shu yerda yashaydi. Uning hududidan temir va avtomobil yo'llarining o'tishi, havo transporti va suv yo'llarining mavjudligi respublika iqtisodiy-geografik o'rnidida ijobiy ahamiyatga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Iqtisodiy-geografik o'rni. Qoraqalpog'iston janubda Turkmaniston davlati va Xorazm viloyati, g'arb, shimol va shimoli-sharqdan Qozog'iston Respublikasi, janubi-sharqda Navoiy viloyati va ozroq masofada Buxoro viloyati bilan chegaradosh. Chegaralarining umumiy uzunligi 2265 km ga teng. Shundan 975 km masofada Qozog'iston bilan, 750 km masofada Turkmaniston, qolgan 540 km masofada Navoiy, Buxoro, Xorazm viloyatlari bilan chegaralanib turadi.

Mustaqillik yillarda Uchquduq-Miskin-To'rtko'l-Nukus temir - yo'llining qurib foydalanishga topshirilishi Qoraqalpog'iston iqtisodiy - geografik o'rnidida tub o'zgarishlar yasaydi.

Tabiiy sharoiti va resurslari.

Respublika hududi tabiiy sharoiti va boshqa xususiyatlariga ko'ra 4 qismga bo'linadi:

- 1) Amudaryo deltasi, 2) Qoraqalpog'iston Ustyurti,
- 3) Qoraqalpog'iston Qizilqumi, 4) Sulton Uvays tog'i.

Iqlimi keskin kontinental, yoz va qish oylari o'rtasidagi haroratlar amplitudasi ancha yuqori. Yanyarning o'rtacha harorati shimolda -7, 6, janubda -5, iyulniki janubda 28,2 °C, shimolda 26 °C. Yog'ingarchilik miqdori 100 – 110 mm.

Qoraqalpog'iston qo'shni Xorazm viloyatiga qaraganda tabiiy resurslarga ancha boy. **Ustyurtda tabiiy gaz** (Kuanish, Oqchala, Shaxpaxti), neft (Borsakelmas, Qoraquduq), osh tuzi konlari bor. Tabiiy gazning aniqlangan zahiralari 250 mlrd kub metrga yetadi. **Sulton Uvays** tog'ida *temir ruda, qo'rg'oshin, rux, marmar, gips, mergel* konlari bor.

Mintaqa qurilish materiallariga juda boy: asbest, dala shtapi, talk, ohak, granit, qumning yirik zaxiralari aniqlangan.

Qoraqalpog'iston yerlari 4 ta sug'orish tarmog'idan suv ichadi. Bular **Paxta-arna, Nazarxon-Qipchoq, Suvenli va Qizketken** kanallari bo'lib, ularidan yuzlab nassos stansiyalari orqali suv olib tarqatiladi.

Aholisi. Aholi respublika hududi bo'ylab notekis joylashgan. O'rtacha zichlik 1 kv/km ga 9,4 kishini, dengiz bo'yida esa 0,7 kishini tashkil qiladi. Ayni vaqtda sug'orma dehqonchilik mintaqalarida — To'rtko'l, Beruniy, Amudaryo, Xo'jayli, Mang'it tumanlarida aholi zichligi 250 kishigacha boradi. Ustyurt va Qizilqumda 1 kv/km ga 0,1 – 0,3 kishidan to'g'ri keladi, xolos.

Aholi yosh tarkibida 15 yoshgacha bo'lганлар 40 foizni tashkil qiladi.

Xo'jaligi. Qoraqalpog'iston Respublikasi mamlakatimizda **qishloq xo'jaligi** mahsulotlarini yetishtirishda salmoqli o'ringa ega. O'zbekistonda yetishtiladigan paxtaning 5 – 6 foizi, sholining 57 – 58 foizi, junning 3 foizi, sabzavotning 3 foizi shu viloyat zimmasiga to'g'ri keladi.

Paxtachilik barcha ekin maydonlarining 43 foizini egallaydi. Orol fojiasi tufayli paxta hosildorligi yildan-yilga pasayib ketmoqda. Agar 1970 – 1989-

yillarda paxta hosildorligi gektariga 32 – 33 senterni tashkil engan bo'lsa, 1984- yildan boshlab bu ko'rsatkich kamaya boshladi. Hozirgi kunga kelib, u 15 – 16 sentnerga ham yetmayapti.

Sholi hosildorligi 1995- yilda 41,9 senter, 1980- yil 47 sentner, 1995-yilga kelib esa 16 sentnerga tushib qoldi. 2000 – 2001- yillarda sholi maydonlari suv yetib kelmasligi sababli keskin kamaydi. Bu larning barchasi Orol muammosi tufayli kelib chiqmoqda.

Bedachilik dehqonchilikda yetakchi sohalardan biridir. Bu ekin Amudaryo mintaqalarida 2500 yildan buyon ekip kelingan. Uning urug'i Rossiya, Germaniya, AQSH, Kanada va boshqa mamlakatlarga eksport qilinadi. Beda ko'p ekiladigan hudud Chimboy tumani hisoblanadi. Bu yerda kelajakda beda maydonlarini 75 ming gektarga yetkazish ko'zda tutilgan.

Chorvachilikda qorako'lchilik, qoramolchilik, cho'chqachilik, parrandachilik ancha ustun sohalardir. Respublikada qorako'lchilikni rivojlantirish uchun 3,2 mln ga yaylovlar mavjud. Qoramolchilik sut-go'sht yetishtirishga ixtisoslashgan. Chorvachilikni em xashak bazasi bilan ta'minlash uchun 105 ga maydonlarga beda, makkajo'xori va boshqa ekinlar ekiladi.

Cho'chqachilik ham tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Parrandachilik ix-tisoslashtirilgan fabrikalarda shakllangan. Tuyachilik, yilqichilik ham rivojlanib bormoqda.

Sanoati. Qoraqalpog'istonda qishloq xo'jaligi xomashyosini (paxta, sholi, go'sht, sut, jun, baliq) qayta ishlash sanoati tarmoqlari birmuncha rivojlangan. Bu yerda ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlarining taxminan 2/3 qismi ana shu tarmoqlarga to'g'ri keladi.

Respublikada paxta tolasi, konserva, go'sht, o'simlik yog'i, vino-aroq, elektr energiya, ohak va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Nukus to'qimachilik kombinati, Bo'ston, To'rtko'l, Xo'jayli, Qo'ng'irot paxta tozalash zavodlari, Nukus, Qo'ng'irot, Xo'jayli, Beruniy sut va yog' zavodlari, Taxiatosh don kombinati, Mo'ynoq baliq kombinati oziq-ovqat va yengil sanoatning asosiy korxonalari.

Respublikada og'ir sanoatning yetakchi tarmog'i elektr energetika sanoati hisoblanadi. Bu tarmoq Qoraqalpog'iston yalpi sanoat mahsulotining 15 foizini beradi (Taxiatosh GRES). U Xorazm viloyati va qo'shni Turkmaniston davlatining Toshkovuz viloyatini ham elektr energiya bilan ta'minlaydi.

Og'ir sanoatning ikkinchi muhim tarmog'i qurilish materiallari sanoatidir. U yalpi sanoat mahsulotining 8 foizini beradi. Bu sanoat yetarli darajada xom ashyo resurslariga ega. G'isht xomashyosi respublikaning ko'pgina joylarida mavjud. Noruda materiallar, ohak, gips, marmar, silikalsit, mergel, sement xomashyosi ancha ko'p uchraydi.



Nukus shahri.

Nukus va Taxiatoshda uysozlik kombinatlari, Oqtov va Mang'itda noruda materiallar ishlab chiqaruvchi korxonalar, Nukusda marmar zavodi, Xo'jaylida yillik quvvati 45 mln dona shisha va bankalar tayyorlaydigan zavod ishlab turibdi.

Ximiya sanoati Qoraqalpog'istonnda endi taraqqiy etib kelayotgan tarmoq. Bu tarmoq juda yirik xomashyo bazasiga ega. Borsakelmas, Qoraumbat tuz konlari negizida Qo'ng'irot soda zavodi qurilmoqda. Endi O'zbekiston bu qimmatli mahsulot bilan nafaqat o'zini ta'minlaydi, balki uni xorijga eksport ham qilishi mumkin.

Transporti. Qoraqalpog'istonnda temiryo'l, avtomobil hamda havo transporti yaxshi rivojlangan. Chorjo'y-Makat respublikadan o'tadigan asosiy magistral bo'lib, u Markaziy Osiyoni Yevropa bilan bog'laydi. Taxiatosh-Nukus-Chimboy temiryo'l Qoraqalpog'istonning shimoliy qismlarini Amudaryo ko'prigi orqali Chorjo'y-Makat magistralli bilan tutashtiradi. Barcha tumanlar bir-biri bilan avtomobil magistrallari orqali bog'langan. Ustyurt orqali O'zbekistonni Yevropa mamlakatlari bilan bog'lovchi avtomobil yo'li qurilishi ham jadal suratlarda olib borilmoqda.

Asosiy shaharlari.

Nukus shahri aholisi 213 ming kishi (2002- y). U Amudaryoning o'ng qirg'og'ida, Uning 3 km shimoli-sharqida, dengiz sathidan 76 m balandlikda joylashgan. Hozirgi Nukus o'rniда XIX asrning 60- yillarda Nukus ovuli bo'lgan. 1930- yilda Nukus ovulini respublika markaziga aylantirishga qaror qilinadi va 1932- yilda poytaxt qurilishi boshlanadi.

Nukusda og'ir va yengil sanoat korxonalaridan uysozlik kombinati, temir-beton konstruksiyalari zavodi, ta'mirlash korxonasi, su'i kombinati, yog'-moy zavodi, go'sht kombinati, namat (kigiz) ishlab chiqarish korxonasi, non kombinati joylashgan. Shahar sanoat salmog'ida birinchi o'rinda og'ir sanoat, ikkinchi o'rinda oziq-ovqat, uchinchi o'rinda yengil sanoat turadi. „Kateks“ qo'shma korxonasi ham shu shaharda qurilgan.

Nukus respublikaning yirik fan, madaniyat va ma'rifiy markazi hamdir. Shaharda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Qoraqalpoq bo'limi, dehqonchilik mintaqaviy ilmly tekshirish instituti, Qoraqalpoq davlat universiteti. Nukus pedagogika instituti, qator kollej va litseylar faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublikaning ikkinchi yirik shahri Xo'jayli (aholisi 70 ming kishi). Shaharda go'sht kombinati, yog'-moy zavodi, paxta tozalash zavodi kabi korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Taxiatosh (aholisi 52 ming kishi). Bu yerda temir-beton konstruksiyalari zavodi, don kombinati, IES va boshqa yengil, oziq-ovqat sanoat korxonalar joylashgan.

Qo'ng'irotda (aholisi 36 ming kishi) kimyo, oziq-ovqat, qurilish, yengil sanoat korxonalar ishlab turibdi.

Qoraqalpog'istonning janubida **To'rtko'l** (50 ming kishi), **Beruniy** (53 ming kishi), **Mang'it** (32 ming kishi), Bo'ston (5 ming kishi) shaharlari

joylashgan. Bu shaharlar respublikada yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari bilan ajralib turadi. Bo'stonda „Elteks“ qo'shma korxonasi „jinsi“ materiallari ishlab chiqaradi.



Savol va topshiriqlar

1. Qoraqalpog'iston Respublikasining siyosiy-ma'muriy tuzilishini ayting.
2. Qoraqalpog'iston Respublikasining geografik o'rniiga oid xususitlarini yozing.
3. Tabiiy sharoiti va resurslariga xo'jalik jihatidan baho bering.
4. Qishloq xo'jaligidagi ixtisoslashgan tarmoqlarni ayting.
5. Sanoatdagi ixtisoslashgan tarmoqlar qaysilar?
6. Qoraqalpog'istonning asosiy oliv va o'rta maxsusus o'quv yurtlari qaysilar va ular qayerlarda joylashgan?
7. „Orol muammoi“ haqida referat yozing.

66- §. Xorazm viloyati

Xorazm respublikaning shimoli-g'arbida joylashgan viloyat. U shimoli-g'arbdan janubi-sharqqa 270 – 280 km masofaga cho'zilgan. Viloyatning Urganch shahri kengligiga g'arbdan sharqqa uzunligi 80 km. Maydoni 6,3 ming kv/km.

Xorazm viloyati ma'muriy jihatdan 10 ta tuman, 3 ta shahar va 7 ta shaharchadan iborat. Markazi Urganch shahri. Xorazmda juda qadimiy davlatchilik mavjud bo'lган. Uning hududidan „Buyuk Ipak yo'li“ o'tgan.

Iqtisodiy-geografik o'rni. Viloyatning geografik o'rni boshqa viloyatlarga nisbatan ancha noqulay bo'lib, mamlakatning rivojlangan markazlaridan ancha uzoqda joylashgan. Ammo uning hududidan O'rta Osiyoniy Yevropa bilan bog'lovchi temiryo'llarning kesib o'tganligi bu noqulayliklarga qisman bo'lsa ham barham beradi.


Viloyat aholisi 1,4 mln kishi. U bu ko'rsatkich bo'yicha Jizzax, Navoiy, Sirdaryo viloyatlaridan oldinda. Aholi zichligi 1 kv/km maydonga 224 kishi va bu borada Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlaridan keyin 4- o'rinda turadi. Aholi milliy tarkibida o'zbeklar salmog'i eng ko'p bo'lган viloyat — **Xorazmdir**.

Tabiiy sharoiti va resurslari. Viloyat yer yuzasi pasttekislikdan iborat. Tekislikda inson faoliyati natijasida vujudga kelgan antropogen relyef shakllari anchagina maydonlarni egallaydi. Ular insonlarning ko'p asrlar davomida ariq va kanallarni tozalashi natijasida vujudga kelgan. Xorazm tilida buni **roshlar** (*marzalar*) deyiladi.

Amudaryo vodisi qirg'oqlari daryo o'zaniga tomon pasayib boradi. Daryoga yaqin joylarda Amudaryoda tez-tez bo'lib turadigan suv bosish, ya'ni, „**deygish**“ hodisasining oldini olish uchun **kochilar** (*dambular*) qurilgan. Daryo qirg'oqlarida o'nlab kilometr masofada dambalardan tarkib topgan relyef shakllari ancha maydonlarni egallaydi.

Iqlimi keskin kontinental, qishi sovuq, qor kam bo'ladi. Yanvarning o'rtacha harorati -5°C , iyulniki $+27,3^{\circ}\text{C}$. Yillik yog'ingarchilik miqdori 80 – 90 mm. **Polvon, Toshsoka, Shovot, Qilichniyozboy** kabi kanallari butun

XORAZM VILOYATI



viloyatni suv bilan ta'minlab turadi. O'simliklarning vegetatsiya davri 200 – 205 kun. Aksariyat hududi madaniy tuproqlar, o'tloqi tuproqlar (jami hududining 60%), o'tloqi botqoq, botqoq, qumli, sho'rhoq tuproqlardan iborat.

Viloyatda mineral resurslar deyarli uchramaydi. Bu yerda g'isht xomashyosi, silikat materiallar ishlab chiqarish uchun qum, shag'al va boshqa qurilish materiallari bor, xolos. Binobarin, Xorazm viloyatida og'ir sanoat tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyatlari ancha cheklangan.

Qishloq xo'jaligi. Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligiga yaroqli erlar 570 ming gektarni tashkil qiladi. Shundan 214 ming gektari sug'oriladigan yerlar, qolgani yaylov va o'tloqlardan iborat.

Viloyat Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida yetishtiriladigan paxtaning 50 foizini, sholining 1/4 qismini, g'allaning 60 foizini beradi. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlari paxtachilik, g'allachilik, sabzavotchilik, polizchilik, chorvachilik va pillachilik hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligini quyidagi ishlab chiqarish ixtisosligiga ega bo'lgan zonalarga ajratish mumkin: paxtachilik, paxta-bug'doychilik, paxta-sholichilik, paxta-chorvachilik, bog'dorchilik-polizchilik-sabzavotchilik, shahar atrofi qishloq xo'jaligi va qisman qorako'lchilik. Bular tabiiy sharoit, aholining mehnat malakasi va boshqa omillar negizida shakllangan.

Sug'oriladigan ekin maydonlarining 40 foizi paxta, 25 foizi donli ekinlar bilan band.

Viloyat sholichilik bo'yicha Qoraqalpog'istonidan keyin 2- o'rinni egallaydi. Sholi 60-yillarning birinchi yarmidan ekila boshlandi. U **Gurlan**, **Shovot**, **Bog'ot**, **Xonqa Yangiariq** tumanlarida ko'p ekiladi. Ayrim xo'jaliklarda sholidan 70 – 80 sentnergacha hosil olinadi.

Sholining yuqori hosil beradigan „Avangard“, „Nukus-2“, „Uzros-7“ navlari ko'p ekiladi. Viloyatda bug'doy mustaqillik yillarda ko'p ekila boshlandi. Paxta maydonlaridan bo'sagan yerlarda bug'doydan 60 – 70 sentnergacha hosil olinmoqda. Sug'oriladigan hududlarda makkajo'xori, oqjo'xori, mosh ekiladi.

Viloyatda chorvachilik, qorako'lchilik, parrandachilik, dehqonchilikdan keyingi o'rinda turadi. Uning qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotidagi salmog'i 1/4 ni tashkil etadi.

Kelajakda viloyat qishloq xo'jaligining rivojlanishi bevosita suv resurslari muammosi bilan bog'liq.

Sanoati. Viloyatda qishloq xo'jalik xomashyosiga ishlov beruvchi sanoat rivojlangan. Xorazm qadim zamonlardan iqtisodiy taraqqiy etgan o'lka hisoblangan. Sayyoh al-Maqsidiy Xorazm iqtisodi haqida hikoya qilar ekan. Xorazmdan *kulrang olmaxon*, *tulki*, *qunduz*, *quyon*, *echki*, *mol terilari*, *qalpoq*, *baliq*, *yelim*, *oq terak po'stlog'i*, *mis*, *o'rmon yong'og'i*, *qilich*, *sovut*, *lochinlar*, *qayin*, *uzum*, *qovun*, *mayiz*, *kunjut*, *gilam*, *pechene*, *ko'rpalari*, *choyshab*, *rangli kiyimlar* tashqariga chiqariladi deb yozgan edi.

Yuqoridagilar Xorazmda azaldan hunarmandchilik, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoati mavjudligi va rivojlanganligidan dalolat beradi.

Viloyatda sanoatning asosiy tarmog'i engil sanoat hisoblanadi. Uning etakchi korxonalarini paxta tozalash korxonalaridir. Ular baracha Tumanlarda joylashgan. Mustaqillik yillarda Gurlanda (Gurteks) to'qimachilik majmuasi barpo etildi.

Xivadagi gilam kombinati nafaqat O'zbekistonda balki butun O'rta Osiyoda eng yirik korxona hisoblanadi. Uning mahsulotlari ko'pgina mamlakatlarga eksport qilinadi. Aksariyat tumanlarda tikuvchilikning kichik-kichik korxonalarini bor. Urganchda Italiya bilan hamkorlikda oyoq kiyimlari ishlab chiqaruvchi „Darital“ qo'shma korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Viloyatda og'ir sanoatning yetakchi tarmog'i elektr energiya va mashinasozlik sanoatlari hisoblanadi. Bu yerda yoqilg'i resurslarining deyarli yo'qligi zamonaviy energetika bazalarini yaratish imkoniyatini bermaydi. Elektr energiyaning asosiy qismini Taxiatosh IES va Tuyamo'yin GES ishlab chiqaradi.

Qurilish materiallari sanoati uchun zarur bo'lgan ohak, qum, shag'al, g'isht xomashyosi viloyatda nisbatan ko'p uchraydi. Urganchda temir beton buyumlari zavodi, Urganch uysozlik kombinati, Urganch va Qo'shko'pir g'isht zavodlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Transporti. Viloyatda temiryo'llar uzunligi 130 km ga yaqin. Avtomobil yo'llarning uzunligi 400 km dan oshadi. Urganch shahrida xalqaro aeroport bor. Bu yerdan mamlakatimiz va MDH dagi yirik shaharlarga samolyotlar parvoz etadi.

Amudaryodagi suv yo'li deyarli inqirozga uchradi. Vaholanki, 1950-yillarda Shorlovuq porti orqali viloyatdagisi asosiy yuklar daryo orqali tashilgan.

Shaharlari: **Urganch** (aholisi 138 ming kishi), viloyatning iqtisodiy va madaniy markazi. U Amudaryoning chap sohilida, daryodan 12 km masofada joylashgan. Shaharning o'tasidan Shovot kanali kesib o'tadi. Kanalning shimoliy qismida turar joy binolari, ma'muriy idoralar, ilmiy-madaniy muassasalar joylashgan bo'lsa, uning janubiy qirg'og'ida asosan ishlab chiqarish korxonalarini o'rnatshgan.

Urganchda o'zbek xalqining milliy qahramoni Jaloliddin Manguberdiga bag'ishlab bunyod etilgan balandligi 16 metrli salobatli haykal, Avesto kitobining 2700 yilligiga bag'ishlangan bog' barpo etilgan. Bu yerga jahonning turli burchaklaridan sayyoohlar keladi. 1642- yilda Xiva xoni Abulg'oziy Bahodirxon Urganchga qadimgi Ko'xna-Urganch (Gurganch) shahri aholisini ko'chirib keltirib asos solgan.



Urganch. Xalqaro aeroport.

Hozir Urganch Quyi Amudaryodagi obod shahar. Shaharda oziq-ovqat va yengil sanoatning o'nlab korxonalar joylashgan. Pillakashlik, ipak, tikuvchilik, poyabzal fabrikalari faoliyat ko'rsatmoqda. Urganchda Universitet, qurilish, bank, avtomobil, yengil sanoat kollejlari, teatr, telekompaniya va boshqa madaniy muassasalar joylashgan.

Xiva (aholisi 50 ming kishi) Yer sharidagi qadimiy shaharlardan biri. Shahar me'moriy ansamblning yaxlitligi jihatidan butun Markaziy Osiyoda yagona hisoblanadi. Xivada Ichon qal'a (Shahriston) 4 ta darvoza orqali tashqi qal'aga (Dishon qal'a) chiqiladi.

Ko'hna ark, Kalta minor, Pahlavon Mahmud maqbarasi uzunligi 6 km bo'lган Dishon qal'a kabi o'nlab obidalar sayyoohlar e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda.

Shuningdek, Xorazmda **Pitnak**, **Xazorasp**, **Gurlan**, **Xonqa** kabi shahar va shaharchalar ham mavjud. Xazoraspda „Xorazm shakar“ zavodi, Xonqada don mahsulotlari kombinati, Gurlanda to'qimachilik korxonalar ishlab turibdi, barcha tuman markazlarida paxta tozalash zavodlari bor.

Xorazm o'zining buyuk siymolari bilan jahonga mashhur. Buyuk matematik, jahonga algebra va algoritmni taqdim etgan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780-850), qomuschi olim Abu Rayhon Beruniy (973 – 1048) shular jumlasidandir. Mashhur tabib va mutafakkir Abu Ali ibn Sino ham (980 – 1037) ma'lum muddatda Xorazmda yashagan, ijod qilgan.

Xorazmda ko'plab fan, adabiyot va san'at namoyandalari ham yetishib chiqqan. „Lazgi“ xalq ansambl O'zbekiston va xorijiy mamlakatlarda mashhur. Mamun akademiyasi ham samarali ishlar olib bormoqda.



Savol va topshiriqlar

1. Xorazm viloyati geografik o'rniiga xos xususiyatlarni aytинг.
2. Xorazmda dehqonchilikning muammolari nimalardan iborat?
3. Viloyat sanoat tarmoqlarida rivojlangan sohalarni aytинг.

ATAMA VA TUSHUNCHALARING QISQACHA LUG'ATI

Aglomeratsiya — birorbir hududiy birlikning (sanoat korxonalari yoki aholi manzilgohlarining g'uj to'plangan holda joylashuvi, hududiy mujas-samlashuv va markazlashuvning bir shakli).

Agroqlimiy resurslar — qishloq xo'jaligi uchun eng zarur bo'lgan tabiiy sharoit va resurslar. Ularga eng avvalo, suv (namlik) va harorat (issiqlik) kiradi.

Agrosanoat majmuasi — qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va ularni qayta ishslash. Tor ma'noda u qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va oziq-ovqat sanoatini o'z ichiga oladi. Keng ma'noda esa agrosanoat majmui yengil va oziq-ovqat sanoati va hatto qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, saqlash, tashish, qayta ishslashni ham anglatadi. XIX asrning 30-yillarida AQSHda fermer xo'jaligida qishloq xo'jalik mahsulotlaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishni agrobiznes deb ham yuritilgan.

Aholi — bir joyda yashovchi kishilarning hududiy birligi. Shu ma'noda u jamoa tushunchasiga ham yaqin.

Aholi manzilgohlari — aholining hududiy tashkil etish shakllari. Ular shahar va qishloq aholi manzilgohlaridan (punktlaridan) iborat.

Aholi migratsiyasi — aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chib ketishi. Aslida aholi migratsiyasi kishilarning yashash joyini o'zgartirishi bilan birga sodir bo'ladi.

Aholi ro'yxati — ma'lum aniq belgilangan muddatda aholi soni, tarkibi, oilaviy ahvoli, moddiy sharoiti va boshqalar to'g'risida ma'lumotlar yig'ish. Aholi ro'yxati hisobchilarining maxsus so'rvonoma asosida bevosita anketalami to'ldirish orqali olib boriladi.

Barter — valutasiz, bevosita tovar ayrboshlashga, almashuvga kelishuv.

Bahorikor dehqonchilik yoki lalmikor dehqonchilik tabiiy namgarchilik, bahor yog'in-sochinlari yordamida sun'iy sug'orishsiz qishloq xo'jaligi ekinlarini (bug'doy, poliz va h.k.) yetishtirish. O'zbekistonda bahorikor dehqonchilik Samarqand, Qashqdaryo, Jizzax kabi viloyatlarda keng rivojlangan.

Bozor iqtisodiyoti — tovar ishlab chiqarish va uni ayrboshlashda talab va taklif munosabati, mulkchilikning turli shakllari asosida raqobat muhitining vujudga kelishi.

Valuta — qiymat ma'nosiga ega bo'lib, u mamlakatning pulga tenglashtirilgan to'lov vositalarini bildiradi. Hozirgi kunda xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan AQSH dollari, Yevropa Ittifoqining „yevro“si va boshqa milliy pul birliklari mavjud.

Voha — arid, ya'ni quruq mintaqalar, cho'llarga xos hududiy birlik. Odatda vohalar orol shaklida cho'llarning o'zlashtirilgan yam-yashil qismini ajratadi va ular hamma vaqt suv manbalari bilan bog'liq bo'ladi.

Demografiya — „demo“ — aholi, odam, aholini o'rganuvchi maxsus fan. Turli mamlakat va hududlar uchun o'ziga xos demografik vaziyat mavjud bo'lib, u aholining o'sishi, tug'ilishi va o'llimi (takror barpo etilishi) joylanishi, migratsiyasi kabilar bilan tavsiflanadi.

Dollar — AQSH va boshqa 20 ga yaqin davlatlarning milliy pul birliklari. AQSH dollari 100 sentga teng, u 1786- yilda kumush dollar shaklida muomalaga kiritilgan. Oltin, kumun dollar 1965- yildan boshlab zarb qilingan.

Ijtimoiy mehnat taqsimoti — Kishilarning ma'lum bir ish bilan mas'ul bo'lishi, muhim ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi. Ijtimoiy mehnat taqsimoti asosida kishilarning kasb-hunari, nima bilan shug'ullanishi kelib chiqadi.

Infratuzilma — „Infra“ ichki, „struktura“ — tuzilma, tuzilish; ishlab chiqarishni normal amalga oshirish, aholining yashashi uchun zarur bo'lgan shart va sharoitlar majmui. U ishlab chiqarish va ijtimoiy infrastrukturaga bo'linadi. Ishlab chiqarish infrastrukturasiga asosan elektr energiyasini uzatuvchi tarmoqlar, transport yo'llari, kanal va boshqa sug'orish inshootlari, yer usti va yerosti qurilmalari kabilar, ijtimoiy infrastrukturaga aholiga xizmat ko'rsatuvchi turli xil ob'ektlar kiradi.

Yo'ldosh shahar — shahar aglomeratsiyasidagi birlik aglomeratsiya markazi (yadrosi) atrofida joylashgan kichik yoki o'rta shahar.

Iqtisodiy-geografik o'rinni — ma'lum bir geografik ob'ektning (shahar, qishloq, tuman, viloyat, mamlakat va h.k.) o'zidan tashqarida yotgan geografik ob'ektiga (tog', daryo, chegara, kon, dengiz, yo'l va h.k.) nisbatan joylashuvi.

Mehnat birjasasi — ish qidirib yuruvchilar va ish beruvchilar o'tasidagi aloqalarni tartibga soluvchi, mehnat bozorida talab va taklifni muvofiqlash-tiruvchi maxsus davlat tashkiloti.

Mintaqaviy iqtisodiyot — mamlakat hududiy birligining (iqtisodiy rayon, viloyat) xo'jalik tizimi. U „iqtisodiy geografiya“ tushunchasiga yaqin.

Milliy iqtisodiyot — mamlakat xo'jaligi iqtisodiyotining yagona majmuasi, uning asosiy ko'rsatkichlari milliy daromad, yalpi ichki mahsulot hisoblanadi.

Monokultura — „mono“ — bitta, ya'ni asosan bir mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashish va uni jahon bozorida sotish. Odatda, monokultura yoki yakka hokimlik qishloq xo'jaligiga hos (masalan, yaqin o'tmishda Kubaning faqat shakarqamish yoki O'zbekistonning asosan paxta yetishtirishga ixtisoslashuvi).

Monopoliya — yakka (bir) hokimlik, bozor munosabatlariga zid hodisa. Binobarin, bozor iqtisodiyoti sharoitida monopoliyaga qarshi „antimonopoliya“ tadbirdari amalga oshiriladi, mulkchilik davlat tasarrufidan chiqarilib, xususiylashtiriladi, mulkchilikning turli shakllari vujudga keltiriladi va shu asosda erkin raqobat makoni shakllanadi.

Promille — mingdan bir ma'noni bildiruvchi ko'rsatkich. U prosentdan farqli o'laroq, odatda nisbatan kam uchraydigan holatlarni belgilashda, qulay yaxlit rayonlarga ega bo'lish maqsadida ishlatiladi. (dengiz suvining sho'rligi, aholining tug'ilishi va o'lishi, tabiiy ko'payishi).

Prosent — yuzdan bir ma'noni anglatuvchi nisbiy ko'rsatkich. Odatda, prosent murakkab, ko'pchilik obyekt yoki hodisalarini tahlil qilish va o'tish yoki tarkibiy holatlarini aniqlashda qo'llaniladi.

Rayon — ma'lum bir umumiyl o'xshashlikka ega bo'lgan va aynan shu jihatlari bilan qo'shni (tutash) joylardan farq qiladigan hududiy birlik. U

obyektiv borliq sifatida tabiiy va iqtisodiy geografiyada mavjud. Binobarin, bunday haqiqiy geografik tushunchani nohiya yoki tuman shaklida ishlatalish noto'g'ri.

Rekreatsiya — dam olish, charchoqni chiqarish, qayta quvvatga kuchga kirish ma'nolarini bildiradi. Rekreatsiya geografiyasi qulay sharoit bor joylarda (go'zal manzara, shifobaxsh suvlar va h.k.) rivojlanadi va u turizm bilan ham bog'liq.

Sanoat — tabiiy resurslarni qayta ishslash asosida ulardan yangi mahsulot ishlab chiqarish. Sanoatning dastlabki shakllari hunarmandchilik, manufaktura bo'lgan.

Sanoat tuguni — bir yoki bir nechta shaharlarda sanoat korxonalarining g'uj joylashuvi. Uni sanoat aglomeratsiyasi ham deyiladi. Yagona infrastruktura tizimidan foydalanish asosida katta iqtisodiy samaradorlikka (aglomeratsion yoki mujassamlashuv samaradorlikka) erishiladi.

Siyosiy geografiya — siyosiy kuchlar va markazlarning hududiy tarkibi, joylashuvi; mamlakat va uning ma'muriy-hududiy tuzilishi, poytaxti, qo'shni davlatlar bilan chegara munosabatlari, boshqa mamlakatlar bilan olib boradigan hududiy iqtisodiy va siyosiy aloqalari.

Transport tuguni — turli xil transport yo'llarining ma'lum bir „nuqtada“ (markazda) kesishgan, uchrashgan joyi. Ko'pincha transport tuguni sanoat tuguni hamda shaharlar aglomeratsiyalariga mos keladi.

Urbanizatsiya — „urban“ — shahar; jamiyat, mamlakat alohida hududlarning shaharlashuv jarayoni. U shahar aholisi salmog'ining oshishi, shahar va shahar aglomeratsiyalarining ko'pchiligi, „shaharchasiga“ yashash tarzining qishloqlarga kirib borishi, qishloq — shahar yo'nalishidagi migratsianing kuchayishida o'z aksini topadi.

Shahar — asosan qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'limgan aholining yashash manzilgohi. O'zbekistonda qishloq aholi manzilgohi shahar maqomini olish uchun kamida 7 ming axoliga ega bo'lishi va uning kamida 1/2 qismi qishloq xo'jaligi bo'limgan sohalarda mashg'ul bo'lishi shart. Shaharni tashkil etuvchi bunday mezonlar turli mamlakatlarda har xil.

Shahar aglomeratsiyasi — ma'lum bir yoki ikki yirik shahar atrofida kichik va o'rta shaharlarda, qishloq aholisi manzilgohlarining joylashuvi va ularning o'zaro aloqada rivojlanishi.

Hududiy mehnat taqsimoti — ijtimoiy mehnat taqsimotining hududiy shakli, biror bir joyning (mamlakat, mintaqa, tuman va h.k.), muayyan mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi va uni tovar sifatida ayirboshlash uchun bozorga chiqarilishi.

Ekologiya — tirik organizmlar bilan ular yashaydigan muhit o'rtasidagi aloqalarni o'rganadigan fan. U dastavval zoologiya fani doirasida hayvonot eklogiyasi shaklida vujudga kelgan. Keyinchalik o'simlik ekologiyasi, so'nggi yillarda inson ekologiyasi, ijtimoiy ekologiya tushunchalari ham paydo bo'lgan.

Etnografiya — turli xalq va elatlarning yashash sharoiti va turmush tarzini o'rganuvchi fan. U tarix va geografiya fanlari oralig'ida joylashgan.

Qo'shma korxona — xorijiy mamlakatlar (sarmoyadorlar, firmalar) yordamida qurilgan korxonalar. Ular har ikki tomonning o'zaro kelishuvi va manfaatini hisobga olgan holda barpo etiladi.

MUNDARIJA

So'zboshi	3
-----------------	---

Birinchi qism

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asoslari. O'zbekiston Respublikasining geografik o'rni, tabiiy resurslari va aholisi

Mavzu. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining predmeti va tushunchalari

1- §. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning predmeti	5
2- §. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tamoyil va tushunchalari	6

Mavzu. Geografik joylanish haqida tushuncha.

3- §. O'zbekiston dunyo xaritasida	7
--	---

Mavzu. O'zbekiston tabiiy sharoiti va resurslarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati

4- §. Tabiiy boyliklarining umumiy tavsiyi	12
5- § O'zbekiston tabiiy boyliklaridan oqilona foydalanish. Tabiatdan foydalanishning ekologik muammolari	17

Mavzu. O'zbekiston aholisi

6- §. Aholi soni, ko'payishi, zichligi	18
7- §. Aholining joylashishi va migratsiyasi	22
8- §. Mehnat resurslari	24
9- §. Aholining tarkibi	27
10- §. Aholi manzilgohlari	30

Ikkinci qism

Milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari geografiyasи

Mavzu. Respublika iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi

11- §. Xalq xo'jaligining tuzilishi va tarmoqlarining umumiy tavsiyi	34
12- §. Mehnat unumadorligi, ekstensiv va intensiv rivojlanishning o'rni, ahamiyati	36
13- §. Ishlab chiqarishning mujassamlashuvi. Ixtisoslashuv, kooperatsiya va kombinatlashuv	37

Mavzu. Yoqilg'i- energetika sanoati (YOES)

14- §. YOESning umumiy tavsiyi	40
15- §. YOES tarkibiy qismlari. Yoqilg'i sanoati	41
16- §. Elektr energetika sanoati	45

Mavzu. Metallurgiya sanoati

17- §. Metallurgiya sanoatining xalq xo'jaligida tutgan o'rni va ahamiyati	48
18- §. Qora metallurgiya	49
19- §. Rangli metallurgiya	50

Mavzu. Mashinasozlik sanoati

20- §. Mashinasozlik sanoatining ahamiyati va joylanish xususiyatlari	52
21- §. O'zbekistonda mashinasozlik sanoatining joylanishi va rivojlanish istiqbollari	55

Mavzu. Kimyo sanoati

22- §. Kimyo sanoatining asosiy xususiyatlari	59
23- §. Kimyo sanoatining asosiy tarmoqlari va markazlari	61

Mavzu. O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va selluloza-qog'oz sanoati.

24- §. O'rmon va yog'ochni qayta ishlash sanoati	63
--	----

Mavzu. Binokorlik va qurilish materiallari sanoati

25- §. Binokorlik sanoatining umumiy ta'rifি	65
26- §. Qurilish materiallari sanoati tarmoqlari, korxonalarini va ularning joylashish xususiyatlari	66

Mavzu. Yengil va oziq-ovqat sanoati

27- §. Yengil sanoatning umumiy ta'rifি	68
28- §. Yengil sanoat tarmoqlari joylashishi va yirik korxonalarini	69
29- §. Oziq-ovqat sanoatining umumiy xususiyatlari	72
30- §. Respublika oziq-ovqat sanoati tarmoqlari va mahsulotlari	74

Mavzu. Qishloq xo'jalik geografiyasi

31- §. Qishloq xo'jaligining tarkibiy qismlari, ixtisoslashuv omillari	77
32- §. Qishloq xo'jalida ekstensiv va intensiv rivojlanish	79
33- §. Respublika dehqonchiligining asosiy tarmoqlari	81
34- §. Paxtachilik va uning O'zbekiston iqtisodiyotida tutgan o'rni	83
35- §. Chorvachilik va qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari	85

Mavzu. Xizmat ko'rsatish geografiyasi

36- §. Xizmat ko'rsatish sohalari	89
37- §. Xizmat ko'rsatish tarmoqlarining joylashishi	90

Mavzu. Rekreatsiya xo'jaligi va turizm.

38- §. Rekreatsiya resurslari va ulardan foydalanish	92
39- §. O'zbekiston rekreatsiya rayonlarining tafsifi	94

Mavzu. Transport va xalqaro iqtisodiy aloqalar geografiyasi

40- §. Transport turlari va xususiyatlari	97
41- §. Transport turlari geografiyasi	99
42- §. Xalqaro iqtisodiy aloqalar	104

Uchinchi qism

Iqtisodiy rayonlar tavsifi

Mavzu. Iqtisodiy rayonlashtirish asoslari

43- §. Iqtisodiy rayonlashtirish prinsiplari. Geografik mehnat taqsimoti	107
44- §. Hududiy ishlab chiqarish majmualari va iqtisodiy rayonlarga ta'rif berish tartibi	110

Mavzu. Toshkent iqtisodiy rayoni	
45- §. Rayonning umumiy ta'rifi	112
46- §. Iqtisodiy rayon xo'jaligi	114
47- §. Qishloq xo'jaligi. Transport. Atrof-muhitni muhofaza qilish	117
48- §. Toshkent viloyati	117
49- §. Toshkent shahri	119
Mavzu. Mirzacho'l iqtisodiy rayoni	
50- §. Rayonning umumiy ta'rifi	120
51- §. Jizzax viloyati	122
52- §. Sirdaryo viloyati	124
Mavzu. Farg'onha iqtisodiy rayoni	
53- §. Iqtisodiy rayonning umumiy ta'rifi	127
54- §. Andijon viloyati	128
55- §. Farg'ona viloyati	131
56- §. Namangan viloyati	134
Mavzu. Zarafshon iqtisodiy rayoni	
57- §. Rayonning umumiy ta'rifi	137
58- §. Samarqand viloyati	139
59- §. Buxoro viloyati	143
60- §. Navoiy viloyati	146
Mavzu. Janubiy iqtisodiy rayon	
61- §. Rayonning umumiy ta'rifi	149
62- §. Surxondaryo viloyati	150
63- §. Qashqadaryo viloyati	155
Mavzu. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni	
64- §. Rayonnining umumiy ta'rifi	158
65- §. Qoraqalpog'iston Respublikasi	159
66- §. Xorazm viloyati	164
Atama va tushunchalarining qisqacha lug'ati	169

• • •

ABDUSAMI SOLIYEV.

RUSTAM QURBONNIYOZOV

**O'ZBEKISTON IQTISODIY VA IJTIMOIY
GEOGRAFIYASI — 8**

**Umumta'lim maktablarining 8- sinf
o'quvchilari uchun darslik**

Toshkent „O'qituvchi“ 2004

• • •

Tahririyat mudiri *S. Mirzaxo'jayev*

Muharrir *R. Mirxoliqov*

Badiiy muharrir *M. Kalinin*

Texnik muharrir *T. Greshnikova*

Kompyuterda sahisalovchi *D. Mannonova*

Musahhih *D. Umarova*

IB № 8158

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 01.08.03. Bichimi 70x100 1/16. Kegli 11,10 shponli. Tayms garn. Ofset bosma usulida bosildi. Bosma t. 11,0. Shartli b.t. 14,19. Nashr t. 12,0. 60000 nusxada bosildi. Buyurtma №2232. Bahosi 1079 so'm.

„O'qituvchi“ nashriyoti. Toshkent, 129. Navoiy ko'chasi, 30. Sharhnomma № 07—120—02.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Toshkent poligrafiya kombinati. Toshkent, 129. Navoiy ko'chasi, 30. 2004.

РАССЫЛКА

65.04(5U)

C70

Soliyev A., Qurban niyozov R. O'zbekiston iqtisodiy va
ijtimoiy geografiyasi: 8- sinf uchun darslik. — T.:
„O'qituvchi“, 2004. — 176 b.

1. Muallifdosh.

BBK 65.04(5U)ya 721